

Lot 42 112 4043

M.T.Isag'aliyev,
S.Meliboyev,
Z.J.Isomiddinov,
M.V.Obidov

DORIVOR O'SIMLIKLAR BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI



Lot. 42 143 ya 73
27.08.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

M.T.Isag'aliyev, S.Meliboyev, Z.J.Isomiddinov, M.V.Obidov

127x5/33

DORIVOR O'SIMLIKLAR BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtal maxsus ta'limg vazirligi tomonidan o'quv
qo'llanma sifatida tavsya etilgan.

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MAKKAZI
QABUL QILISH YODISH VA
KATALOGLASH BO'LMASI

Farg'ona-2021

UO'K: 66.074.1/2

KBK: 30.605ya73

I 95

M.T.Isag'aliyev, S.Meliboyev, Z.J.Isomiddinov, M.V.Obidov

Dorivor o'simliklar biologiyasi va ekologiyasi / "Classic"-2021/ 346 b.

Mazkur o'quv qo'llanmada cho'l,adir,tog' mintaqalarida hamda to'qay va yaylovlarda uchraydigan mahalliy dorivor o'simliklarning biologiyasi va ekologiyasi, sistematikasi, shifobaxshlik xususiyatlari va ularning inson salomatligini saqlashdagi ahamiyatini yoritishga e'tibor qaratilgan. O'quv qo'llanmani tayyorlashda, dorivor o'simliklarni o'r ganilishi bo'yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarning natijalari, ishlab chiqarish tajribalari va dorivor o'simliklardan foydalananish bo'yicha boshqa ilmiy tarixiy manbalar hamda internet ma'lumotlaridan keng foydalilanigan.

5411100-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nali shida tahsil oluvchi bakalavriat talabalar uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan, shuningdek, soha mutaxassislari ham foydalani shlari mumkin.

В учебном пособие рассматриваются биология и экология, систематика, лечебные свойства местных лекарственных растений, встречающихся в пустынях, адырах, горах, а также тугайных и пастбищах, и их значение для здоровья человека. При подготовке учебной пособии использованы результаты научно-практических организаций по изучению лекарственных растений, а также экспериментальные производственные материалы и исторические данные по использованию лекарственных растений, также широко использованы инернетные данные.

Рекомендуется в качестве учебного пособия для студентов бакалавриата специализирующихся на 5411100-Технологии выращивания и обработка лекарственных растений, также могут быть использованы специалистами в этой отрасли.

In this textbook it is covered the biology and ecology, systematics, and medicinal properties of native medicinal plants found in deserts, hills, mountains, and tugai and pastures. In addition, special attention is paid to highlighting their importance in human health. In the preparation of the textbook, the results of scientific and practical research on the study of medicinal plants, production experiments and other scientific historical sources and information on the use of medicinal plants were widely used.

5411100-Medicinal plant cultivation and processing technology is recommended as a study guide for university students studying in the field of education, and can also be used by professionals in the field.

Taqrizchilar:

G'.Hamidov – Farg'onadavlat universiteti Botanika kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori.

V.Y.Isaqov – Qo'qon davlat pedagogika instituti Geografiya IBA kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 18

avgustdag'i 356-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etildi.

(Ro'yxatga olish raqami 356/7-002)

SO'Z BOSHI

O'simliklar dunyosi tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Yer yuzidagi hayotning davomiyligini o'simliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'langan, chunki ular insonni to'ydirgan, kiyintirgan, davolagan, qurilish, dorivor va texnik xom-ashyo manbai bo'lib xizmat qilgan.

O'simliklar – bu qayta tiklash mumkin bo'lgan tabiiy resurs hisoblanib, yer shari geografik qobig'ida muhim rol o'ynaydi. Jumladan, tuproq unumdorligini oshirishda, atmosferani toza saqlashda, daryolarning gidrologik rejimini tartibga solib turishda, inson va hayvonot dunyosi uchun ozuqa moddalar yetkazib berishda va inson hayoti uchun normal gigienik sharoit yaratishda va boshqalarda muhim vazifani bajaradi.

Mamlakatimiz va uning atrofi o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, xilmal-xil landshaftlarning mavjudligi bilan farqlanadi. Ushbu tabiiy omil – ekologik shart-sharoitlar mintaqada boy flora va faunaning shakllanishiga asos bo'lgan. Bizga ma'lumki, mamlakatimiz tabiatini turlituman dorivor daraxt-butaga va o't o'simliklariga boyligi bilan ajralib turadi. Ilg'or ilmiy uslublar va zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilayotgan monitoring tadqiqotlari o'simliklar taksonomik tarkibining barqaror saqlanishidan tortib, mahalliy populyatsiyalarda ro'y berayotgan jarayonlar, ularning tabiiy yoki antropogen omillar bilan bog'liqligini kuzatish va u asosida zarur ilmiy va amaliy chora-tadbirlarni belgilashdan iborat bo'lib kelmoqda.

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o'simliklarning 750 turi dorivor hisoblanib, bioxilma-xillik bo'yicha O'zbekiston Respublikasi florasi dunyoda yetakchi o'rnlarni egallaydi. Respublikada 112 turdag'i dorivor o'simliklar tibbiyotda foydalanish uchun ro'yxatga olingan bo'lib ularning 80 % ni tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi. 70 turdag'i dorivor o'simliklar esa farmatsevtika sanoatida faol qo'llanib kelinmoqda.

Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida ming yillardan buyon istiqomat qilib kelayotgan xalq va elatlar qatori o'zbek xalqi tilida ham o'simliklar

nomi turlicha atalib kelingan. Shuningdek fors va arab tillarida ham o'simlik nomlari mavjud bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra Turon zaminida uchraydigan o'simliklarning nomi dastlab zardushtiylarning "Avesto" kitobida tilga olingan. Keyinchalik Ar-Roziy, Ibn-Sino, Beruniy, Yusufiy kabi allomalar va hakimlar kitobida fors va arab tillarida va qisman mahalliy tilda bayon etilgan. Bu nomlar keyinchalik o'simliklarni ilmiy nomlanishida o'z ifodasini topgan.

XVIII asr o'rtalarida shved olimi Karl Linney (1707-1778) tomonidan o'simliklarning ilmiy nomlari (turkum va tur) lotin tilida tartibga solinib, bu binar (qo'sh) nomlar hozirga qadar dunyo olimlari tomonidan qo'llanib kelinmoqda.

Bugungi kunda ham o'simliklarning nomi mahalliy shevalarda turlicha nomlangan. Jumladan: vodiyya "qalampir" Toshkent vohasida "garimdori" deb yuritiladi. Farg'ona vodiysida "isiriq" so'zi Samarqand va Buxoroda "adraspan" deyiladi. Ana shunday o'simliklardagi turlitumanlik mazkur qo'llanmada umumiy bir nom bilan lotin tilida keltirilgan.

Kitobxonlarga taqdim etilayotgan mazkur qo'llanmada o'simliklar nomi mahalliy nomi bilan ham sinonim sifatida ko'rsatildi. Shuningdek, rus tilida ham sinonim so'zlar qavs ichida berildi.

Masalan, Аир (акарус), Талхак толстоплодний (горчак) ko'rinishlarida ifodalanadi. Ko'pgina o'simliklarning turkum va tur nomlari lotinchcha holida qoldirildi. Chunki, ular rus tilida ham shunday qoldirilgan. Ularning o'zbekcha nomi manbalarda uchramadi. O'simliklar nomini o'zbekchalashtirishda ko'proq ularning ruscha nomlari e'tiborga olindi. Masalan, "Горсвет золотистий" o'zbek tilida "tillarang adonis" yoki "Полин однолетняя" – "Bir yillik shuvoq" deb berildi. O'simliklarga o'zbekcha nom berishda (adabiyotlar ro'yxatiga qaralsin) ko'plab olimlarimizning ishlaridan foydalanishga harakat qilindi.

Mazkur qo'llanmani tuzishda asosiy manba sifatida "O'zbekiston florasi" kitobining 1-6 jildlaridan foydalanildi.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, ayniqsa, O'zbekistonda farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish to'g'risidagi farmon e'lom qilinganidan so'ng, maxsus issiqxonalarda turli tropik va subtropik shifobaxsh o'simliklar yetishtirila boshlandi. Natijada arzon va sifatli dorivor o'simliklar xalqimiz ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda.

Qo'llanmada har bir o'simlikning nomi o'zbekcha-ruscha-lotincha berildi. Ularning sistematikasi, qisqacha biologiyasi, ya'ni morfologik ta'rifi, urug'lash va gullash davri hamda ekologiyasi haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, mazkur o'simlikdan qanday xastaliklar uchun foydalansh mumkin ekanligi ta'kidlab o'tildi. Hozirgacha mavjud adabiyotlarga ko'proq O'rta Osiyo va uning atrofidagi hududlarning o'simliklari kiritilgan, biz imkon qadar O'zbekiston xududidan tashqaridagi dorivor o'simliklarni kiritmadik. Shuning uchun ham ayrim o'simliklar bu asarda uchramaydi.

Qo'llanmaning hajmidan kelib chiqib, hozirda O'zbekistonda iqlimlashtirilib o'stirilayotgan bir necha o'nlab shifobaxsh o'simliklar, jumladan, limon, mandarin, papaya, noni, kivi, chupa, kalonxoy, aloe, zaytun, guanabana, momordika kabi o'simliklar aynan "O'zbekiston florasi" ning 1-6 tomlarida yo'qligi uchun kitobga kiritilmadi.

O'zbekiston dorivor o'simliklarining umumiyligi ro'yxati va o'zbekcha nomlanishi bиринчи bor kiritilayotgani uchun unda qamrab olinmagani o'simliklar bo'lishi ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari, har yili O'zbekiston florasining kimyoviy, farmakalogik jihatlarini o'rganish jarayonida yangi dorivor o'simliklar turlari qo'shilib boraveradi.

O'zbekiston tabiiy boyliklaridan biri bo'lgan shifobaxsh o'simliklarni asrash va ko'paytirish, uning zaxiralalariga zarar yetkazmaslik har birimizning fuqarolik burchimizdir.

Kitobxonlarga taqdim etilayotgan mazkur o'quv qo'llanma O'zbekistonning barcha dorivor o'simliklarini qamrab ololmagani bo'lsada, kamtarona xizmati bilan shu sohada ma'lumot olmoqchi bo'lgan tаддиқотчилар, talabalarga xizmat qilsa, mualliflar o'z maqsadlariga erishdik, deb hisoblaydilar. Shuningdek, kitob yuzasidan ko'rsatilgan kamchilik va takliflarni mammuniyat bilan qabul qiladilar.

Dala qirqbo‘g‘imi-Хвош полевой-*Equisetum arvense* L.



Qirqbo‘g‘imdoshlari – *Equisetaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t, ildizpoyasi qoramtil, shoxlangan, ayrim hollarda qora tugunaklar hosil qiladi. Poyasi 10-50 sm balandlikda, spora hosil qiluvchi poyalar shoxlanmaydi, qolgan vegetativ poyalari bo‘g‘inlaridan mutovkali (halqali) shoxlanadi. Sporalari ikki boshoqli.

Mart-may oylarida sporalari yetiladi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Damlamasi bilan qaynatmasi qon aylanishi izdan chiqqanida, qovuq yallig‘lanishida va siyidik yo‘llarining boshqa kasalliklarida siyidik haydovchi vosita hamda o‘pka sili kasalligining ba’zi turlarini davolash uchun qo‘llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi.

Shoxdor qirqbo‘g‘im-Хвош ветвистый-*Equisetum ramosissimum*

Desf.



Qirqbo‘g‘imdoshlari – *Equisetaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, ildizpoyasi shoxlangan, sporali va vegetativ poyalari bir xil shoxlangan bo‘lib, balandligi 50-100 sm. May-iyulda sporalar hosil qiladi. Tekisliklarda, tog‘ning o‘rtalari mintaqalaridagi zax joylarda, ariq va soylar bo‘yida o‘sadi.

Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida tarqalgan. Damlamasi bilan qaynatmasi qon aylanishi izdan chiqqanda, qovuq yallig‘lanishida va siyidik yo‘llarining boshqa kasalliklarida siyidik haydovchi vosita hamda o‘pka sili kasalligining ba’zi turlarini davolash uchun qo‘llaniladi. Yer ustki qismi Zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi.

Erkak paparotnik-Щитовник мужской-*Dryopteris filix mas* (L.)

Schott.



Aspidiyadoshlar – *Aspidiaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. Ildizpoyasi yo‘g‘on, qisqa bo‘lib, barglar qoldig‘i bilan o‘ralgan. Bargini plastinkasi 20-30 sm uzunlikda. Sporalari iyul-avgust oylarida yetiladi. Tog‘larning soya, nam joylarida uchraydi. Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan. Tibbiyotda ildizpoyasi ishlatiladi. Tarkibida xom filitsin, sof holda floroglyusidlar (filine kislota), efir moyi, flavonoidlar, yog‘, oshlovchi moddalar bor. Quyuq ekstrakti va filiksan preparatlari tasmasimon gijjalarni organizmdan haydash uchun ichiladi.

Dorivor seterax-Скребница аптечная (Цетерах)-*Ceterach officinarum* Willd.




Taloqdoridoshlar

Aspleniaceae oilasiga mansub ko‘p yillik, ildizpoyasi yog‘ochlangan, balandligi 5-20 cm qishlovchi poyasi nashtarsimon, zanjirsimon qobiqlar bilan o‘ralgan, barglari och qizil bandli yaprog‘idan kalta. Sporalari ovalsimon, buyraksimon. Sporalar iyul-avgust oylarida yetiladi. Tog‘larning yaylov qismigacha bo‘lgan balandliklarida,

qoyalarning yoriqlarida va quyosh nuridan himoyalangan joylarda o‘sadi. Farg‘ona viloyatida (Shoximardonda) tarqalgan. Xalq tabobatida qadimdan taloq, buyrak xastaliklarini davolashda ishlatiladi.


Sochtolasimon taloqdori (toshsumbul)-Костенец волосовидный- *Asplenium trichomanes L.*



Taloqdoridoshlar – *Aspleniaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizpoyasi qalin yog‘ochlangan, ovalsimon yoki gullari tuxumsimon, balandligi 5-25 sm barglari qirqilgan, navbatlashib joylashgan, sporangiylari uzunchoq sporalar qo‘ng‘ir notekis to‘plangan. Iyun-avgust oylarida sporalar hosil qiladi va yetiladi. Tog‘larning o‘rtal mintaqalaridagi

qoyalar soyasida va yoriqlarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan. Ushbu o‘simlikdan tayyorlangan damlamalar nafas yo‘llari va balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida foydalanilgan. Ildiz va yer ustki qismining damlamasidan soch va tuklar to‘kilishini to‘xtatish uchun foydalaniladi.


Toshsumbul (taloqdori)-Костенец рута постенная-*Asplenium ruta-muraria L.*



Taloqdoridoshlar – *Aspleniaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildiz poyasi qisqa, qalin yog‘ochlangan, barglarining umumiy uzunligi 1-10 sm, umumiy ko‘rinishi uchburchaksimon, kurtaklari yer ostida joylashadi. Sporangisi uzunchoq, sporalar yirik sharsimon burishgan. Iyun-avgust oylarida yetiladi. Tog‘larni o‘rtal mintaqasidagi qoyalar yoriqlarida, daraxtlar ostidagi toshlar orasida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarkand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Xalq tabobatida yo‘talga qarshi balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarda ildizining

qaynatmasidan soch to‘kilishini to‘xtatish uchun qo‘llaniladi.

Vinera sochi (fotma sochi)-Адиантум венерин волос-*Adianthum capillus veneris* L.



Suvsumbuldoshlar – *Adianthaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizpoyasi keng tarqaluvchi, barg plastinkasi keng nashtarsimon, ikki-uch marotaba mayda qirqilgan, barg tutqichlari va ularning asosi qoramtil-qo‘ng‘ir, qirqimlari soch tolasiga o‘xshash mayin. Sporalar hosil qilishi iyun-avgust. Tog‘li hududlarda qoyalarning soya joylarda, quyosh tushmaydigan joylarda, tog‘larning old va o‘rta mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida uchraydi. Oshqozon shira faoliyati bezlari susayganda, uni tiklash uchun qo‘llaniladi.

Ikki boshoqli oddiy qizilcha (zog‘aza)-Хвойник двухколосковый-*Ephedra distachya* L.



Qizilchadoshlar – *Ephedraceae* oilasiga mansub chala buta o‘simlik, bo‘yi 20 sm. Ildizi uzun. Urg‘ochi boshoqlari bittadan yoki to‘p bo‘lib joylashadi. Uzun bandli, mevasi sharsimon, 6-7 mm uzunlikda, etli, qizil. May-iyun oyalarida gullab, iyun-iyulda yetiladi. Mayda qum toshli yoki mayda shag‘alli yerlarda, cho‘l zonasida uchraydi. Qoraqalpog‘istonda (Ustyurtda) tarqalgan. Qizilcha turlarining yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar (efedrin, psevdoefedrin), fenol kislotalar, vitamin C, bo‘yoq, oshlovchi moddalar bor. Tog‘ va cho‘l qizilchasidan efedrin alkaloidi olinadi. Efedrin gidroxlorid og‘ir operatsiya yoki shikastlanishlardan so‘ng ko‘p qon yo‘qotish natijasida xushdan ketish, qon bosimi pasayganda (gipotoniya), miasteniya, allergik, bronxial astma, pichan isitmasi (pichan astmasi), eshakyemi toshganda, o‘tkir tumov kasalliklarida hamda narkotik va uxlatuvchi dorilar bilan zaharlangan

hollarda qo'llaniladi. Oddiy qizilcha damlamasi bod, shamollash kasalliklarini davolashda ishlataladi.

Qirqbo'g'imsimon qizilcha-Хвойник хвощевый-*Ephedra equisetina* Bunge.



Qizilchadoshlar – *Ephedraceae* oиласига мансуб кичик бутасимон о'sимлик, бо'yi 1,5 m bo'lib, пойлари yo'g'onlashgan, новдалари майда qirralarga ega, bo'g'imlari 2 smgacha. Bargi qaramaqarshi joylashgan, tangachasimon, uch burchaksimon. Mevalari 6-7 mm sharsimon, etli, qizil. Iyunda gullab, mevasi iyulda yetiladi. Tog'larni oldidagi qirlarda,

daraxt va butalar орасида uchraydi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Tog' va cho'l qizilchasiдан efedrin alkaloidi olinadi. Efedrin gidroxlorid og'ir operatsiya yoki shikastlanishlardan so'ng ko'p qon yo'qotish natijasida xushdan ketish, qon bosimi pasayganda (gipotoniya), miasteniya, allergik, bronxial asthma, pichan isitmasi (pichan astmasi), eshakyemi toshganda, o'tkir tumov kasalliklarda hamda narkotik va uxlatuvchi dorilar bilan zaharlangan hollarda qo'llaniladi.

Cho'l qizilchasi-Хвойник средний-*Ephedra intermedia* Sehrenk. et C.A.Mey.



Qizilchadoshlar – *Ephedraceae* oиласига мансуб bo'yi 1 m bo'lgan kichik buta, sershox, shoxchalarining bo'g'imlari 5 sm uzunlikda bo'lib, yo'g'onligi 2-3 mm ni tashkil yetadi. Barglari odatda 2 tadan, ayrim hollarda 3-4 ta tangachasimon, uchburchak, 3,5 mm uzunlikda. Mevasi sharsimon 6 mm uzunlikda, etli, qizil. Iyunda gullab, mevalari iyulda yetiladi. Tog'ning pastki

mintaqalarida toshli, tosh-shag'alli yerlarda uchraydi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Qizilcha turlarining yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar (efedrin, psevdofedrin), fenol kislotalar, vitamin C, bo‘yoq, oshlovchi moddalar bor. Tog‘ va cho‘l qizilchasidan efedrin alkaloidi olinadi. Bronxial astma, pichan isitmasi (pichan astmasi), eshakyem toshganda, o‘tkir tumov kasalliklarida hamda narkotik va uxlatuvchi dorilar bilan zaharlangan hollarda qo‘llaniladi. Oddiy qizilcha damlamasi bod, shamollash kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Oddiy qoraqarag‘ay-Ель обыкновенная-*Pisea abies* (L.) Karst.




Qarag‘aydoshlar – *Pinaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, 30-50 m balandlikdagi daraxt. Poyasi qo‘ng‘ir qizil, plyonkasimon qobiq bilan o‘ralgan. Barglari 13-25 mm uzunlikda, o‘troq, uchli. Erkak gullari 20-27 mm uzunlikda bo‘lib, o‘tgan yilgi novdalarda hosil bo‘ladi. Urg‘ochi (gullar) g‘uddalar o‘tgan yilgi novdalarning ustki qismida joylashadi va 10-16 sm uzunlikda.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida bog‘lar, yo‘l yoqalariga ekiladi. Kurtak va g‘uddasi ishlatiladi. Kurtak va g‘uddasi mikroblarga qarshi, spazmalistik ta’sir qilish xususiyatiga ega. Barglarining damlamasi terlatuvchi, siyidik va o‘t haydovchi xususiyatga ega.

Virgin archasi-Можжевельник виргинский-*Juniperus virginiana*.

L.



Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, ikki uyli daraxt bo‘lib, balandligi 30 m, shoxlari piramidasimon. Bargining uzunligi 1,5 mm. G‘udda mevasi sharsimon, 6 mm uzunlikda.

Asosan istirohat bog‘larida, katta yo‘llar atrofida ekiladi. Poyasining tez o‘sishi bilan boshqa turlardan farqlanadi. Yog‘ochi yumshoq bo‘lganligi uchun qalam ishlab chiqarishda asosiy xom-ashyo bo‘ladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta’siriga ega bo‘lib, trixomonad kolpitini davolashda ishlatiladi.

Mevasi Zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi. Bargi tarkibida efir moyi

terpyonoidlardan tashkil topgan, qandlar, vitamin C, bo‘yoq moddalar bor.


G‘arb tuyasi-Туя западная-*Thuja occidentalis L.*



Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, doim yashil daraxt. Barglari mayda tangachasimon bo‘lib, to‘q yashil, tuxumsimon 2-5 mm uzunlikda. Yosh novdadagi barglarining uchlari tikansimon. G‘uddasi bir yilda yetiladi, uzunligi 10-15 mm. Istirohat bog‘larida, ko‘pchilik xonadonlarda ekiladigan manzarali o‘simlik.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi. Barglari qon ketishini to‘xtatuvchi, bronxial astmani davolashda, urug‘lari quvvatlantiruvchi, yo‘talga qarshi vosita sifatida qo‘llaniladi.


Hamisha yashil sarv-Кипарис вечнозеленый-*Cupressus sempervirens L.*



Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oиласига mansub buta va kichik daraxt bo‘lib, umumiy ko‘rinishi piramidasimon.

Barglari 1-1,5 mm uzunlikda bo‘lib, poyasiga kirib joylashadi. G‘uddalari sharsimon-tuxumsimon bo‘lib, uzunligi 20-30 mm. Toshkentda, Samarqandda ekib o‘stirilgan. G‘uddalaridan tayyorlangan qaynatmasi gemoroy (bavosil) va shamollashga qarshi ishlataladi.

Qora archa (Zarafshon archasi)-Можжевельник зеравшанский-*Juniperus zeravschanica Kom.*



Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ikki uyli daraxt bo‘lib, balandligi 20 m, poyasi qizil bo‘lib, po‘sti plyonkasimon. Barglari tuxumsimon uzunchoqroq, uchli. G‘udda mevasi 9-12 mm uzunlikda bo‘lib, qisqa bandli. Urug‘lari yashil, pishib yetilganda qo‘ng‘ir rangda bo‘ladi. Tog‘larning 1000-2500

m bo'lgan balandliklarda, toshli, shag'alli tuproqlarda o'sadi. Ayrim joylarda o'rmonlar tashkil qiladi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. G'uddasidan tayyorlangan qaynatmasiga asal qo'shib teri va suyak chirishiga, teridagi yaralarga qarshi ishlatiladi. Revmatizm, bosh og'rig'i, buyrak, buyrakdagi toshlarga, siydik qopchig'i, jigar, oshqozon xastaligi, siydik haydovchi, tuberkulyozlarga qarshi qo'llaniladi.

Saur archa-Можжевельник полушаровидный-*Juniperus semiglobosa* Regel.



Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, ikki uyli 10 m balandlikdagi daraxt, barglari uchli rombiksimon novdaga yopishgan, to'q yashil yoki och yashil, 1-1,5 mm uzunlikda. Urug'lari 5 mm uzunlikda bo'lib, yon qismida egatchalari bor.

Tog'larning 1500-2700 m balandliklarida toshli, qumli qismlarida boshqa tur archalar va daraxt, butalar bilan o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryoda viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevasi – qubbasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, qandlar, organik kislotalar, smola, bo'yoq, pektin moddalar bor. Efir moyi pinenlar, kamfen, sabinen birikmalardan tashkil topgan. Qubbasidan tayyorlangan dori preparatlari va damlamasi siydik haydovchi, siydik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Efir moyining spirtdagi eritmasi va surtmasi bod kasalligida teriga surtiladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'siriga ega bo'lib, trixomonad kolpitini davolashda ishlatiladi. Mevasi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Bargi tarkibida efir moyi terpenoidlardan tashkil topgan, qandlar, vitamin C, bo'yoq, oshlovchi moddalar bor. Efir moyi sedrol qismining kanakunjut moyidagi 5% li eritmasi va surtmasi yiringli, uzoq bitmaydigan yaralarni, jarohatlarni hamda suyakning oqma yaralarini davolashda qo'llaniladi.

O'rik archa (Turkiston archasi)-Можжевельник туркестанский- *Juniperus turkestanica* Kom.



Sarvdoshlar - *Cupressaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, ikki uyli, 18 m balandlikdagi daraxt. Barglari 2 mm uzunlikda, tuxumsimon uchli, g'uddalari 10-15 mm uzunlikda, shirinroq, mazali sharsimon, ayrim hollarda tuxumsimon, qoramitir kulrang dog'lari bor. Tog'larning 2000-3000 m balandliklarida shag'alli va mayda toshli joylarida daraxt va butalar bilan qoplangan qismalaridan subalp

mintaqalarigacha bo'lgan joylarda uchraydi. Asosan Pomir-Oloy, Tyan-Shan, Djung'or tizmalarida o'sadi.

Tibbiyotda mevasi, qubbasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, qandlar, organik kislotalar, smola, bo'yoq, pektin moddalari bor. Efir moyi pinenlar, kamfen, sabinen birikmalardan tashkil topgan. Qubbasing dori preparatlari damlamasi, choylar yig'malar tarkibida siyidik haydovchi, siyidik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Efir moyining spirtdagi eritmasi va surtmasi bod kasalligida teriga surtiladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta'siriga ega bo'lib, trixomonad kolpitini davolashda ishlatiladi. Mevasi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Bargi tarkibida efir moyi terpyonoidlardan tashkil topgan, qandlar, vitamin C, bo'yoq, oshlovchi moddalar bor.

Efir moyi sedrol qismining kanakunjut moyidagi 5% li eritmasi va surtmasi yiringli, uzoq bitmaydigan yaralarini, jarohatlarni hamda suyakning oqma yaralarini davolashda qo'llaniladi. Sedral bakteriyalarini o'sishdan to'xtatish va yaralarini bitirish xususiyatiga ega.

Sharq sauri-Биота восточная-Biota orientalis (L.) Endl.




Sarvdoshlar – *Cupressaceae* oиласига mansub balandligi 3 m gacha bo‘lgan buta va kichik doim yashil daraxtlardir. Barglari to‘q yashil ignasimon. Qubbalar ikinchi yilda yetiladi. Qadimdan manzarali daraxt sifatida ekiladi. Ularga shakl berish uchun qirqishga chidamli. O‘zbekiston shahar va tuman bog‘larida, istirohat bog‘larida ekiladi.

Tibbiyotda mevasi – qubbasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, qandlar, organik kislotalar, smola, bo‘yoq, pektin moddalar bor. Efir moyi pinenlar, kamfen, sabinen va birikmalardan tashkil topgan.

Qubbasingning dori preparatlari damlamasi, choylar yig‘malar tarkibida siyidik haydovchi, siyidik yo‘llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg‘am ko‘chiruvchi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Efir moyining spirtdagi eritmasi va surtmasi bod kasalligida teriga surtiladi. Archa bargidan olingan efir moyi fitonsid ta’siriga ega bo‘lib, trixomonad kolpitini davolashda ishlatiladi. Mevasi Zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi.

Mevali zarnob-Тис ягодный (негной-дерево)-*Taxus baccata* L.



Zarnabdoshlar – *Taxaceae* oиласига mansub ko‘p yillik daraxt, bargi 1,5-3,5 sm uzunlikda, eni 1,5-3 mm. Bahorgi urug‘lari kuzga borib yetiladi, mevalari etli, qizil, bakalsimon. Ayrim hollarda Toshkent, Samarqand shahrida ekiladi.

Suvdaggi qaynatmasi yurak xastaliklarida, oshqozon ish faoliyatini tiklashda, revmatizm xastaliklarida qo‘llaniladi.

Sariq nilufar-Кубышка желтая-*Nuphar luteum* (L.) Smith.



Nilufardoshlar – *Nymphaeaceae* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, сувлидек о‘сувчи о‘т о‘симлик. Сув ости barglari qisqa bandli, chetlari to‘lqinli, suzuvchi bargli uzun, uch qirrali bandli, yaprog‘i yuraksimon, ovalsimon. Guli to‘q sariq, hidli, kosachasi sariq, tashqi tomonidan ostki qismi yashil, 2,8-3 sm uzunlikda va eni 2,2-2,5 sm. Tojbargi bir-biri bilan teng emas, 1-1,2 sm uzunlikda va eni 6-9 mm.

Teskari tuxumsimon, changchisi 1,3-1,5 sm uzunlikda. Tuguni ko‘zasimon. Urug‘i tekkis, tuxumsimon. Bog‘larda va umumiy dam olish joylaridagi hovuzlarda ekiladi.

Oshqozon ichak xastaliklari, siydiq tutilishida, jinsiy organlar faoliyati buzilganda, teri xastaliklarida, nafas yo‘llaridagi xastaliklarda qo‘llaniladi.

Tiniq oq botqoqgul-Кувшинка чистобелая-*Numphaea candida*

Presl. (alba) L.



Nilufardoshlar – *Nymphaeaceae* ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Barglari yuraksimon, 12-30 sm uzunlikda va eni 10-25 sm. Gullari tiniq oq rangli, hidsiz, gultojisi 3,5-5,5 sm uzunlikda va eni 1,5-2 sm. May-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Bog‘larda, suv havzalarida ekiladi. Amudaryo chekkasida uchraydi.

Ildiz poyasi va gulining qaynatmasi surgi dori sifatida, uyqusizlikda, ichburug‘da, siydiq haydovchi, sariq, buyrak xastaligida, ichaklardagi infeksiyalarga qarshi qo‘llaniladi.

Albert yer sovuni- Леонтица Альберта-*Leontice alberti Regel.*



Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oиласига mansub ko‘п yillik tukanakli o‘simlik, tukanaklarini eni 2-2,5 sm uzunroq sharsimon, poyasi bitta ayrim hollarda bir nechta bo‘lib, 10-30 sm balandlikda. Barglari uch bora qirqilgan, uzun bandli. Gullari poya ichidagi shingillarda joylashgan. Gulqo‘rg‘oni och binafsha rangda va oxirgi qismi yashil. Gul kosasi

sariq, guli qizil qo‘ng‘ir tomirlanishga ega. Mevasi tuxumsimon etli. Urug‘lari yetilganda ochilib ketadi. Gullah va urug‘lanishi dengiz satidan nisbiy balandliklarga qarab apreldan-avgustgacha davom etadi.

Tog‘larning pastki va o‘rta mintaqalarida, toshli, mayda shag‘alli tuproqlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, flavonoidlar, qandlar, shilliq, oshlovchi moddalar bor. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida jigar, buyrak tosh, nafas qisish, o‘pka sili va tutqanoq kasaliklarini davolashda hamda o‘t va siydiq haydovchi, og‘riq qoldiruvchi va surgi dori sifatida qo‘llaniladi. Damlamasi bilan turli yiringli yaralar yuviladi. Uning shu xususiyatidan kelib chiqib ilmiy tibbiyotda mana shu damlamasidan buyrak, siydiq yo‘llari va qovuqdagi qum, toshlarni tushirishda foydalilmoqda.

Oddiy zirk (Qoraqat)-Барбарис обыкновенный-*Berberis vulgaris L.*



Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oиласига mansub ko‘п yillik, uncha baland bo‘limgan (2 m) buta. Barglari etli, qisqa bandli, teskari tuxumsimon-ovalsimon yoki teskari tuxumsimon-nashtarsimon, chetlari kipriksimon tishchali, 2-5 sm uzunlikda va eni 1-2,5 sm. Gullari shingillari tik turuvchi va siyrak gulli. Mevalari uzunchoq, ellipssimon,

to'q qizil.

Bog'lar va ko'kalamzorlashtirish maydonlarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi. Barg va ildizlaridan tayyorlangan damlamalari surunkali gepatit, gepatoxoletsistit, o't xastaligini tosh kasalligida qo'llaniladi.

Tanga bargli zirk (Qoraqat)-Барбарис монетный-*Berberis nummularia* Bunge.



Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oиласига mansub ko'p yillik dorivor o'simlik. Ko'p poyali, balandligi 4 m ga yetadigan buta. Tikanlari uch tishli. Barglari etli bo'lib, dumaloq tuxumsimon, 3-4 sm uzunlikda, eni 3 sm tekis chetli bo'lib, ayrimlarida mayda tishchalar bo'ladi. Shingilda gullar soni 20 tadan ortiqroq. Mevalari sharsimon, tuxumsimon bo'lib, qizil, 5-6 mm qalinlikda. Aprel-may oylarida gullab, mevalari sentabrdada yetiladi.

Tog'larning o'rta mintaqalarida, toshli shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarcand, Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi. Ildizi va novdalaridan tayyorlangan damlamasi jigar xastaliklarida, qon miqdorini ko'paytiruvchi va tarkibini yaxshilovchi, ishtaha ochuvchi, o't haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Tekis bargli zirk (Qoraqat)-Барбарис цельнокрайний-*Berberis integerrima* Bunge.




Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oиласига mansub ko'p yillik, ko'p poyali va ularni balandligi 4 m ga yetadigan buta. Yosh poyalari qirrali, qo'ng'ir rangda, eski poyalaring ostki qismidagi tikanlari uchlik tartibida bo'lib, yosh novdalarida 1 tadan tikanlari bo'ladi. Barglari teskari tuxumsimon, uzunligi 4-5 sm, eni 13-18 mm, barg chetlari tekis. Gullari uzun, shingilda 12-20 tadan joylashgan. Mevasi teskari tuxumsimon bo'lib, och qizil rangda, 7-8 mm uzunlikda. May-iyunda gullab, mevasi sentabrdada yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalarida va

tekisliklardagi ariq, soylar qirg'oqlarida o'sadi. Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysida uchraydi.

Ildizi va moyalarini qaynatib tayyorlangan qiyomi suyak singanda, paylar cho'zilganda, revmatizmدا, radikulit, yurak xastaliklarida va oshqozon, jigar xastaliklarida qo'llaniladi.

Tillasimon bongardiya-Бонгардия золотистая-*Bongardia chrysogonum (L.) Spach.*




Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, tunganakli o'simlik. Tugunagining uzunligi 3,5 sm. Poyasining balandligi 30-50 sm, silindrishimon. Ko'p shoxlangan. Barglari 8-15 sm uzunlikda, bo'laklarga bo'lingan o'troq, ayrim hollarda xalqasimon joylashgan, 2,5 sm uzunlikda va eni 5-9 mm, doirasimon, ponasimon, uzunchoq, uch-besh karra qirgilgan.

Tojbarglari teskari tuxumsimon, 8-14 mm uzunlikda. Ko'sagi uzunchoq. Mart-aprel oyalarida gullab, urug'laydi. Tog' oldi va tekisliklardagi tuproqli-toshli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida o'simlikning tunganagi zaharli ilon chaqqanda va hashoratlar chaqqanda ishlatalidi. Tuganagidan pechenye va murrabbo tayyorlash mumkin.

Uzunchoq zirk (Qoraqat)-Барбарис продолговатый-*Berberis oblonga (Bunge) Schneid.*



Zirkdoshlar – *Berberidaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, moyalarining balandligi 4 m bo'lgan buta o'simlik. Yosh moyalari qo'ng'ir, qari moyalari kulrang, shoxlanuvchan. Barglari teskari tuxumsimon uzunchoqroq bo'lib, uzunligi 6 sm, eni 3 sm ni tashkil etadi. Yaproqlarini chetlari mayda tishchali. Gullari shingilga to'plangan. Mevalari qora binafsha rangda,

cho'ziqroq ellipssimon, 1 sm uzunlikda va eni 6 mm. Aprel-may oylarida gullaydi, mevalari sentabrdan yetiladi. Tog'larning o'rta va pastki mintaqalarida toshli va shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Tibbiyotda bargi va ildizi ishlataladi. Tarkibida alkaloidlar, berberin birikmalari bor. Berberin bisulfat surunkali gepatit, xolesistit jigar kasalliklarida hamda o't qopining tosh kasalligida o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. O't haydovchi dori sifatida va ildizi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

Eversman yer sovuni-Леонтица Эверсманна-*Leontice eversmannii* Bunge.



Zirkdoshlar - *Berberidaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, tiganakli o'simlik bo'lib, tiganagi 15-40 sm yer ostida joylashgan, eni 15-20 sm gacha boradi. Ushbu tur Zirkdoshlar oilasiga mansub. Poyasining yer ustki qismi 20-50 sm, ostki barglari 1-2 ta bo'lib, uzun bandli yaproqlari 3 marta bo'laklarga bo'lingan, uzunligi 11 sm, eni 4-5 sm, gullari yuqoriga qaragan shingilida, tojbarglari sariq rangda, 6-9 mm uzunlikda. Tuguni noksimon, mevasi ko'sak bo'lib, yupqa qobiqli, 25-30 mm.

Mart-aprelda gullab urug'laydi. Qirliklarda, lalmi yerdarda, tuproqlar joylarda o'sadi. Samarqand, Toshkent, Namangan, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlataladi. Tarkibida saponinlar, flavonoidlar, qandlar, shilliq, oshlovchi moddalar bor. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida istisqo, jigar, buyrakdag'i tosh, nafas qisish, o'pka sili va tutqanoq kasalliklarini davolashda hamda o't va siyidik haydovchi, og'riq qoldiruvchi va surgi dori sifatida qo'llaniladi, u bilan turli yiringli yaralar yuviladi.

Damashq sedanasi-Чернушка дамасская-*Nigella damascena L.*



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasining balandligi 25-40 sm. Tuksiz shoxlangan, barglari tuksiz, ikki va uch marotaba qirqilgan, bo'laklarinining uchlari o'tkir, poyaning uchki qismidagi barglar plyonkasimon yon barglar hisoblanadi. Gulkosalarining umumiy ko'rinishi ko'k.

Gultojlari uzun tukli, nashtarsimon. May oyida gullab, urug'lari iyunda pishib yetiladi. Toshkent botanika bog'ida ekiladi.

Xalq tabobatida siyidik haydovchi, hayzni tartibga soluvchi, emizikli ayollar sutini ko'paytiruvchi, gjijaga qarshi ta'sir qiluvchi va organizmga quvvat beruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Urug'inining dori preparati, moyi, surtmasi pes va boshqa teri kasalliklarini davolashda yaxshi natijalar bermoqda.

Dorivor iloncho'p (chumchuq o't)-Воробейник лекарственный-

Lithospermum officinale L.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, barglari zich joylashgan, balandligi 50-80 sm. Barglari nashtarsimon, o'troq, ikki tomoni mayda tukli. Gullari shingilsimon yoki soyabonsimon bo'lib, poyalarining uchida joylashgan. Gul tutqichlari 2-3 mm. Kosachasi oq qalqonsimon 2-4 mm uzunlikda, urug' yetilishida cho'ziladi. Tojbarglari oq yoki sarg'ish-oq 3-5 mm uzunlikda. Yong'og'i uzunchoq tuxumsimon, 3 mm uzunlikda. Aprel-may oyida gullab, may-iyun oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalaridagi ariq va soylar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida litospermin bo'yoq moddasi, oz miqdorda alkaloidlar, alantoin birikmasi, vitamin C, karotin moddalar, urug'ida ko'p miqdorda yog' bor. Yer ustki qismining qaynatmasi xalq orasida shamollash kasalliklari, bosh og'rig'i, qorin

og‘rig‘i va buyrak-tosh kasalliklarini davolash, bola tug‘ilishini yengillatish va tezlatishda hamda siyidik haydovchi, surgi va og‘riqsizlantiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Yangi yig‘ib uzilgan iloncho‘pning yer ustki qismi kesilgan, urilgan, ko‘kargan teriga bog‘lanadi.

Zarafshon parpisi-Аконит зеравшанский-*Aconitum*

Zeravshanicum Steinb.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, o‘t o‘simlik. Ildizi 4-12 ta, ingichka retkasimon tuganaklardan tashkil topgan. Poyasi 40-60 sm, tik o‘suvchi, silindirsimon. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari uzun 8-15 sm bandli bo‘lib, poyadagilari o‘troq. Barglari yaproqlarining asosigacha qirqilgan, ustki tomoni yashil, ostki tomoni och yashil.

Gullari poyaning uchki qismida joylashadi. Gultojlari 5 ta bo‘lib, och sariq rangda, mevasi ko‘sakcha. Iyul oyida gullab, avgust oyida urug‘lari pishib yetiladi. Tog‘larning o‘rta va yuqori qismlarida, archazor va butazorlarda, alp o‘tloqlarida uchraydi. Shohimardon, Xisor, Turkiston tizmalarida o‘sadi.

Tibbiyotda ildizpoyasi, tuganagi, quritilmagan yer ustki qismi ishlataladi. Ular tarkibida alkaloidlar (akonitin, zongorin) bor. Tuganagining damlamasi (nastoykasi) radikulit, nevralgiya, shamollahash kasalliklarida ishlataladi.

Zaharli ayiqtovon-Лютик ядовитый-*Ranunculus sceleratus L.*



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub bir yillik yoki efemer tur. Poyasining balandligi 20-45 sm, shoxlangan, egatchali, ko‘p sonli gullarga ega. Barglari bir nechta, etli, yaprog‘i buyraksimon, yumshoq, uch panjali, bo‘laklarga ega. Gullari 7-10 mm enlikda, kosachasi pastga egilgan, tojbarglardan uzun.

Tojbargi 5-6 tadan, changchilar bilan teng. Onaligi o‘troq, ignasimon. Urug‘lari 1-1,3 mm uzunlikda. Aprel-iyunda gullab, urug‘laydi.

Daryoning oqiziq qumlarida, botqoq joylarda, o'zlashtirilgan joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Maydalab tuyilgan barglaridan tayyorlangan quyuq malham muskul va suyaklar og'rig'ida bog'lanadi.

Izzapiroids sanchiq o'ti-Василистник равноплодниковидный-

Thalictrum isopyroides C.A.Mey.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. O't poyasi 10-40 sm uzunlikda, kam shoxlangan, tuksiz. Barglari poyaning ustki qismida 1-3 tadan joylashgan, 3 marotaba qirqilgan umumiy ko'rinishi uchburchak shaklda, o'rtacha uzunlikda (3-6 sm). Gullari poyaning uchida, supurgisimon to'pgullar hosil qiladi. Gullari yashil qo'ng'ir rangda. Aprel-may oylarida gullab, May-iyun oylarida yetiladi. Tog'larning qora tuproqli va chirindiga boy soya joylarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida o'sadi.

Shifobaxsh maqsadlarda o'simlikning yer ustki qismi ishlatiladi. Ularning tarkibida alkaloidlar (fetidin, talmin, taliktrimin), flavonoidlar, kumarinlar, saponinlar, vitamin C, organik kislotalar bor. O'simlikdan tayyorlangan surtmasi (nastoykasi) qon bosimini pasaytirish hususiyatiga ega bo'lib, qon aylanishining buzilishi bilan ketadigan kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Kichik sanchiq o'ti-Василистник малый-*Thalictrum minus* L.



Ko'p yillik o't, poyasining balandligi 30-100 sm. Tik o'suvchi ba'zan egilib o'sadi. Barglari bandli, poyani uchki qismdagilari o'troq. Yaproqlari 3-4 karra qirqilgan, umumiy shakli uchburchaksimon. Gullari supurgisimon to'pgulda joylashgan bo'lib, poyaning uchida joylashgan. Gullari ko'rimsiz va qizil-qo'ng'ir rangda. Ushbu tur Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub o'simlik. Iyun-iyul oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta va alp

o'tloqlarida, qoyalar ostida, butalar orasida, nam ko'p bo'lgan tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Yer ustki qismidan burundan qon ketishida, asab tizimi xastaliklarida, yurakning gipertonik 1-2 bosqichlarida, ayrim hollarda 3 bosqichida ham qo'llaniladi. Jigar, o't xaltasining kasalliklarida ham qo'llaniladi.

Mayda gulli adonis-Горицвет мелкоцветный-*Adonis parviflora* Fisch. (*A. aestivalis* L. Thoms.)



Poyasining balandligi 5-60 sm bo'lgan o't o'simlik. Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub. Poyasi kam shoxlangan. Poyadagi barglari o'troq, ostki barglari qisqa 2-3 sm, bandli, 2-3 marotaba mayda bo'laklarga bo'lingan. Gullari poyani va shoxchalarining yuqori qismida bo'lib, 5-8 mm. Gultojlari qizil, qo'ng'ir ranglarda. Urug'lari savatchalarda to'plangan, mayda 2-4 mm. Aprel-may oylarida gullab, may-iyunda urug'lari pishib yetiladi. Tog' oldi yaylovlarida, tog'larning pastki qismlarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Qoraqalpog'istonda uchraydi.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlataladi. Tarkibida yurak glikozidlar simarin, flovonoidlar va boshqa birikmalar bor. Dori pereparatlari – damlama, "adonis brom", suyuq va quruq ekstraktlari, yangi galenpreparati-adenozid surunkali yurak-tomir nevroz va nerv kasalliklarida tinchlaniruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Damlamasi adonizid, kardiovalen tarkibiga kiradi. Yer ustki qismi Zderenko yig'masiga qo'shiladi.



Oddiy sanchiqo't-Василистник простой- *Thalictrum simplex* L.

Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi shoxlanmaydi, balandligi 40-100 sm. Barglari poyaga bandli, poyaning yuqorisidagilari bandsiz, ikki karra qirqilgan, bo'laklarining

uzunligi 1-3 sm, eni 0,5-2 sm, gullari qisqa piramidasimon, to'pgullari qizg'ish yashil. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog' daryolarining o'zanlarida, archazorlarda o'sadi.

Angren suv havzalarining yuqori qismida uchraydi. Yer ustki qismining qaynatmasi arterial bosimni tushirishda, jigar va sariq xastaliklarida qo'llaniladi.

Oddiy suvyig'ar-Водосбор обыкновенный-*Aquilegia vulgaris* L.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Bo'yining uzunligi 50-80 sm. Sershox, ildiz bo'g'zidagi barglari uzun bandli, ikki bora bo'laklarga bo'lingan.

Gullari oq, pushti, qizil, ko'k, binafsha ranglarda, gullarining ortida qayrilgan pixi bor. Aprel-May oylarida gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. O'zbekistonning hamma joylarida bog'bonlar tomonidan ekib o'stililadi.

O'simlikdan tayyorlangan damlamasi bachadondan qon ketishida qo'llaniladi.

Sariq gulli isfarak-Живокость полубородатая-*Delphinium semibarbatum* Bien. ex Boiss.




Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't. Oddiy yoki kam shoxlangan poyasining balanligi 35-70 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari uzun bandli bo'lib, yaprog'i 5 bo'lakka bo'lingan, bo'laklar o'z navbatida 3 bo'lakka bo'lingan. Gullari ochiq sariq rangda, ko'p sonli gullari supurgisimon to'pgullarga ega. Guldag'i pixlari ostki tomonga egilgan.

Urug'lari mayda uch qirrali. May-iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi. Tog'larning pastki va o'rta mintaqalarida, tuproqli joylarida uchraydi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Buxoro, Qashqdaryo, Surxandaryo viloyatlarida uchraydi.

Yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar (kondelfi) bor. Isfarak turlarining dori preparatlari, elatin, kondelfin, melliktin va delsimin

kurare singari ta'sir etuvchi vosita sifatida Parkinson, Littl kasalliklari hamda mushaklar tonusi oshishidan kelib chiqqan kasalliklarni davolashda, jarrohlikda operatsiya vaqtida mushaklar tonusini bo'shashtirish va tabiiy nafas olishni to'xtatish turish uchun ishlatiladi.

Talas parpisi (oq parpi)-Аконит таласский-*Aconitum talassicum* *M.Pop.*



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘t o‘simplik. Ildizi zanjirsimon tuganaklardan tashkil topgan bo‘lib, tuganak uzunligi 20 mm, eni 10-20 mm. Poyalari 10-150 sm, poyalari tik o‘suvchi, tuklangan. Barglari bandli, poyaning yuqori qismidagilari o‘troq, barg yaprog‘i tuksiz bo‘lib, ustki tomoni yashil, ostki qismi och yashil, o‘zagigacha qirqilgan va 3-5 ponasimon bo‘laklardan tuzilgan. Urug‘lari 2 mm ga teng. Iyul-avgust oyida gullab, avgust-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning nam tuproqli joylarida, tog‘ jilg‘alari atrofida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, viloyatlaridagi tog‘larda uchraydi.

Tibbiyotda ildizpoyasi, tuganagi, quritilmagan yer ustki qismi ishlatiladi. Ular tarkibida alkaloidlar (akonitin, zongorin) bor. Tuganagining surtmasi (nastoykasi) radikulit, nevralgiya, shamollahash kasalliklarida ishlatiladi.

Tillarang adonis-Горицвет золотистый-*Adonis chrysocyathus* *Hook. fil. et Thoms.*



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* ko‘p yillik, poyasi 15-30 sm, kam shoxlanuvchan, ildiz bo‘g‘zidagi barglari reduksiyalangan, poyasining ostki barglari uzun bandli, 2-3 marotaba mayda qirqimlarga bo‘lingan, poya yuqorisidagi barglari o‘troq. Poyani uchida bittadan yirik 40 mm gacha bo‘lgan to‘q sariq gul joylashadi.

Tojbarglari 2,5-2,7 mm uzunlikda, eni 5-8 mm. Mevalari ko‘sakcha bo‘lib, uchki qismlari qayrilgan. Iyun-iyul oylarida gullab, avgust oyida

urug'lari pishib yetiladi. Tog'larning 2500 m dan yuqori qismidagi, qora chirindiga boy tuproqlarida o'sadi. Farg'ona viloyati (Shoximardon, Mashalang, Xurdjun tog'i) da tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qisim ishlatiladi. Tarkibida yurak glikozidlar simarin, flovonoidlar va boshqa birikmalar bor. Dori pereparatlari – damlama, "adonis brom", suyuq va quruq ekstraktlari, yangi galenpreparati-adenozid surunkali yurak-tomir nevroz va nerv kasalliklarida tinchlantruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Damlamasni Baxterov miksturasi adonizid, kardiovalen tarkibiga kiradi. Yer ustki qismi Zderenko yig'masiga qo'shiladi.

Tog' seuvuchi tasmacho'р-Живокость горолюбивая-*Delphinium oreophilum* Huth.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasining ostki qismi siyrak, yuqori qismi qalin tuklar bilan qoplangan va balandligi 30-60 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari (20 sm) uzun bandli, poyadagilari qisqaroq bandli, kam tuklangan. Yaprogi buyraksimon, yuqori qismi tuksiz, ostki qismi qalin tuklangan. Gullari oddiy kam shoxlangan poyachalarda joylashadi. Guli ko'k, tashqi tomoni qalin tuklangan, to'p guli qalin gullar bilan qoplangan shingil. Gul yon barglari tuxumsimon, 12-17 mm uzunlikda va eni 6-9 mm. Gulning pixi gorizontal yoki bir oz pastga egilgan, 15-15 mm uzunlikda va eni 3-5 mm, silindrishimon. Iyulda gullab, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Tog'larning yuqori qismidagi nuragan toshlar, toshli qismlarida o'sadi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan qaynatma turli shishlar va yorilmagan yaralarga malham qilib bog'lanadi. Shuningdek, jigar, zaxm, oshqozon osti bezining shamollashida, siydiq yo'li va jinsiy organlar xastaliklarida qo'llaniladi.

To‘g‘ri shoxli uchmao‘t-Рогоглавник пряморогий-Ceratocephalus testiculata (Crantz) Bess. (C. orthoceras DC.)



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига мансуб бир ўйлиқ о‘симлик. Поясining баландлиги 1-7 см. Барглари бандли, 2-3 бо‘лакли. Гуллари биттадан ўуқоридагилари майда, косачабарглари узунчоқ- тукумсимон. Тоб bargлари сарг‘ич эллипссимон. Urug‘лари 2 mm узунликда. Mart-aprelda гуляйди. Aprel-майда urug‘лари yetiladi. Tog‘larning old qismi, cho‘llardagi qumli-shag‘alli sho‘rxok va quruq yonbag‘irlarda uchraydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Xalq tabobatida о‘симликнинг yangi uzilgan holida teridagi oq dog‘larga kompres qilinadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bunda juda kuchli og‘riq bo‘ladi. Ammo dog‘ yo‘qoladi. Gullagan vaqtida hayvonlar iste’mol qilmaydi.

**Turkiston adonisi (Sariq gul adonis)-Горицвет туркестанский-
Adonis turkestanica Korsh Adolf.**



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* оиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Ко‘п сонли пойлар hosil qiladi. Poyalarning баландлиги 30-80 см га yetadi. Kam shoxlangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari qo‘ng‘ir plyonkasimon, reduksiyalangan, poyadagilari yirik o‘troq, 2 маротаба майда qirqilgan. Gultojlari 20-25 mm узунликда ва ени 6-10 mm саріq rangda.

Мевалари sharsimon boshoqcha 8-10 mm. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda urug‘лари pishib yetiladi. Tog‘larning tuproqli alp qismlarida, ayrim hollarda yuqori archazorlarda о‘sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlataladi. Tarkibida yurak glikozidlar simarin, adonitoksin, flovonoidlar va boshqa birikmalar bor. Dori pereparatlari-damlama, “adonis brom”, suyuq va quruq ekstraktlari, yangi galenpreparatiadenozid surunkali yurak-tomir nevroz va nerv kasalliklarida tinchlantiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Damlamasasi Baxterov

miksturasi adonizid, kardiovalen tarkibiga kiradi. Yer ustki qismi Zderenko yig'masiga qo'shiladi.

O'roqsimon uchmao't (otashak)-Рогоглавник серповидный-

Ceratocephalus falcatus (L.) Pers.




Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasining balandligi 3-10 sm bargsiz. Barglari bandli 3 bo'lakli, 2-3 bora qirqilgan. Gul tutqichi barglar bilan teng. Gullari mayda, och sariq. Urug'lari tuklangan, o'roqsimon buklangan, o'tkir, ayrim hollarda qarmoqsimon yuqoriga buklangan.

Mart-aprel oylarida gullaydi, aprel-may oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning pastki qismidagi va qumli, shag'alli quruq yonbag'irlarida, sho'rxok tuproqlarda uchraydi. O'zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Xalq tabobatida o'simlikni yangi uzilgan holida teridagi oq dog'larga kompres qilinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bunda juda kuchli og'riq bo'ladi. Ammo dog' yo'qoladi.

Chalkashgan isfarak-Живокость спутанная-*Delphinium confusum* M. Pop.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't. Poyasining balandligi 50-65 sm. Kam shoxlangan, ostki qismi uzun tuklar bilan, yuqori qismi kalta qalin tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo'g'zi 2-5 sm bandlarga ega. Yaproqlari doirasimon, buyraksimon uch bo'lakli qirqimlarga ega. Gullari to'q binafsha yoki to'q ko'k ranglarda bo'lib, shingilsimon to'pgulda joylashgan. Iyul-avgust oylarida gullaydi va avgust-sentabrda urug'lari pishib yetiladi. G'arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmalarida, archazorlar orasida hamda o'tloqlarda tarqalgan.

Parkinson, Littl kasalliklari va boshqalarda, jarrohlik vaqtida mushaklar tonusini bo'shashtirish, tabiiy nafas olishni to'xtatib turish uchun qo'llaniladi.

Sharq iloncho‘pi-Ломонос восточный-*Clematis orientalis* L.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, ilashib o’suvchi buta. Poyasi uzun (4-5 m). Barglarining jingalagi bilan boshqa daraxt va butalarga ilashib o‘sadi. Barglari och yashil, siyrak tuklangan, bo‘laklarga bo‘lingan bo‘ladi. Tekis yoki tishchali o‘yiqli gullari sarg‘ish yoki yashilsarg‘ish, tashqi tomoni qizg‘ish, supurgisimon siyrak to‘pgullarga ega, kosacha barglari 13-20-(25) mm uzunlikda. Urug‘lari 2 mm uzunlikda, (3-8 sm) ustunchaga ega. Iyun-sentabrdab gullab, iyul-oktabrda urug‘lari yetiladi. Cho‘l hududlari, to‘qaylar va tog‘larning o‘rta mintaqasigacha bo‘lgan qismlarida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona va Respublikaning qolgan boshqa viloyatlarida ham tarqalgan.

Tabobatda o‘simlikning bargi va poyalari bilan birgalikda tanadagi oq dog‘lar bor joylarga bog‘lanadi. Gullagan vaqtida zaharli hisoblanadi va bu vaqtida hayvonlar iste’mol qilmaydi.

Ekma sedana-Чернушка посевная-*Nigella sativa* L.



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oilasiga mansub bir yillik o‘t. Poyasi 20-75 sm, kam shoxlangan. Poyasi bittadan gul bilan tugallanadi, ostki barglari bandli, tez qurib qoladi, ikki uch marotaba bo‘laklarga bo‘lingan. Gulkosasi 10-15 mm uzunlikda va eni 3-8 mm, gultojisi kosachadan ikki-uch marotaba qisqa, kalta tuklar bilan qoplangan.

May-iyunda gullab urug‘laydi. Samarqand, Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Surxondaryo viloyatlarida ekiladi.

Xalq tabobatida siyidik haydovchi, hayzni tartibga soluvchi, emizikli ayollar sutini ko'paytiruvchi, gjijaga qarshi ta'sir qiluvchi va organizmga quvvat beruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Yumaloq bargli tasmacho'р-Живокость круглолистная- *Delphinium rotundifolium Afan.*



Ayiqtovondoshlar – *Ranunculaceae* oиласига mansub ko'п yillik o'simlik. Poyasi oddiy yoki kam shoxlangan, balandligi 40-70 sm. Poyasining ostki qismlari 1-2 mm li dag'al tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo'g'izidagi barglarning bandi 30 sm gacha, yuqoridagilari kalta bandli va ular tuklangan. Gul to'plami siyrak va kam gulli. Gul yonbarglari teskari tuxumsimon bo'lib, 15-18 mm uzunlikda va eni 8-12 mm, uchki qismi biroz o'kirlashgan. Pixi to'g'ri yoki biroz bukilgan, 12-14 mm uzunlikda va diametri 3-4 mm, silindrsimon. Iyun-iyulda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta qismidagi shag'allar va nuragan toshlar orasida o'sadi. Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan ovqat hazm qilishni yaxshilashda, siyidik haydashda, teri osti gjijasida, gjijalarни to'kishda va shamollashlarga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

Og'ma sallagul-Пион средний-*Paeonia anomala L.(intermedia CAM.)*



Sallaguldoshlar – *Paeoniaceae* oиласига mansub ko'п yillik o'simlik. Poyasining balandligi 25-75 sm, ko'rimsiz qirrali. Barglari o'rtacha uzunlikda (10-15 sm), bandli. Gullari poyaning uchida bittadan joylashadi, ularning eni 6-10 sm, och qizil va pushti ranglarda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari pishib yetiladi.

O'zbekiston tog'larining 1500-2500 m bo'lgan balandlikdagi o'tloqlar va archazorlar orasida o'sadi. Psixik holatlarda, uyqusizlikda, asab

tizimini kuchli qo'zg'alishlarida, ildizidan tayyorlangan damlamasi tavsiya etiladi.

Xitoy sallaguli-Пион китайский-*Paeonia albiflora* Pall.



Sallaguldoshlar - *Paeoniaceae* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi 60-100 sm ga boradigan o'simlik. Barglari yirik, ikki bor uch martadan qirqilgan, ustki tomoni yashil, ostki tomoni och yashil. Gullari 12-15 sm, oq pushti ranglarda bo'lib, nozik hidga ega. Aprel-may oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Ildizidan tayyorlangan damlamasi uyqusizlikda, asab tizimi kuchli qo'zg'alganda, vegetativ asab tizimining ish faoliyati buzilganda ishlataladi.

Lolaqizg'aldoq-Ремерия отогнутая-*Roemeria refracta* D.C.



Ko'knoridoshlar - *Papaveraceae* oиласига мансуб bir yillik, efemer o'simlik. Poyasi asos qismidan, shoxlanuvchi va balandligi 8-50 sm. Ildiz bo'g'zidagi va poyaning yarmigacha bo'lgan barglari bandli, yuqoridagilari bandsiz, yaprog'i tuxumsimon, nashtarsimon bo'lib, chetlari ichkari tomonga bir oz bukilgan. G'unchasi tuxumsimon yoki yumaloq bo'lib, 1,5-2 sm

uzunlikda va eni 0,9-1 sm tashkil etadi. Gultojlari 2-3 sm uzunlikda va eni 1,5-4 sm to'q qizil, ostki tomonida oq dog'lari kuzatiladi. Aprel-iyun oylarida gullab, urug'lari yetiladi. Toshkent, Namangan, Samarcand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida, tog' oldi tumanlarida uchraydi.

Ko'z og'rig'ida, quyosh urganda, tinchlaniruvchi, mikroblarga qarshi shifobaxsh malham sifatida ishlataladi.

**Nafis o'rmonqora-Гляуциум изящный-Glaucium elegans Fisch. et
Meg.**



Ko'knoridoshlar – *Papaveraceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi kam shoxlanuvchan, ingichka, balandligi 10-35 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari mozaika hosil qiladi va uzunligi 10-12 sm. Lirasimon bo'lakli, chetlarida siyrak tikansimon tuklarga ega. G'unchalari uzunchoq, 1,5-2 sm uzunlikda va eni 3-5 mm, siyrak uzun tuklarga ega. Tojbarglari sariq, o'rtaligida qizil, ostki qismida qora dog'lari bor, 10-20 mm uzunlikda. Dukkak mevasining uzunligi 6-10-(15) sm va eni 1,5-2 mm. Aprel-iyul oylarida gullab urug'laydi. Tog'larning old qismi va pastki qismlarida qumli, mayda shag'alli tuproqlarida o'sadi. Toshkent (Mogoltau, Qurama tizmasi), Farg'ona, Samarqand, Qashqdaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan olingan shira bilan ko'z og'rig'ini, yirik karbunkulyar, shishlarni, bosh og'rig'ida va yurak xastaliklarida qo'llaniladi.

**Popukli o'rmonqora-Глямуциум баҳромчатый-Glaucium
fimbriigerum (Trantr) Boiss.**



Ko'knoridoshlar – *Papaveraceae* oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyalari kuchli rivojlangan, balandligi 25-60 sm, shoxlangan. Ildiz bo'g'zidagi barglari yirik, 15-20 sm uzunlikda va ko'rinishi lirasimon, chetlari tikansimon tuklarga ega. Poyadagi barglari o'troq va mayda. G'unchasi uzunchoq-tuxumsimon, 1,5-2,7 sm uzunlikda, siyrak ignasimon tuklar bilan qoplangan. Tojbarglari och-sariq, unda boshqa rangdagi dog'lar yo'q, uzunligi 3-3,5 sm va eni 2,5-3,5 mm. Tuguni siyrak tuklar bilan qoplangan. May-iyul oylarida gullab urug'laydi. Tog'larning o'rtaligida soylar o'zanida, tuproqli shag'al va toshli

tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi og'ir xastaliklardan so'ng va boshqa hollarda quvvatlantiruvchi vosita sifatida ishlataladi. Urug'lari kuchli surgi hisoblanadi. Arterial bosimni ko'taradi.

Tovussimon ko'knori (qizg'aldoq)-Мак павлиний-*Papaver pavoninum* Schrenk.



Ko'knoridoshlar – *Papaveraceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi oddiy, asosidan shoxlanadi, balandligi 5-10-40 sm, qalin, dag'al tuklar bilan qoplangan. Bargi bandli, ko'p bora bo'laklarga bo'lingan, poyadagi barglari o'troq. G'unchasi uzunchoq, yumaloq, tuxumsimon, 8-15 mm uzunlikda. Tojibarglari ochiq qizil rangda, asosida qora dog'lari bor. (15)-45 mm uzunlikda va eni 10-20-40 mm, doirasimon. Ko'sagi 5-10 mm uzunlikda va eni 4-8 mm uzunlikda, doirasimon, qovurg'ali. Ko'sak qopqog'i 6-8 nurli, urug'i 1 mm atrofida, kulrang. Mart oylarida gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Tog' oldi va cho'l hududlarida tuproqli mayda toshli joylarda o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida o'sadi. Barglari quyosh urganda davolash uchun eng yaxshi dori hisoblanib, gullarining tojbarglarini qaynatmasi ichiriladi. Tojbarglarining suvi siqb olinib, ko'z og'rig'ida qo'llaniladi. Tog' qalampiri bilan aralashtirilib so'lak oqishini davolaydi.

Vayyana shotarasi-Дымянка Вайяна-*Fumaria Vaillantii* Loisel.



Shotaradoshlar – *Fumariaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Ildiz bo'g'zidan ko'p shoxlanuvchan, poyalarini balandligi 10-25 sm. Barglari uzun bandli, yaproqlari uch bora qirqilgan, oxirgi qirqimlari nashtarsimon, ipsimon shakkarda. Gul to'plami zich joylashgan shingildan iborat. Shingillari urug'lar yetilishiда o'zgarib ketadi. Gulkosasi 0,5-0,9 mm uzunlikda. Gultojlari pushti-binafsha rangda, 4,5-6 mm uzunlikda. Yong'oqchalari

urug'lar yetilishiда o'zgarib ketadi. Gulkosasi 0,5-0,9 mm uzunlikda. Gultojlari pushti-binafsha rangda, 4,5-6 mm uzunlikda. Yong'oqchalari

sharsimon, ustki tomonida aniq ko'rinaridagi do'nglikchasi bor. Martiyul oylarida gullab, urug'lari yetiladi. Ekin maydonlarida va tog'larning o'rta mintqa (1200 m) qismlaridagi tuproqli hududlarida uchraydi. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan yurak arteriyasi va sariq xastaligida, yaralarning tez bitishida qo'llaniladi.

Ledebura burmaqorasi-Хохлатка ледебура-*Corydalis Ledebouriana Kar.*



Shotaradoshlar – *Fumariaceae* oиласидан ко'п пойали ва баландлиги 10-15 см бо'лган, ildiz tiganakli ko'п yillik o't o'simlik. Tugunagi 30-40 mm bo'lib, 30-40 sm chuqurlikkacha tuproq ostkiga tushadi. Barglari odatda 2 ta bo'lib, qarama-qarshi joylashadi. Yaproqlari 2 va 3 marotaba qirqilgan va qirqimlari uchtadan, nashtarsimon shaklda. Gullari shingilda to'plangan. Gulkosasi plyonkasimon yupqa, mayda. Tojbarglari pushti, 18-25 mm uzunlikda. Gullarining orqa tomonida pixi bo'ladi. Martiyunda gullab, urug'laydi. Tog'larda yangi erigan qorlar atrofida uchraydi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surhondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barglaridan tayyorlangan choy damlamasi tinchlantiruvchi, qo'lyoqlar qaltirashida, semirishning oldini olishda, psixologik va ayollar xastaliklarida ishlatiladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi ekzema, yiringli yaralar, lat yegan joylarga surtiladi.

Mayda gulli shatora-Дымянка мелкоцветная-*Fumaria parviflora Lam.*



Shotaradoshlar – *Fumariaceae* oиласига mansub bir yillik o't. Poyasi asosidan shoxlangan, oz egatchali, balandligi 10-12 sm. Barglari uch va to'rt bora qirqilgan, ipsimon mayda barglarga ega. Gullari shingilga to'plangan. Gulkosasi 0,3-0,5 mm uzunlikda,

tojbarglari oq, pushti-binafsha ranglarda. Yong'og'i yumaloq tuxumsimon, uchi o'tkir, eni 2,5 mm. Aprel-may oylarida gullab urug'laydi. Surxondaryo viloyati (Sherobod tumanida) tarqalgan.

O'simlikning yer ustki qismidan bachadondan qon ketganda, arterial qon bosimi ortganda, bachadon muskullarining ish faoliyatini yaxshilashda, jigar va teridagi yaralarga qarshi qo'llaniladi.

Seversov burmaqorasi-Хохлатка Северцова-*Corydalis severtzowii Regel.*



Shotaradoshlar – *Fumariaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyalari ko'p sonli, balandligi 8-10 sm. Tuganagining diametri 15-30 mm. Ikkitadan barglari bo'lib, qarama-qarshi joylashgan, ikki va uch bora qirqilgan. Shingillari qisqa 2-7 gulli. Tojbarglari pushtisariq rangda, gullah davrining oxirida qizil rangga o'tadi, 40-45 mm uzunlikda. Gulni orqa tomonida pixi ingichka va to'g'ri, uchki tomoni biroz qayrilgan, 3-3,5 mm uzunlikda.

Mart-may oylarida gullaydi. Tog'larning tuproqli qismlarida, o'rta mintaqaga qismlarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarcand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi singan va lat yegan joylarga tampon qilib qo'yib ishlataladi. Damlamadan ekzema va yaralarni bitirish uchun ham qo'llaniladi.

Amerika mingguldoshi-Лаконос американский-*Phytolacca americana L.*



Mingguldoshlar – *Phytolaccaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi shoxlangan va balandligi 50-100 sm. Bargi uzunchoq, ignasimon uchli. Shingillari ko'p gulli. Gultojlari oq. Iyun-iyul oylarida gullab, urug'laydi. O'zbekistonda begona o't sifatida uchraydi.

Barg va ildizidan tayyorlangan qaynatmasi engil surgi sifatida, ildizidan un qilib maydalaniib, maz sifatida teridagi tangachali yaralarga qo'llaniladi.

Bezli bo'ritikan (Knorin bo'ritikani)-Качим кнорринг-Gypsophila Knorrngiana (schischk.) Vved. (*Acanthophyllum glandulosum* Bunge.)



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Poyalari ko'p sonli, asosi yog'ochlanuvchi, balandligi 10-20 sm. Barglari uchli tikanli, uch qirrali 15-25 mm uzunlikda. Gullari boshoqsimon. Ko'p sonli gullar to'plamidan iborat. Gultojlar oq, 7-9 mm uzunlikda, eni 1 mm. Urug'lari 5-9 urug'li urug'chidan iborat. Iyul oyida gullab, urug'laydi. Tog'larning pastki qismlarida o'sadi. Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida o'sadi. Tibbiyotda ildizidan foydalaniladi. Ildizi balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida bronxit, nafas yo'llarining shamollash kasalliklarida qo'llaniladi.

Gelsera chinniguli-Гвоздика гельцера-Dianthus Hoeltzeri C. Winkl.



Ko'p yillik Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub, 30-40 sm balandlikdagi o't o'simlik. Poyalari ko'p sonli, ko'p shoxlangan. Bargi nashtarsimon uchli bo'lib, eni 3-5 sm. Gullari poyalarning uchlariida 1 tadan joylashgan. Mart-aprel oyalarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi ichki qon ketishni to'xtatish uchun ishlataladi.

**Gipsofilasimon bo'ritikan (Kachemsimon yetmak)-Ключелистник
качимовидный-Acanthophyllum gypsophiloides Regel. (*Allochrusa*
gypsophiloides (Regel.). Schischkin.)**



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simplik. Ildizlari yaxshi rivojlangan. Poyasi ko‘p sonli, o’tsimon, 40-60 sm balandlikda. Barglari nashtarsimon, tuksiz, ayrim hollarda siyrak tuklar bilan qoplangan. Gullari siyrak, supurgisimon to‘pgullarni hosil qiladi. Gultojlari och pushti bo‘lib, 5,5-6 mm uzunlikda, teskari nashtarsimon. Meva tuguni 4 xonali ko‘sakchadan iborat. Iyun-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Toshli va shag‘alli tuproqlarda, tog‘ oldi va tog‘ning o‘rta mintaqalarida uchraydi. Toshkent, Samarqand, Qashqdaryo va Surxondaryo viloyatlarida o‘sadi. Tibbiyotda ildizi balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida bronxit, nafas yo‘llarining shamollash va boshqa kasalliklarida qo’llaniladi.

**Griffita yer sovuni-Мыльнянка Гриффита-Saponaria griffithii
Boiss.**



Ko‘sagi uzunchoq, 5-6 mm uzunlikda. Tog‘larning o‘rta qismidagi toshli, quruq joylarda o‘sadi.

Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizining qaynatmasi, damlamasi bronxit, nafas yo‘llarining shamollash kasalliklarida balg‘am ko‘chiruvchi, ba’zan surgi, siydirk haydovchi, xalq tabobatida yana o‘t

haydovchi vosita sifatida, bod va teri kasalliklarining ekzema, temiratki, chipqonlarni davolash uchun qo'llaniladi.

Dag' al tuklangan samincho'р-Грыжник жестковолосистый-

Herniaria hirsuta L.



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Tuklangan, asosidan biroz shoxlangan, balandligi 5-10 sm. Barglari teskari nashtarsimon, qisqa bandli. Gullari qalin bo'lib joylashgan. Kosacha barglari uzunchoq, to'mtoq 1 mm uzunlikda. Tojbargi yo'q. Changchilar 2-3-(5) ta. Ko'sakchasi kosachasi bilan teng.

Aprel-iyulda gullab urug'laydi. Tog' oldi qismidan, tog'larning o'rta qismigacha bo'lgan xududlarda o'sadi. Toshkent, Farg'on'a, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan qaynatma siyidik haydovchi va siyidik qopchiqlari xastaliklarida qo'llaniladi.

Dorivor yer Sovun (Dorivor saponariya)-Мыльнянка

лекарственная-*Saponaria officinalis L.*



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't. Poyasi tik o'suvchi sershox, balandligi 70 sm. Barglari uzun nashtarsimon, uchi uchli, 3 ta tomirlari bor. Gullari qalqonsimon to'pgullar bo'lib, poyaning uchida joylashadi. Tojibarglari pushti, gulkosadan ikki bor uzun. Urug'lari buyraksimon, mayda bo'rtiqlari bor.

Dekorativ o'simlik sifatida hamda dorivor o'simlik sifatida ekiladi. Ildizlarining qaynatma va damlamasi balg'am ko'chiruvchi va yo'talga qarshi, bronxit, astmada qo'llaniladi.

Ikki rangli machin (Tog‘chitir)-Качим двуцветный-*Gypsophila bicolor (Fregn et Sint) Grossh.*

Chinniguldoshlar



Caryophyllaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyalari tarvaqaylab shoxlangan, balandligi 70 sm bo‘ladi. Barglari yashil, tuksiz, uchli nashtarsimon. Gullari supurgisimon to‘pgullarga birlashgan. Gul kosasi keng qo‘ng‘iroqsimon. Tojbarglari och pushti rangda, tugunchalari 8 urug‘li, iyunda gullaydi. Samarqand viloyatida o‘sadi.

Tish yuvish pastalariga qo‘shiladi.

Soyabonli qalampiro‘t-Костенечник зонтичный-*Holosteum umbellatum L.*



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Tik o‘suvchi, kam shoxlanuvchi, tuksiz, balandligi 5-20 sm. Barglari tekis chetli, bezchali-tukli, poyada qarama-qarshi bo‘g‘inlarda joylashgan. Kosachasi uchli, uzunchoq tuksiz, 3,5-4-(5) mm uzunlikda. Tojbarglari oq, kosachasi bilan teng, ikki uchi tishchali. Kosachasi uzunchoq, 5-6 mm uzunlikda. Mart-aprel

oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ oldi dashtliklaridagi tuproqli, shag‘all va toshli joylarda o‘sadi. Toshkent, Namangan, Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Barglarining burushtiruvchi xususiyatlaridan foydalanib teridagi yaralarni tez bitishi uchun qo‘llaniladi.

Tuksiz samincho‘p-Грыжник голый-Herniaria glabra L. (H.Suvis Klok.)



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub bir yillik yoki ko‘p yillik o‘t o‘simgilik bo‘lib, ildiz asosidan shakllangan poyalari 5-10 sm. Barglari qisqa bandli bo‘lib, yaproqlari teskari tuxumsimon, gullari shoxchalarda qalin joylashgan. Tojbarglari ignasimon. Iyul-avgustda gullab urug‘laydi. Tog‘larning o‘rtal mintaqasida quruq maydonlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismining damlamasi xalq tabobatida istisqo kasalligida siyidik haydovchi vosita sifatida hamda o‘pka, me’da kasalliklarini davolash uchun qo‘llaniladi.

Yer ustki qismining damlamasi ilmiy tibbiyotda ham siyidik haydovchi va spazmolitik vosita sifatida buyrak va siyidik yo‘llari yallig‘lanishi kasalliklarini davolashda buyrak, qovuq va siyidik yo‘llaridan tosh va qumlarni haydash uchun ishlatiladi.

Xitoy chinniguli-Гвоздика китайская-Dianthus chinensis L.



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oilasiga mansub bir yillik o‘simgilik. Poyasi tik o‘suvchi va yuqori qismidan shoxlanuvchi 30-50 sm balandlikda. Barglari lentasimon yoki nashtarsimon uchli. Gullari poyadagi shoxchalarining uchlarida 1 tadan joylashgan. Gultojilari turli ranglarda. Mevalari kichik ko‘sakcha. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida madaniy gul tariqasida ekiladi. O‘simgilidan tayyorlangan damlama ichki qon ketishini to‘xtatish uchun qo‘llaniladi. Jumladan, bachadondan qon ketishida, og‘riqni va shamollashni to‘xtatish uchun qo‘llaniladi.

Ekma qoramug[“]-Тысячеголов посевной-*Vaccaria segetalis* (Neck.) Garcke.



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* oиласига мансуб бир ўйллик о‘симлиқ. Мутлақ тұксız. Поясы тик о‘сувчи, о‘рта қисмидан шохланувчан, баландлығы 20-60 см. Барғи оңдағанда жасыл, ұзунчоқ түтіншімден. Гүл түткічларининг ұзунлігі 4-6 см. Косачасы ұзунчоқ, 12-13 мм, уруг‘ланған вактіда ұзунлігі 15 мм га yetади, үч кіррәлі, тоғындағанда 15-16 мм ұзунлікда. Тескари түтіншімден тішчали, уруг‘лары жасыл шаршымен, мауда егатчали, 1,5 мм қалынлікда. Апрел оңирида гүллаб, іюнда уруг‘лары yetилади.

Ekinzorlarda, анықса ламында жерлерде жасыл о‘т сифатыда о‘сади. Тошкент, Намangan, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘истонда таралған. О‘симликтен маудалаб, болғанда тауырлаб, жирик жараларни тоғындағанда 15-16 мм ұзунлікда. Апрел оңирида гүллаб, іюнда уруг‘лары yetилади.

Yulduz о‘т (О‘рта yulduzo‘т)-Звездчатка средняя-*Stellaria media* (L.) Vill.



Chinniguldoshlar – *Caryophyllaceae* оиласига мансуб бир ўйллик о‘т, паясы оңдағанда шохланады. Барғлары егік, тұктарынан қолданылады, болғанда 10-25 см. Барғлары жасыл, түтіншімден, чөтлөрі текіс. Гүллары сары, жарық соябоншімден, пойынан үчіда жоюлашады. Гүл тоғылары оқындында жасыл о‘т сифатыда о‘сади.

Егер үсткі қисмидан тауырланғанда жаңынан көрсетілсе, тоғындағанда 15-16 мм ұзунлікда. О‘збекистонда жасыл о‘т сифатыда о‘сади. Жер үсткі қисмидан тауырланғанда жаңынан көрсетілсе, тоғындағанда 15-16 мм ұзунлікда. О‘збекистонда жасыл о‘т сифатыда о‘сади.

Ko'kish machin-Щирица синеватая-*Amaranthus lividus L. (A. Blitum L.)*



Gulujixorozdoshlar – *Amaranthaceae* oиласига мансуб бир йиллик о‘т о‘симлиқ. Поясини баландлиги 40-80 см, yer bag‘irlab o‘suvchi yoki tik o‘suvchi, shoxlangan, egatchali, tuksiz. Barglari rombiksimon, tuxumsimon, bandi yaprog‘i bilan teng. Gullari to‘p, o‘troq, barglar qo‘ltig‘ida joylashadi Ko‘sakchasi ellipssimon, etli, ochilmaydigan. Urug‘lari 1 mm qalinlikda, tuxumsimon, qora rangda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi.

Vohalardagi ekinzorlarda, o‘tloqlar va tashlandiq joylarda o‘sadi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida barglarining qaynatmasi bosh og‘rig‘ida va o‘smalarni davolash uchun ichiladi. Ildizining qaynatmasidan rishtalarini davolash uchun vanna qilingan. Yosh barglari ziravor sifatida ovqatga ishlataladi.

Og‘ma machin-Щирица отогнутая-*Amaranthus retroflexus L.*



Gulujixorozdoshlar – *Amaranthaceae* oиласига мансуб бир йиллик о‘т о‘симлиқ, баландлиги 20-75 см, kam shoxlanuvchi, qisman tuklangan, poyasi qirrali. Barglari yirik tuxumsimon, rombik shakkarda. Gullari to‘p bo‘lib, poyani uchida supurgisimon joylashgan. Plyonkasimon ko‘sakchalarda urug‘lari yetiladi. Urug‘lar 1 mm uzunlikda, to‘q qo‘ng‘ir yoki qoramtil. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi.

Ekin maydonlarida, lalmi ekinlar orasida, yo‘l yoqalarida, tashlandiq ekin maydonlarida o‘sadi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi.

O'simlikni yer ustki qismidan tayyorlangan damlama qon ketishini to'xtatish uchun qo'llaniladi. Jumladan, gemoroyda, ovqat xazm qilish yo'llarida va boshqalarda ishlataladi.

Oq machin-Щирица белая-*Amaranthus albus L.*



Gultojixo'rozdoshlar – *Amaranthaceae* oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Poyasi ko'p shoxlangan, 30-70 sm balandlikda. Barglari mayda, 2 sm uzunlikda va eni 0,5 sm teskari tuxumsimon. Gullari siyrak bo'lib, barg qo'ltilqlarida, poyaning barcha qismlarida joylashgan.

Meva ko'sakchalari keng ellipssimon. Iyun-iyul oylarida gullab, urug'lari iyul-oktabrda yetiladi. Ariqlar bo'yida, begona o't sifatida ekinzorlarda ham uchraydi. O'zbekistonni janubiy hududlarida va Farg'ona vodiysida tarqalgan.

O'simlikni yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi qon ketishini to'xtatishda, xayz jarayonida, qon tupurishda va gemoroy xastaliklarida qo'llaniladi.

Bargsiz buyurg'un (itsigak)-Ежевник безлистный-*Anabasis aphylla L.*



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 30-75 sm, chalabuta, poyalarining ostki qismi yog'ochlashgan. Poyalari slindrsimon bo'lib yangilari yashil va asosidan shoxlangan. Barglari plyonkasimon, qo'lting'i tuklangan. Gullari bittadan, boshoqsimon, gul to'plami supurgisimon. Mevasi shirali, qanotlaridan qisqa. Iyul-sentabr oylarida gullab urug'laydi.

Sho'r va sho'rxok taqirlarda, ekin maydonlarining qirg'oqlarida, yer osti sho'r suvlari yaqin bo'lgan cho'llarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarcand viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Bir yillik yashil novdalaridan tayyorlangan preparati chekishni tashlash uchun qo'llaniladi.

**Kambargli boyalich (cho'g'on sho'rak)-Элления малолистная-
Aellenia subaphylla (C.A.Mey.) Aell. (*Salsolo subophylla* C.A.Mey.)**



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik chalabuta, ayrim hollarda baland yog'ochlanadi, poyasining balandligi 30-120 sm, sershox, tuksiz barglari navbatlanib joylashadi, nashtarsimon uchi o'tkirlashgan.

Gul qismlari deyarli teng. Barglari uchburchaksimon bo'lib, uchki qismi uzunchoq tuxumsimon, urug'larida qanotchalar hosil qiladi.

Onalik tumshuqchasi naysimon. May-sentabrda gullab urug'laydi. Qumlikda, taqirda, sho'rxok joylarda o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Shoxchalari, barglari va gullarining birgalikdagi damlamasi xalq tabobatida ayollar xastaligida va sochlarni, piyozchalarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Qo'lansa sho'ra-Марь вонючая-*Chenopodium vulvaria* L.



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oilasiga mansub bir yillik, o'ta qo'lansa hidli o'simlik. Poyasining balandligi 10-60 sm, shoxlangan, ayrim hollarda yerga yetib o'sadi. Barglarining ikki tomoni och yashil, bandli, mayda bargli, chetlari tekkis, gullari supurgisimon to'p gullar hosil qiladi, bargsiz. Gullari besh a'zoli. Gul qismlari sarg'ish rangda, urug'lari qora yaltiroq, bilinar-bilinmas chiziqlari bor, 1-1,25 mm.

May-iyulda gullab urug‘laydi. Begona o‘t sifatida keng maydonlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tarkibida trimetilamin moddasi saqlaydi. Tibbiyotda qaynatmasi revmatik, shamollah va ichburug‘ xastaliklarini davolashda ishlatiladi.

Oq sho‘ra-Марь белая-*Chenopodium album L.*



Sho‘radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub bir yillik o‘simlik. Shoxlangan, poyasining balandligi 10-100 sm. Barglari bandli, 2-tomoni yaltiroq, oval shakldan lanset shaklgacha o‘zgaruvchan. Chetlari tekis, ayrimlari tishchali. Gul to‘plami shoxcha va barglar qo‘ltig‘ida joylashgan. Yuqoridagi gullari bargsiz novdalar uchida joylashgan. Gullari 5 azoli. Urug‘lari sarg‘ish gorizontal egatchali, ayrimlari tekis qora yaltiroq. Iyul-sentabr oylarida gullaydi. Ekinzorlar, bog‘lar, yo‘llar yoqasida begona o‘t sifatida uchraydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

Urug‘ida 15-16% azotli va 37-38% azotsiz moddalar, 6% ga yaqin yog‘, 17-18% klechatkalar saqlaydi. Uni yangi o‘rib, siqib olingan shirasidan angina xastaligini davolashda ishlatiladi.

Rixter sho‘ragi (cherkez)-Солянка Рихтера-*Salsola richteri (Moq.) Kar. ex Litv.*



Sho‘radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub ko‘p yillik kichik daraxt. Keksa poyalari kulrang, yosh novdalari oqish. Barglari navbatlashib joylashgan, ipsimon, 4-8 sm uzulikda, uchki qismi ignasimon uchli. Gul yonbarglari kulrang, uchli dag‘al, chetlari plyonkasimon qobiqqa ega. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi.

Asosan, Navoiy, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘istonning qumli cho‘l mintaqalarida yovvoyi

holda, Farg'ona, Andijon viloyatlarida qum barxanlarini mustahkamlash maqsadida ekiladi.

Og'riq qoldiruvchi, gijjalarni to'kuvchi va yurak xastaliklarida, qon bosimi ortganda, bosh og'rig'ida, uyqusizlikda qo'llaniladi.

Kirpisimon tosh buyurg'in-Нанофитон ежовый-*Nanophyton erinaceum* (Pall) Bunge.



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub ko'p yillik, chala buta o'simlik. Balandligi 5-15 sm bo'lib umumiy ko'rinishi tipratikanni eslatadi. Barglari tuksiz, uchlari ignasimon. Gullari yakka bo'lib poyaning yuqori barglari qo'lltiqlaridan chiqadi. Iyul-oktabr oylarida gullab urug'lari yetiladi.

Tog'larning quruq toshli shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent, Namangan, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'istonda uchraydi.

O'simlikdan tayyorlangan pereparat, yiringli yaralarning oldini olishda, dermatozda, gipertonik xastalikda, jigar faoliyati buzilganda, buyrak hastaliklarida qo'llaniladi.

Turkiston cho'chqa tikani (Ismaloq)-Шпинат туркестанский- *Spinacia turkestanica*. Iljin.



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub bir yillik, ikki uyli o'simlik, poyasi 10-60 sm, kam shoxlangan. Ildiz bo'g'zidagi va poyaning ostki qismidagi barglari uzun bandli, erkak gullari to'rt bo'lakli gulkosadan iborat, poyaning uchida supurgisimon to'pgullar hosil qiladi. Urg'ochi gullari poyadagi barglar qo'ltig'ida joylashadi, urug'lar yetilishida

yog'ochlanib boradigan to'p mevaga aylanadi, uch qirrali piramida shaklidagi tikanlar hosil qiladi. Aprel-iyul oylarida gullab urug'lari yetiladi.

Begona o't sifatida keng tarqalgan. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida uchraydi.

Tabobatda yer ustki yashil qismi yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi hamda kamqonlik, raxit, avitaminoz kasalliklarida, vitaminlarga boy parhez ovqat sifatida iste'mol qilishga tavsiya etiladi.

Xaltachali ebalak-Рогач сумчатый-Ceratocarpus utriculosus Bluk. (*C. Turkestanicus* Saw-Ryez).



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. O'simlikning barcha qismi yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Poyasi asosidan qalin shoxlangan, umumiy ko'rinishda sharsimon, balandligi 3-30 sm. Barglari nashtarsimon, 2-7 sm uzunlikda va eni 2-10 mm, uchki qismi tikansimon uchli.

Urug'lari teskari tuxumsimon, 5-10-(15) mm uzunlikda yuqori qismini eni 4-7 mm, uchida ikkitadan shoxsimon o'simtasi bo'lib, ularning uzunligi 15 mm. Aprel-sentabr oylarida gullab urug'lari yetiladi. Qumliklarda, sho'rxok yerkarda, shag'alli joylarda, tog'ning old qismigacha bo'lgan hududlarda o'sadi. Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'istonda keng tarqalgan. Spirtli nastoykasi bosh va burundan qon ketishida tampon qilinadi.

Hidli sho'ra-Маръ душистая-Chenopodium botrys L.



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. O'simlikni umumiy ko'rinishi sarg'ish-yashil, tuklangan, o'ziga xos yoqimli hidli 15-60 sm balandlikda, sershox. Barglari bandli, navbatlashib joylashgan, uzunchoq, chetlari tishchali, gul yonbargchasi beshlik tipda, uchi uchli tuklangan, changchisi 1-3 ta, urug'chisi 0,5-0,75 mm qalinlikda,

sharsimon, qora-qo'ng'ir rangda. Iyul-avgust oylarida gullab urug'laydi. Tog' oldi hududlarining toshli, shag'alli va soylarning o'zanidagi qumli joylarda o'sadi. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. O'simlik geraniol hidiga o'xhash modda saqlaydi. Shamollashda, bosh

og'rig'ida, astmada, turli oshqozon xastaliklarida va yel haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Ekma qizilcha-Свекла обыкновенная-Beta vulgaris L.



Sho'radoshlar – *Chenopodiaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan yoki oddiyidir. Ildizi suv saqlovchi bo'lib, turpsimon, urchuqsimon, oq, qo'ng'ir, binafsha, qizil ranglarda. Barglari turli shakllarda va ranglarda (yashildan to qoramtil binafshagacha). 1-8 gul to'plamlaridan iborat.

Respublikamizning hamma viloyatlarida ekiladi. Tabobatda qonni tozalash va ko'paytirishda foydalilanadi.

Bo'g'imli toron (suvzomchi)-Горлец узловатый-Polygonum nodosum Pers. (*P. lapathifolium* L.)



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasi shoxlanuvchan, qizil dog'larga ega, balandligi 30-100 sm, bo'g'imlar uzunligi 6-10 sm. Barglari uzun-ellipssimon, nashtarsimon shakllarda, uzunligi 3-17 sm va eni 0,3-3,5 sm.

Gullari uzun boshoqda (2-4 sm) zikh joylashadi, ularning tojbarglari oq, gulpoyasi pushti-qizil rangda. Iyun-oktabr oyalarida gullab, urug'laydi. Arik va soylarning bo'yalarida keng tarqagan. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand viloyatlarida tarqagan. Qon ketuvchi gemoroyda, yaralarni tez bitiruvchi va qon ketishini to'xtatuvchi sifatida qo'llaniladi.

Buyraksimon toron (suvzomchi)-Горец почечуйный-Polygonum persicaria L.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, 20-80 sm balandlikdagi o't. Barglari nashtarsimon, o'troq, qo'ng'ir dog'larga ega, uzunligi 3-10 sm va eni 0,5-2 sm. Gullari poyaning uchlarida, shoxlar uchida

joylashgan. Gulqo'rg'oni pushti, oq, asos qismi yashil. Iyun-oktabr oylarida gullab, urug'laydi. Ekinzorlar, ariqlarni bo'yida begona o't sifatida o'sadi.

Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida uchraydi. Gemoroyga qarshi, bachadon shamollaganda, menstruatsiya vaqtida, ko'p qon ketishida qonni tez quyulishiga ishlatiladi.

Buxoro toroni-Горец бухарский-*Polygonum bucharicum* Grig.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizi yo'g'on, 15 sm gacha, bir nechtadan poyalar hosil qiluvchi va ularni balandligi 80-150 sm ni tashkil etadi, sershox.

Barglari qisqa bandli, tuxumsimon 4-10 sm uzunlikda va eni 2-5 sm. Gul to'plami yirik, supurgisimon. Iyun-iyulda gullab urug'laydi. Tog'larning o'rta mintaqasidagi nam tuproqli joylarida o'sadi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan qon ketishni to'xtatish, bavosil xastaliklarini davolashda qo'llaniladi.

Dag'al toron-Горец шероховатый-*Polygonum scabrum* Moench.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi bittadan, uning balandligi 60-100 sm. Zangsimon rang bilan o'ralgan barglari 2-15 sm uzunlikda va eni 0,5-3,5 sm, nashtarsimon. Gul shingillari tik turadi, ayrim holda ozroq egilgan bo'ladi. Gul o'rni oq-qizil ranglarda. Iyun-oktabr oylarida gullab, urug'laydi. Zax joylarda, ekinlar orasida begona o't sifatida o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida uchraydi.

Ichki organlardan qon ketishida, gemoroyda qo'llaniladi.

Jingalak otquloq-Щавель курчавый-*Rumex crispus* L.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Ildizi o‘q ildizli, yo‘g‘onligi 2 sm. Poyasi bittadan tik o‘suvchi poyasida shoxlari yo‘q, faqat gullari supurgisimon shoxlanadi. Uzunligi 60-120 sm barglari nashtarsimon, chetlari jingalaksimon burmalarga ega va uzunligi 10-28 sm, eni 1,5-4 sm. Gullari gulpoynalarida halqasimon zinch joylashgan. Iyun-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Ariq bo‘ylarida, ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qon oqishini to‘xtatuvchi va qonli ichburug‘da, bargidan olingan shirasi ichak va oshqozon yallig‘lanishida qo‘llaniladi.

Ikki ustunchali yerqirmizak-Кисличник двустолбчатый-*Oxyria digyna* (L.) Hill.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Ildizining yo‘g‘onligi 0,5-1 sm, bir poyali, tuksiz, gul to‘plamigina shoxlanuvchi, balandligi 5-30 sm va yo‘g‘onligi 2-4 mm. Poyadagi va ildiz bo‘g‘zidagi barglari bandli bo‘lib, uzunligi 5-10 sm, yaprog‘i buyraksimon bo‘lib, 2-4 sm uzunlikda. Gullari o‘troq, poyaning uchki qismida, supurgisimon. Yon ichki gul yon barglari teskari tuxumsimon, 1,5 mm uzunlikda va eni 1 mm, yong‘oqchasi yumaloq, 5-6 enlikda, qanotchali. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘larning alp o‘tloqlaridagi jilg‘alar qirg‘og‘ida, toshloq va shag‘alli tuproqlarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Ushbu o‘simlik nordon ta’mli. O‘simlikni yer ustki qismlari yoshligidagi ishtaha ochish uchun iste’mol qilinadi. Organizmda harorat ko‘tarilganda uni bartaraf etish uchun va avitaminoz xastaliklarida qo‘llaniladi.

Qush toron (Burgun, g'oz o'ti)-Горец птичий (спорыш, гусятница)-*Polygonum aviculare* L.



hududlarida keng tarqalgan.

Damlamasi bachadondan qon ketganda, arterial qon bosimini pasaytirishda, muskullarni baquvvatlashtirishda, qonli ichburug'da, kesilgan joydan oqayotgan qonni to'xtatishda qo'llaniladi.

Maksimovich ravochi (chuxrasi)-Ревень Максимовича-*Rheum maximowiczii* Losinsk.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi tik yoki yerga yotib o'suvchi, poyasi balandligi 10-60 sm. Bo'g'implar orasi 1-3 sm. Poya va shoxlardagi barglari keng nashtarsimon bo'lib, o'troq (bandsiz). Gullari 1-5 tadan joylashgan. May-oktabr oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning tekkisliklarida, tog'oldi

Torondoshlar – *Polygonaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi tik yoki yerga yotib o'suvchi, poyasi balandligi 10-60 sm. Bo'g'implar orasi 1-3 sm. Poya va shoxlardagi barglari keng nashtarsimon bo'lib, o'troq (bandsiz). Gullari 1-5 tadan joylashgan. May-oktabr oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning tekkisliklarida, tog'oldi

Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi oshqozon-ichak xastaliklarida, ichketarda, ichki qon ketishini to'xtatishda qo'llaniladi.

Oddiy otquloq-Щавель конский-*Rumex confertus* Willd.



Torondoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi yo‘g‘on shoxlangan. Poyasi tik o‘suvchi, bittadan bo‘lib, qisman egatchalar hosil qiladi va balandligi 85-120 sm, eni 10 mm atrofida. Ildiz bo‘g‘izidagi barglari uzun bandli, yaproqlarining chetlari to‘lqinsimon, uzunligi 25-30 sm va eni 5-8 sm, poyadagi barglari mayda, 14-22 sm uzunligi va eni 2,5 va 4 sm. Poya uchidagi to‘pgullari supurgisimon, ko‘p gulli va gullari halqasimon joylashgan.

Soy va ariqlar bo‘yida, tog‘larning pastki qismidagi o‘tloqlar orasida, tekkisliklardagi ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi.

O‘zbekistonning barcha hududlarida uchraydi. Tibbiyotda ildizi ishlataladi. Ildizi qaynatmasi va kukuni ichburug‘ (dizenteriya), kolit, enterokolit, me’da-ichak kasalliklarini davolash uchun qo‘llaniladi.

Oshlovchi toron-Горец дубильный-*Polygonum coriarium* Grig.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizlari yaxshi rivojlangan, yo‘g‘onligi 15 sm, bir nechta poyalar hosil qiladi va ularning uzunligi 60-150 sm. Barglari kalta bandli, nashtarsimon-tuxumsimon, uzunligi 4-10 sm va eni 2,5-5 sm.

Gul to‘plami supurgisimon, uzunligi 35 sm, eni 25 sm. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘larning o‘rta mintaqasida toshli, mayda shag‘alli tuproqlardagi nam joylarda o‘sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Yer ustki qismi yengil surgi sifatida va ichki organlardan qon ketishini to‘xtatishda qo‘llaniladi.

Suv otquloq-Щавель водяной-*Rumex aquaticus L.*



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘t. Ildizlari yo‘g‘on shoxlangan. Poyasi bittadan, yo‘g‘on, balandligi 1 m, eni 1,5 sm. Gul to‘plami supurgisimon shoxlangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari 15-20 sm bandli, yaprog‘i 9-25 sm va eni 6-18 sm, chetlari chuqur o‘yiqli. Urug‘lari tuxumsimon

5-7 mm va eni 5-6 mm. May-iyun oylarida gullab urug‘laydi. Ariq bo‘ylarida, nam joylarda, ba’zan ko‘lmak suvlarning qirg‘oq qismlarida o‘sadi. O‘zbekistonning barcha hududlarida uchraydi. Yaralarni bitiruvchi, qichima, yiringli yaralar, yazva, surgi sifatida qo‘llaniladi.

Suvzamchi toron-Горец перечный (водяной перец)-*Polygonum hydropiper L.*



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik, tanasi qalampirsimon achchiq ta’mli o‘simlik. Poyasi tuksiz, tik o‘suvchi, qizg‘ish rangli, kam shoxlangan, balandligi 20-60 sm. Barglari nashtarsimon, ostki barglar qisqa bandli, poyaning uchki qismlaridagisi o‘troq, 4-8 sm uzunlikda va eni 0,5-2 sm.

Gullari poyaning uchida to‘p bo‘lib, 4-10 sm uzunlikda, pushti rangda. Iyul-oktabr oylarida gullab, urug‘laydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ariqlar qirg‘og‘ida, sekin oqadigan ariqlar ichida, sholipoyalar ichida o‘sadi. Bachadondan qon ketishida, og‘ir va og‘riqli menstruatsiyada og‘riq qoldiruvchi sifatida qo‘llaniladi.

Tomirdori taroni-Горец земноводный (водяная гречиха)-*Polygonum amphibium L.*



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildizpoyali, poyasi tik o‘suvchi, oddiy, ayrim hollarda shoxlanuvchan, poyadagi bo‘g‘imlaridan ildiz hosil qiluvchi va balandligi turlicha bo‘lgan o‘t o‘simlik. Barglari o‘troq, uzunchoq-nashtarsimon, suvda

o'suvchilarida uzun bandli. Gul to'plamlari 3-5 sm uzunlikda va eni 10-15 mm, boshoqsimon. Iyun-sentabr oylarida gullab urug'laydi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon viloyatlarida sekin oqadigan ariqlar va soylarning o'zanlarida o'sadi. O'simlikning ildizidan oshqozon ichak xastaligini davolashda qo'llaniladi.


Tuganakli otquloq-Щавель клубковатый-*Rumex conglomeratus* Murr.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildiz 5-25 mm, bir va bir nechta poyalar hosil qiladi. Ularning balandligi 50-100 sm, eni 2-6 mm, qizg'ish qo'ng'ir rangda. Ildiz bo'g'zidagi barglari 10-14 sm, bandlarga ega. Yaproqlari 6-14 sm va eni 2-3,5 sm, poyadagilari maydar, 5-8 sm uzunlikda va eni 8-10 sm, chetlari biroz to'lqinsimon. Gullari juda zikh halqalarga o'xhash joylashgan. Iyun-iyulda gullab urug'laydi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Kuchli bakteriotsid xususiyatiga ega. Ildizlari oshqozon ichak xastaliklari va oshqozon yallig'lanishida qo'llaniladi.

Turkiston rovochi-Ревень Туркестанский-*Rheum turkestanicum* Janisch.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, yo'g'on ildizli, ildizlari qo'ng'ir barg qini bilan o'ralsan. Poyasi bittadan, tik o'suvchi, qirrali qizil va yashil rangda, 30-70 sm balandlikda. Poyasida 1-3 ta barglar joylashgan, ularning bandi 1-1,5 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglar uzunligi 40-150 sm, eni 40-70 sm. Tuxumsimon, mevalari 18-25 mm uzunlikda. Aprel-mayda gullab urug'laydi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro Qoraqalpog'istonda uchraydi. Ildiz kukuni, quruq ekstrakti, sharbat surunkali me'da-ichak kasalliklarida, ichni yumshatishda qo'llaniladi.

Chirmashuvchi toron-Горец вьющийся-*Polygonum sonvolvulus* L.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik, poyalari chirmashib o'suvchi, uzunligi 30-100 sm ga boruvchi o'simlik. Barglari nayzasimon, yuraksimon, uchli, bandli. Gullari poyaning uchida, oddiy boshoqsimon, siyrak to'pgullardan iborat. Shu'lalari 3 qirrali. Tuxumsimon o'tkirroq. Iyul-oktabr oylarida gullab urug'laydi. Ekinzorlarda va yo'l yoqalarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Yashil qismini yanchib qirqilgan joylardan, yaralardan qon oqishini to'xtatishda foydalananildi.

Chiroyli toron (Anjabar)-Горец красивый-*Polygonum nitens* (Fisch. et Meg.) v.Petrov ex Kom.

Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, shoxlanmaydigan, 20-60 sm balandlikdagi o'simlik. Ildizlari 1-2 sm yo'g'onlikda, ko'pincha zigzagsimon buralgan, qo'ng'ir rangda. Barglari ovalsimon, nashtarsimon, bandsiz, 8-12 sm uzunlikda va eni 2-3 sm. Pushti-oqish gullari poyani uchida boshoqsimon zich to'pgullar hosil qiladi. Tog'larning alp o'tloqlarida keng tarqalgan. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Ildiz va ildiz poyalarini qaynatmasi tish og'rig'ida, ich burug'da, teridagi shishli yaralarda, oshqozon yazvasida, jigar va o't xaltadagi toshlarda, yiringli yaralarda qo'llaniladi.

Cho'l rovochi (Tatar rovochi, chuxra)-Ревень татарский-*Rheum tataricum* L. Fil.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizlari 5-6 sm yo'g'onlikdagi, poyasi tik o'suvchi, 2-3 tadan poya hosil qiluvchi va yo'g'onligi 10-15 mm ni tashkil etadi, balandligi 30-45 sm. Odatda bittadan barg hosil qiladi va urug'lanish davrida qurib qoladi. Barglarining uzunligi 14-35 sm, eni

20-50 sm bo'lib, bandi qisqa 3-6 sm ni tashkil etadi. Urug'lari tuxumsimon, 9-12 mm uzunlikda, eni 8-10 mm. Aprel-may oylarida gullab urug'laydi. Tog' oldi hududlarida va tepaliklarda o'sadi. Buxoro, Qoraqalpog'istonnda (Ustyurtda) uchraydi.

Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Dori preparatlari ildiz kukuni, quruq ekstrakti, sharbati surunkali me'da-ichak kasalliklarida, ichni yumshatishda, ichak zaiflashib gaz to'planib qolganida qo'llaniladi.

Ekma grechixa-Гречиха посевная-*Fagopyrum sagittatum* Gilib.



Torondoshlar – *Polygonaceae* oиласига mansub bir yillik o't o'simlik, poyasi yolg'iz tekis, 30-80 sm balandlikda, barglari yuraksimon, uchki qismi o'troq, yaproqlarining uzunligi 2-5 sm, eni 1,5-5 sm. Gullari shingilda to'plangan bo'lib, poyadagi barglar qo'ltig'idan chiqadi. Gulqo'rg'oni qizil, pushti, oq ranglarda bo'ladi. Mevasi uch karra ko'saklarda yetiladi.

Iyunda gullaydi. Toshkent, Samarqand va boshqa viloyatlarda madaniy o'simlik sifatida ekiladi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida xlorogen, qahva kislotalari, urug'ida ko'p miqdorda kraxmal, yog', vitaminlar B₁ va B₂ bor.

Yer ustki qismidan qon bosimi ko'tarilganda hamda nurlangan kasalliklarda qo'llaniladi.

Meyer kermak sovuni-Кермек Мейєпа-*Limonium Meyeri* (Boiss.)

O.Kuntze.



Karmakdoshlar – *Limoniaceae* oиласига mansub ko'p yillik, balandligi 40-80-(150) sm. Ildizi yo'g'on. Barglari och yashil, tuxumsimon, 15-25-(40) sm uzunlikda va eni 5-8-(12) sm. Gul to'plami supurgisimon, gullar soni kam, boshoqchasimon gullar yig'indisidan iborat. Boshoqchalari 5 mm uzunlikda, 2-3 ta gullardan iborat. Kosachasi 3,5-4,5 mm uzunlikda. Tojbarglari ko'kbinafsha rangda. Iyul-oktabrda gullaydi, avgust-sentabrda urug'i yetiladi.

Asosan sho'rxok joylarda, ko'llar, ariqlar, to'qayzorlarda o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Ildizining qaynatmasi qon ketishini to'htadi.

Doimiy yashil shamshod-Самшит вечнозеленый-*Buxus sempervirens L. (Colchica Pojark.)*



Shamshoddoshlar – *Buxaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, bo'yi 2-3 sm bo'lgan buta. Barglari kalta bandli, tuxumsimon, ikki tomoni ham tuksiz, 15-20 mm uzunlikda va eni 5-10 mm. Gul oldi yonbargining uzunligi 2-2,5 mm, bir oz bukilgan. Urug' ko'rakchasi 7-10 mm uzunlikda. Aprelda gullaydi, avgust-sentabrda

urug'lari yetiladi. Barcha shaharlarda ekiladi.

Barglarining qaynatmasi kuchsiz surgi hisoblanadi. Poyasi va po'stloqlaridan tayyorlangan damlama buyraklardagi toshlarni va siyidikni haydaydi. Barglaridan tuyib tayyorlangan kukun Sibir yazvasini davolashda ishlataladi.

Katta changchili eman-Дуб крупнопыльниковый-*Quercus macranthera Fisch. et Mey. ex Hohen.*



Emandoshlar – *Fagaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, keng shoxlanuvchan, balandligi 10-17 m ga yetadigan daraxt. Barg bandi 1-2 sm, barg yaprog'i etli, uzunligi 6-18 sm va eni 3-12 sm, teskari tuxumsimon, bo'lib, chetlari yirik tishchali, ostki tomoni siyrak tuklanishga ega. Erkak gullari 1-5 tadan o'troq holda joylashgan. Kuchalasi 10-15 ta, yong'oqchasi 2-2,5 sm uzunlikda. Aprelda gullaydi. O'zbekistonning hamma shaharlarda ekiladi.

O'simlik tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar va kislotalar, flavonoid birikmalari bor. Po'stlog'ining qaynatmasi burishtiruvchi vosita sifatida og'iz bo'shlig'i kasalligi hisoblangan stomatit hamda tomoq shilliq qavatining yallig'lanishida, milk qonaganda, og'izda hid paydo bo'lganda og'izni chayish uchun qo'llaniladi.


Kashtanbarg eman-Дуб каштанолистный-*Quercus castaneifolia* C.A.Mey.



Emandoshlar – *Fagaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik daraxt, poya qobig‘ining rangi kulrang, tekis. Barg bandining uzunligi 2 sm. Barg yaproqlarining uzunligi 8-10 sm va eni 4-8 sm, uzunchoqroq ellipssimon. Mevalari, ya’ni yong‘oqlari 2,5-3,5 sm bo‘lib, qisqa bandli qo‘ng‘ir rangda. Aprelda gullaydi, iyulda mevalari pishishni boshlaydi. Toshkent, Samarqand, Farg‘она шахарларida ekiladi.

O’simlik tarkibida ko‘p miqdorda oshlovchi va kislotalar, flavonoid birikmalari bor. Po’stlog‘ining qaynatmasi burushtiruvchi sifatida og‘iz bo‘shlig‘i kasallik miningit, stomatit hamda tomoq shilliq qavatining yallig‘lanishida, milk qonaganda, og‘izda hid paydo bo‘lganda og‘izni chayish uchun ishlatiladi. Ba’zan 20% qaynatmasi terining kuygan joyini davolashda ishlatiladi.

Oddiy eman (gul bandli eman, Yoz emanı)-Дуб черешчатый- *Quercus robur L.*



Emandoshlar – *Fagaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o’simlik. Baland, shoxlari eniga keng o‘sadigan, siyrak tuklangan, kattalashganda tuklari to‘kilib ketadi. Kurtaklari yumaloq. Barg yaproqlari etli, teskari tuxumsimon, 6-12 sm uzunlikda va eni 3-8 sm. Urg‘ochi gullari bandi 6-8 sm uzunlikda 1-3 tadan joylashgan. Aprelda gullaydi, mevalari sentabr-oktabrda yetiladi. Hozirda Respublikamizning barcha viloyatlarda, шахарларда manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Po’stloq qaynatmasi antiseptik vosita sifatida og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklarida hamda tomoq shilliq pardasining yallig‘lanishida, milk qonaganda, og‘izda hid paydo bo‘lganda og‘iz chayish uchun qo‘llaniladi.

От каштан-Каштан посевной-*Castanea sativa* Mill.



Emandoshlar – *Fagaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik, keng shoxlovchi, 15-20 m balandlikka ega bo‘lgan daraxt. Barglari uzun bandli, yaproqlari asosigacha qirqilgan va bo‘laklarining chetlari tishchali, 10-20 sm uzunlikda, eni 3-8 sm, gullari vertikal (tik turuvchi) shingillarda joylashgan. Mevalari quruq bo‘lib, ustki qismlari tikanlar bilan qoplangan. May oyida gullab, urug‘lari sentabrda pishib yetiladi. O‘zbekistonda dekorativ daraxt sifatida ekiladi.

Tibbiyotda urug‘i va bargi ishlatiladi. Urug‘i tarkibida eskulin va fraksin, kumarin glikozidlari, flavonoidlar, triterpen saponinlar kraxmal, oqsil, oshlovchi moddalar, bargida flavonoidlar (ksersetin, kempferol va ularning glikozidlari), karatinoidlar va boshqa birikmalar bor. Urug‘idan tayyorlangan ekstrakt eskuzan tromboflebit va vena qon tomiri (ayniqsa, oyoqda) kengayishining oldini olish va davolashda hamda bavosil va aterosklerozda ishlatiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan kasalliliklarda eskuzan bilan bir qatorda yana yangi olingan esflazid hamda flavazid preparatlari qo‘llaniladi. Eskulin qon tomir kasalliklarida qo‘llaniladigan anavenol preparati tarkibiga kiradi.

Шарқ qora qayini-Бук восточный-*Fagus orientalis* Lipsky.



Emandoshlar – *Fagaceae* oиласига мансуб ko‘p yellik daraxt. Barglari tuklangan, uzun bandli (8-12 mm). Barg yaprog‘i ellipssimon, ayrim hollarda teskari tuxumsimon bo‘lib, uzunligi 6-10 sm va eni 3-5 sm, chetlari tekis yoki kichik tishchali. Samarqand, Farg‘ona va Toshkent shaharlarida ekiladi. Uning poya va novdalaridan olingan smolasiga kuchli bakteriotsid va antikarsit xususiyatiga ega. Teridagi yaralarga ishlatiladi.

Qorayopishqoq Olxa-Ольха клейкая (черная)-*Alnus glutinosa* (L).

Geartn.



Qayindoshlar – *Betulaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, daraxt. Shoxlari kulrang oq, ayrim qismlarida oq nuqtalari bor. Yosh novdalar momiq, yopishqoq. Barglarinin uzunligi 1-2,5 sm. Yaproqlari doirasimon ellipssimon-dumaloq, uzunligi 4-9 sm va eni 3-7 sm chetlari ikki tishchali. Gullari ayrim jinsli. Aprelda gullab, oktabrda urug‘lari yetiladi.

Madaniylashtirilgan. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va boshqa shaharlarda dekorativ o‘simlik sifatida ekiladi.

G‘udda mevasi tarkibida oshlovchi moddalar bor. Mevasining damlamasi burishtiruvchi vosita sifatida ichak kasalliklari, surunkali enterit va kolitni davolashda qo‘llaniladi. G‘udda mevasi ichketarga qarshi ishlatiladigan choylar, yig‘malar tarkibiga kiradi.

Oqqayin, sugalli qayin-Bородавчатая-*Betula pendula* Roth (*verrucosa* Ehrh.)



Qayindoshlar – *Betulaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, daraxt. Poyasi oq, barglari oddiy rombsimon-tuxumsimon, 7-8 sm uzunlikda ba’zilari 4-5 sm. Bargining bandi 2-3 sm. Urug‘ hosil qiluvchi kuchalasi 4 sm gacha. Oqqayin yong‘oqlari tuxumsimon 2 mm uzunlikda va eni 1 mm uzunlikka yetadi. Aprelda gullab, urug‘lari oktabrda yetiladi. Tog‘larda, tog‘daryolarining qirg‘og‘ida, buloqlar atrofida, tog‘ning o‘rtal mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Namangan viloyatlari va shaharlardagi bog‘larda o‘stiriladi.

Tibbiyotda kurtagining efir moyi tarkibida betulen, betulol, kariofilen va terpenoidlar bor. Kurtak va barg damlamalari siyidik haydovchi vosita sifatida istisqo kasalligini davolashda qo‘llaniladi, bargining damlamasi yana avitaminozlarda, kurtak damlamasi o‘t haydovchi vosita sifatida xolesistitda ishlatiladi. Qayin daraxtining

qatroni vishnevskiy surtmasi tarkibida yaralarni, vyalkinson surtmasi tarkibida qo'tir va teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Muskat yong'og'i-Лещина обыкновенная-*Corylus avellana L.*




Leshinadoshlar – *Corylaceae* oиласига mansub ko'п yillik daraxt. Barglari doirasimon yoki ovalsimon, chetlari ikki bor tishchali, 6-12 sm uzunlikda va eni 5-9 sm. Erkak kuchalasi 5 sm gacha boradi. Mevalari ikki karra qirqilgan tishchali, uzunligi 18 mm, diametri 13-15 mm, och va to'q jigarrang. Mart oyida gullab, sentabrda mevasi yetiladi. Kam meva beradi.

O'zbekistonning Botanika bog'ida va ayrim joylarda manzaralı daraxt sifatida ekiladi.

Mevasining po'stlog'i ichburug'ni davolashda hamda buyraklardagi toshlarni haydashda qo'llaniladi. Urug'idan olingen yog'lari askaridalarni tushirish uchun ishlatiladi. Mag'izi kamqonlikda, revmatizmda, jinsiy kuchsizlikda asal bilan iste'mol qilinadi.

Grek yong'og'i-Грецкий орех-*Juglans regia L.*



Yong'oqdoshlar – *Juglandaceae* oиласига mansub ko'п yillik, keng shoxlanuvchi, 10-15 m balandlikka ega bo'lgan daraxt. Barglari etli, o'ziga xos hidga ega, uzun bandli, 5-7 yaproqli murakkab, erkak gullari kuchala hosil qiladi.

Urg'ochi gullar poyaning uchlarida 1-3 tadan shingilcha hosil qiladi. Aprel oyida gullab, mevasi sentabrda pishadi.

O'zbekistonning janubiy rayonlari tog'larida o'sadi. Madaniy holda ko'plab ekiladi.

Bargining shirasini siqib, qulqoqning yiringli yarasiga tomiziladi. Mag'izidan olingen yog'i oshqozon, nerv, buyrak, ko'richak, teri yaralariga qarshi ishlatiladi.

Kolomikta aktinidiyasi-Актинидия коломикта-*Actinidia kolomikta* Maxim.



Aktiniyadoshlar – *Actinidiaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Qisman o‘ralib o‘suvchi va poyasining uzunligi 15 m. Poyalari och qizil-yashil. Barglari tuxumsimon-ovalsimon, chetlari tishchali, 8-16 sm uzunlikda va eni 5-9 sm. Gullari oq va pushti ranglarda 1,5-2 sm diametrda. Erkak gullari qalqonsimon. Urug‘chi gullari bittadan joylashgan.

Iyulda gullab mevasi avgustda pishadi. Toshkentdagи botanika bog‘ida yaxshi o‘sadi. Urug‘lari singa kasalligining oldini olishda, turli qon ketishlarda, tuberkulyozda, tishlar yemirilganda hamda yo‘talga qarshi qo‘llaniladi.

O‘tkir (achchiq) aktinidiya-Актинидия острая-*Actinidia arguta* (Siebold et Zuec). Planch.



Aktiniyadoshlar – *Actinidiaceae* oиласига мансуб ko‘p yillik, poyasi o‘ralashib o‘suvchi va uzunligi 25 m bo‘lgan buta. Poyalari ochiq qizil yoki to‘q qizil rangda. Barglari uzunchoq tuxumsimon, uzunligi 8-16 sm va eni 3-6 sm. Gullari o‘ziga xos hidga ega va rangi oq, supurgisimon to‘pgullarining umumiy uzunligi 1-1,5 sm. Mevasi shirin hidli. Iyulda gullab, avgustda mevalari yetiladi. Toshkent botanika bog‘ida o‘stiriladi.

Tibbiyotda ikki turining mevasi ishlataladi. Mevasi tarkibida qandlar, organik kislotalar, ko‘p miqdorda vitamin C, pektin va oshlovchi moddalar bor. Meva sharbati va xom murabbosi (ho‘l mevasi bilan shakar aralashmasi) lavsha (singa) kasalligini davolash va oldini olish uchun qo‘llaniladi. Uzoq Sharq xalq tabobatida aktinidiya mevasi bilan sil, tish og‘rig‘i (kariyes), ko‘k yo‘tal kasalliklari davolanadi.

Dag‘al dalachoy-Зверобой шероховатый-*Hypericum scabrum L.*



Dalachoydoshlar – *Hypericaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. So‘rg‘ichli tuklar bilan qoplangan, ildizi yog‘ochlashadi, 4-10 mm yo‘g‘onlikda, poyalari ko‘p sonli, qizil binafsha rangli, balandligi 20-50 sm. Poyadagi barglari uzun nashtarsimon, 10-15 mm uzunlikda. Gul to‘plami qalqonsimon-supurgisimon, 3-5 sm enlikda. Kosachasi 2-4 mm to‘q qizil, tekis. Tojbargi tuxumsimon 4-10 mm uzunlikda va eni 2-4 mm. May-iyulda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning old qismida va o‘rta mintaqalarida toshli, shag‘alli va tuproqli joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlataladi. Dori preparatlari damlamasi bilan surtmasi (nastoykasi) burishtiruvchi, antiseptik vosita sifatida me‘da-ichak (kolit, ichketar), og‘iz bo‘shilg‘i yallig‘lanishi (stomatit) kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi.

Qizilpoycha dalachoyi-Зверобой пронзенный-*Hypericum perforatum L.*



Dalachoydoshlar – *Hypericaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi yog‘ochlashadi, yo‘g‘onligi 4-7 mm, poyalari ko‘p bo‘lmagan, tuksiz, balandligi 30-55 sm, yo‘g‘onligi 2-3 mm, yuqori qismi shoxlangan. Barglari ovalsimon, 10-17 mm uzunlikda va eni 4-8 mm. To‘pgullari qalqonsimon-supurgisimon. Kosachasi tuksiz, tekis, 4-5 mm uzunlikda. Tojbargi ellipssimon, 18-20 mm uzunlikda va diametri 3-4 mm. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi hududlaridan to yarmigacha bo‘lgan joylarda o‘sadi. Farg‘ona, Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida ko‘p miqdorda oshlovchi moddalar, efir moyi, flavonoidlar (kversetin, giperozid, rutin) karotin, vitamin C, organik kislotalar, giperitsin moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi bilan surtmasi (nastoykasi) burishtiruvchi, antiseptik vosita sifatida me’da-ichak (kolit, ichketar), og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanishi (miningit, stomatit) kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. Yer ustki qismining moyli ekstrakti me’da va ichak yarasi kasalligiga va yaralarga davo qilinadi.

Cho‘ziq bargli dala choy-Зверобой удлиненный-*Hypericum elongatum* Lebed.



Dalachoydoshlar – *Hypericaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Yo‘g‘on ildizli, ildizi yog‘ochlashuvchan, 10 mm yo‘g‘onlikda. Tomiri ko‘p sonli, balandligi 40-50 sm, oddiy, ba’zan shoxlanuvchan tuksiz. Barglari qarama-qarshi joylashgan, nashtarsimon, uzunligi 15-20 mm va eni 4-6 mm, kalta tutqichli, tuklangan. Gul to‘plami poyaning uchki qismida supurgisimon, bargsiz, 40 sm uzunlikda. Kosachasi tuksiz 2-4 mm uzunlikda. Tojbargi teskari tuxumsimon, 13-15 mm uzunlikda va eni 4-6 mm, chetlarida nuqtali qora dog‘i bor. Ko‘rakchasi 6-9 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgustda yetiladi. Toshli va shag‘alli tuproqlarda, tog‘larning o‘rta mintaqalarida uchraydi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida ko‘p miqdorda oshlovchi moddalar, efir moyi, flavonoidlar (kversetin, giperozid, rutin) karotin, vitamin C, organik kislotalar, giperitsin moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi bilan surtmasi (nastoykasi) burishtiruvchi, antiseptik vosita sifatida, me’da-ichak (kolit, ichketar), og‘iz bo‘shlig‘i yallig‘lanishi (stomatit) kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. Yer ustki qismining moyli ekstrakti me’da va ichak yarasi kasalligiga va yaralarga davo qilinadi.

Kavkaz xurmosi (Safsan)-Хурма кавказская-*Diospyros lotus L.*



Xurmodashlar (Safsandoshlar) – *Ebenaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 15-20 m, daraxt. Barg bandlari 0.8-0.9 sm uzunlikda. Yaproqlari etli, uzunchoqroq, 9-15 sm uzunlikda va eni 3-5 sm, chetlari kipriksimon, har ikki tomoni tuklangan. Kosachasi tuxumsimon, tuklangan. Tojbarglari qo‘ng‘iroqsimon,

yuqori qismi kengaygan. Mevasi olcha sifat, oldin sarg‘ayadi so‘ngra pishib yetilganda qora rangga o‘tadi. May-iyunda gullab, oktabrnoyabrda mevasi yetiladi. Tog‘larning shamol va sovuqdan himoyalangan joylarida o‘sadi. Surxondaryo viloyatida (Sangardak va To‘palang daryolar xavzasida) tarqalgan. Mevasi kamqonlikda, gipovitaminoz, yo‘talga qarshi, yuqori nafas yo‘llarining shamollashida ishlatiladi.

Dala itgunafsha-Вероника полевая-*Veronica arvensis L.*




Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasi oddiy, balandligi 5-10 sm. Bargi juda qisqa bandli, yuraksimon, to‘lqinsimon, gul oldidagilari o‘troq. Gullar to‘plami boshoqsimon siyrak. Gul tutqichlari kosachasidan kalta. Tojbarglari ochiq havorang. Ko‘sakchasi kosachasidan oz-moz kalta, 3,5 mm enlikda, teskari yuraksimon. Urug‘lari 15-20 ta,

tuxumsimon, mayda, burishgan. Aprel-may oylarida gullab, urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi tumanlaridagi tuproqli joylarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tomoq og‘rig‘ida, qon tupurishda, revmatizmda, qichimada va surunkali teri yaralarida ishlatiladi. Choy sifatida shamollaganda, tomoq va burun kasalliklarini davolashda istemol qilinadi.

Djung'or sigir quyrug'i-Коровяк джунгарский-*Verbascum songoricum* Schrenk.



Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oиласига mansub ikki yillik о'simlik. Qalın tuklar bilan qoplangan, balandligi 60-150 sm. Poyasi yirik bo'lib o'rta qismidan shoxlanuvchi. Ildiz bo'g'izidagi barglari o'troq yoki juda qisqa bandli, yaproqlarning har ikki tomoni ham tuklar bilan qoplangan bo'lib, uzunligi 15-40 sm va eni 3,5-12 sm uzunchoq nashtarsimon, chetlari tekkis. Gullari (2)-7 ta dan shoxchalarda joylashgan. Kosacha bargi 6-9,5 mm uzunlikda 3-4 qismgacha bo'lingan. Tojbargi sariq, diametri 25-32 mm. Ko'sakchasi 5-7,5 mm uzunlikda va eni 0,5 mm. Iyun-avgustda gullab, urug'lari iyul-sentabrda yetiladi. Tog' oldidan to tog'ning o'rta qismigacha bo'lган hududlarda o'sadi. Toshkent, Farg'она, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Gul va bargining damlamasidan balg'am ko'chiruvchi, surgi, terlatuvchi, siydiq xaydovchi, yurak sanchig'ida, tuberkulyozda qo'llaniladi. Bundan tashqari baliq tutish uchun ham ishlatiladi.

Dorivor safroo't-Авран лекарственный-*Gratiola officinalis* L.



Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oиласига mansub ko'p yillik, tuksiz о'simlik. Ildiz poyasi tarmoqlanuvchi, poyasi tik, yuqori qismigacha barglar bilan qoplangan, to'rt qirrali, balandligi 25-40 sm. Barglari poyani yarim o'rab oluvchi, nashtarsimon, chetlari arrasimon tishchali. Gullari bittadan, barg qo'ltig'ida joylashgan, 2,5-3 sm li tutqichga ega. Kosachasi 6 mm uzunlikda. Tojbarglari 18-20 mm uzunlikda, och sariq, pushti dog'lari bor. Ko'sagi tuxumsimon. May-avgust oylarida gullab urug'laydi. Nam ariqlar bo'yida, sholipoyalarda o'sadi. Toshkent, Surxondaryo (Kitob) viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida glikozidlar, alkaloidlar, saponinlar, flavonoidlar kabi moddalar bor. Yer ustki qismi


Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida o'simlik damlamasi (yoki qaynatmasi) surgi, siydik va gjija haydovchi vosita sifatida, bavosil, podagra, sarrayma, yaralarda va vena qon tomirlarini kengaytirish uchun hamda jigar, taloq, teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Itgunafsha-Вероника водяновидная-*Veronica anagalloides* Guss.



Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi yo'g'on, tik o'suvchi, shoxlangan, 10-40 sm balandlikda. Bargi uzunchoq yuraksimon, poyani o'rab oluvchi, tekkis chetli. Gullari barglar qo'lting'ida shingilsimon to'p gullarda joylashgan. Kosachasi nashtarsimon, uchli kosachabarglarga ega. Tojibargi oqish, ko'k tomirlangan dog'larga ega. Kosachasi tuksiz, tuxumsimon 2,5-3-(4) mm uzunlikda. Mart-avgust oylarida gullab urug'laydi. Soylar va ariqlar bo'yida, nam joylarda yetiladi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Bargidan tayyorlangan damlamasi bachadondan qon ketishiga, yaralarga qarshi ishlataladi.

Papov tog'qoramig'i-Лънянка Попова-*Linaria Popovii* Kuprian.



Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyalari 2-3 tadan, ayrim hollarda ko'p sonli, shoxlangan, 25-70 sm balandlikdagi o't o'simlik. Barglari navbatlashib joylashgan, 3-4 sm uzunlikda va eni 2-4 mm. Shingili ko'p gulli. Kosachasi 2-3 mm uzunlikda. Tojbarglari 10-13 mm uzunlikda, och sariq, qo'ng'ir rangdagi, pixi to'g'ri bukilmagan. Ko'sakchasi 5-6 mm. May-iyunda gullab urug'laydi. Tog'larning old qismidan to o'rta qismigacha bo'lgan toshli, shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O't haydovchi, qabziyatda, siydik haydovchi, terlatuvchi sifatida qo'llaniladi.

Sharq takasoqoli-Додартия восточная-*Dodartia orientalis* L.



Sigirquyruqdoshlar – *Scrophulariaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Bargsiz, poyalari ko‘p sonli, ko‘p shoxlangan, balandligi 25-40 sm. Ostki barglari qarama qarshi joylashgan, mayda, uzunchoq o‘troq, tezda qurib qoladi. Shingildagi gullari 3-7 gulli, siyrak, o‘troq, kosachasi 3 mm uzunlikda, uchli, uchburchaksimon tishchali. Tojbargi 16-22 mm uzunlikda, to‘q binafsha rangda, tashqi tomoni tuksiz, ko‘sagi sharsimon 4 mm. May-iyunda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning old qismi va o‘rta mintaqalarda, yo‘l yoqasida, ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

O‘simlikning yer ustki qismini maydalab quritib, damlama tayyorlanib, so‘ng zaxm (sifilis) ni davolashda ishlatiladi.

Dala Sovun o‘ti-Очный цвет пашенный-*Anagallis arvensis* L.



Navro‘zguldoshlar – *Primulaceae* oиласига мансуб bir yillik, tuksiz, och yashil, ko‘p poyali, to‘rt qirrali, balandligi 5-25 sm. Barglari yumaloq ovalsimon, 10-20 mm uzunlikda va eni 6-10 mm. Gullari 14-20-25 mm uzunlikdagi bandlarga ega. Kosachasi 3,5-5 mm uzunlikda. Tojbarglari pushtisimon-qizil, 10-13 mm diametri, urug‘chasi 5 mm diametriga ega. Aprel-may oylarida gullab, may-sentabrgacha urug‘lari yetiladi. Ariqlarni qirg‘oqlarida, ekinzorlarda, o‘rmonli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, flavonoidlar, qandlar, oshlovchi moddalar bor. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi jigar, buyrak-tosh, nafas qisish, o‘pka sili va tutqanoq, kasalliklarini davolashda hamda o‘t va siyidik haydovchi hamda surgi dori sifatida qo‘llaniladi, u bilan turli yiringli yaralar

yuviladi. Uning shu xususiyatidan kelib chiqib, ilmiy tibbiyotda mana shu damlasidan buyrak, siyidik yo'llari va siyidik qopidagi (qovo'q) qum, toshlarni tushirishda foydalanilmoqda.

Oddiy lizimaxiya-Вербейник обыкновенный-*Lysimachia vulgaris L.*



Navro'zguldoshlar – *Primulaceae* oиласига mansub ko'p yillik, ildizpoyasi yaxshi rivojlangan. Poyasi tik o'suvchi, aniq bo'lмаган qirrali, balandligi 60-100 sm, poya va novdalari qalin barglar bilan qoplangan, uchki qismi gul to'plami bilan tugallanadi. Barglari qaramaqarshi joylashgan, ayrim holda qalqonsimon, uzun nashtarsimon, chetlari tekkis, 7-10 sm uzunlikda va eni 1,5-4 sm, bandlari 1,5-3,5 mm uzunlikda. Gullari supurgisimon to'pgullar hosil qiladi. Kosachasi keng qo'ng'iroqsimon, 3-4 mm uzunlikda. Tojbarglari ochiq-sariq, diametri 16-18 mm, ko'sagi yumaloq. Iyun-iyul oylarida gullaydi, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. To'qaylarda, botqoqli joylarda, ariqlar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlari tarqalgan.

Gul va barglaridan turli qon tupurishda, qonli ichburug'da, kuchli menstruatsiyada qo'llaniladi.

Turchanova androzasi-Проломник Турчанинова-*Androsace*

Turczaninowii Freyn. (A.maxima L.)



Navro'zguldoshlar – *Primulaceae* oиласига mansub bir yillik, siyrak tuklangan o'simlik. Gul to'plamlari bittadan yoki bir nechtadan, biroz egilgan, uzunlugi 3-15 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari mozaikali ellipssimon kalta bandli, 0,5-4 sm uzunlikda, eni 0,4-1,2 sm. Soyaboni 3-10 ta gulli. Kosachasi 2/3 qismi qirqilgan tuxumsimon. Tojibarglari oqish, oq pushti, quritilganda pushti binafsharangda. Diametri 3-4 mm, teng o'rtasidan bo'lingan. Ko'sagi kalta bargli. Urug'i ko'p sonli mayda. Mart oyida gullab, aprelda urug'lari yetiladi. Tog' oldi va tog' o'rta mintaqalarida

begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan gemoroyni davolash uchun vanna qilinadi va boshqa o'simliklarga qo'shib ishlatiladi.

Xushbo'y gunafsha-Фиалка душистая-*Viola odorata L.*



Gunafshadoshlar-*Violaceae* oиласига mansub ko'p yillik, qalin tuklangan, ildiz otuvchi poyasi yerga yotib undan ildiz hosil qiladi. Shoxlangan ildiz poyali. Barglari buyraksimon, yuraksimon, panjasimon, uzun bandli. Gullari o'tkir hidli, barglar qo'lting'ida o'sib chiqadi. Bandi barglardan uzun, tik turuvchi, urug'lash davrida yotib qoladi. Kosachasi tuxumsimon, 9 mm uzunlikda. Tojibarglari to'q binafsha rangda, ayrim hollarda oq, pixi bilan 12-19 mm uzunlikda. Ko'sakchasi sharsimon, 8 mm diametrda, tuklangan kalta bezlari bor. Mart oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida istirohat bog'lari, xo'jaliklarida manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

O'simlikdan tayyorlangan qaynatmasi ichburug'da, qayt qilishga qarshi, sariq xastaligida, siyidik haydashda, astmada, bolalardagi kamqonlikda ildizi qo'llaniladi.

Qora terak (ko'k terak)-Тополь бальзамический-*Populus balsamifera L.*



barcha viloyatlarida Tarkibida efir moyi, salitsin, populin va xrizin glikozidlari olma kislotalar, smolalar, oshlovchi, bo'yoq moddalar bor. Damlamasi

Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига mansub ko'p yillik daraxt, barglari 2,5-5 sm bandlardan iborat bo'lib, yaproqlari etli, chetlari tekkis yoki yirik tishchali, uchi o'tkir, uzunligi 5-12 sm va eni 2,5-7 sm. Kuchalasining uzunligi erkaklarida 5-7 sm, urg'ochi gullarda 8-10 sm. Mart-aprel oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning ekiladi. Tibbiyotda bargi, kurtagi ishlatiladi.

haroratni pasaytiruvchi, tinchlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Qora terak (Mirzaterak)-Тополь черный-*Populus nigra* L.



Toldoshlar - *Salicaceae* oиласига мансуб ко'п ўйлиқ дарахт, шохлари кенг ёки қисқа пирамида шаклида. Барлари узун ёки новдаларда бо'либ, бандининг узунлиги 4-8 см, япроqlarini узунлиги 5-8 см ва ени 5-7 см, доирасимон ёки понасимон шакллarda. Urg'ochi kuchalasi 12 sm gacha, erkaklarida 6-

10 sm gacha boradi. Mart-aprel oylarida гуллаб уруг'laydi.

Farg'она водиysi va Toshkent viloyatlarida ekiladi. Tibbiyotda bargi, kurtagi ishlatiladi. Damlamasi haroratni pasaytiruvchi, tinchlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Oq terak-Тополь белый-*Populus alba* L.



Toldoshlar - *Salicaceae* oиласига мансуб ко'п ўйлиқ дарахт, шохланувчи, ya'ni piramidasimon bo'lib, balandligi 10-15 m ni tashkil etadi. Barglari 3-5 sm li bandlarga ega, yaprog'i 8-15 sm узунликда ва ени 8-10 sm тuxumsimon, 3-5 bo'lakchali, chetlari tekkis ёки кам tishchali, barglar ostki momiqsimon tuklar bilan qoplangan.

Erkak kuchala 4 sm, urg'ochi kuchala 5-6 sm ni tashkil etadi. Aprel-may oylarida, urug'lari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida o'stiriladi.

Tibbiyotda bargi, kurtagi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, salitsin, populin va xrizin glikozidlari olma kislotalar, smolalar, oshlovchi, bo'yoq moddalar bor. Damlamasi haroratni pasaytiruvchi, tinchlantiruvchi, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Oq tol-Ива белая-Salix alba L.



Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, сershox egiluvchan novdali daraxt. Kurtaklari 6 mm, novdaga yopishgan, uzunchoq, uchi uchli, qizgich sariq kumush rang, bandi 2-10 mm, yaprog‘i 5-15 sm uzunlikda va eni 1-3 sm lentasimon lansetga o‘xshash. Kuchalalari bahorda barglari bilan bir vaqtida rivojlanadi va uzunligi 3-5 sm. Aprel-may oylarida gullab urug‘laydi. Manzarali va soya beruvchi daraxt sifatida O‘zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi.

Po‘stlog‘i asosan bezgakni davolashda qo‘llanilgan. Qaynatma holda po‘stlog‘idan yaralar va ekzemalarga, revmatizmda, isitmani tushurishda qo‘llaniladi.

Osina teragi-Тополь осина-Populus tremula L.



Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига мансуб Ko‘p ўйлиқ daraxt, kam shoxlanuvchan, barg bandlari 3-5 sm, doirasimon yoki ovalsimon. Yaproqlari ovalsimon yoki uchburchaksimon shakllarda, chetlari teng bo‘lmagan tishchali, 3-8 sm uzunlikda. Erkak kuchalalarining uzunligi 2-8 sm, urg‘ochilari 12 sm gacha boradi. Mart-aprel oylarida gullab urug‘laydi. O‘zbekistonning qishloq va shaharlarida keng ekiladi. Yosh novdalari, po‘stlog‘i, bargi va kurtaklari ishlatalidi. Tayyorlangan damlamasi burishtiruvchi, qon oqishini to‘xtatuvchi, yaralarni bitiruvchi, revmatizmga va isitmani tushiruvchi sifatida qo‘llaniladi.

To‘q qizil tol-Ива пурпурная-Salix purpurea L.



Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига мансуб ko‘p ўйлиқ daraxt, shoxlari va novdalari sariq egiluvchan, pishshiqli. Kurtaklari 3-5 mm bo‘lib, to‘q qizil rangda, novdaga yopishgan holda tuksiz. Barg bandi 3-6 mm, yaproqlari 3-13 sm uzunlikda va eni 8-15 mm, teskari tuxumsimon, uchi uchli.

Kuchalalari bargdan oldin rivojlanadi. Mart-may oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonda kam ekiladi.

Po'stlog'i talqon qilinib qonli yaralarga sepiladi. Burundan qon ketishini davolaydi. Sariq, revmatizmda, vena tomirlarini kengayishiga qarshi vanna qilinadi.

Turon toli-Ива туранская-*Salix turanica* Nas.



Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига мансуб ко'п yillik daraxt. Shoxlari g'ishtrang yoki oqish sariq. Kurtaklari kumush rang. Barg bandi 1 sm, yaproqlari 11-14 sm uzunlikda va eni 2-4 sm, keng nashtarsimon, chetlari to'lqinsimon ba'zan tekis. Erkak gullar kuchalasi 2-3 sm uzunlikda va yo'g'onligi 1,5 sm, urg'ochi gullar kuchalasi 3-4 sm uzunlikda, urug'lari yetilganda 6 sm gacha boradi. Mart-may oylarida gullab urug'laydi. Asosan tog', daryolar, soylar va ariqlar bo'yida o'sadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarida ko'plab o'sadi.

Po'stlog'ining qaynatmasi qon ketishlarni to'xtatuvchi, siyidik haydovchi, o't haydovchi, oshqozon ish faoliyatini tiklovchi sifatida, tish og'rig'ini qoldirishda, yuqori nafas yo'llarining xastaliklarida qo'llaniladi.

Echki tol-Ива козья-*Salix saprea* L.



Toldoshlar – *Salicaceae* oиласига мансуб ко'п yillik daraxt. Shoxlari va novdalari qo'ng'ir kulrang, bo'g'inli, kurtaklari novdaga yopishgan 5-6 mm uzunlikda va eni 3 mm, tuxumsimon, qizg'ish qo'ng'ir tuklangan. Barg bandi 1-2 sm qalin tukli, yaprog'i turli shakllarda, asosan tuxumsimon, nashtarsimon

11-18 sm uzunlikda va eni 5-8 sm, chetlari to'lqinsimon. Kuchalasi bargdan oldin rivojlanadi. Erkaklari o'troq, 5-6 sm uzunlikda va 1,5-2 sm yo'g'onlikda, urg'ochi kuchalalar qisqa bandli, uzunligi 10 sm ga boradi. Mart oyida gullab urug'laydi. Markaziy Farg'ona cho'llarida ixota sifatida keng ekilgan.

Po'stlog'inining qaynatmasidan qon ketishida to'xtatuvchi, burundan qon ketganida, og'riq qoldiruvchi sifatida, yurak nevrozlarida qo'llaniladi.

Dag'al tukli yulg'un-Гребенщик жестковолосистый-*Tamarix hispida* Willd.



Yulg'undoshlar - *Tamaricaceae* oиласига mansub ko'p yillik, och yashil buta yoki kichik daraxt. Poyalari qalin bezchali tuklar bilan qoplangan, yosh poyalari qo'ng'ir-qizil rangda, keksa poyalari kulrang. Barglari yuraksimon-ovalsimon, qalin tuklangan. Gullari och pushti rangda. Ayrimlarida oq, poya va novdalar uchida supurgisimon to'pgullar hosil qiladi.

Gullari 5 a'zoli, o'troq. Tojbarglari uzunchoq ellipssimon. Ko'sagi uch qirrali, 1-3 mm uzunlikda, pushti, qo'ng'ir-qizil, tillarang, sariq ranglarda. Iyuldan to oktabrgacha gullab urug'laydi. Daryo bo'yisi, to'qaylar, yer osti suvi yaqin bo'lgan sho'rxok yerdarda o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Qobig'i va barglarida ko'p miqdorda oshlovchi moddalar saqlaydi. Bargidan olingen shirasi og'iz yazvasiga davo qilinadi. Po'stlog'i kuchli burushtiruvchi xususiyatga ega. Bargidan revmatizmda qo'llaniladi.

Tulkidumli bolqin-Мюрикария лисохвостная-*Myricaria alopecuroides* Sehrenk. (*M. bracteata* Royle).



Yulg'undoshlar - *Tamaricaceae* oиласига mansub Ko'p yillik, poyalarining balandligi 1-2 m bo'lgan chala buta. Barglari och yashil, bandsiz o'troq, yuqori shoxlaridagi barglarining uzunligi 5-20 sm va eni 12-15 mm. Kosachasi uzunchoq, chetlari tishchali. Tojbarglari pushti, teskari tuxumsimon, 5-7 mm uzunlikda va eni 3-3,5 mm. Ko'sagi tekis 4 mm uzunlikda va diametri 3 mm. May oyining ikkinchi yarmidan sentabrgacha gullaydi. Tog'larning shag'alli soylari qirg'og'ida va daryolar orolchalarida

o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Barglari qon to'xtatuvchi, qon tupurishda qo'llaniladi.

Uvalanuvchi yulg'un-Гребенщик пихлий-*Tamarix laxa* Willd.



Yulg'undoshlar - *Tamaricaceae* oиласига mansub ko'п yillik, och yashil, buta, tuksiz, poyalari zangsimon-qo'ng'ir rangda. Yosh novdalari ingichka, sinuvchan. Barglari yosh yangi novdalarda ovalsimon ko'rinishda bo'ladi. Gul shingillari eski yashil yog'ochlashgan poyalar uchida joylashadi, ular o'troq, to'plam uzunligi 5-30 mm. Kosachasi keng ovalsimon, bukilgan, urug'langandan so'ng to'kilib ketadi. Oqish yoki yorqin pushti rangda. Changchisi binafsha-to'q qizil, yuraksimon ustunchasi 3 ta. Ko'sakchasi ingichka, o'z enidan 4 marotaba uzun. Aprel oyiga o'rtalaridan kuzgacha gullab urug'laydi.

Sho'rxoklar atrofida qurigan suv o'zanlarida, cho'l taqirlarining qir bog'larida, qum barxanlari tevaragida o'sadi. O'zbekistonning barcha cho'l tumanlarida tarqalgan. Qobig'i burushtiruvchi sifatida qo'llaniladi.


Tukli uchchanoq-Франкения волосистая-*Frankenia hirsuta* L.



Uchchanoqdoshlar - *Frankeniaceae* oиласига mansub ko'п yillik chala buta, poyasining balandligi 8-20 sm, ko'п sonli poyali, yer bag'irlab o'sadi, kam shoxlangan. Barglari nashtarsimon kalta bandli, yuzasi siyrak, eti qalin tuklangan. Gullari qalqonsimon to'pgul hosil qiladi. Kosachasi 5 mm uzunlikda.

Tojibarglari 6-7 mm uzunlikda, to'q qizil yoki pushti. Kosachasi ovalsimon uzunroq 3 mm uzunlikda va eni 1,3 mm. May oyidan to sentabrgacha gullab urug'laydi. Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari, Qoraqalpog'istonda tarqalgan. Surgi dori sifatida qo'llaniladi.


Achchiq tarvuz-Арбуз колоцинт-*Citrullus colocynthis* (L.) Schrad.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyasi qirrali, tuklar bilan qoplangan, poyasining uzunligi 1,5-2,5 m. Ilashuvchi jingalaklari shoxsiz, ayrim hollarda ikkiga bo'lingan. Barglari uch burchak ko'rinishda, 5-8 sm va eni 4-5 sm, 5-7 tada chuqur o'yigli. Erkak gullar tutqichi kalta, tuklangan. Urg'ochi gullar kosachasi

bigizsimon, tuklangan, tojibarglari sariq, sharsimon uzunchoq shaklda bo'lib, 7-10-12 sm, mevasining rangi och sariq, qattiq va juda achchiq. Avgust-sentabrda gullab, sentabr-oktabrda mevasi yetiladi. Shifobaxsh o'simlik sifatida ekiladi. Mevasi po'chog'idan tozalab quritiladi va kuchli surgi sifatida qo'llaniladi. Hayvon va insonlardagi gjijalarini to'kishda ham ishlatiladi.

Ikki uylig tarvuzpalak (sirtan)-Переступень двудомный-*Bryonia dioica* Jacq.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Ikki uyli, ildizi yo'g'on, uzun, o'rtacha og'irligi 700-1000 g. Poyalari ko'p sonli, 2-4 mm yo'g'onlikda, uzunligi 2-2,5 metr. Ilashuvchi jingalaklari shoxlanmaydi. Barglari tuklangan, keng yuraksimon, besh panjasimon bo'laklarga ega. Erkak gullari tutqichi 8-20 sm va unda 10-15 tadan gullar joylashgan. Tojbarglari sarg'ish-oq, ko'kish-sariq ranglarda. Urg'ochi gullar qalqonsimon to'pgullarda 4-7 tadan joylashgan.

Urug' mevalari dastlab yashil, yetilish jarayonida qizil, sarg'ish ranglarga o'tadi, diametri 7-8 mm. May-iyunda gullab, iyun-avgustda mevalari yetiladi.

Ildizidan tayyorlangan damlamalar ko'rish va eshitish organlarining faoliyatini susayganda, soch va tuklar to'kilishini oldini olishda ishlatiladi.

Qora mevali tarvuzpalak-Переступень черноплодный-Bryonia melanocarpa Nabiev.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oиласига мансуб ко‘п yilik, bir uyli o‘simlik. Ildizi yo‘g‘on, tunganaksimon, kalta shoxlangan, 75 sm uzunlikda va yo‘g‘onligi 15-20 sm (og‘irligi 27 kg gacha). Poyasi ko‘p sonli, 25 tagacha va uzunligi 2-4 m, qirrali. Barg yuzasi tuksiz, burishgan, ostki qismi qalin tuklangan, umumiy ko‘rinishi uzun nashtarsimon, 5 panjasimon qirqilgan. Ostki qismida erkak gullar bo‘lib, ularning gul tutqichlari kalta 3-5 sm, yuqorida urg‘ochi gullar alohida joylashadi. Tojibarglari yashilsimon sariq, juda qalin bezchali tuklar bilan qoplangan. Mevasi ko‘kish-qora, tekis, diametri 6-8 mm. Urug‘i teskari tuxumsimon, 4-5 mm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyul-avgust oyalarida mevalari yetiladi. Mustahkamlangan barxanli qumlarda, cho‘llardagi qandim va saksovullar bilan birga o‘sadi. Toshkent (Mirzacho‘l) va Buxoro viloyati (Qizilqumda) tarqalgan.

Ildiz qaynatmasi podagra, bod, poliartritda og‘riq qoldiruvchi, yo‘talni qoldiruvchi, qon oqishini to‘xtatuvchi, yaralarni bitiruvchi sifatida qo‘llaniladi. Mevasi tutqanoq, bavosil, bosh og‘rig‘ida qabul qilinadi.


Oddiy qovoq (sapcha qovoq)-Тыква обыкновенная-Cucurbita pepo L.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oиласига мансуб bir yillik, poyalari qirrali, qalin tukli, 4-5 m uzunlikdagi o‘simlik. Barglari 5 bo‘lakli, tik turuvchi. Gul bandlari aniq besh qirrali. Erkak gullar to‘p bo‘lib joylashadi. Tojibarglari tik turuvchi, 7-10 sm diametirda, tillarang-sariq ayrim hollarda pushti-sariq. Urug‘lari yirik, shakli har xil. Mevasining eti tolali. Urug‘i sarg‘ich-oq. Iyun-avgustda gullab, avgust-sentabrda mevalari pishib yetiladi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida hayvonlarga yem-xashak uchun ekiladi.

Urug'idan gjjalarni organizmdan tushirish uchun qo'llaniladi. Mevasining etidan olingan karotinning yog'li eritmasi qiyin bitadigan va yiringli yaralar, kuygan va sovuq olgan yerlarni, shilliq pardaning zararlangan yerlari va terining surunkali kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Oyim qovoq (oshqovoq)-Тыква мускусная-*Cucurbita moschata* (Duch.) Poir.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasi yumshoq tuklangan, bilinar bilinmas qirrali, bo'g'inalrida oz-moz qora dog'lari bor, uzunligi 4-5 m. Barglari yirik buyuraksimon, 5-7 bo'lakli, chetlari tishchali, mayda tuklar bilan qoplangan. Tojbarglari 7-10 sm och-sariq rangda, besh qirrali. Mevalari slindrsimon, o'rtasi siqilgan, ranglari turlichay. Urug'lari qaymoqsimon oq. Iyun-iyulda gullab, mevasi avgust-sentabrda yetiladi. Oziq-ovqat mahsuloti sifatida O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Urug'i va uning kukuni, qaynatmasi, atalasi hamda emulsiyasi tasmasimon (ba'zan yumaloq) gjjalarni organizmdan tushirish uchun qo'llaniladi. Mevasining yumshoq etli qismi parhez taom sifatida ateroskleroz, qabziyat va jigar kasalliklarida hamda buyrak va qovuq kasalliklarida siydik haydovchi vosita sifatida iste'mol qilishga tavsiya etiladi. Mevasining etidan olingan karotinning yog'li eritmasi qiyin bitadigan va yiringli yaralar, kuygan va sovuq olgan yerlarni, shilliq pardaning zararlangan yerlari va terining surunkali kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Oq tarvuzpalak (Sirtan, abudjaxl tarvuzi)-Переступень белый- *Bryonia alba* L.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Kuchli o'ziga xos hidga ega, ildizi trupsimon yo'g'on, tashqi ko'rinishi sariq rangda, ichki qismi oq. Poyasi ilashib o'suvchi, ingichka 2-4 mm, qirrali, mayda tukli. Barglari siyrak tuklangan, 3-6-(10) sm

uzunlikda, yaprog'i chuqur o'yqli, 5-7 bo'lakchali. Erkak gullari 5-15 tadan shingilchalarga to'plangan, gulbandlari 50-20 sm.

Tojibarglari oqish-sariq rangda. Urg'ochi gullari 5-12 tadan soyabonsimon yoki qalqonsimon to'pgullar hosil qiladi. Mevalari qora rangda, diametri 7-8 mm. May-iyunda gullaydi, mevalari iyun-avgustda yetiladi. Manzarali va dorivor o'simlik sifatida ekiladi.

Ildizidan tayyorlangan ekstraktlar og'riqni qoldiruvchi, qon ketishini to'xtatuvchi, yaralarni tez bitishini ta'minlovchi, yo'talni tinchlaniruvchi, qovurg'alararo nerv shamollashlarida qo'llaniladi.

O'ris qovoq (O'ris-kadu)-Тыква крупная-*Cucurbita maxima* Duch.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi shoxlanadi, uzunligi 4-5 m, yumshoq tuklangan. Barglari yirik, buyrak shaklda, chetlari chuqur o'yilgan, bandlari dag'al tuklar bilan qoplangan. Gullari ayrim jinsli, tojbarglari qo'ng'iroqsimon, sariq. Urug'lari oq yoki sarg'ich, tekkis, tuxumsimon. Iyun-sentabrda gullab, avgust-oktabrda mevasi yetiladi. O'zbekistonning barcha dehqonchilik qilinadigan yerlarida ekiladi.

Urug'i va uning kukuni, qaynatmasi, atalasi hamda emulsiyasi tasmasimon (ba'zan yumaloq) gjijalarni organizmdan tushirish uchun qo'llaniladi. Mevasining yumshoq etli qismi parhez taom sifatida ateroskleroz, qabziyat va jigar kasalliklarida hamda buyrak va qovuq kasalliklarida siyidik haydovchi vosita sifatida iste'mol qilishga tavsiya etiladi. Mevasining etidan olingan karotinning yog'li eritmasi qiyin bitadigan va yiringli yaralar, kuygan va sovuq olgan joylarni, shilliq pardanering zararlangan yerlari va terining surunkali kasalliklarini davolashda ishlataladi. Qovoq mevasi etidan karotin olinadi.

Sharq qovuni-Дыня восточная-*Melo orientalis* (S. Kudr.) Nab.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* oиласига мансуб бир yellik o'simlik. Poyasi ilashib o'suvchi, yo'g'onligi 3 sm gacha va uzunligi 3 m, ko'p shoxlangan, qobirg'ali, dag'al тuklar bilan qoplangan. Barglari uzun bandli, yaproqlari tuxumsimon, doirasimon 3-5 o'yqli, eni 10-15 sm, siyrak dag'al тuklangan. Gullari bir uyli, oldin erkak gullar so'ng urg'ochi gullar sochiladi. Tojbarglari birlashgan, qo'ng'iroqsimon, sariq rangda 2-6 sm. Tugunchasi uzunchoq, qalin тuklangan, yashil. Mevasi yetilganda uzunligi 50-90 sm ga boradi. May-avgust oylarida gullab, iyun-oktabrda mevasi yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarini tekkisliklarida turli navlari ekiladi.

Qovunni yangi uzilgan mevalari va quritilgan mevalari miya qon томирлари va yurak-qon томир aterosklerozida qo'llaniladi. Shuningdek, yengil surgi, yurak qon-tomirlar, buyrak va kamqonlik xastaliklarida ishlatiladi.

Ekma tarvuz-Арбуз обыкновенный-*Citrullus vulgaris* Schrad.



Qovoqdoshlar – *Cucurbitaceae* оиласига мансуб бир yellik o'simlik. Poyasining uzunligi 4 m, sershox, egiluvchan, mayin тuklar bilan qoplangan. Ilashuvchi jingalaklari ayrisimon. Barglari bandli, uchburchak shaklda, chuqur qirqimli. Gullari bittadan, erkak gullarining diametiri 2-2,5 sm, kalta gul tutqichli. Urg'ochi gullar bir oz yirik, тuklar bilan qoplangan. Mevasi ko'p urug'li, turli shakkarda. Iyun-iyulda gullab, avgust-sentabrda pishib yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng ekiladi. Mevasi yurak qon-tomirlar xastaliklarida, buyrakdagi qumsimon moddalarni yuvishda, jigar xastaligida, kamqonlikda ishlatiladi.

Nashanamo datiska-Датиска коноплевая-*Datisca cannabina* L.



Qizilyugurukdoshlar – *Datiscaceae*

oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 2,5 m bo‘lgan tuksiz, ko‘p sonli moyalar hosil qiluvchi o‘t o‘simplik. Poyasi tik o‘suvchi, shoxlanmaydi. Bargi nashtarsimon 9 sm uzunlikda, tishchalari arrasimon, bandi 10 sm uzunlikda. Gulbandlar 2-3 mm uzunlikda kosachasi nashtarsimon, erkin, 1,5-2-3 mm uzunlikda. Changchisi uzunchoqroq, 3-4 mm uzunlikda. Urg‘ochi gullari yo‘g‘on bandli. Iyun-iyulda gullaydi, avgust-sentabr oyalarida urug‘lari yetiladi. Tog‘larning mayda qumli joylarida, buloqlar atrofida, soylar qirg‘og‘ida o‘sadi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan. Mevasining qaynatmasi surgi va kuchli qustiruvchi. Yer ustki qismi o‘t haydovchi, spazmaga qarshi, yaralarga, jigar, o‘t qopni va oshqozon ichaklar yaralarida qo‘llaniladi.

Tikanli kovul-Каперцы колючие-*Capparis spinosa* L.

(*Capparis herbacea* Willd).



Kovul – *Capparis spinosa* L.

Capparaceae (Capparidaceae) – kovullar oilasi ikki urug‘ pallali o‘simpliklar sinfiga mansub 40 turkum, 850 turni o‘z ichiga qamrab olgan. *Capparis* turkumiga mansub o‘simpliklarning aksariyati yovvoyi turlar bo‘lib, ular asosan tropik va subtropik mintaqalarning qurg‘oqchil hududlarida keng tarqalgan. Geografik nuqtai nazardan kovul

(*Capparis spinosa* L.) o‘simpligi tabiiy holda O‘rtalik yer dengizi, Yevropa janubida, Kavkaz, Qrim, Ozarbayjon, Markaziy Osiyoda, ya’ni Turkmaniston, Qozog‘iston, O‘zbekiston va Pokiston, Hindistonda tarqalgan. Bu o‘simplik Fransiya, Ispaniya, Italiya, Aljir, Kipr, Gretsiya va Shimoliy Amerikada madaniylashtirilgan. O‘simplikning nomi Erondagi Dashti-Kavir cho‘li bilan bog‘liq holda atalgan. Chunki kovul (*Capparis spinosa* L.) bu hududlarda eng ko‘p uchraydigan o‘simplik turi hisoblanadi.

O'zbekistonda kovul (*Capparis spinosa L.*) o'simligini tabiiy holda tarqalishi turli geografik sharoitga to'g'ri keladi. Jumladan, tosh-shag'alli tepaliklarda, ba'zan ekinzorlarda, yo'llar yoqalarida, ariq bo'yalarida, adirlarda, temir yo'l atroflarida, ariq va kanallarning quruq qirg'oqlarida, eski devorlar yonida uchratish mumkin. Tadqiqotlarimiz davomida bu turni cho'l va yarim cho'l zonasida, tog' oldi va quyi tog' mintaqalarida, ba'zan tog'larning o'rta mintaqasigacha kirib borganligi aniqlandi. Har qanday o'simlikning biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganishda, eng avvalo, uning tabiiy sharoitdag'i holatini o'rganish talab etiladi. Kovul (*Capparis spinosa L.*) o'simligining tuproq va havo qurg'oqchiliga tabiiy moslanish xususiyati, uni suv tanqis bo'lgan qurg'oqchil maydonlarda hamda suvdagi eruvchi tuzlar konsentratsiyasi yuqori bo'lgan tuproqlarda ham o'sa olish imkoniyatini beradi. M.S.Saksali va boshqalar tomonidan *C. spinosa* ozuqa elementlari yetishmaydigan qurg'oqchil va kuchli sho'rlangan tuproqlarda hamda yuqori haroratli mintaqalarda ham o'sa oladigan istiqbolli o'simlik ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

O'sish sharoitiga qarab o'simliklar poyasining uzunligi o'sish 70-170 sm ga etdi. Yangi hosil bo'lgan yosh poyalarining uchki qismi mayin kalta tukchalar bilan qoplangan, lekin tukchalar vegetatsiya davomida novdaning o'sib borishi natijasida to'kilib ketadi. Poyasining rangi yashil, barg bandi birikkan qismining ostki tomonida qayrilgan tikanlari mavjud. Yon shoxlari soni rivojlanish davriga bog'liq ravishda 2-6 ta bo'lib, 10-15 sm uzunlikda bo'ldi. Poya diametri 7-12 mm. O'simlik poyasidagi barglar shakli, kengligi va uzunligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Odatda barg shakli yumaloq, teskari tuxumsimon yoki ellipssimon, uzunligi 3-6 sm, yashil, tuksiz yoki ostki tomoni tarqoq tuklangan bo'lib, kalta barg bandi orqali asosiy poya va yon shoxlarida ketma-ket o'mashgan.

Gullari yakka, biroz zigomorf, kattaligi 5-8 sm, hidli, bittadan barg qo'ltig'ida joylashgan, kosachabarglari 4 ta, egilgan, tuxumsimon, yashil rangli, tashqi tomonida mayda kalta tuklar bilan qoplangan. Gultojbarglari 4 ta, lekin 2 tasi yarmigacha qo'shilgan, oq yoki och pushti rangli, otalik changchisi ko'p, uzunligi har xil, changdoni egilgan,

qo'ng'ir rangli (gullari changlangandan so'ng qizaradi). Gulbandlari uzunligi 4-6 sm. Tadqiqot o'tkazilgan hududda yog'ingarchilik miqdoriga qarab aprel-may oylarida gullaydi. Mevasi ko'p urug'li rezavor meva. Rangi yashil, uzunasiga oq yo'llardan iborat. Shakli teskarli tuxumsimon, cho'zinchoq, yong'oqsimon yoki yumaloq ko'p urug'li, uzun bandli. Tashqi tomoni silliq yuzali, ichki qismi to'q qizil rangli. Mevasi xuddi tarvuz ko'rinishini eslatadi. Mevalari pishib yetilgach, meva po'stlog'i tashqi tomonga qayrilib ochiladi. Meva uzunligi 3-5 sm, eni 1,3-2,7 sm.

Qadim zamonlardan kovul o'simligini tish, yurak va bosh og'riqlarini davolashda foydalaniladi. Buning uchun kovulni turli organlaridan (gul, ildiz, barg, meva) damlamalar tayyorlangan. Qadimgi arablar kovul ildizi yordamida turli allergik va revmatizm kasalliklarini davolashgan. Kuchli shamollahsga qarshi ishlatilishi va og'riq qoldirish xususiyati sababli kovul samarali dorivor o'simliklar qatoridan joy olgan, shu sababli uni turli kasalliklarga qarshi dorivor vosita sifatida ishlatib kelingan. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda jahon farmatsevtika sanoatida mazkur tavsiyalar asosida dorilar tayyorlash keng yo'lga qo'yilgan. Jumladan, tibbiyotda birinchi marta Hindistonning Ximolay Drak kompaniyasi tomonidan jigar kasalliklarini davolash uchun Liv-52 preparati ishlab chiqilib, sinovdan o'tkazilgan va hozirda u tibbiyotda samarali foydalaniladi. Preparatning asosiy qismini, ya'ni 65% miqdorini kovul mahsulotlari tashkil etadi.

Bugungi kunda ovqatlanish ratsioniga kovulni doimiy ravishda qo'shib borish revmatik og'riqlarni qoldirishga yordam bermoqda. Hozirda o'simlikning barcha qismlaridan zamonaviy tibbiyotda va xalq tabobatida buqoq kasalliklari, stomatologiya (milk va tish kasalliklari), yurak-qon tomiri kasalliklarini hamda gipertoniya, qichima, sariq kasalligi, nevroz, brutselyoz kabilarni davolashda ishlatilib kelinmoqda. Farmatsevtika sanoatida kovul o'simligidan tinchlantiruvchi, peshob xaydovchi, antiseptik va o't haydovchi xususiyatlarga ega turli dorivor preparatlar olishda foydalaniladi. Kovul (*Capparis spinosa L.*) xomashyosiga bo'lgan talabni ortishi, uning eksport salohiyatiga alohida e'tibor qaratilayotganligini e'tiborga olib uning biogeokimyosi va

agroekologiyasini chuqur o'rganish zarurligi kun tartibiga qo'yildi. Kovulning o'simliklar qoplamidagi tutgan o'rnini, uning tabiiy tiklanishini belgilab beradigan populyatsiyalarining holatini, ontogenezini va yashovchanligini aniqlash va shu orqali uning hozirgi hamda istiqboldagi xom-ashyo zaxiralarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Kuzatishlar olib borilgan Arsif, Satkak, Chimyon, Oltiariq adirlarida belgilangan 10 ta tajriba maydonlarida (har bir maydon 100 m²) kovul (*Capparis spinosa L.*) senopopulyatsiyasi tahlil qilinganda, olingen dastlabki natijalar quyidagicha bo'ldi (1-jadval): maysa (p) holatidagi o'simliklar o'rtacha 6,0 ta, yuvenil (j) holatiga mansub o'simliklar 5,0 ta, immatur (im) etapiga mansub o'simliklar o'rtacha 10,8 ta, virginil (v) holatiga mansub o'simliklar 5,5 ta, generativ (g) davriga kiruvchi o'simliklar 3,5 ta, senil (s) davriga xos o'simliklar esa 2,3 ta ni tashkil qildi. Nisbatan issiq iqlimli mintaqalarda ushbu o'simlik maysalarining o'sib rivojlanishi aprel oyining boshiga to'g'ri keladi. Tajriba maydonlarimizdagи kuzatishlarda kovul (*Capparis spinosa L.*) maysalari aprel oxiri may boshlarida unib chiqishi aniqlandi. Maysalarda urug'pallabarg 2 ta bargli bo'lib, bo'yi 2-3 sm, ildizi 12-14 sm ga yetib 2 tartibgacha shoxlangan. Maysalarning 80-85% may oxirida, iyun boshlarida yuvenil etapiga o'tishi kuzatildi.

Yuvenil holatida urug'palla barglar o'sishda davom etadi. Bu etapga mansub o'simliklarning bo'yi 5-7 sm bo'lib, 3-4 ta barg hosil qiladi, dastlabki chin barglar maydaroq bo'ladi. Keyinchalik o'sib chiqadigan har bir chin bargi avvalgisiga nisbatan uzunroq ekanligi kuzatildi. Asosiy ildizi 20-22 sm ga etib, 2-3 tartibgacha shoxlanadi. Bu etapning o'ziga xosligi urug'palla barglarning qurishi bilan izohlanadi. Immatur etapiga mansub o'simliklar iyun oyining o'rtalarida kuzatilib, ularning bo'yi 15-20 sm, asosiy ildizi esa 45-50 sm bo'lib, 2-3(4) tartibgacha shoxlangan. Immatur etapiga mansub o'simliklarning 60-70% iyun oxiri iyul boshlarida virginil etapiga o'tadi, 10-15% esa qishki tinim davrini o'tib may oyi boshlarida virginil etapiga o'tishi kuzatildi. Immatur etapining davomiyligi 20-25 kundan 10 oygacha davom etadi. Kovul (*Capparis spinosa L.*) ning nihollari, yuvenil va immatur etapiga

mansub o'simliklar qurg'oqchilikka nisbatan chidamlidir, biroq ularning ko'pi chorva mollarining ezg'ilashi tufayli nobud bo'ladi.

Virginil etapiga mansub o'simliklar iyunning oxiri, iyulning boshlarida kuzatilib, ularning asosiy poyasini uzunligi 40-80 sm ga yetadi va u 2 tartibgacha shoxlanadi. Ildizi esa 90-110 sm ga yetib, 3-4 tartibgacha shoxlanadi. Bu etapda poyalarda tikonlarni hosil bo'lishi va asosiy ildizning yo'g'onlanishi (diametri 4-5 mm) xarakterli. Virginil holatning davomiyligi ko'p jihatdan tashqi muhit omillariga bog'liq. Virginil o'simliklarning 15-20 % birinchi yili, qolgani esa ikkinchi yildan to'liq generativ davriga kirishi kuzatildi. Arsif adirlarida o'rtalosh generativ etapiga mansub o'simliklarning vegetatsiyasi apreldan boshlanib dekabrgacha davom etdi. Asosiy generativ poyaning uzunligi 70 -170 sm bo'lib, 2-3 tartibgacha shoxlanadi, barglari 4x3 sm. Bir tupda o'rtacha 9-14 ta generativ poya hosil qildi. Generativ o'simliklarning shonalashi mayda kuzatilib, mayning oxirlarida gullash, mevalarining shakillanishi esa iyun oyining ikkinchi yarmidan boshlandi.

Kovul (*Capparis spinosa L.*) ning meva hosil qilish jarayoni iyundan oktabrgacha davom etdi. Bir tup kovul (*Capparis spinosa L.*) Chimyon adirlarida o'rtacha 80 dan ortiq (Arsif va Satkak adirlarida 180-210 tagacha) meva hosil qildi, ayrim tuplarida esa 150 ga yetdi. Har bir mevasida o'rtacha 220-235 ta urug' yetilishi kuzatildi, 1000 ta urug'inining absolyut og'irligi 7,25 g. Urug'inining uzunligi 1-3 mm buyraksimon, qo'ng'ir rangli. Tadqiqot olib borilgan hududlarda o'simlik urug'larining uzunligi 2,8-3,3 mm ekanligi aniqlandi. Mevalarning yetilishi Arsif va Satkak adirlarida iyul oyining ikkinchi o'n kunligida, Chimyon va Oltiariq adirlarida esa iyul oyining oxiri, avgust oyining boshlariga to'g'ri keldi.

Mamlakatimizda kovulning botanik xususiyatlari, meva va urug'larning kimyoviy tarkibi, nektar ajratishi hamda yetishtirish agrotexnikasi akademik Q.Z.Zokirov va professor R.Xudoyberganovlar tomonidan keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan. Respublikamizning arid iqlim mintaqasi hududlarni o'zlashtirilishida kovul o'simligidan foydalanish, madaniylashtirish, undan noyob

kimyoviy tarkibga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etish masalalari N.T.Eshonkulova tomonidan o'r ganilgan. Lekin, kovul o'simligini va tuproqlarni xossa-xususiyatlari, kimyoviy element tarkibini bir-biriga bog'liq holda uning biogeokimyoviy xususiyatlari o'r ganilmagan. Bizning tadqiqotlarda kovul o'simligining senopopulyatsiyasi, kimyoviy elementlarning o'simlik-tuproq zanjirida migratsiyalanishi, biogeokimyoviy xususiyatlari tadqiq etildi.

Ushbu o'simlik o'z organlarida foydali elementlarni, vitaminlar, fenol birikmalari, flavonoidlar, oziq moddalarning potensial manbai sifatida hamda kuchli antioksidant xususiyati va qurg'oqchil sharoitlarda o'sa olish bilan ham dunyoning ko'plab xalqlari tomonidan qadrlanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra 100 g kovul (*Capparis spinosa* L.) mahsulotining tarkibida: fosfor (679 mg/g), natriy (652 mg/g), kalsiy (419 mg/g), magniy (213 mg/g), kaliy (157 mg/g), temir (6,8 mg/g), ruh (5,5 mg/g), marganets (3,30 mg/g) kabi makro va mikroelementlar mavjud ekanligi keltirilgan.

Ushbu turning boshqa dorivor o'simlik turlaridan farqli tomoni xalq tabobati, zamonaviy tibbiyot, farmatsevtika, oziq-ovqat hamda kosmetika sanoatida foydalanish mashtabining kenglididir. Jumladan, kulinariyada bu o'simlikning ochilmagan g'unchalari shuningdek, yosh novdalari ishlatiladi, asosan ularni to'g'ri tanlash, tuzlash yoki marinadlash orqali iste'mol qilinadi. Kovulni uksusda marinadlash jarayonida unga gorchitsa yog'i qo'shilsa o'ziga xos ta'm hosil bo'ladi. Marinad ta'sirida oq dog'lar hosil bo'lishi kuzatiladi, bu esa rutin (PP vitamini) kristallari bilan bog'liq. Yevropa davlatlarida achchiq-sho'rtak kovul turli salat, pitsa, sous, go'sht va baliqli taomlarni bezaydi. Kovulning quritilgan barglari quruq pishloq tayyorlashda hamda cho'ktiruvchi, burishtiruvchi ferment o'rniga achitqi sifatida ishlatiladi. Kovulning g'unchalari tarkibida vitamin K, kaliy, kaltsiy va magniy elementlari bo'lib, ular suyakni mustahkamlaydi, osteoporoz rivojlanishining oldini oladi. Kovul tarkibida temir moddasi va B guruhga kiruvchi vitaminlarning mavjudligi tufayli soch to'kilishining oldini oladi, sochni o'stirib, chiroyli va jilvali qiladi.

Kovul tarkibidagi staxidrin moddasining yaqinda kashf etilishi olimlarda katta qiziqish uyg'otdi. Bu modda kuchli antimetastatik xususiyatga ega bo'lib, prostata rakini davolashda ishlataladi. U rak hujayralarini o'sishi va rivojlanishini to'xtatadi. Bu ilmiy yangilik rakka qarshi preparatlar ishlab chiqishda katta burilish yasadi. Ushbu o'simlikni ichaklarni tozalashda ishlatish va yo'g'on ichak rakini profilaktikasida qo'llanishi alohida ahamiyatga ega.

O'simlik tarkibida xususan cho'l hududi sho'rlangan yerlarda uchraydigan turlarining vegetetav va generativ organlarida natriy elementi ko'p bo'lishi ba'zi kasallikkarda ehtiyot bo'lishni taqozo etadi. Insonda quyidagi kasalliklar bo'lganda kovulni iste'mol qilganda muammolar bo'lishi mumkin, gipotoniya, ich qotishi va xomilador ayollarga kovul yeyish tavsiya etilmaydi, chunki natriy elementining ko'p miqdorda bo'lishi xomilaga ta'sir qilishi, individual holatlarda, ba'zilarda allergiya chaqirishi mumkinligi o'r ganilgan.

Dorivor o'simliklardagi biologik faol organik moddalar tizimli o'r ganilgan bo'lishiga qaramay, biologik faol mineral elementlar yetarli o'r ganilmagan. Hozirda dorivor o'simliklardan tayyorlanayotgan dori vositalari sonining ortib borishi natijasida ularning element tarkibini tahlil qilish muhim vazifalar qatoridan joy olmoqda.

Ma'lumki, har xil tuproq tiplarida kimyoviy elementlar va moddalar miqdori turlicha bo'ladi. Shu boisdan o'simliklarning kimyoviy element tarkibi o'simlik o'sayotgan tuproq tarkibidagi kimyoviy elementlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Turli sharoitda hosil bo'lgan tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlarning miqdori bir-biridan farq qiladi, buning sababi tuproqning genezisi, tuproq-iqlim sharoitlari, dehqonchilikda foydalaniishi va boshqalar hisoblanadi. Misol uchun Mn va Zn yangidan sug'oriladigan gidromorf (6A-kesma) tuproqlarning 32-55 sm qatlamida boshqa tuproq qatlamlariga nisbatan yuqori miqdorda bo'lsa, Mo och tusli bo'z tuproqlarning 0-10 sm qatlamida eng kam miqdorlarda mavjudligi aniqlandi.

Janubiy Farg'ona och tusli bo'z tuproqlarida tarqalgan kovul (*Capparis spinosa L.*) o'simligining element tarkibi tuproq xossa-xususiyatlari, o'simlik turi, tabiiy iqlim sharoiti va boshqa omillar

ta'sirida o'zgarishi kuzatiladi. Kovul (*Capparis spinosa L.*) tarkibidagi elementlar miqdori o'simlik organlarining fiziologik xususiyatlariiga bog'liq ravishda bir necha ming marotaba o'zgarishi kuzatildi.

Capparis spinosa L. organlarida mikroelementlar miqdori (mkg/g) va biologik singdirish koeffitsientini ($n=14$) o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, tadqiq etilgan mikroelementlar miqdori o'simlik organlarida turlicha ekanligi, ya'ni Mn 9-100 mkg/g, Mo-0,29-5,2 mkg/g, Co-0,086-0,25 mkg/g va Zn-5,1-34,1 mkg/g oralig'ida tebranishi aniqlandi. O'simlik organlariga singdirilishi bo'yicha o'rganilgan mikroelementlar ichida eng ko'p miqdorni Mo (ildiz po'stida - 52 mkg/g), kam miqdorni esa Co (poyasida - 0,018 mkg/g) egallaydi. E'tibor beradigan bo'lsak, Mn elementi o'simlik bargida, Mo ildiz po'stida boshqa organlarga nisbatan juda yuqori miqdorda singdirilgan, Zn esa mevada ko'p to'plangan. O'rganilgan elementlarni biologik roli nuqtayi nazaridan tasnifiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular hayot uchun zaruriy biogen, essensial elementlar qatoridan joy oladi.

Metodikaga ko'ra ildiz po'sti va mevasi tomonidan Mo kuchli va juda kuchli to'planuvchi guruhga kiradi. Biologik singdirish koeffitsienti qatoriga ko'ra Co, Zn, Mn elementlari mos ravishda juda kuchsiz, kuchsiz va o'rtacha biologik ushlanib qoluvchi guruhga mansub hisoblanadi.

Bu esa o'z navbatida ushbu dorivor o'simlikdan tayyorlangan biologik faol qo'shimcha hamda oziq-ovqat mahsulotlarini kunlik me'yорини is'temol qilish orqali ayrim makro va mikroelementlarga bo'lgan ehtiyojni qondiradi. Kovul o'simligining element tarkibi bilan u o'sayotgan tuproqlarning element tarkibi o'rtasidagi korrelyasiyon bog'lanishlarni o'rganish, xalq tabobatida, fitobarlarda, zamonaviy tibbiyotda va farmatsevtika sanoatida dori-darmon vositalari ishlab chiqarishda foydalanish ko'lamini kengaytiradi. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ulkan hissa qo'shadi.

Capparis spinosa L. ning asosiy iqtisodiy ahamiyati undan tayyorlangan mahsulot turlari bilan bog'liq. Jumladan, "capers" yoki "caper berry" nomi bilan mashhur bo'lgan tuzlangan gul kurtaklari

xalqaro miqiyosdagi bozorlarda savdoning asosiy predmeti hisoblanadi. So'nggi yillarda *Capparis spinosa* L. dan mahsulot ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'ati 6% ga o'sib bordi. Hozirda kovul o'simligi AQSh va dunyoning 60 ga yaqin mamlakatlarida muhim iste'mol tovari sifatida qadrlanadi, bu yerlarda 1 kg iste'molga tayyor mahsulot tan narxi 25 dollarga teng. Ushbu turdan xitoyliklar yiliga 3 mln AQSh dollari miqdorida foyda olishmoqda. Bugungi kunda Saudiya Arabistonii qirolligi, Livan, Suriya va O'rta Yer dengizi mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy darajani ko'tarish uchun *Capparis spinosa* L. o'simligini asosiy ekin turi sifatida taklif etilgan.

Shu bilan birga *Capparis spinosa* L. ning meva ekstraktidan olingan ba'zi kosmetika mahsulotlari (masalan, Gatuline® Derma-Sensitive-74,99 dollar; SKIN MOON®-76 evro; SKIN SAVE®- 7.70 dollar) qarishga qarshi, terini himoya qiluvchi yoki yallig'lanishga qarshi vositalar sifatida tijoratlashtirildi va sotuvga chiqarildi. Amaliyotda Rossiyada texnik reglamenti TR TS 021/2011 "O bezopasnosti pishevoy produksii" bo'yicha mavjud kovulning sirka kislotasidagi IPOSEA preparati 102,00 rub., IBERICA preparati 183 rub. tuzli Federici preparati 276 rub, sirka vinosi preparati 370,0 rubl narxlarda dorixonalarda sotilmoqda. Yana sotuvda oliv navli sertifikatlangan 107-ISO9001 va 25-ISO22000 raqamli turlari ham mavjud.

Mamlakatimizning Jizzax viloyatida 12 ta korxona kovul eksportini yo'lga qo'ydi. Shuni aytish kerakki, yaqin yillargacha bu o'simlik e'tibordan chetda bo'lib kelgan, xolbuki kovul farmatsevtika, oziq-ovqat sanoatida juda qimmatli xom-ashyo hisoblanadi. 2019 yilda Jizzax viloyatida ushbu o'simlikning mavjud tabiiy resurslaridan terib olingan va madaniy holda yetishtirilgan gul kurtaklari va mevalaridan 1909 tonna iste'molga tayyor mahsulot tayyorlandi hamda Turkiya va Ispaniya davlatlariga 3,2 mln dollar qiymatidagi eksportni amalga oshirdi.

Olib borilgan kuzatishlarga ko'ra, kovul (*Capparis spinosa* L.) populyasiyalarining yashovchanligi, qurg'oqchilikka chidamliligi nisbatan yuqori bo'lib, immatur va virginil etapiga mansub o'simliklar

senilga nisbatan 5-10 marta ortiq. Bu esa shuni ko'rsatadiki, janubiy Farg'on'a adirlaridan kovul xom-ashyosini reja asosida yig'ish mumkin.

Kovul (*Capparis spinosa L.*) va boshqa dorivor o'simliklar tarkibidagi oziqa elementlari hamda dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan miqdoriy ta'minlanganligini aniqlab borish dorivor o'simliklarning hosildorligini hamda dorivorlik xususiyatini yanada oshiradi.

Kovul o'simligi organlaridagi kimyoviy elementlar miqdorini tuproq tarkibiga bog'liq holda o'rganish orqali uning sanitар-gigienik ko'rsatkichlarini hamda farmatsevtikada foydalanish va oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashdagi xavfsizlik darajasini baholash imkonini beradi.

O'simlik rak, mikrob va viruslarga nisbatan qarshi ta'sirga ega bo'lganligi sababli uning kimyoviy tarkibini chuqurroq tadqiq qilishni taqozo etadi. Bu esa ushbu turdan yangi dori vositalarini yaratishda xom-ashyo sifatida foydalanish mumkin.

Kovuldan tayyorlangan tabiiy va ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi, oziq-ovqat sanoatida, zamonaviy tibbiyotda foydalanishning global miqiyosda ko'tarilishi, farmatsevtika va kosmetika sanoatida undan tayyorlanadigan tabiiy vositalarning ko'payib borishi o'z navbatida ushbu turning tabiiy zahiralariga nisbatan bosimni oshiradi.

Bu esa kelgusida kovulning tabiiy zaxiralarini xavf ostida qoldiradi. Shu sababli *Capparis spinosa L.* o'simligini o'rganishga doir tadqiqot ishlarini, uni madaniylashtirish va intensiv usulda yetishtirishga, mavjud tabiiy resurslarini baholashga oid senopopulyatsion tahlillarni olib borishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Botqoq roripasi-Жерушник болотный-*Roripa palustris*

(Leyss.) Bess.



Karamdoshlar — *Brassicaceae*
(*Cruciferae*) oilasiga mansub o'simlik. Ko'p yillik, tuksiz, faqat ostki barg bandlari tuklangan. Poyasi 10-80 sm balandlikda shoxlangan. Bargi lirasimon bo'laklarga bo'lingan. Kosachabargi 1,5-2 mm uzunlikda.

Tojbargi kosachabargidan sal uzunroq, ochiq sariq. Urug tutqichlari ingichka, 5-10 mm uzunlikda. Qo‘zog‘i ellipssimon, 3-8 mm uzunlikda va eni 2-3 mm. Ustunchasi 0,5 mm uzunlikda. Urug‘i 0,75 mm uzunlikda. May oyining boshidan sentabr oyigacha gullab urug‘laydi. Botqoqlashgan joylar, ariq va soylar qirg‘ogida o‘sadi. O‘zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan. O‘simlikdan qon tarkibini tozalash uchun qo‘llaniladi.

Bo‘yoq o‘sma-Вайда красильная-*Isatis tinctoria L.*



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ikki yillik, tuksiz, och yashil o‘simlik. Poyasi 30-100 sm shoxlangan ildiz bo‘g‘zidagi barglari uzunroq, bandli, chetlari yirik qirqilgan. Gulkosasi 1,5 mm uzunlikda. Tojbarglari sariq, 3 mm uzunlikda. Meva qo‘zog‘i 13-16 mm va eni 3-4 mm. Aprel oylarida gullab, may oyida urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning barcha viloyatlariida madaniy ekin sifatida, ayollar qoshi va kipriklarini bo‘yash maqsadida ekiladi.

Dala taspisi-Ярутка полевая-*Thlaspi arvense L.*



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub bir yillik, poyasi tik o‘suvchi, 20-40 sm balandlikdagi o‘simlik. Bargi yirik, tishchali. Ostki barglari bandli, poyani yuqorisidagi poyani o‘rab oluvchi, nayzasimon, kosachabarglari keng, to‘mtoq 1,5 mm uzunlikda. Tojbargi oq teskari tuxumsimon uzunroq, kosachabargdan ikki marta uzun.

Urug‘ bandlari 12-15 mm uzunlikda. Qo‘zog‘i ellipssimon, 10-13 mm uzunlikda, 5-8 urug‘li, urug‘i qora, egatchali. May oyida gullab, iyun oyida urug‘lari yetiladi. Dala maydonlarida begona o‘t sifatida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Namangan, Qashqadaryo viloyatlariada o‘sadi.

Urug‘ida yog‘lar va singirin glyukozidi saqlaydi, efir moylari ham saqlaydi. Jinsiy quvvatsizlikda barglari va urug‘lari mevasi bilan mayda tuyub, 0,3-0,5 gramm bir kunda 3-4 marta yoki o‘simlikning barcha

qismi qilib, 200 g qaynoq suvga choy qilib damlab 1 choy qoshiqdan har 2-3 soatda ichiladi.

Dorivor sarimsoq o't-Чесночник лекарственный-*Alliaria officinalis* Andrz.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyasi 10-100 sm balandlikda, kam shoxlangan, tuklangan. Barglari butun, tuksiz, ildiz oldi va poyani pastki qismidagi barglari uzun bandli, yaprog'i buyraksimon. Gul shingillari siyrak. Gul tutqichlari urug'lash vaqtida yo'g'onlashadi, uzunligi 3-15 mm. Tojbarglari 6-8 mm uzunlikda va kosachasidan 2 marta uzun. Dukkagi tuksiz, 2-8 sm uzunlikda va yo'g'onligi 2-2,5 mm, lenta simon, ustunchasi 1-3 mm uzunlikda. Urug'i 1,5-2-mm enlikda va 2,5-3,5 mm uzunlikda, qo'ng'ir. Aprel-may oylarida gullab, may-iyul oylarida urug'i pishadi. Qumli va daraxtlar soyasida, voha va tog'larni o'rta qismida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Xalq tabobatida hidri va ta'mi kuchli hid va achchiqroq ta'mga ega. Piyozini vino, uksus bilan marinovat qilingani qon tupurganda, sil (tuberkuloyoz) xastaligini boshlanish davrida va nafas yo'llari hamda gijjalarni to'kish uchun qo'llanilgan.

Draba-Крупка перелесковая-*Draba nemorosa* L.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub bir yillik, balandligi 5-10 sm bo'lgan, kam shoxlangan, tuklar bilan qoplangan o't o'simlik. Barglari ikki boshli tuklar bilan qoplangan, tekkis chetli, uzunchoq ellipssimon barglardan iborat. Gulkosasi uzunroq sharsimon, 1-2 mm uzunlikda. Gultojsisi teskari uchburchaksimon-nashtarsimon, 1,5 mm uzunlikda. Qo'zog'i yapaloq ellipssimon, 1,7-2,5 mm. May-iyun oylarida gullab urug'laydi. Tog' yonbag'irlarining o'rta qismlarida o'sadi. Samarqand viloyati (Guralash) da tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan damlama siyidik haydovchi vosita va quruq yo'talga qarshi ishlataladi.

Jag'-jag' (achambiti)-Пастушья сумка обыкновенная-*Capsella bursa-pastoris* (L.) Medik.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub bir yillik efemer bo'lib, 10-30 sm balandlikda. Poyasi ostki tomonidan yoki yuqori qismidan shoxlanadi. Barglari oddiy, ildiz bo'g'zidagilari lirasimon bo'laklarga bo'lingan, poyadagilari o'troq. Gultojlari oq. Urug' bandlari 10-12 mm uzunlikda. Qo'zoq mevalari 6-7 mm uzunlikda. Mart-may oylarida gullab, aprel-iyunda urug'i yetiladi. O'zbekistonning barcha tog'oldi va tekkisliklarida keng tarqalgan.

Oddiy jag'-jag' tarkibida «C» va «K» darmondorilari hamda olma va limon kislotalari bor. Uning yer ustki qismidan tayyorlangan dorilar tabobatda qon ketishini to'xtatishda ishlataladi.

Yirik urug'li ojud-Крупноплодник гигантский-*Megacarpaea gigantea* Regel.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi yo'g'on, tik o'suvchi, tuksiz, yuqori qismi kuchli shoxlangan. Balandligi 70-150 sm. Bargi och yashil tuksiz, pastkisi bo'laklangan, kalta bandli, yuqoridagilari poyani yarim o'rabi oluvchi o'troq. Kosachasi keng uzunchoqroq,

2,5 mm uzunlikda. Tojbarglari oq, teskari tuxumsimon, changchilari 6 ta. Urug' tutqichlari yo'g'on, tuksiz 1,5-2 sm uzunlikda. Aprel-may oylarida gullab, may-iyun oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi va o'rta qismlaridagi tuproqli va mayda shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Teridagi yaralarni tez bitish uchun uni qaynatmasi surtiladi. Yo'g'on ildizlari iste'mol qilinadi.

Kochi qatroni-Катран кочи-*Crambe kotschyana* Boiss.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi yo‘g‘on etli, poyasi bittadan, balandligi 50-150 sm, shoxlangan, egatchali, bezli tuklar bilan qoplangan. Ildiz oldi barglari uzun bandli, yaprog‘ini uzunligi 30 sm va eni 50 sm, buyrak va yuraksimon. Gul to‘plami supurgisimon, shoxchalari ko‘p sonli gullarga ega. Kosachasi 4-5 mm uzunlikda, dag‘al tukli. Tojbarglari oq, 7,5-11 mm uzunlikda, teskari tuxumsimon. Urug‘ tutqichlari yuqoriga qaragan 2-4 sm uzunlikda. Yuqoridagi qo‘zoq a‘zolari 5,5-6 mm enlikda, sharsimon, qanotchali. Mart oyini oxirida gullaydi, urug‘lari iyun o‘rtalarida yetiladi.

Tog‘larning pastki va o‘rta qismlarida, tuproqli va shag‘alli yerlarda o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari, Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Ildizida ko‘p miqdorda kraxmal saqlaydi. Ildizi ovqat sifatida ishlataladi. Urug‘lari nafas yo‘llarining shamollashida iste’mol qilinadi. Gullarini ovqat xazm qilish tizimi kasalliklarida ishlataladi.

Qaynarbuloq qaytaqgul (jo‘shuruvchi)-Жеруха ключевая- *Nasturtium officinale* (Lam) Aschers.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi yo‘g‘on, yarim ko‘tarilib o‘suvchi, yer bag‘irlagan qismi ildiz otib boruvchi, balandligi 10-60 sm. Bargi lirasimon bo‘laklarga bo‘lingan, keng bandli, 2-7 ta juft bargchalardan iborat. Chetlari o‘yiqli tishli. Kosachasi 2-3 mm uzunlikda. Tojbarglari oq 4-6 mm uzunlikda, Changchi ipi binafsha rangda. Qo‘zog‘i nashtarsimon, 10-25 mm uzunlikda. Onalik ustunchasi 1 mm uzunlikda. Mayning boshlaridan to iyunning oxirigacha gullab urug‘laydi. Botqoqlashgan joylar, soy va ariqlar bo‘yida o‘sadi.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan. Erta bahorda barg va ildizlaridan olingan shirasi qonni tozalovchi, siyidik haydovchi va singa xastaliklarida keng qo'llaniladi.

Qishloq yerqalampiri (tuyaqaldirmoq, xren)-Хрен деревенский-

Armoracia rusticana Yaertn. Mey et Schred.



Karamdoshlari – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizlari yo'g'on, yaxshi rivojlangan. Poyasi tik o'suvchi va shoxlangan, balandligi 0,5-1,5 m. Ildiz oldi barglari yirik, uzun bandli, chetlari egatchali. Gultojlari 6 mm uzunlikda, oq rangda. Urug'lari qo'zoq, 5-6 mm qalinlikda va eni 3-4 mm.

Iyunda gullaydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.


Xalq tabobatida ildizi ishlataladi. Ildizi tarkibida mirozin fermenti, lizotsim antibiotik modda, vitamin C, flavonoidlar bor. Quritilmagan ildiz shirasi va ildiz qaynatmasi xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, ovqat hazm qilishni yaxshilovchi va siyidik haydovchi vosita sifatida hamda lavsha (singa) ni davolash uchun qo'llaniladi. Quritilmagan ildizi ezilgan, maydalangan holida shamollash kasalliklarida xantal kabi tananing dardga chalingan yeriga qo'yiladi.

Marshall chitrang'isi-Желтушник Маршалла-*Erysimum* *Marschallianum* Andr. (*E. hieracifolium* L.)



Karamdoshlari – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Shoxlangan bitta poya hosil qiladi. Balandligi 25-100 sm tuklangan. Tuklari 2-4-5 boshchali. Barglari ham poyadagi kabi tuklar bilan qoplangan. Gulkosasi uzunchoq yumaloq bo'lib, 4 boshchali tuklar bilan qoplangan. Tojbarglari sariq, 8-10 mm uzunlikda. Qo'zog'i 2-7,5 sm uzunlikda va eni 1,8 mm. May-iyun oylarida gullab urug'laydi. Tog'larning o'rta mintaqasidagi tuproqli, tosh va shag'alli maydonlarda o'sadi. Toshkent viloyati (Angren daryosining yuqori qismi) da tarqalgan. Yer ustki qismi urug'lari bilan yurak qon-tomir xastaliklarida qo'llaniladi.

Sarept xantali-Капуста горчица сарептская-*Brassica juncea* (L.) Czern.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oиласига мансуб иккى yellik о‘симлик. Пояси сershox, tuksiz. Poyaning ostki barglari bandli, tukli yoki tuksiz. Gullash oldida qalqonsimon yoki shingilsimon to‘pgul hosil qiladi. Gultojlar bukilgan, 2,5-5 sm uzunlikda. Mayning o‘rtalarida gullab, avgustda urug‘lari yetiladi.

Yo‘l yoqalari, ekinzorlarda begona o‘t sifatida uchraydi. Toshkent, Samarqand, Xorazm, Qoraqalpog‘iston viloyatlarida tarqalgan.

Urug‘i tarkibida sinigrin glikozidi, ko‘p miqdorda yog‘, mirozin fermenti, shilliq, oqsil moddalar bor. Urug‘ining dori preparatlari xantal efir moyining spirtdagи 2% li eritmasi bod, miozit (mushaklar shamollashi), bronxit, nafas yo‘llariniig shamollahash kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Urug‘i me‘da kasalliklarida ishlatiladigan choylar, yig‘malar tarkibiga kiradi.

Semiz o‘ti (qora o‘t)-Портулак огородный-*Portulaca oleracea* L.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oиласига мансуб bir yellik о‘симлик. Yer bag‘irlab yoki bir oz tik o‘suvchi, poyasi etli, tuksiz, asosidan shoxlanuvchan, balandligi (7)-10-35 sm. Barglari navbatlashib joylashgan, yuqorisidagi qarama-qarshi joylashgan, o‘troq, uzunchoq-ponasimon.

Gullari o‘troq shoxlar yoki barglar qo‘ltig‘ida 2-3 tadan joylashgan. Tojbarglari sariq, teskarli tuxumsimon, 5-8 mm uzunlikda. Iyun-oktabr oylarida gullab urug‘laydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida o‘sadi.

Yer ustki qismlari salat holida va ovqatlarga solib iste’mol qilinadi. Vitaminlarga boy, mikroorganizmlarga qarshi ishlatiladi.

Sofiya shuvarani (sassiqkara)-Дескураиния София-*Descurainia sophia* (L.) Webb. ex Prantl.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub bir yillik, balandligi 50-80 sm bo'lgan, kam shoxlanuvchan o't o'simlik. Barglari 2-3 marotaba qirqilgan, bo'laklari uchli. Gulqo'rg'oni uzunchoq bo'lib, 2,5 mm. Tojbarglari oqish sariq. Mevalari 10-30 mm uzunlikda, tuksiz, uchki qismi bir oz bukilgan.

Aprelda gullab, mayda urug'laydi. Begona o't sifatida o'tloqlarda, ekinzorlarda o'sadi.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan. Urug'idan tayyorlangan damlamasi oshqozon-ichak ish faoliyatini kuchaytirish uchun, ya'ni ularni silliq muskullarini tonusini ko'tarish uchun qo'llaniladi.

O'rmalovchi boltiriq-Сердечница ползучая-*Cardaria repens* (Schrenk) Jarm.



Karamdoshlar – *Brassicaceae (Cruciferae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, balandligi 15-50 sm. Barglarining chetlari arrasimon tishchali. Guli qalqonsimon, qisqa to'pgullarda joylashgan. Kosachasi tuksiz, yashil, 2 mm uzunlikda. Tojbargi oq, uzunroq, kosachasidan 2 bor uzun. Urug' tutqichlari bukilganroq, ingichka, 10-12 mm uzunlikda.

Dukkagi sharsimon, 4 chanoqli, ingichka, 10-12 mm uzunlikda, 4-5 mm enlikda, ustunchasi 1,5 mm uzunlikda. Aprel-may oylarida gullaydi va may-iyunda urug'lari yetiladi. To'qay, ekinzorlar, bog'larda begona o't sifatida o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida o'sadi.

Tabobatda teridagi yaralarga kompress qilinadi. Ko'krakdag'i og'riqlar paytida ichiladi.

Shoxlangan chirrang'i-Желтушник раскидистый-Erysimum diffusum Ehrh. (E. canescens Roth).



Karamdoshlar – Brassicaceae (Cruciferae) oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyasi bir yoki bir nechta bo'lib, 30-80 sm, ikki boshli tuklar bilan qoplangan. Barglari ham ikki boshli tuklar bilan qoplangan, uzunchoq, tekis chetli. Gulkosasi 6-8 mm uzunlikda, tuklangan. Tojbarglari sariq, 12-14 mm uzunlikda. Qo'zog'i to'rburchakli, to'g'ri, ingichka 45-70

mm uzunlikda, eni 1 mm.

May-iyun oyalarida gullab urug'laydi. Tog'larning o'rta mintaqalarida, mayda toshli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Namangan, Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan spirtli nastoykasi yurak qon-tomir xastaliklarida, yurak parogida, stenokardiya, vegetativ nevrozlarda ishlataladi.

Ekma indov-Индая посевной-Eruca sativa Lam.



Karamdoshlar – Brassicaceae (Cruciferae) oilasiga mansub bir yillik, poyasi tik o'suvchi, balandligi 15-75 sm, shoxlangan o't o'simlik. Barglari etli, siyrak tuklangan, pastki barglari bo'lakli. Kosachasi 9-12 mm uzunlikda, siyrak tuklangan. Tojbarglari 15-22 mm uzunlikda, binafsha yoki qo'ng'ir rangli dog'larga ega,

ponasimon, uchki qismi o'yqli, qo'zog'i 2-3 sm uzunlikda. Urug'lari ikki qatorli 1,5-3 mm uzunlikda va eni 1-2,5 mm uzunlikda, to'q qo'ng'ir rangda. Aprelning oxiridan iyunning boshigacha gullab urug'laydi. Yo'l yoqalarida, ekinzorlarda begona o't sifatida, ayrim holda moy beruvchi sifatida ekiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan. Urug'ida yog' va efir moylari, azotli birikmalar, oltingurgutli moddalar saqlaydi. Urug'i ishtaxa ochuvchi sifatida ishlataladi. Urug'idan yaralarni va qichima xastaliklarini davolashda ishlataladi.

Ekma karam-Капуста огородная-*Brassica oleracea* L.



Karamdoslar

Brassicaceae

(*Cruciferae*) oilasiga mansub ikki yillik, och yashil o'simlik. Poyasi yuqori qismidan shoxlanadi. Ildiz oldi barglari etli va yirik bo'lib, juda qisqa bandli. Shig'il to'plamli gullari ko'p sonli gullarga ega. Gullari yirik sariq rangda. Qo'zog'i 10 sm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Urug'i tarkibida sinigrin glikozidi, ko'p miqdorda yog', mirozin fermenti, shilliq, oqsil moddalar bor.

Urug'ining dori preparatlari xantal efir moyining spirtdagi 2% li eritmasi bod, miozit (mushaklar shamollashi), bronxit, nafas yo'llariniig shamollahsh kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Urug'i yana me'da kasalliklarida ishlataladigan choylar, yig'malar tarkibiga kiradi.

Ekma turp-Редька обыкновенная-*Raphanus sativus* L.



Karamdoslar

Brassicaceae

(*Cruciferae*) oilasiga mansub bir yoki ikki yillik, ildiz mevali o'simlik bo'lib, yashil rangda. Poyasi yaxshi rivojlangan bo'lib, 80 sm balandlikka ega. Barglari tuksiz yoki siyrak tuklarga ega. Ildiz bo'g'zidagilari uzun yaproqli, ularni uzunligi 15-30 sm va eni 10-14 sm. Gullari oq, pushti va binafsha ranglarda. Mevasi qo'zoq. Aprel-may oylarida gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Ildiz mevalaridan olingan shirasi bronxit, ko'k yo'tal, qon tupurishda, yaralarni bitirishda, urug'larining spirtli nastoykasi teridagi dog'larni yo'qotish uchun qo'llaniladi.

Sariq sayoq (qalampirgul)-Резеда желтенькая-*Reseda luteola L.*



Sayoqdoshlar – *Resedaceae* oиласига мансуб иккى yellik o't o'simik, poyasi bittadan, ayrim hollarda bir nechta, o'rta qismidan shoxlanuvchan, barglar bilan qalin o'ralgan, tuksiz, balandligi 60-80 sm bargi butun, tuksiz, o'troq, 6-9 sm uzunlikda va eni 8-12 mm, nashtarsimon. Gul to'plami boshoqsimon, 13-45 sm. Urug'i yetilganda 60 sm uzunlikda va eni 10 mm, qalin joylashgan. Gullari sariq mayda, gullari t 1-1,5 mm uzunlikda, urug'i yetilganda 2-2,5 mm ga yetadi.

Kosachasi urug'ida qoladi, kosacha barglari 4 ta bir xil 2 mm, tojbargi 4 ta yuqoridagisi 4-5 mm uzunlikda. Urug'i 1 mm uzunlikda. May-avgust oylarida gullab urug'laydi. Tepalikda, ariqlar bo'yida, ekinzorlar qirg'og'ida, tog' yonbag'irlarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikda luteolin moddasi bo'lib, uning rangi sariq. Urug'ida 30% yog' va achchiq gorchichsimon moddalar saqlaydi. Ildizidan bolalardagi gjijalarni to'kish uchun qo'llaniladi.

G'udirish qayrog'och-Вяз (Карагач) шершавый-*Ulmus scabra*

Mill.



Qayrag'ochdoshlar – *Ulmaceae* oиласига мансуб ko'p yellik, daraxt, balandligi 20-25 m. Yosh poyalari to'q qo'ng'ir, kurtaklari mayda sertukli, barg bandi 0.5-1 sm uzunlikda.

Yosh barglari tuklangan, yaprog'i 7-15(20) sm. Etli teskari tuxumsimon, doirasimon, ikki uchli tishchali. Urug'lari qanotchali 3 sm uzunlikda.

Mart-aprel oylarida gullab urug'lari yetiladi. Tog'larda va tekisliklarda manzarali daraxt sifatida ekiladi. Qanotlaridan tozalangan

urug'lari sut va sarig' yog' bilan qaynatib ekzemani davolanadi. Zaxmda ichiladi.

Sadaqayrog'och-Вяз густой (Карагач)-*Ulmus densa* Litv.



Qayrag'ochdoshlar - *Ulmaceae*

oиласига mansub ko'p yillik daraxt. Poyasi tik o'suvchi, shoxlari bir-biri bilan yonmayon bo'lib, sharsimon umumiy ko'rinish hosil qiluvchi, balandligi 10-14 sm, daraxt kurtaklari uzunligi 3-4 mm, tuxumsimon tuksiz. Kosacha barglari 6-7 mm uzunlikda, siyrak tuklangan, barg yaproqlari 3-7 sm uzunlikda va eni 1,5-3 sm, tuxumsimon. Gullari qisqa bandli changchilari 4

qanotchali 2 sm uzunlikda va eni 1,2 sm tuksiz, yumaloq, yong'oqchasi qanotchasining yuqori qismining o'rtasida joylashadi. Mart-aprelda gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarini tekisliklari, tog'larida ekiladi.

Qanotlaridan tozalangan urug'larini tuyib sut bilan qaynatib gemoroyda qo'llaniladi. Qurutilgan ildizi qaymoq (sariyog', yog') bilan aralashirilib ekzemaga surtiladi. Maydalangan ildizi zaxm (sifilis) ga qarshi ichiladi.

Tekis qayrog'och-Вяз гладкий-*Ulmus laevis* Pall.



Qayrag'ochdoshlar - *Ulmaceae* oиласига

mansub ko'p yillik, daraxt shoxlari qizg'ish, to'q kulrang yoki yashil kulrang. Kurtaklari 4-6 mm tuklangan, barg yaproqlari 5-9 sm va eni 3-6 sm, tuxumsimon uzunchoq, ikki bora tishchali gullari sariq 1,5 sm uzunlikdagi tutqichlarga ega. Urug'lari qanotchali 12-16 mm. Tog' oldi va

tekisliklarda manzarali daraxt va ixota daraxtlari sifatida ekiladi. Qurg'oqchilikka chidamli bo'lganligi va sho'r yerlarda o'sa olganligi uchun O'zbekistonda ko'p ekiladi. Urug'lari ekzemani davolashda qo'llaniladi.


Uzun mevali jut (Sovun o't)-Джут длинноплодный-Corchorus olitorius L.



Jo'kadoshlar-Tiliaceae oilasiga mansub bir yillik, poyasi 1-3 m balandlikdagi o't-o'simlik. Barglari keng lansetsimon, 5-12 sm uzunlikda va eni 2-6 sm, chetlari arrasimon, ikki qatorli tishchali. Gullari sariq, 1-3 tadan barg qo'ltig'idan chiqadi, diametri 10 mm, changchisi 50-100 ta. Ko'sagi slindrsimon, 5-10 sm uzunlikda, qobirg'ali. Iyulda gullab, sentabrda urug'lari yetiladi. Toshkent viloyatining Chirchiq tumanida ekiladi.

Tibbiyotda urug'i ishlatiladi. Urug'i tarkibida yurak ish faoliyatini yaxshilovchi (olitorizid, korxorozid), yog' moddalar bor. Olitorizid strofantidinga o'xhash yurakka ta'sir qilgani uchun uning ampuladagi eritmasi qon aylanishining 1-2 darajali buzilishi, taxikardiya, xastaligini davolash uchun ishlatiladi.

Yurak bargli jo'ka-Липа сердцелистная-Tilia Cordifolia Bess.



Jo'kadoshlar – Tiliaceae oilasiga mansub ko'p yillik, shoxlari keng, balandligi 8-15 m bo'lgan daraxt. Barglari bandli, uzunligi 3-6 sm, tuklangan. Yaproq'i doirasimon, yuraksimon, uchki tomoni uchli, chetlari tishchalangan, 5-8 sm uzunlikda va eni 6-9 sm, yuqori qismi to'q-yashil, tuksiz, ostki tomoni och-yashil, burchaklari va tishlari oldi uzun tukli. Barglari 3-9 tadan joylashgan. Gul to'plamidagi barglari 5-9 sm uzunlikda va eni 2-2,5 sm. Kosachasi tashqi tomoni tuklangan, sarg'ish-yashil, 6 mm uzunlikda. Tojbarglari to'q-sariq, 8 mm uzunlikda. Tugunchasi bilan tuksiz, yong'oqchasi 10-12 mm uzunlikda, yumaloq, 5 qobirg'ali, ustunchasi tuklangan. Iyunda gullab, sentabrda urug'lari yetiladi. Toshkent va boshqa shaharlarda dekorativ o'simlik sifatida ekiladi.

Urug'larini tuyib, burundan va yaralardan qon ketishi to'xtatiladi. Bargi gullari xushdan ketishda, bosh og'rig'ida, turli tutqanoqlarda, nevrozda, oshqozon spazmasida qo'llaniladi.

Yuraksimon jo'ka-Липа сердцевидная-*Tilia cordata* Mill.



Jo'kadoshlar-*Tiliaceae* oиласига мансуб ко'п yellik, keng shoxlangan daraxt. Novdalari qizil, yosh qismi tuklangan. Barg bandlari 2.5-4.5 sm uzunlikda. Yaproq'i doirasimon, asosi yuraksimon, uchki qismi o'tkirlashgan chetlari ikki bora tishchali (tishchalari to'mtoq), 6-8 sm uzunlikda eni ham 6-8 sm, yuzasi to'q yashil, tuksiz, ostki tomoni och yashil chetlarida qo'ng'ir dog'lari bor. To'pgullari 8-15 gulli. Kosachasi 3-5 mm uzunlikda. Tojbargi sarg'ish 4-6 mm uzunlikda. Tugunchasi tuksiz ustunchali. Yong'og'i yumaloq, 4-8 mm uzunlikda aniq bo'limgan qobirg'ali, qalin tuklangan. Iyunda gullab, sentabrda urug'lari yetiladi. Markaziy shaharlar va tuman markazlarida manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Gulining damlamasi va gullari terlatuvchi choylar, yig'malar tarkibida turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida hamda tomoq og'rig'i, og'iz va tomoqni chayish uchun qo'llaniladi.

Yassi bargli jo'ka-Липа широколистная-*Tilia platyphylla* Scop.



Jo'kadoshlar – *Tiliaceae* oиласига мансуб ко'п yellik, keng shoxlanuvchi sharsimon daraxt. Novdalari sarg'ish yoki ochiq kumush rang-qo'ng'ir ayrim hollarda qizg'ish-qo'ng'ir, kam tuklangan. Barglarining bandi 3-6 sm uzunlikda, tuklangan. Eni ham 8-14 sm. Gul to'plami 2-5 tadan.

Yon gul barglari uzunchoq tilsimon, 7-12 sm uzunlikda va eni 1,5-3 sm. Kosachasi tuxumsimon, ichki tomoni tuklangan. Tojibarglari uzunchoq yoki uzunchoq tuxumsimon, 1,5-2 marotaba kosachadan uzun.

Yong‘og‘i yumaloq tuxumsimon, 10-12 mm uzunlikda, aniq qobirg‘ali. Iyunda gullab, sentabr oyida urug‘lari yetiladi. O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan. Manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Urug‘larini tuyib burundan va yaralardan qon ketishi to‘xtatiladi. Bargi, gullari xushdan ketishda, bosh og‘rig‘ida, turli tutqanoqlarda, nevrozda, oshqozon spazmasida qo‘llaniladi.

Arman gulxayrisi-Алтей армянский-*Althaea armeniaca* Ten.



Gulxayridoshlar – *Malvaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, poyasi 80-150 sm balandlikda, yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Barglari besh bo‘lakli, bandli. Gullari barg qo‘ltig‘idan chiqadi. Tojbarglari kosachasidan 2-2.5 marotaba uzun. Tojbarglari pushti rangda, ustki qismi o‘yiqli. Urug‘lari yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Ekinlar atrofida, tog‘ oldi tumanlarida, yer osti suvi yaqin bo‘lgan joylarda o‘sadi. Toshkent, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Qoraqalpog‘istonda o‘sadi.

Tibbiyotda ildizi qo‘llaniladi. Uning tarkibida ko‘p miqdorda shilliq moddalar, kraxmal, pektin moddalar bor. Ildizining preparatlari (kukuni, damlamasi, quruq ekstrakt, sharbati) va mukaltil balg‘am kuchiruvchi, yumshatuvchi, qoplab oluvchi va yallig‘lanishga qarshi vosita sifatida nafas olish yo‘llari shamollashi hamda me‘da-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Maydalangan ildizi nafas yo‘llari shamollaganda ishlatiladi.

Dorivor gulxayri-Алтей лекарственный-*Althaea officinalis* L.



Gulxayridoshlar – *Malvaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, poyasi kam shoxlangan, yulduzchali tuklar bilan qoplangan va balandligi 70- 150 sm. Barglari tuxumsimon, bandlari o‘rtacha uzunlikda, och yashil, tuklar bilan qoplangan. Gullari barg qo‘ltig‘ida to‘plangan holda. Kosachasi tuxumsimon tuklar bilan

qoplangan. Tojibarglari ochiq pushti ozroq binafsha rangga yaqin, kosachadan 1,5-2 marotaba uzun. Urug'lari burishgan, tuklar bilan qoplangan. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. To'qaylarda, zax yerlarda, ariqlar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Namangan, Samarqand viloyatlarida tarqalgan.

Ildizining qaynatmasidan Ibn Sino qon tupurishga qarshi buyurgan. Damlamalari ovqat hazm qilish organlardan qon ketishida, og'riq qolduruvchi va bo'g'inlar og'rig'ida qo'llaniladi. Ildizining qaynatmasidan yo'talda, shamollashda, ich burug'ida qo'llaniladi.

Yovvoyi tugmachagul-Мальва дикая-*Malva silvestris L.*



Gulxayridoshlar – *Malvaceae* oilasiga mansub bir yoki ko'p yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi asosidan shoxlangan, ikki uchli tuklar bilan qoplangan, balandligi 25-100 sm. Barglari doirasimon 5-7 bo'lakli, uzun bandli. Gullari barg qo'ltug'iga to'plangan va yon shoxchalarda. Gultojisi kosachasidan uch marotaba uzun pushti-binafsha rangda.

May-sentabrda gullab, iyun-oktabrda urug'lari yetiladi. Ekin maydonlarida, yo'l yoqalarida va tashlandiq yerlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Gullarining damlamasi balg'am ko'chiruvchi va yo'talga qarshi ishlatiladi.

Xo'kiz bo'ritarog'i (kanof)-Гибискус воловий-*Hibiscus trionum L.*



Gulxayridoshlar – *Malvaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasining balandligi 15-60 sm barglari qirqilgan. Gullari bittadan, ustki tomoni dag'al tuklar bilan qoplangan. Kosachasi barglari 10-13 tadan, nashtarsimon kalta tishchali. Kosachasining keng nashtarsimon, tishchali, oqish. Tojibargi sariq tepalari tuxumsimon, chetida to'qqizil dog'lari bor. Ko'sagi kosachasidan katta.

Urug'i 2,5 mm uzunlikda, buyraksimon mayda egatchalarga ega, to'q qo'ng'ir yoki qora. Iyul-sentaborda gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha sug'oriladigan yerlarida begona o't sifatida keng tarqalgan.

Barglaridan tayyorlangan damlamasi yo'tal va nafas olish yo'llaridagi balg'amlarni ko'chirish uchun ishlataladi.

Yalang'och gulli gulxayri-Алтей голоцветный-*Althaea nudiflora* (Lindl.) Boiss.



Gulxayridoshlar – *Malvaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Kam sonli poya hosil qiluvchi, tik o'suvchi, balandligi 70-200 sm, yulduzsimon tuklangan, to'kiluvchi tuklarga ega. Barglari uzun bandli, yaprog'i 5-7 panjasimon qirqilgan, chetlari burmali tishchali, ikki tomoni ham yulduzsimon tuklanishga ega. Gullari yirik shingilsimon to'pgulga to'plangan. Kosachasi tuxumsimon,

5 ta kosacha barglardan tashkil topgan, qalin tuklangan.

Tojibarglari teskari tuxumsimon, yuqoriga qisqarib boradi. Urug'lari ko'sakchada, har bir ko'sakda 25-30 ta urug' hosil bo'ladi, urug'larining qirg'og'i qanotchali, Urug'i 3-4 mm uzunlikda, buyraksimon qizil-qo'ng'ir nuqtalarga ega. Iyun-avgust oylarida gullaydi va iyul-sentaborda urug'i yetiladi. Tekisliklarda, nam joylarda o'sadi. Toshkent, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida gulining qaynatmasi ichburug' kasalligi va bolalardagi ko'p so'lak chiqish xastaliklarida qo'llanilgan. Gul va barglarini quyuq plaster (malham) tayyorlab yaralar va sifilis yaralariga, teridagi o'smalarga qo'yilgan. Ildiz qaynatmasidan ayollar ko'z yoriganidan so'nggi qon ketishini to'xtatish uchun ichirilgan. Urug'ida ham shunday xususiyatlar bor. Uyg'urlar gulining qaynatmasidan bezgak xastaliklarini davolaganlar.

Qora shotut-Тут черный (шелковица)-*Morus nigra L.*



Tutdoshlar – *Moraceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, sershox daraxt bo‘lib balandligi 7-10 m Barg bandlari 1-2 sm mayin gullarga ega. Barg yaproqlari tuxumsimon, asosi yuraksimon, dag‘al etli, chetlari tishsimon o‘yiqli uzunligi 5-8 sm, eni 4-6 sm dag‘al tuklarga ega. Urg‘ochi gullar tuxumsimon 1 sm uzunlikda va to‘q qora, qora binafsha ranglarda. Aprel-may oylarida gullab, mevalari may-iyun oylarida yetiladi. O‘zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi.

Shotut bargi tarkibida vitamin C, mevasida qandlar, organik (olma, limon) kislotalar, pektin moddalari bor. Quritilmagan barg shirasi tomoq og‘rig‘i va tish og‘rig‘ini davolashda, mevasi og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari, bo‘g‘ma, qizilchada foyda qiladi. Burushtiruvchi, isitma ko‘tarilganda chanqovni bosuvchi va siyidik haydovchi ta’sirga ham ega. Og‘iz bo‘shlig‘i va tomoq kasalliklariда mevasining damlamasini bilan og‘iz va tomoqni chayish buyuriladi.

Oddiy anjir-Инжир обыкновенный-*Ficus carica L.*



Tutdoshlar – *Moraceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, kichik daraxt bo‘lib, moyasining balandligi 5-8 m Barglari 3-8 sm bandli, qattiq tuklar bilan qoplangan. Plastinkasi 8-20 sm uzunlikda va eni 6-15 sm bo‘lib panjasimon qirqilgan. Mevalari sariq, qoramfir-binafsha ranglarda. Aprelda gullab, avgust-sentabrda mevalari pishib yetiladi. Farg‘ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda bargi va mevasidan foydalaniladi. Mevasi tarkibida ko‘p miqdorda qandlar, vitamin B va C, karotin, organik (oksalat, limon, olma, sirka) kisdotalar va boshqa moddalar, bargida furakumarinlar (psoralen) bor. Mevasi surgi dori kanifiol tarkibiga kiradi. Bargining furakumarinlar yig‘indisi preparati psoberan pes kasalligini davolashda ishlataladi.

Oq tut (baliq tut, ilon tut)-Белый тут (шелковица)-*Morus alba L.*



Tutdoshlar – *Moraceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, sershox balandligi 10-15 m bo‘lgan daraxt. Barglari 2-3 sm.li bandlarga ega yaproqlarining chetlari tishchali buyraksimon-panjasimon qirqilgan. Erkak gullar alohida kuchalada joylashgan bo‘lib, 1.5-2 sm ni tashkil etadi. Urg‘ochi gullari tuxumsimon, zinch joylashgan gullardan iborat. Mevalari qora, oq, pushti ranglarda bo‘ladi. Aprelda gullab, mayning oxirida mevalari pishib yetiladi. Tog‘li hududlarda, dengiz sathidan 1500 m bo‘lgan balandliklarda iyun-iyulda mevalari yetiladi.

Tut mevasi xalq tabobatida qonni tozalovchi, qonni ko‘paytiruvchi, siydk haydovchi vosita sifatida, yurak ishini yaxshilash va isitmani tushirish uchun qo‘llaniladi. Yurak mushaklari kichik tortib ketgan miokardiodistrofiyani oq tut mevasi bilan davolanganda ancha yaxshi natijalar bergen.

Ikki yuli chayono‘t-Крапива жгучая-*Urtica dioica L.*



Gazandadoshlar – *Urticaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, o‘t o‘simgilik. Ildiz poyasi orqali ko‘p sonli poyalar hosil qiladi. Poyalar balandligi 60-100 sm, ko‘p sonli kuydiruvchi tuklari bor. Yaproqlari tuxumsimon, yuraksimon, chetlari chuqr tishchali. Gullari uzun shoxlangan to‘pgullar ega. May-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. O‘zbekistonning tog‘li mintaqalarida tarqalgan. Toshkent, Farg‘ona Namangan, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, Qashqadaryo, Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Bargi tarkibida vitamin C, K, karotinoidlar, pantoten kislota, organik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Bargidan olingan xlorofill farmatsevtikada va oziq-ovqat sanoatida bo‘yoq modda sifatida ishlatiladi.

Doira bargli ko'kmara - Андрахисе круглолистная-*Andrachne rotundifolia* C.A.Mey.



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, buta, tuksiz, shoxlangan. Poyasi bir yoki bir nechta, yo‘g‘onligi 1mm balandligi 10-20-25 sm, ingichka qoburg‘ali, asos qismi yo‘g‘onlanuvchi. Barglari doirasimon, etli, yaprog‘ining uzunligi 4-11 mm va eni 5-9 mm, bandining uzunligi 1,5-3-4 mm, chetlari mayda tishchali. Gullari 2-4 tadan barg qo‘ltig‘ida joylashgan. Erkak gullari (changchisi), ipsimon tutqichli 1-1,5-(2) mm uzunlikda. Urug‘chi gullar tutqichi 1,5-3 mm uzunlikda, kosacha barglari rombiksimon to‘mtoq 1,75-2 mm uzunlikda, yashil. Ko‘sagi 3 chanoqli 1,75-2 mm uzunlikda va diametri 2,3-3 mm oq plyonkasimon. Urug‘i burchakli 1,5-1,75 mm uzunlikda va eni 1 mm qora rangda. Aprelda gullab avgustda urug‘lari yetiladi. Ekinzorlarda, tog‘larning gil tuproqli, qumli joylarida o‘sadi. Andijon, Namangan, Farg‘ona Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Xalq tabobatida qaynatmasi, damlamasi kuchli ichburug‘da qo‘llaniladi. Veterinariyada otlarning kuchli terlashini qoldirish uchun damlamasi ichiriladi.

Yer bag‘irlagan sutlama - Хамезице приземистая-*Chamaesyce humifusa* (Willd.) Prokh. (*Euphorbia humifusa* Willd.)



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oиласига mansub bir yillik o‘simlik. Tuksiz, och yashil, vegetatsiyaning oxirida binafsha rangga aylanadi. Poyasi keng o‘yilgan, ingichka, dixotamik shoxlangan, bilinar-bilinmas egatchali, balandligi 5-20(30) sm. Barglari kalta bandli, 6-10 mm uzunlikda va eni 1,5-5 mm, to‘mtoq, uchki qismi mayda arrasimon tishchali. Yon bargchalari mayda 1 mm uzunlikda, chuqur 2 bo‘lakli. Kosachasi tuksiz, aniq 3 bo‘lakli, doirasimon 1,5-2 mm uzunlikda va diametri 2 mm. Urug‘i 4 qirrali, uzunchoq 1 mm uzunlikda, qo‘ng‘ir, tekis. Yetilganda kulrang. Mart oyida gullab,

sentabrda urug'lari yetiladi. Temir yo'l ko'tarilmalarida o'sadi. Samarqand viloyatida tarqalgan (Samarqand shahri).

Tabobatda o'simlikning yer ustki qismidan olingan sutsimon shirası yordamida teridagi so'gallarni yo'qotiladi. Ildizidan ich yurituvchi surgi sifatida foydalaniladi.

Zarafshon sutlamasi-Молочай зеравшанский-*Tithymalus zeravshanicus* (Regel).Prok.



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Och yashil, qalin kalta tuklar bilan qoplangan, poyasining balandligi 10-40 sm ildizpoyali yo'g'on, ko'p poyali. Poyasi, egatchali barglari qalin joylashgan. Barglari navbatlashib joylashgan, tekis chetli 1.5-5.5 sm uzunlikda va eni 5-17 mm qisqa bandli. Soyaboni barglari 5 ta. Gul yonbarglari juft, tuxumsimon 1-2,5 sm uzunlikda va eni 5-10 mm, yuqoridagi soyaboni oddiy 5 nurli. Urug'chingning ustunchasi 2,5-3 mm uzunlikda. Ko'sakchasi 7-8 mm uzunlikda, 6-7 mm tuxumsimon, qalin tuklangan. Urug'i tuxumsimonroq 5-6 mm uzunlikda, tekis, kulrang-qo'ng'ir, xoldor. Iyul-avgust oylarida gullab urug'laydi. Tog'larning toshli yonbag'irlarida, qoyalar orasida, qorga yaqin bo'lgan joylarda o'sadi. Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tog'li aholi uning tanasidan ajiralgan sutsimon shirasidan kuchli ta'sir etuvchi surgi sifatida foydalanadilar.

Kunga boquvchi sutlama-Молочай солнцегляд-*Tithymalus helioscopius* (L.) Scop.



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oilasiga mansub o'simlik. Bir yillik, balandligi 8-30-(50) sm. Poyasi bittadan yoki bir nechta, tik o'suvchi to'kilgan barglar o'rnida shiramlari bor. Barglari navbatlashib joylashgan, kuraksimon 10-28 mm uzunlikda va eni 5-13 mm, asosi ponasimon qisqargan. Soyabonining barglari 5 ta, poyani o'rabi oluvchi shaklda, 3 sm uzunlikda va 2-2,5 mm enlikda. Gul oldi barglari, bandli 5-10 mm uzunlikda. Soyaboni 3-5

nurli, birlamchi nurlari kipriksimon tuklangan, 1-11-16 sm uzunlikda, ostki 3 ta gulyon barglar orasida rivojlanadi. Ko'sagi sharsimon 3 chanoqli, 2,5-3 mm uzunlikda va diametri 4 mm. Urug'i tuxumsimon 1,5-2 mm uzunlikda qo'ng'irsimon rangda.

Mart-avgust oylarida gullab, urug'laydi. Yo'l yoqalari, bog'lar, ekinlar orasida, ariqlar bo'yida o'sadi. Andijon, Namangan, Farg'on, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning ko'p qismini sutsimon shira tashkil qiladi. Ildizidan surgi dori sifatida foydalaniladi.

Oddiy kanakunjut-Клещевина обыкновенная-*Ricinus communis L.*



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Balandligi 1-5 m tuksiz shoxlanuvchan, birlamchi va ikkilamchi shoxlari gul to'plami bilan tugallanadi. Barglari navbatlashib joylashgan, uzun bandli, yaprog'i panjasimon qirqilgan. Shingil gullari oldi barglari qarama-qarshi jolashgan, ular oldida erkak gullar, undan keyin urg'ochi gullar joylashgan. Gullari mayda, yashil, pushti, qizil va qo'ng'ir ranglarda. Ko'saklari turli ranglarda, tuksiz, tekis, ustki tomoni tikanlar bilan qoplangan. Iyun-sentabrda gullaydi va iyul-sentabrda urug'lari pishib yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida dekorativ o'simlik sifatida turli navlari ekiladi.

Urug'idan olingan yog'i surgi sifatida, ichaklarning faoliyatini qo'zg'atuvchi, kuygan yaralarni tuzatuvchi sifatida qo'llaniladi.

Sirdaryo sutlamasi-Молочай сырдарьинский-*Tithymalus jaxarticus Prokh.*



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasining balandligi 30-100 sm, 2-5 tadan poyali, yo'g'onligi 5-6 mm, aniq uzunasiga ketgan egatchali, yuqori qismidan shoxlanuvchi tiniq.

Urug'siz poyalari kalta. Barglari navbatlashib joylashgan, uzunchoq nashtarsimon 4-13 sm uzunlikda va eni 3-7 mm poyasi qisqargan gulbandga o'xhash, chetlari tekis. Soyabon barglari 10 ta har xil uzunlikda, o'troq 10-20-(50) mm uzunlikda va eni 2-6 mm, gul oldi barglari just buyraksimon 6-20 mm uzunlikda va eni 8-22 mm. Soyaboni (5)-8-12 nurli. Ko'sagi tuxumsimon uch chanoqli 3.5-4.5 mm uzunlikda. Urug'i tuxumsimon 2.5 mm uzunlikda oqish kulrang tekis. Aprelsentabr oylarida gullab urug'laydi. Daryolar o'zanida, ariqlar bo'yalarida, tashlandiq ekinzorlarda, tog'larning kam o'tli joylarida o'sadi. Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning o'sib turganda uzilgan vaqtida ajralgan sut shirasi bilan so'gal va oyoqdagi qadoqlarni, shuningdek teridagi yaralar, qo'tir, qichimlar ham davolanadi. Qurug'i tuyilgan ildizidan rak kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Farg'ona chunfuti (sutlamasi)-Молочай ферганский-*Tithymalus ferganensis (B.Fedtch) Prokh.*



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 30-75 sm o'simlik. Yosh o'simliklar tuklar bilan qoplangan. Ildizi tiganaksimon, yo'g'onligi 4 sm. Poyasi bittadan, tik o'suvchi, yo'g'on o'rta qismidan shoxlangan. Barglari butun, tezda to'kilib ketuvchi, (4)-5-7 sm uzunlikda va eni 2-4 sm. Soyaboni uzunchoq, barglari 2-5 sm uzunlikda, ingichka va eni 1,5-4 sm. Soyabonchasi 3 nurli shoxlangan. Qoplovchi barglari keng qo'ng'iroqsimon 5 mm uzunlikda, ingichka. Ko'sagi sharsimon, 6-10 mm uzunlikda va eni 7-11 mm, kuchsiz egatchali, kam tukli. Urug'i uzunchoq to'rtqirrali 5-6 mm uzunlikda, kulrang-yashil. May-oktabr oylarida gullab urug'laydi. Tog' oldi qismidagi qurg'oqchil, toshloq joylarida o'sadi. Andijon viloyati (Qo'rg'ontep) da tarqalgan.

Ildizining qaynatmasidan va ildizidan qichima xastaligida qo'llaniladi. Shirasi teridagi tuklarni to'kadi. Ildizidan surgi dori sifatida foydalaniladi.

Chalabo'ta sekerurenga-Секуринега полукустарниковая-

Securinega suffruticosa (Pall) Rehd.



Sutlamadoshlar – *Euphorbiaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, balandligi 2 m bo‘lgan buta, tuksiz, barglari navbatlashib joylashgan. Bargi tuxumsimon, asosi ponasimon, ochiq yashil, qisqa bandli. Gullari ikki uyli, tojibarglari yo‘q, erkak gullar to‘plamli, urg‘ochilar yakka joylashgan. Kosachabargi 5 ta, changchisi 5 ta, onalik tumshug‘i ikki bo‘lakli. Ko‘sagi sharsimon 5 mm uzunlikda, chanog‘i ochiluvchan, 3-6 ta urug‘li. May-iyunda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Kam bo‘lsada O‘zbekistonda ekiladi.

Tibbiyotda yosh novdalari ishlatiladi. Sepurinin nitrat moddasi markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi vosita sifatida paralich (shol), jinsiy zaiflanish, ichaklar zaiflashishi va ko‘zning ba’zi kasalliliklarda hamda moddalar almashinuvi buzilganida qo‘llaniladi.


Pufakchali kelinsupurgi-Двучленник пузырчатый-*Diarthron vesculosum*. (Fisch. et Meg) C.A. Meg.



Kelinsupurgidoshlar – *Thymelaeaceae* oиласига mansub bir yillik, poyasi shoxlangan, to‘g‘ri o‘suvchi, tekkis, balandligi 15-50 sm bo‘lgan o‘simlik. Shoxlari yuqoriga qarab o‘suvchi. Barglari navbatlashib joylashgan nashtarsimon, 5-15 mm uzunlikda, qisqa bandli (2mm), yuza tomoni tuklangan, gullari novda va poya uchidagi shoxlarga to‘plangan, ikki jinsli. Changchisi 4-8 ta kalta changchi ipi bilan. Yong‘oqchasi yaltiroq tuxumsimon, qora 2 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ oldi cho‘l hududlaridagi gil tuproqli joyda o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qaynatma damlamasi uyqusizlikda va ishtahani yaxshilashda qo‘llaniladi.

Sovuq zarchoy-Родиола холодная-*Rhodiola gelida* Schrenk.




Semizakdoshlar – *Crassulaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, ildizi yo‘g‘on, ко‘п sonли poyalar hosil qiluvchi o‘simlik. Balandligi 3-10 sm, ingichka yuqori qismi egilgan, barglari navbatlashib joylashgan uzunchoq bo‘lib, chetlari mayda tishchali. Gul to‘plami 1-2 sm uzunlikda va ko‘п sonli gullarga ega. Gullari qisqa bandli. Tojbarglari sariq 4 mm

uzunlikda. Iyun-iyulda gullab, avgust-sentabr oyalarida urug‘lari yetiladi.

Alp o‘tloqlaridagi qoyatoshlarning yoriqlarida o‘sadi. Toshkent viloyati (Angren daryosi yuqorisida), Qashqadaryo viloyati (Xanaqa suv-daryosining yuqori qismi) da uchraydi. Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi ish qobilyatini tiklovchi, asab, oshqozon, xastaliklarida, organizmni kuchaytiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Turli tishchali zarchoy-Родиола разнозубчатая-*Rhodiola heterodonta* (Hook. et Thoms.) Boriss.



Semizakdoshlar – *Crassulaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, mustahkam yirik ildizli o‘simlik. Ildiz poyalari ko‘п shoxlangan va pardasimon uchburchak shakldagi barglar bilan (7-8 mm uzunlikda va eni 8 mm) qoplangan. Poya ostidagi barglari yirik, uzunligi 30-40 mm 2-3 tadan, tik o‘suvchi. Gul to‘plami zich bo‘lib, boshoqsimon-qalqon shaklida, barglar bilan o‘ralgan. Gullari qisqa

bandli 3-4 mm. To‘rtlik tipidagi gul. May-iyunda gullaydi. Toshli va shag‘alli maydonlarda dengiz sathidan 4000 m balandda o‘sadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. Ildizi qaynatmasidan qon to‘xtatuvchi, to‘xtab qolgan menstruatsiyani yurgizish, charchoqni yo‘qotish, organizmni quvvatlantirish uchun qo‘llaniladi.

Uzun tishchali soxtasemizak-Ложноочиток длиннозубчатый-

Pseudosedum longidentatum Boris.



Semizakdoshlar – *Crassulaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik о‘sимлик. Ildizi ko‘п sonli, yo‘g‘onligi 7 mm, popuk ildizga o‘xshash. Poyalari 1-3 tadan, tik o‘suvchi, balandligi 25-50 sm. Barglari nashtarsimon, 1-2 sm uzunlikda. Gul to‘plarining eni 5-6 sm, to‘pgullar tutqichlari urug‘langan vaqtida uzayadi. Guli 12-14 mm uzunlikda. Kosachasi 4-5 marotaba tojibargdan qisqa.

Tojibarglari voronkasimon, urug‘langanda qo‘ng‘iroqsimon, pushti. Aprel-may oylarida urug‘lari yetiladi. Daraxt va butalar orasida, toshli, shag‘alli tuproqlarda, (750)-1500-2500 m balandlikda o‘sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Ushbu o‘simlikni kuydirib, kulini frunkulni tez yetilib yorilishini ta’minlash uchun ishlatiladi.

Qora qoraqat-Смородина черная-*Ribes nigrum L.*



Qoraqatdoshlar – *Grossulariaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik, kichik buta, balandligi 1-1.25 metr bo‘lib, novdalari qo‘ng‘ir. Barglari 12 sm uzunlikda, 3-5 bo‘lakli, keng uchburchak shaklda. Gul shingillari 3-5 sm bo‘lib, 5-10 gulli. Gullari 7-9 mm uzunlikda va pushti-kulrang ranglarda. Mevalari qora, o‘ziga xos hidga ega bo‘lib, diametri 10 mm. May oylarida gullaydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida bog‘bonlar tomonidan ekiladi.

Tibbiyotda bargi va mevasi ishlatiladi. Bargi bilan mevasining damlamasi lavsha (singa), hamda avitaminoz kasalliklarini davolashda terlatuvchi va siyidik haydovchi vosita sifatida qo‘llanadi. Ular yana vitaminli choylar, yig‘malar tarkibiga kiradi.

Meyer qoraqati-Смородина Мейера-*Ribes meyeri* Maxim.



Qoraqatdoshlar – *Grossulariaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, kichik buta bo‘yi 1,5 m sariq, tuksiz ayrim hollarda siyrak tukli novdalarga ega. Kalta shoxchalaridagi barglarining uzunligi 2,5-5,5 sm va eni 6-7 sm, bosh bo‘lakli yuraksimon, chetlari tishchali, shingillari kalta 2-4 sm ko‘p gulli 4-12 gulli va gul bandlari 1,5-2 mm uzunlikda, tuklangan.

Gullari sariq yoki och pushti. Mevalari qoramtil binafsha rangda, 6-8 mm diametrda. Iyunda gullab, avgustda mevalari pishib yetiladi. Tog‘larning butazorlaridan, sub alp o‘tloqlarigacha ko‘tariladi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, viloyatlarida uchraydi.

Limfatik bezlar, tuberkulyozda, qon bosimi ortganda, jigar, yurak, yo‘tal, oshqozon og‘rig‘ida, diatezda, teri xastaliklarida ishlatiladi.

Yanchev qoraqati-Смородина янчевского-*Ribes janczewskii* Pojaek.



Qoraqatdoshlar – *Grossulariaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, buta, sarg‘ish novdalarga ega. Barglari yirik 15 sm gacha, chuqr yuraksimon, o‘tkir qirqimli, chetlari o‘tkir tishchali. Gullari 5 sm gacha bo‘lgan shingillarda 5-10 tadan joylashgan. Gullari 12 mm uzunlikda ochsariq rangda. Mevalari qora, diametri 13 mm. Iyunda gullab, mevalari avgustda pishib yetiladi. Tog‘larning o‘rtta mintaqalarida bo‘lgan daryo, soylar o‘zanida o‘sadi. Toshkent, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Poyasi vitaminli choy sifatida, singaga, shamollashlarga va oshqozon xastaliklariga qo‘llaniladi.

Alp yerchoyi-Гравилат алеппский-*Geum aleppicum* Jacq.



Ra’nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Poyasi 40-80 sm, tik o‘suvchi, dag‘al tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari lirasimon qirqilgan, yon qirqimlarini soni 6-8 ta ponasimon. Gullari mustahkam poyalar uchida joylashgan.

Tojbarglari keng teskari tuxumsimon, tuklangan sariq. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida urug'i yetiladi. Yo'l yoqalarida va turar joylardagi tomorqalar orasida o'sadi. Toshkent (Angren), Samarqand (Guralash) viloyatlarida tarqalgan.

Yashil novdalari barglari bilan qaynoq suvda qaynatilib, yiringli yaralarni vanna qilishda ishlatiladi. Barglaridan tayyorlangan damlamasi ekzemalarni davolashda qo'llaniladi.

Alp qonyutari-Кровохлебка альпийская-*Sanguisorba alpina* Bunge.



Ra'nodoshlar - *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasining balandligi 15-80 sm, ildiz oldi barglari uzun bandli 11-17 sm yaprog'i bilan, tuksiz, chetlari arrasimon tishchali. Poyasining yuqori qismidan shoxlanadi. Gul to'plami tik turuvchi 1.5-2 sm uzunlikda, silindirsimon. Gullari yashil sariq, ayrim hollarda qizg'ish. Kosachasi tuxumsimon, 1 mm dan katta, changchilarini kosachadan uzun. Iyun oyida gullab, iyulda urug'lari yetiladi. Alp va subalp o'tloqlarida o'sadi. Toshkent (Angren daryosining yuqori qismi) da, Qashqadaryo (Tamshush dovonii) da tarqalgan.

Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi turli ko'rinishdagi qon ketishlarida, yer ustki qismidan qorindagi og'riqlarda, o'pka tuberkulyozda, bronxitda, tamoq xastaliklarida qo'llaniladi.

Anatoliy parmachagi (maymunjon)-Малина анатольская (ежевика)-*Rubus anatolicus* Foeke. (*Rubus turcomanicus* Freyn).



Ra'nodoshlar - *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik buta, poyasi va novdalari oddiy, yulduzsimon tuklar bilan qoplangan, tikanlari doimo qoburg'alari ustida joylashadi, tikani to'g'ri, ostki qismi kengaygan. Barglari beshlik, ayrimlari uchlik tipda. Ovalsimon tishchali, chetlari arrasimon tishchali. Gullari uzun bandlarda joylashgan kosachabarglari to'mtoq, tojibarglari pushti yoki

och pushti, mevasi sharsimon binafsha rangda. May-iyun oylarida gullab, mevasi iyun-sentabrda pishib yetiladi. O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida madaniy holda ekiladi.

Tibbiyotda mevasi ishlataladi. Damlamasi, sharbati choy yig'malarga qo'shiladi. Mevasi turli shamollash kasalliklarida terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Beggeri na'matagi-Шиповник *Rosa beggeriana* Schrenk.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, bo'yi 1-2,5 m bo'lgan buta o'simlik. Tikanlari ikkitadan barglar asosining oldida joylashgan 5-7 mm uzunlikda, uchlari bukilgan asosining oldida joylashgan 5-7 mm uzunlikda, uchlari bukilgan. Barglari 5-9 tali toq bargchali murakkab bo'lib, chetlari 9-12 tadan tishlarga ega. Gullari ko'p sonli bo'lib, qalqonsimon yoki supurgisimon to'pgullar hosil qiladi. May-avgust oylarida gullab, iyul-oktabrda mevasi yetiladi. To'qaylarda va tog'larning o'rta mintaqalarida tarqalgan. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarcand, Qashqdaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mevasi vitaminlarga boy, oqsillar almashinuvini yaxshilaydi, suyak iliklarining faoliyatini tiklaydi, oshqozon yallig'lanishida, suyaklar singanda, kam qonlikda, organizmni tiklashda qo'llaniladi.

Besh urug'chili do'lana-Боярышник пятилистичный-*Crataegus pentagyna* Wuldst. et. Kit.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, kichik daraxt, poya va novdadagi tikanlari 5-10 mm. Barglarining umumiy ko'rinishi doirasimon, tuxumsimon, yaprog'i tukli chuqr qirqilgan. Gullari 3-5 mm, gullari ko'p sonli qalqonsimon va uning diametri 10 sm. Gultojlari doirasimon, oq rangda. Mevasi qora yoki to'q qo'ng'ir ranglarda, sharsimon bo'lib, diametri 7-8 mm. Urug'lar soni 5 tadan. Aprel oyida gullaydi, mevalari avgust oyida yetiladi. O'zbekiston shaharlarida oz bo'lsada ekiladi.

Gul va mevalaridan tayyorlangan damlamasi yurak sanchig‘ida, nafas olish og‘irlashganda, gipertoniyada, oshqozon-ichak xastaliklarida qo‘llaniladi.

Damashq na’matagi (qizil atirgul, qirqog‘ayni)-Шиповник
дамасский-Rosa damascena Mill.



Ra’nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 1,5 metr, bo‘lgan buta. Tikanlari bir xilda, uchi ozgina bukilgan. Barglari tuxumsimon nashtarsimon, usti tuksiz, osti tuklangan qizil, chetlari to‘lqinsimon tishchali. Gullari ko‘p sonli qalqonsimon supurgisimon. To‘plangan tojbarglari och pushti, yuqori qismi qizil. May-iyun oylarida gullaydi. Manzarali o‘simlik sifatida O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Mevalaridan tayyorlangan damlamasi o‘t xaltasini olib tashlagandan so‘ng, jigar, o‘t yo‘llari, buyrak tosh xastaliklarida qo‘llaniladi.

Daryo yerchoyi-Гравилат речной-*Geum rivale L.*



Ra’nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Yo‘g‘on ildizi qo‘ng‘ir, barg qoldiqlari bilan qoplangan, poyalari 1-3 tagacha va balandligi 25-75 sm, tik o‘suvchi, tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari uzun tutqichli. Gullari oz sonda. Gultojlari gulkosachalari bilan deyarli teng bo‘lib qizg‘ish yoki oqish-sariq bo‘lib, qizil-qo‘ng‘ir dog‘larga ega. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug‘lari yetiladi. Toshkent viloyatida tarqalgan. Milkardan va ichki organlardan qon ketishida, astma va turli ko‘rinishdagi asab xastaliklarida qo‘llaniladi.

Dorivor taflon (lavroserazus)-Лавровишия аптечная-Laurocerasus officinalis Roem.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik, kichikroq daraxt yoki buta. Shoxlari tuksiz, yaltiroq. Barglari ovalsimon, uzunchoq nashtarsimon bo‘lib, uzunligi 8-16 sm va eni 6 mm, ostki tomonidagi asosiy tomirining yonida 2-4 tadan bezchalari bor. Barg bandlari juda qisqa. Gul shingillari 6-12 sm uzunlikda, kalta yo‘g‘on bandli. Gulining diametri 7 mm. Kosacha barglari qirrali, uchburchaksimon. Tojbarglari oq ovalsimon. Danagi qora, ovalsimon o‘tkir. Mart-aprelda gullaydi. Sovuq kuchli bo‘lgan yillari gullamaydi, sovuq urib ketadi. Doim yashil o‘simplik. Toshkent va Samarqand shaharlarida ekiladi.

Bargidan tayyorlangan taflon suvi tinchlantruvchi va og‘riq qoldiruvchi vosita sifatida achchiq bodom suvi o‘rnida ishlataliladi.

Jung‘or do‘lanasi-Боярышник джунгарский-Crataegus songorica C. Koch.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik, o‘rtacha bo‘yli daraxt, tikanlari to‘g‘ri 8-15 mm uzunlikdagi o‘simplik. Barglari tuksiz, 3,5-5 sm uzunlikda, o‘rtacha eni 8 sm umumiy shakli rombik. Gul to‘plami ko‘p sonli gullardan tashkil topgan bo‘lib, qalqon shaklida.

Gulqo‘rg‘oni diametri 6 mm, changchilar 18-20 tadan. Mevalari to‘q qizil, 12-15 mm sharsimon, yumaloq, 1-2 tadan urug‘larga ega. May oyida gullab, sentaborda mevalari yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqalaridagi soylar o‘zanida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ekiladi.

Gul va mevalaridan tayyorlangan damlamasi yurak sanchig‘ida, nafas olish og‘irlashganda, gipertoniyada, oshqozon ichak xastaliklarida qo‘llaniladi.

Zangori maymunjon (parmachak)-Ежевика сизая (малина)-*Rubus caesius L.*



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко‘п yellik, 50-150 sm balandlikka ega bo‘lgan novdalari ko‘п sonli va tikanlar bilan qoplangan o‘simlik. Barglari uchli. Yaproqlarning cheti tishchali o‘yiqlarga ega. Gul bandlari uzun ingichka.

Gultojisi ellipssimon oq. Mevalari bir necha danakchali to‘plamdan iborat bo‘lib qoramtir, binafsha rangda. May-iyunda gullab, mevalari iyun-iyulda yetiladi.

To‘qaylarda, archazorlarda, tog‘ buloqlari, ariqlar va soylar o‘zanida, tog‘ning o‘rta mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevalari va barglari qon to‘xtatuvchi vosita hamda yuz nervlarini davolashda ishlatiladi.

Itburun na’matak-Шиповник собачий-*Rosa canina L.*



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко‘п yellik, balandligi 3 m metr bo‘lgan buta tanasi ko‘п sonli, yo‘g‘on kam shoxlangan. Tikanlari asosiy shoxlarda kamroq 5-10 mm uzunlikda bosh novdalarda tikanlari qalin ammo mayda bo‘ladi. Barglari 3-5-7 tadan 10-15 mm uzunligi va 7-25 mm eni, chetlari 2-1 tishchali.

Gullari 2-5 ta qalqonsimon to‘pgullar hosil qiladi. Gultojlari oq yoki pushti rangda 4-6 sm. Mevasi qizil 2-3 sm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyun-oktabrda mevalari yetiladi. Tog‘larning pastki va o‘rta mintaqalaridagi soylar, ariqlar, archazorlar orasida uchraydi. Toshkent, Farg‘ona Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo mintaqalarida tarqalgan.

Tibbiyotda na’matak mevasining qiyomidan (suqli ekstraktini quyultirib, qand qo‘shib) tayyorlangan qaynatma o‘t pufagi yallig‘lanishi, jigar kasalliklariga davo qilinadi. Askorbin kislota (vitamin C) va uning preparatlari lavsha (singa) avitaminoz kasalliklarini

davolashda hamda ularning oldini olishda qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar, damlamalar tarkibiga qo'shib ishlataladi.

Kichik na'matak-Шиповник небольшой-*Rosa nanothamnus* *Bouleng.*



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 1,5-2,5 m bo'lgan, ko'p shoxlangan, o'ta qalin, tikanli buta. Tikanlari 10-14-mm uzunlikda. Barglari o'rtacha etli, 5-7 bargchali doirasimon, tuxumsimon, 5-12mm uzunlikda va eni 5-9 mm chetlari ikki bor maydasimon, arrasimon tishchalarga ega.

Gullari bittadan. Tojlar 9-13 mm uzunlikda lentasimon, pushti ranglarda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida mevalari yetiladi. Tog'ning o'rta mintaqalarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Damlama choyi surgi sifatida, siyidik haydovchi, shamollashga qarshi, tish og'rig'ida hamda yurak, jigar, oshqozon faoliyatini mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Ko'p oilali ko'ko't (xargizagiyo)-Черноголовник многобрачный- *Potentilla polygamum* Waldst. et Kit. (*Sanguisorba minor*).



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, moyasi tik o'suvchi, slindrsimon, yuqori qismi ayrisimon shoxlangan o'simlik. Balandligi 40-80 sm. Ildizpoyalari yaxshi rivojlangan, yo'g'onlangan. Ildizoldi barglari bandli, yaproqlari 1-1,5 sm uzunlikda tuxumsimon, 3-9 ta yirik tishchali, tuksiz.

Gullari boshoqchada, uzun tutqichli sharsimon 2,5 sm uzunlikda. Kosachabargi ochiq sariq, keyinchalik qo'ng'ir rangga o'tadi. Erkak gullari 10(20-30) tadan, ikki jinsli gullarda ozroq, urug'i 4,5 mm uzunlikda va eni 2,5 mm, tuksiz to'rt qirrali tuxumsimon, qanotchali, qanotchasi 0,5 mm enlikda. May-iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi. Ochiq quruq joylarda, yo'l va ekinzorlar chetida, bog'lar va ariqlar bo'yida, tog' o'tloqlarida o'sadi. Toshkent,

Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizpoyasi va barglari burushtiruvchi va yaralarni yaxshi davolovchi xususiyatlarga ega. Yangi uzilgan barglari yaralarga qo'yiladi.

Qo'qon yerchoyi-Прямохвостник кокандский-*Orthurus kocanicus* (Regel et Schmalh.) Juz. (*Geum kokanicum* Regel et Schmalh.).



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, kalta tuklar bilan qoplangan, yuqori qismidan soxta dixotamik shoxlangan, balandligi 15-45 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari lirasimon bo'laklarga bo'lingan chetlari tishchali, yuqoridagi barglari o'troq. Gullari 2-7 tadan, keng qo'ngiroqsimon, kosachasi uzunchoq tuxumsimon. Tojbarglari sariq, yumaloq, urug'i kam sonli 4-10 ta. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'i yetiladi. Archazorlarda, qoyalar orasidagi namliklarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida o'simlikning hamma qismi ishlataladi. Ildizpoyasi bilan ildizidan tayyorlangan qaynatmasi va damlamasi ichketarda, og'iz va tomoq og'riganda ularni chayish uchun qo'llaniladi.

Qo'qon na'matagi-Шиповник кокандский-*Rosa kocanica* Regel ex Juz.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, poyalarining balandligi 1,5-2 m, ko'p sonli poyalari sershox, tikanlari deyarli poyani o'rab olgan, 7-8 mm uzunlikda. Barglari 7-9 juftli, toq bargchali 8-17-(20) mm uzunlikda va eni 6-13-(15) mm, ikki tomoni shoxlangan tukchali. Gullari 1-2 tadan novdalar uchida, 1-

1,25 mm yo'g'onlikda va 4 sm uzunlikda. Kosachasi 9-15 mm uzunlikda, bukilmaydi. Tojbarglari sariq, diametri (3)-4,5-5 sm, mevasining diametri (10)-12-15 mm tuksiz, etsiz. May-iyulda gullab,

iyul-oktabrda mevalari yetiladi. Tog‘larning o‘rtal mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Urug‘idan olingan moy va mevasining etidan tayyorlangan ekstrakti trofik yara, ekzema, rentgen nuri ta’sirida kuygan terilarni davolashda qo’llaniladi.

Og‘ma g‘ozyaproq-Манжетка отклоненная волосистая-*Alchimilla retropilosa* Juz.



Ra’nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. O‘rtal yiriklikdagi o‘t-o’simlik. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari 1,5-8sm uzunlikda va eni 2-10 sm, buyraksimon yoki dastorsimon. Poyasining uzunligi 3-4,5 sm, tanasi va barglari tuklangan. Gullari qisilgan to‘p gullardan iborat, gul uzunligi 2,5-3,5 mm va eni 3-4

mm, yashilroq, ayrim hollarda yashil-sariq. Iyul oyida gullaydi. Tog‘ etaklarida, o‘tloqlarda o‘sadi. Asosan G‘arbiy Tyanshan tizmalarida tarqalgan. Qaynatmasi va nastoykasi qon ketishida, ichburug‘ xastaliklarida ishlatiladi.

Oddiy maymunjon-Ежевика анатольская-*Rubus idaeus* L.



Ra’nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko‘p yillik, bo‘yi 50-120 sm balandlikka ega, tikanlari siyrak o’simlik. Gul novdalari qisqa va ulardagi barglari uchli tig‘da. Gullari oz sonli bo‘lib, qalqonsimon, to‘plamda. Gulqo‘rg‘oni qizilkulrang, gultojlari oq rangda. May oyida gullab, iyunda mevasi yetiladi. O‘zbekistonda faqat madaniy holatda uchraydi va barcha viloyatlarda ekiladi.

Quritilgan mevasi ter haydovchi sifatida, meva novdalari damlamasi gemoroy, gipertonik xastalikda, yuzdagil xusnbuzarga qarshi ishlatiladi.

Oddiy nok (Olmurut)-Груша обыкновенная-Purus communis L.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п ўйлиқ, баландлыгы 20-30 м сершох, дарахт. Барлари пойда наубатлашиб жоюлашибди, ўзмалоқ, овалсимон, узун бандли. Гуллари барг тоғ'тигида соябонсимон жоюлашган. Гуллари 2,5-3 см. Тојбарлари пушти оқ ранда, майда тоғ'нисимон дөг'лари бор. Меваси ноксимон, уруг'лари қизг'иш-тоғ'нинг 4-6 мм узунликда.

Апреда гуллаб ийлдан ноабргача бо'лган вақтда yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida 10 dan ortiq navlari ekiladi.

Мевасидан тайyorlangan sharbati siyidik haydovchi, buyrak tosh xastaligida, qurutilgan mevasining qaynatmasi yo'talda, ich burug'da, ovqat hazm yo'llarini ish faoliyatini yaxshilashda qo'llaniladi.

Oddiy olcha (achchiq gilos, olvoli)-Вишня обыкновенная-Cerasus vulgaris Mill.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п ўйлиқ, баландлыгы 8 м бо'лган дарахт. Айрим холларда бир нечта асосиyoyalarga ega bo'ladi. Барлари доирасимон, узунчоқ овалсимон, уchlари уchlι, четлери тishchали. Гуллари бир куртакдан соябонсимон гуллар hosil qiladi va гуллар barglar bilan bir вақтда rivojlanadi. Мевалари yuraksimon, тоғ' qizil, etli. Mart-aprel oylarida гуллаб, май-иyun oylarida mevalari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda mevasidan tayyorlangan sharbati ishlatiladi. Меваси таркibida qandlar, organik kislotalar, karotin, vitaminlar C, B va PP, oshlovchi moddalar urug'ida efir moyi, yog' va amigdalini glikozidi bor.

Meva sharbati farmatsevtikada ba'zi bir suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun hamda isitmani pasaytiruvchi, ishtahani ochuvchi vosita sifatida va shamollash kasalliklarida qo'llaniladi. Farmatsevtika amaliyotida olcha yelimidan emulgator sifatida foydalaniładi.

Oddiy o'rik-Абрикос обыкновенный-*Armeniaca vulgaris*. Lam.




Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yellik, 8-10 m balandlikdagi daraxt. Poyasining yo'g'onligi diametri 20-60 sm. Barglari, oddiy, bandlari uzun to 5 sm gacha, yaproqlari doirasimon uchi o'tkir, chetlari tekis bo'limgan arrasimon tishchalardan iborat. Gullari 1 tadan, tojibarglari oq yoki pushti ranglarda. Mevasi danakli yumaloq,

tuxumsimon. Mart-aprel oylarida gullaydi, iyul-sentabrda yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi (shaftoli moyi nomi bilan yuritiladi) va daraxtidan olinadigan yelimi ishlatiladi. Mevasining yumshoq qismida qand, organik kislotalar (olma, limon kislotasi), karotin, vitamin C va PP, flavonoidlar, pektin, mineral, oshlovchi moddalar bor.

Urug'ida (mag'izida) ko'p miqdorda moy, emulsin fermenti; achchiq danakli o'rik mag'zida esa amigdalini glikozidli birikmalar bor. O'rik moyi ba'zi dori moddalar (kamfora, gormonlar), in'eksion eritma va suyuq surtmalar tayyorlashda o'rik daraxti yelimi moyli emulsiya tayyorlashda (emulgator sifatida) achchiq danakli o'rik urug'i achchiq bodom suvi tayyorlashda ham ishlatiladi.

Oddiy shaftoli-Персик обыкновенный-*Persica vulgaris* Mill.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yellik, bo'yi 5-8 m bo'lgan kichik daraxt. Yosh novdalari qo'ng'ir-qizil rangda. Keksa poyalari kulrang. Keng shoxlanish xususiyatiga ega. Kurtaklari yosh novdalarda 2-3 tadan bir joyga to'plangan bo'lib, mayin tuklar bilan qoplangan. Barglari qisqa bandli bo'lib, yaproqlarining uzunligi 8-15 sm va eni 2-2,5 sm, uzun nashtarsimon shaklda. Gullari bittadan bo'lib, barglardan oldin rivojlanadi. Gullari oq, pushti, qizil ranglarda bo'lib diametri 2,3-3,5 sm gacha. Mevasi danakli bo'lib, tuxumsimon, uzunligi 5-7 sm. Mart-aprel oylarida gullab, iyul-

avgust oylarida mevasi yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi, ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, efir moyi, emulsin fermenti moddalar, mevasining yumshoq qismida karotinoidlar, qandlar, vitamin S, organik kislotalar, efir moyi, pektin va boshqa moddalar, kaliy va magniy tuzlari bor. Shaftoli moyi dorishunoslik amaliyotida suyuq surtma dorilar tayyorlashda hamda ba'zi dori moddalarni (kamfora) tayyorlashda qo'llaniladi. Urug'idan achchiq bodom suviga o'xhash ta'sirli preparat tayyorlash mumkin.

Oddiy shimurt-Черемуха обыкновенная-*Padus racemosa* (Lam)

Gilib. (P. avium Mill.)



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, 8-10 m daraxt, poyasi to'q qizil yoki qizil. Barglari tuxumsimon lansetnik shaklda, yaproqlari qo'ng'ir qizg'ish rangda, 3-10(15) sm uzunlikda va eni 3-5 sm, yaproq usti tekis, to'q yashil usti tuklangan rangdor. Barg bandi 1-2 sm. Gullari oq o'tkir hidli diametri 1 sm. Gultojilari oq, doirasimon teskari tuxumsimon, danagi kuchli burishgan. Aprelda gullab, avgustda mevalari pishib yetiladi. Bog'larda va parklarda manzarali daraxt sifatida, mevasini iste'mol qilish maqsadida ekiladi,

Bahorda olingen yosh novdalari po'stlog'i va mevasi qaynatmasi yordamida ichaklar shamollashini davolashda foydalaniladi.

Oq atirgul-Роза белая (Шиповник)-*Rosa alba* L.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 2 m bo'lgan buta o'simlik tikanlari mustahkam, uchi qayrilgan. Barglari uzunchoqroq, yuzasi tuksiz, ostki tomoni tuklangan, chetlari arrasimon tishchali, gul barglari 2 sm. Gullari bittadan novdalarining uchlardida joylashgan. Gul qo'rg'oni pushti yoki oqish, diametri 5 sm.

May oyida gullaydi. O'zbekistonning barcha shahar va tumanlarida ekiladi.

Tibbiyotda gul bargidan olingan efir moyi ishlatiladi. Efir moyi asosan geraniol, sigronellol, nerol terpenoidlardan tarkib topgan. Efir moyi va uning xushbuy hidi farmatsevtika amaliyotida dorilarning hidi va ta'mini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Efir moyidan Bolgariyada tayyorlangan dori preparati trozanol spazmga qarshi ta'sirga ega bulib, buyrak, o't pufagi, qovuq hamda o't va siydik yo'llari tosh kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Oltoy do'lanaasi-Боярышник алтайский-*Crataegus altaica* Lange.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, 3-5 m balandlikdagi daraxt. Tana va novdalarida deyarli tikanlari yo'q. Barglari tuksiz, 3,5-12 sm uzunlikda va eni 2,5-10 sm, yaproqlari 5-7 ta bo'laklarga bo'lingan. 20-35 gullardan iborat, qalqonsimon to'pgulga ega. Gultojisi oq, 20 tadan changchilarga ega. Mevasi etli, shirin tamli, 4-5 tadan danakli. Tog'larning unumdon tuproqli qismlarida, yong'oqzorlar, archazorlar, olmazorlar orasida va qisman toshli, shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Dori preparatlari gulining surtmasi (nastoykasi) va mevasining suyuq, ekstrakti yurak kasalliklarini, yurak ishining funksional buzilishi, og'ir kasalliklardan so'ng yurakning kuchsizlanishi, taxikardiya, titrovchi aritmiya, gipertoniyanı davolashda hamda ayollarda klimaks davri boshlanishida qo'llaniladi. Mevasining suyuq ekstrakti yurak kasalliklarida ishlatiladigan kardiovalen preparati tarkibiga kiradi.

Samarqand na'matagi-Шиповник самаркандский-Rosa maracandisa Bunga.




Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 1 metr bo'lgan buta. Yosh novdalardagi tikanlari qalin joylashgan, 8-9 mm uzunlikda. Barglari 7-9 tadan bo'lib, mayda 2-4-7 mm uzunlikda uzunchoq-tuxumsimon, chetlari teng

bo'Imagan tishchalardan iborat. Gullari 1 tadan va ularni gultojlari, 1,4-2,6 mm uzunlikda, tillarang, sariq rangda. May-iyun oylarida gullaydi, iyun-avgust oylarida mevasi yetiladi. Tog'ning o'rta mintaqalarida o'sadi. Toshkent, Namangan, Farg'ona Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mevasining qaynatmasi milklar qonaganda, oshqozon ichaklar xastaliklarida ichiladi. Gul va barglarining qaynatmasi shamollahashga va singaga qarshi ichiladi.


Sariq do'lana-Боярышник pontийский-*Crataegus pontica* C. Koch.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oilasiga mansub ko'p yillik, poyasini balandligi 8-10 m bo'lgan daraxt, tikanlari yo'q. Barglarini har ikki tomoni ham siyrak tuklangan, uzunligi 4,5-6,5 sm va eni 4,5-5 sm. Barg tutqichlari 2-3 sm. Barglarining umumiy ko'rinishi ponasimon. Gullari zinch qalqonsimon to'pgul hosil qiladi. Gul qo'rg'onining diametri 12-15 mm. Mevalari yirik, diametri 15-25-(28) mm och sariq, ba'zan och pushti ranglarda, urug'lari 2-3 tadan. Iyunda gullab, mevalari sentabr-oktabr oylarida yetiladi. Dengiz sathidan 1000-1500 m bo'lgan balandliklarda, toshli, ba'zan qalin tuproqli qismlarida yakka yoki kichik guruqlar hosil qilib o'sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning mevasi tarkibida triterpen saponinlar, kislotalar, flavonoidlar (giperozid, kversitrin, kversitin), xolin, atsetilxolin, oshlovchi moddalar, gulida flavonoidlar, efir moyi, triterpen saponinlar, kislotalar, xolin, atsetilxolin birikmalar bor. Dori preparatlari (gulining surmasi (nastoykasi) va mevasining suyuq, ekstrakti yurak kasalliklarini, yurak ishining funksional buzilishi, og'ir kasalliklardan so'ng yurakning kuchsizlanishi, taxikardiya, titrovchi aritmiya, gipertoniyanı davolashda hamda ayollarda klimaks davri boshlanishida qo'llaniladi. Mevasining suyuq ekstrakti yurak kasalliklarida ishlatalidigan kardiovalen preparati tarkibiga kiradi.

Sariq choy (Alomotchoy)-Репейничек азиатский-Agrimonia asiatica Juz.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко'п yillik, kuchli ildizpoyali o'simlik. Poyasini 30-130 sm balandlikda. Tik turuvchi. Barglarini ustki qismi qalin tukli, yashil, ostki tomoni momiq qalin tuklar bilan qoplangan. Yaproqlari 7-9 bo'lakli, chuqur tishchali, va har tomonida 6-9 ta shunday tishchalar bor. Gul to'plami uzun, urug'lari yetilish davrida 40 sm gacha yetadi. Gul tojlari to'q sariq. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Yong'oqzor o'rmonlar, yo'l bo'yları, ariq va soy bo'yalarida o'sadi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida o'simlikning hamma qismi ishlataladi. Yer ostki va yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi xalq orasida bod, istisno, isitma kasalliklarini davolash uchun ichishga beriladi, ogiz bo'shilig'ining yallig'lanish kasalligida og'iz tomoqni chayishga hamda siyidik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va burushtiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Badanga turli toshmalar toshganda o'simlik qaynatmasi bilan badan yuviladi. Sariqchoy damlamasi va suyuq ekstrakti qon oqishini to'xtatuvchi va siyidik haydovchi ta'sirga ega ekanligi tajribada tasdiqlangan va shu maqsadda, ilmiy tabobatda ishlatalishga tavsiya etilgan. Bargi tarkibida efir moyi, organik kislotalar, alkaloidlar, smola, mevasida kofein, teobromin alkaloidlari, organik kislotalar, moy bor. Bargining surtmasi (nastoykasi) asab charchaganda, bosh og'riganda, og'ir kasallikdan so'ng madorsizlanganda, qon bosimi pasayib ketganda organizmning umumiy quvvatini oshiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Tikanli do'lana-Боярышник колючий-*Crataegus oxyacantha* L.



sifatida ekilgan. Yurak sifatida ekilgan. Yurak
damlamasi qo'llaniladi.

Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига mansub ko'п yillik, kichik daraxt, tikanlari 1-2 sm. Barglari teskari tuxumsimon, doirasimon, 2,5-4 sm uzunlikda va 2-5 sm. Gullari 6-10 tadan qalqonsimon joylashadi. Gulotjlari doirasimon, pushti rangda. Mevasi sharsimon, to'q-qo'ng'ir-qizil 2-3 danakli.

Aprelda gullaydi. O'zbekistonning shaharlarida va bog'larida manzarali daraxt va qon tomir xastaliklarida mevasining

Turkiston chetani-Рябина туркестанская-*Sorbus turkestanica*

(Franch) Hedl.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига mansub ko'п yillik, kichikroq daraxt, balandligi 3-5 m, ayrim hollarda past butasimon, yosh novdalari yashil, eski poya va novdalari qizg'ish, kurtaklari dumaloqroq 15 mm uzunlikda, uchi o'tkir, oz-moz tuklangan. Barglari 10-16-(22) sm uzunlikda, 6 yoki 8 juftli, bandi tuklangan. Gul to'plami yirik, diametri 15 sm.

Kosacha barglari uchburchaksimon. Tojbarglari 1,5-2 sm. Mevasi 12 mm bo'lib xomligida ko'kish-qizil, yetilganda to'q qizil rangda. Iyunda gullaydi, avgustning oxirida mevalari yetiladi. Tog'larning o'rta va yuqori qismidagi butazorlarda, archazorlarda va ayrim hollarda chetanli o'rmonlarni hosil qiladi. Toshkent va Samarcand viloyatlarida tarqalgan.

Mevalarida vitaminlar ko'п bo'lganidan lavsha (singa) va avitaminoz xastaliklarini davolashda va vitaminlar yig'masiga qo'shiladi.

Tyanshon chetani-Рябина тяньшанская-Sorbus tianschanica Rupr.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п ўйлиқ, асосдан бир нечта пойлар хосил қилювчи дарахт. Ко'п ўйлиқ пойлари қо'нг'ир, ўш нодалари кулrang, яхши тукланган. Барлари 6,5-7,5-(10) см узунликда ва ени 3,5-5 см. Ко'п сонли гуллари қалқонсизмөн то'п гуллар hosil qiladi. Changchilari 15-25 ta, tuguni 2-5 urug' pallali. Mevasi etli 2-5 uyali, diametri 12 mm qizil. Iyunda гуллаб, sentaborda mevalari yetiladi. Tog'larning 2000-3000 m bo'lgan balandliklarda, archazorlar orasida ba'zi qalin chetanzorlarni hosil qiladi. Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mevasi qon ketishida қо'лланилади. Barg va gullarining qaynatmasidan gemoroyda va jigar xastaliklarida қо'лланилади.

O'rmalovchi (tik o'suvchi) g'ozpanja-Лапчатка ползучая-Potentilla reptans L.



Ra'nodoshlar – Rosaceae оиласига мансуб ко'п ўйлиқ о'simlik. O'q ildizi yo'g'on, ko'п поя қилювчи, ildiz bo'g'izi qoldiq barglar o'rni bilan qoplangan. Poyasi ingichka, 30-100 см узунликда, bo'g'imlaridan ildiz қилювчи ва туклар bilan qoplangan. Ildiz bo'g'zidagi barglari uzun bandli, uchburchak shaklidagi bargi chetlari tekis. Gullari bittadan, diametri 20 mm, barg қо'ltig'идан о'sib chiqadi. Gultojisi sariq, teskari yuraksimon. May-avgust oylarida гуллаб urug'laydi. Tekisliklarda va tog'larning o'rta mintaqasigacha bo'lgan xududlarda o'sadi. Asosan nam tuproqli joylar, ariqlar va soylar o'zanlarida, buloqlar atrofida tarqalgan. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizpoyasi таркебида oshlovchi мoddalar, triterpen saponinli birikmalar bor. Dori preparatlari qaynatmasi, surtmasi (nastoykasi) va choylar, yig'malar таркебида og'iz bo'shilg'i yallig'lanishini, me'da-

ichak kasalliklari (enterit, enterokolit va ichketar), kuygan yerlarni va teri kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Yer ustki qismi tarkibida oshlovchi moddalar, vitamin C, flavonoid birikmalar, ildizida oshlovchi moddalar bor. Yer ustki qismi Zdrenko, yig'masi tarkibiga kiradi.

Fedchenko namatagi-Шиповник *Rosa fedtsshenkoana*

Regel.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, bo'yi 2-3 metr boradigan, ko'p shoxli buta. Tikanlari ko'p va qalin 10-13 metr uzunlikda, novdalaridagisi 4-9 mm. Barglari 5-9 ta bo'lib yaproqlari etli, to'q qizil tuxumsimon, 10-13 mm uzunlikda va eni 8-20 mm. chetlari arrasimon tishchali. Gullari 1-2-3 tadan joylashib tojbarglari 22-25 mm uzunlikda, uchburchak shaklli va oq, pushti ranglarda bo'lib diametri 8-9 sm. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda mevalari yetiladi. Tog'larning yuqori va o'rta mintaqalarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. Siyidik haydovchi, avitaminozga qarshi, asal bilan yuqori nafas yo'llari xastaliklarida qo'llaniladi.

Xonaki olma-Яблоня домашняя-*Malus domestica* Borkh.



Ra'nodoshlar – *Rosaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 13 metrgacha yetadigan daraxt, sharsimon shoxlangan. Bargi yirik uzunchoq, tuxumsimon, 7-9,5 sm uzunlikda va eni 5-6,5 sm, chetlari arrasimon tishchali, ostki tomoni tuklangan. Gullari yirik oq yoki pushti rangda. Gulkosasi uchburchak nashtarsimon, 8 mm uzunlikda va eni 3 mm. Mevalari sharsimon, 44-65 mm uzunlikda diametri 50-70 mm. Oq, qizil ranglarda. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Mevasi kuchli ichburug'da, qabziyatda, ovqat hazmini yaxshilashda, kamqonlikda, yurak sklerozida qo'llaniladi.

Xonaki olxo‘ri-Слива домашняя-*Prunus domestica* L.



Ra’nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik, баландлиги 12 м bo‘lgan дарахт. Новдалари тикансиз, qобиг‘и кулринг, qо‘ng‘ир. Barglari ellipssimon, yuqori qismi yashil tuksiz, ostki qismi och yashil tuklangan, chetlari o’tkir, ayrim hollarda ikki bora tishchalarga ega. Gullari bargidan so‘ng hosil bo‘ladi. Kosachasi keng, oval shaklda. Tojbargi oq yoki yashilsimon dog‘li, changchilar 30 ta. Mevasi 2 sm uzunlikda, turli shakllarda, rangi qizildan to binafshagacha, danakli. Aprelda gullab, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi, yovvoyi holda Farg‘она va Toshkent viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevasidan foydalilanildi. O‘simglik mevasi surgi vositasi sifatida qo‘llaniladigan kafiol preparati tarkibiga kiradi.


Har xil mevali yerchoy-Прямохвостник разноплодный-*Orthurus heterocarpus* (Boiss) Juz.



Ra’nodoshlar – *Rosaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik o‘simglik. Poyalari soni 1-3 ta, yuqoriga ko‘tariluvchi, soxta dixotomik shoxlangan, poyasining balandligi 30-50 sm. Ildiz poyasi yaxshi rivojlangan. Ildiz oldi barglari qisqa bandli, yaproqlari chuqur o‘yilgan. Gullari 5-12 tadan, bezchali tuklangan, qo‘ng‘iroqsimon. Kosachasi uchkur, tashqisi ichkilaridan kalta, tojbargi sariq-oq ponasmimon, teskari tuxumsimon, kosacha bargdan ikki marta kalta. Urug‘i 6-15 tada, ostki a’zosi va ustunchalari tuksiz. May oyida gullab, iyunda urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida tarqalgan.

O‘simglikning hamma qismidan foydalilanildi. Ildiz va ildiz poyalaringin qaynatmasidan ichketar, og‘iz va tomoqlarni, yer ustki qismidan og‘iz va tomoqni chayish va tish xastaliklarini davolashda qo‘llaniladi.

Cho'zinchoq behi-Айва продолговатая-*Cydonia oblonga* Mill.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yillik, poyani balandligi 2-6 m yetadigan daraxt. Barglari tuxumsimon, chetlari qirqilmagan tekis. Gullari qisqa bandli, oq rangda.

Mevalari yetilganda och sariq, limon ranglarda, ustki tomoni kalta momiq tuklar bilan qalin o'ralgan, tuxumsimon yoki uzunchoq tuxumsimon shakllarda, meva eti qalin va o'ziga xos hidga, tamga ega. Aprelda gullab, sentabr-oktabr oylarida mevalari yetiladi. O'zbekistonning hamma mevazor bog'larida va xo'jaliklarida ekiladi.

Tibbiyotda urug'i ishlatiladi. Tarkibida shilliq modda, amigdalim glikozidi, moy birikmalari bor. Urug'ining qaynatmasi ko'plab-o'rabi oluvchi vosita sifatida me'da va ichak devorining ta'sirlanishini kamaytirish hamda dori moddalarning surilishini (shimilishini) kuchaytirishda qo'llaniladi.

Sharq g'ozpanjası-Лапчатка восточная-*Potentilla orientalis* Juz (*P.bifurca*).



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yillik, chala buta, yer ostki qismi eski qoldiqlar hisobiga chimlashgan. O'tsimon bir yillik poyasi 2-40 sm, tuklar bilan qoplangan, shoxlangan. Barcha barglari bandli, 2-9 ta yon barglari, butun qisman tuklangan. Guli 10-17 mm diametrli. Tashqi kosachasi nashtarsimon. Tojbarglari sariq, teskari tuxumsimon, tekis chetli, changchilar 20 tadan. Aprel-avgust oylarida gullab, urug'laydi. Tog'larning pastki va o'rta qismlaridagi tuproqli, mayda toshli joylarda o'sadi. Toshkent, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

Choy sifatida damlab ichiladi. Oshqozon ish faoliyatini mustahkamlovchi, hazmni yaxshilovchi sifatida ham ichiladi.

Sharq do'lanasi-Боярышник восточный-*Crataegus orientalis* Pall.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yellik, kichik buta o'simlik. Barglari qalin, tikanlari ham qalin, ustki va ostki tomonlari tuklangan, uch panjali va 5-7 bo'lakli. Gullari kam ammo qalin joylashgan, tojbarglari oq.

Mevasi 12-20 mm diametrda, oz tuklangan va 4-5 danakli. Aprelda gullaydi. Toshkent va ekiladi. Mevasidan tayyorlangan damlama stenokardiya, gipertoniya, yurak nevrozi xastaliklarida qo'llaniladi.

Sharq olxo'rasi (olicha)-Слива восточная-*Prunus sogdiana* Vass.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yellik, tikanli daraxt. Balandligi 2-6 m. Barglari turli katta kichiklikda. Yosh novdadagi barglari uzunligi 45-50 mm va eni 18-21 mm. Ensiz nashtarsimon. Gullarining diametri 20 mm, mevasi 10-20 mm uzunlikda, turliche shakllarda, nordon yoki achchiqroq. Danagi 9-10 mm uzunlikda, siqilgan tuxumsimon. Mart-aprelda gullab, iyun-iyulda mevalari yetiladi. Tog' soylarida, daryolar o'zanlarida, o'rtacha namli tuproqli joylarda, yong'oqzorlar va butazorlarda dengiz sathidan 800-2000 m bo'lgan balandliklarda shimoliy va g'arbiy yonbag'irliklarda o'sadi.

Mevasi tarkibida C, B, B₂, B₆, E, PP vitaminlar saqlaydi. Yengil surgi sifatida va kafiol preparati tarkibiga kiradi.

Ekma (oddiy) bodom-Миндаль обыкновенный-*Amygdalus communis* L.



Ra'nodoshlar – Rosaceae oиласига мансуб ко'п yellik, balandligi 4-8 m bo'lgan daraxt. Qishki kurtaklari 5-7 mm uzunlikda va eni 2-2,5 mm. Barglari novdalarda navbatlashib joylashgan, uzun bandli 1,5-2,5 sm, yaproqlari 4-6-(8) sm uzunlikda va eni 1,5-2,5 sm, qirg'oqlari arrasimon tishchali. Gullari o'troq,

tojibarglari oq yoki pushti rangda, keng doirasimon bo'lib uzunligi 15-20 mm va eni 15 mm. Mevalarining usti qisqa qalın tuklar bilan qoplangan. Fevral-mart oylarida gullaydi, iyul-avgust oylarida mevalari yetiladi. Tog'oldi tumanlarida to 1600 m bo'lgan balandliklarda va O'zbekistonning barcha tekkisliklarda ekiladi. Asosan Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryoda keng ekiladi.

Tibbiyotda bodomning urug'i va uning moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, oqsil modda, saxaroza, vitaminlar, emulsin fermenti birikmalari, achchiq danakli bodom urug'ida esa bunga qo'shimcha amigdalim glikozidi bor. Bodom moyi ich yumshatuvchi dori sifatida, farmatsevtika amaliyotida ba'zi dori moddalarni eritish va surtmalar tayyorlashda qo'llaniladi. Bodom urug'idan (mag'izidan) tayyorlangan emulsiya va achchiq bodom urug'i ning kunjarasidan olingan achchiq bodom me'da va ichak og'riqlarida og'riq qoldiruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Eron pochaqirqari (chetik)-Хультемия перседская-Hulthemia persica (Mechx.) Borum (*Rosa persica* Michx.).



tuxumsimon. Gullari poya va shoxchalari uchida joylashgan, kosachabarglari bo'tun, ikki tomoni tuklangan. Tojibarglari tillorang sariq, to'q qizil dog'lari asosida joylashgan. Urug'i 10 mm uzunlikda va eni 10-12 mm. Urug'i uzunchoq 5mm uzunlikda, yaltiroq to'q qo'ng'ir. May-iyunda gullaydi, iyun-avgustda urug'lari yetiladi.

Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tog' oldidagi yumshoq tuproqlarda tarqalgan. Damlamasi, sharbati va choy yig'malariga qo'shilgan mevasi turli shamollash kasalliklarda terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Oddiy naykosa (ko'k yo'ng'ichqa)-Дербенник обыкновенный-

Lythrum salicaria L.



Naykosadoshlar – *Lythraceae* oиласига мансуб ко'п yillik о'simlik. Sertuk, poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, balandligi 7-100 sm. Barglari qarama-qarshi joylashgan, ayrim hollarda halqasimon joylashgan. O'troq uzun nashtarsimon. Gullari poya va shoxchalar uchida joylashgan. Kosachasi 12 tomirli, 5-7 mm uzunlikda. Tojbarglari to'q qizil rangda. Iyun-avgust oylarida gullab urug'laydi. Ariq va soylar qirg'og'ida, tog' oldi tekisliklarda o'sadi. Toshkent, Xorazm, Samarcand, Surxondaryo, Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Ildiz va gullaridan tayyorlangan qaynatmasi qon yo'qotishda, quturgan hayvonlar tishlaganda og'riqni qoldiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Oddiy anor (anor daraxti)-Гранат обыкновенный-*Punica granatum L.*



Anordoshlar – *Punicaceae* oиласига мансуб ко'п yillik, 1.5-2 m balandlikdagi buta, barglari qisqargan, novdalarda to'p holda, uzun novdalarda qarama qarshi joylashgan, etli, 15-60 mm uzunlikda va eni 7-15 mm. Gullari qisqargan barg mevalarda joylashgan. Kosachasi etli, qo'ng'ir-qizil rangda 20-40 mm uzunlikda. Tojibarglari ochroq qizil, doirasimon, 15-20 mm uzunlikda. May-avgust oylarida gullab, sentabr-oktabr oylarida yetiladi. Surxondaryoda yovvoyi holda o'sadi. Madaniy navlari O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Po'stloqlari tarkibida alkaloidlar, oshlovchi moddalar, po'stlog'ining preparatlaridan organizmdan tasmasimon gijjalarni, haydash uchun foydalaniladi. Mevasi po'stlog'ining qaynatmasi yaralarni davolashda qo'llaniladi. Anorning nordon navlari mevasi tarkibida ko'p miqdorda limon kislota bor.

Ingichka bargli Xamanerium (Ivanchoy)-Иван-чай узколистный- *Chamaenerium angustifolium* (L.) Scop.



Qizilbargdoshlar – *Onagraceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Ildiz poyalı o‘simlik bo‘lib, poyalari shoxlanmaydi, balandligi 70-100 sm. Barglari lansetsimon, o‘troq, chetlari tekis. Gullari shingilsimon to‘p gullarga ega bo‘lib, moyasi uchli qismida joylashadi. Gultojlari to‘q pushti, kalta pixli, 15 sm uzunlikda. Kuragi qalin, kalta tuklar

bilan qoplangan, 4-8 sm uzunlikda. Urug‘lari 1 mm uzunlikda, qaymoqrang oq. Iyunda gullab, avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rtalarning mintaqalarida, nam joylarda, archazor o‘rmonlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Namangan, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barglari qon ketishini to‘xtatuvchi, shamollashga qarshi va bachadon xastaliklarida, tinchlaniruvchi, bosh og‘rig‘ni qoldiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Tuklangan erilobium-Кипрей волосистый-*Epilobium hirsutum* L.



Qizilbargdoshlar – *Onagraceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Poyasi shoxlangan, balandligi 50-70 sm. Barglari uzunchoq nashtarsimon, moyani yarim o‘rab oluvchi, yuqori qismi kam tuklangan, chetlari arrasimon tuklangan. Kosachasi nashtarsimon, uchli, tojibarglardan kalta. Tojibarglari to‘q qizil, 15-18 mm uzunlikda, teskari yuraksimon, yuqori qismi o‘yiqli. Onalik tumshuqchasi 4 bo‘lakli. Ko‘sagi 5-6 sm uzunlikda.

Urug‘i teskari tuxumsimon, 1 mm uzunlikda, mayda egatchali. Iyunda gullab sentabrda urug‘lari yetiladi. Suv havzalariga yaqin bo‘lgan joylarda o‘sadi. Toshkent viloyati Qoraqalpog‘iston (Amudaryo o‘zanlarida) da tarqalgan. Barglari yengil surgi sifatida qo‘llaniladi.

Boshoqdor urut-Урутъ колосистая-*Myriophyllum spicatum L.*




Urtdoshlar – *Haloragaceae* oиласига mansub ko‘п yillik, poyasi suv xavzasini chuqurligiga nisbatan 50-150 sm uzunlikda, shoxlangan, shoxlari ham suv yuzasigacha ko‘tarilib chiqadi. Barglari 4 tadan xalqasimon joylashgan, 1-3 sm uzunlikda asosigacha qirqilgan, ipsimon ingichka. Gul ko‘kish yoki binafsha rangda. Gul tutqichi 3-10 sm uzunlikda.

Erkak gullarini kosachasi keng qo‘ng‘iroqsimon, 1 mm uzunlikda. Tojbarglari ellipssimon 2 mm uzunlikda va eni 1,5 mm uzunlikda. Urg‘ochi gullari 2 mm uzunlikda, tojbarglari juda mayda.

May-iyul oylarida gullab urug‘laydi. Sekin oqadigan, ko‘l va suv havzalarida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Barglari yaralarni tez pishiruvchi va bitiruvchi, yaralardagi yiringlarni haydovchi vosita sifatida ishlatiladi.

Bo‘yoq beruvchi bosma-Индигофера красильная-*Indigofera tinctoria (L.)*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oиласига mansub ko‘п yillik, kichik buta, poyasi 1-1,5 m balandlikda, mevalari ingichka uzun bo‘lib, tuklangan. Barglari toq bargchali murakkab 4-7 juft, yaproqlari tuxumsimon, uzunligi 1,5-3 sm va eni 0,7-1,5 sm. Gul shingillari barglar qo‘ltig‘idan chiqadi. Shingildagi gullari siyrak va ularni uzunligi 8-16 sm. Tojbarglari qizil-binafsha, kosachadan 3-4 marta uzun. Dukkagi 2-4 sm uzunlikda va eni 3,5 sm. Asosan dekorativ o‘simlik sifatida ekiladi.

Teridagi yaralar, furunkulda va jigar xastaliklarida ishlatiladi. Bargidan soch bo‘yog‘i tayyorlanadi (qora rangda).

Bo‘yoq dor genista-Дрок красильный-*Genista tinctoria L.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*)

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik, kichik buta, balandligi 50-100 sm. Barglari uzunchoq-nashtarsimon, 4 sm uzunlikda va eni 10 mm uchi ignasimon. Yon barglari o‘tkir tikansimon. Gullari sariq, qalin shingilsimon to‘pgul. Gulkosasi 5 mm uzunlikda. Gul parusi tuxumsimon 10-15 mm uzunlikda. Mevasi dukkakli, bukilgan 20-25

mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab urug‘laydi. Manzarali o‘simplik sifatida Samarqand shahrida ekilgan. Gemoroy, jigar, o‘t yo‘llari va bachadon muskullarini tiklashda ishlatiladi.

Burushgan singrek (no‘xatak, kiyikpanja)-Астрагал морщинистый-*Astragalus corrugatus Bertol.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub bir yillik, balandligi (5)7-15 sm. Poyasi bir oz shoxlagan oz-moz egatchali, siyrak yoki tuksiz. Bargi (2)4-6 sm uzunlikda, bandi juda qisqa bargchalari 5-9 juftdan, uzunroq yoki nashtarsimon 5-11 mm uzunlikda. Gul tutqichlari tuklangan, barglari bilan teng oq qora yoki oq momiqli. Shingili siyrak 1-5 gulli, 1-2 sm uzunlikda. Kosachasi qisqa novsimon, 5 mm uzunlikda, qora oq momiqli. Tojbargi binafsha rangda. Yelkani 8 mm uzunlikda.

Dukkagi yuqoriga qarab turadi, 2-4 sm uzunlikda va eni 2-2,5 mm, to‘rt qirrali, ichida qattiq 1-1,5 mm uzunlikda, 14-20 tadan urug‘larga ega. Aprel oyida gullab, aprel-may oylarida urug‘lari yetiladi. Toshli shag‘al joylarda, qumloqlarda, qoldiq joylarda o‘sadi. Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

Tabobatda urug‘lari qayt qildiruvchi sifatida qo‘llaniladi. Bundan tashqari kuchli surgi dori sifatida ham qo‘llaniladi.

Butasimon amorfa-Аморфа кустарниковая-*Amorpha fruticosa* L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyalarining balandligi 1-2 m . Yon bargchalari 7 mm uzunlikda va eni 0,5 mm. Toq bargchali murakkab barglari 9-17 sm uzunlikda va eni 5-10 sm. Gullari mayda shingilda o‘troq, shingillarining uzunligi 9-14 sm. Gullari qo‘ng‘iroqsimon, tojibarglari to‘q binafsha

rangda Dukkak mevasining uzunligi 2-3 sm. Iyun oyida gullab, urug‘lari avgust-sentabr oylarida yetiladi. Yetilgan urug‘lar to‘kilmasdan ayrim hollarda bahorgacha saqlanadi. Farg‘ona, Toshkent, Namangan, Andijon, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida suv o‘zanlarini mustahkamlash uchun ekilgan xozirda suv o‘zanlarida keng tarqalgan.

Tibbiyotda urug‘i ishlatiladi. Uning tarkibida rotenoidlarga kiradigan amorfin va amorfol, glikozidlar, moy moddalar bor. Amorfinning dori preparati fro‘tsin tinchlaniruvchi va kardiotonik vosita sifatida yurak-tomir kasalliklariga qo‘llash tavsiya etiladi.

Grek shambalasi-Пажитник греческий-*Trigonella foenum-graecum* L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Poyasining balandligi 10-50 sm, ko‘tarilib o‘suvchi, yumaloq, egatchali, oz-moz shoxlangan. Barglarining yaproqlari 2-3 sm uzunlikda va eni 1-1,5 sm uzun nashtarsimon, yuqori qismi tishchali, bandlari 2 sm uzunlikda.

Gullari 1-2 tadan, barg qo‘ltig‘ida joylashgan, o‘troq. Kosachasi 8 mm uzunlikda novsimon, tuklangan tojbargdan ikki bora kalta. Tojbargi sariq. Elkani 13-18 mm uzunlikda. Dukkagi 7-10 sm uzunlikda (tumshuqchasi) va eni 4-5 mm, nashtarsimon, biroz bukilgan. Urug‘i 10-20 tadan, uzunligi 5 mm va eni 3 mm. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-

avgust oylarida urug'lari yetiladi. Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida uchraydi. Ayrim joylarda ekiladi.

O'simlik urug'ining damlamasi ishtaha ochishda, PP vitaminga bo'lgan talabni qondirish uchun, o'pka xastaliklarida, shuningdek, teridagi furunkulga, yiringli yaralarga, ekzema va boshqalarga ishlataladi.

Danakli oqquray-Псоралея костянковая-*Psoralea drupacea* Bunge.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*)

Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizi o'q ildiz bo'lib, tuproqqa chuqur kirib boradi. Poyasi bilinar-bilinmas qirrali, tuklar bilan qoplangan, shoxlanuvchan, 60-130 sm balandlikka ega. Barglari oddiy yoki uch bo'lakli doirasimon, uzunligi 1,5-5 sm va eni 2,5 sm, qalin tuklangan. Gullari och ko'k yoki binafsha rangda bo'lib, barg qo'ltig'idan chiqqan shingillarga joylashadi. Urug'lari mayda qalin tuklar bilan qoplangan. Maydan to sentabr oyigacha gullab, urug'laydi. Lalmi ekinlar orasida, adirliklarda va tog' oldi hududlarda keng tarqalgan. Toshkent, Namangan, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Tibbiyotda mevasi va ildizi ishlataladi. Tarkibida efir moyi, oshlovchi moddalar, furakumarinlar kumarin umbelliferon, glikozid drupsatsin, qandlar bor. Psoralen pes kasalligini davolashda qo'llaniladi.

Dorivor qashqarbeda-Леспедеца двухцветная-*Melilotus officinalis* (L.) Pall.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyasi shoxlangan, balandligi 20-100 sm. Yaproqlari tuxumsimon, nashtarsimon, 9-25 mm uzunlikda va eni 13-16 mm, ostki tomoni tuklangan, chetlari siyrak tishlarga ega. Gul shingilida gullari zinch 30-80 gacha, uzunligi 8-15,5 sm.

Gulkosasi 2-3 mm. Gultojlari sariq. Yelkani uzunligi 5 mm, eni 3 mm. Dukkagi tuxumsimon 3-5 mm uzunlikda va eni 2-2,5 mm. May oyidan avgustgacha gullab urug'laydi. Tog'ning o'rta mintaqalarida va yo'l yoqalarida, bog'lar, ariq va soylarning o'zanlarida o'sadi. Farg'ona, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida keng tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlataladi. Yer ustki qismi ich yumshatuvchi choylar tarkibida va yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi yiringli yaraga chipqonlarni davolashda qo'llaniladi. Qaynatmasi qonni ivitmaydigan ta'sirga ega.

Ikki rangli lespedeza-Леспедеца двухцветная-*Lespedeza bicolor*

Turez.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub ikki yillik buta, balandligi 1,5 m. Shoxchalari yassi, to'p bo'lib joylashgan. Barg bandlari qisilgan, tuklarga ega, 2-3 sm uzunlikda va 3 tadan yaproqli, yaproqlari ustki qismi o'yiqli, 1.5-3 sm uzunlikda va eni 1.2-2.5 sm. Shingili 3-4 sm uzunlikda. Kosachasi qizg'ish.

Yelkani doirasimon, pixi qizil. Qanotchasi qizil, qayiqchasi pushti. Dukkagi 5-6 mm uzunlikda va eni ham shuncha. May-iyunda gullab urug'laydi. Tog'larni ko'kalamzorlashtirish uchun ekiladi.

Yer ustki qismining surtmasi (nastoykasi) flavonoidlar yig'indisining dori preparati siydik haydash va azotemiya (buyraklar tanani azot chiqindilaridan yetarlicha tozalay olmasligi) kasalligiga qarshi ta'sirga ega. Buyrak, siydik yo'llari kasallikkarni davolashda qo'llaniladi. Shuningdek, bu preparatlar qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi va yomon shishlarga qarshi ta'sir ko'rsatadi. Xalepin preparati virusga qarshi ta'sirga ega bo'lib, uchuqni davolashda qo'llaniladi.

**Ingichka bargli sano (Hind sanosi)-Кассия узколистная
(индийская-*Cassia angustifolia* Vahl.**



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*)

Fabaceae oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, чала бута о‘симлик, barglari 5-9 тали тоқ bargchali, murakkab barg, yaprog‘и mutloq tuksiz, uzunligi 20-60 sm va eni 2 sm. Gullari nisbatan yirik, tojbarglari ellipssimon. Dukkaklari uzunchoq 55-65 mm va eni 20-24 mm. Iyul-sentabr

oylarida gullab, urug‘laydi. Surxondaryo viloyatida ekib o‘stiriladi. O‘simlik bargi surgi sifatida va bavosil kasalligida ishlatiladigan choylar yig‘malar, kafiol va antrasenin preparatlari tarkibiga kiradi. Tibbiyotda nomlari eslatib o‘tilgan kasallikkarni davolash uchun bargi ham ishlatib kelinmoqda.

Qalin urug‘li talxaq-Талхақ (горчак) толстоплодный-*Vexibia pachyearpa* (C. Mey.) Yakovl.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*)

Fabaceae oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Poyasi mayin tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-45 sm. Bargi 10-18 sm uzunlikda, yaproqlari 8-13 juftli, ellipssimon uzunligi 2 sm va eni 5-8 mm. Gullari poya uchidagi kuchala shingilda joylashgan, 7-24 sm uzunlikda. Kosachasi

novsimon-qo‘ng‘iroqsimon bo‘lib, uzunligi 6-6,5 mm. Parusi uzunchoq oval shaklida 4-5 mm enlikda. Qayiqchisi 10-12 mm uzunlikda va eni 3 mm. Dukkagi 4,5-6 sm va eni 7-9 mm. Aprel-mayda gullaydi, iyun-yulda urug‘lari yetiladi. Ariqlar qirg‘og‘ida, yo‘l yoqalari va bug‘dozorlar, ekin maydonlarini qirg‘og‘ida, tashlandiq joylarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan.

Urug‘ining 6-7 tasini tuyib ovqat hazmini yaxshilashda, o‘simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatma hayvonlar og‘iz bo‘shlig‘idagi zuluklarni to‘kishda qo‘llaniladi. Shuningdek teridagi qichima, ekzema, temiratkilarni davolashda qo‘llaniladi.

Lemani achchiqbutasi-Аммотамнус леманна-*Ammothamnus lehmanii* Bunge.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, buta, balanligi 50-100 sm, ko‘p shoxlangan, poyalari 4-10 mm yo‘g‘onlikda, kulrang qobiqli. Barglari toq bargchali murakkab, 10-19 sm uzunlikda, qisqa bandli 2-4sm uzunlikda, murakkab bargdagi juft bargchalari 6-16 tagacha juft bo‘lib joylashgan. Gullari ko‘p gulli shingilda joylashgn 10-18 sm uzunlikda. Kosachasi qo‘ng‘iroqsimon, 5-6 mm uzunlikda, uzun uchburchak shaklda tishchali. Tojbarglari oq, gulining yelkani 12-15 mm uzunlikda. Tuguni nashtarsimon, ipaksimon, 1-1,5 mm uzunlikdagi tutqichli. Dukkagi ikki marta spiralsimon eshilgan. Urug‘i 1-2 tadan. Aprel-may oylarida gullaydi. May-iyun oylarida yetiladi. Qumli, shag‘alli, tuproqlarda o‘sadi. Buxoro (Qoy-quduq, Xo‘tab) va Surxondaryo viloyatida tarqalgan. O‘simlik tarkibida sapokarpin alkaloidi saqlaydi. Ildizini qaynatmasidan revmatizm xastaliklarini davolash uchun vanna qilinadi.

Lenkorn Albitssiyasi (Dorivor albitssiya)-Альбиция ленкоранская-*Albizzia julibrissin* Durazz.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Balandligi, 4-5 m ga boradigan daraxt. Barglari yashil, dag‘al, yirik, barglari bandli, yaprog‘idan 3-8 baravar qisqa, 2 bora chuqr qirqilgan murakkab barg, 12-48 sm uzunlikda va 6-8 sm enlikda. Gullari ajralgan sharsimon, to‘p gul hosil qiladi. To‘pgulga 11-25 gul birikadi. Changchilari pushti, 30-35 mm uzunlikda. Dukkak mevasi 7-15 sm uzunlikda va eni 1,5 -2,5 sm. Iyunda gullab, iyul-avgust oylari urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning barcha shaharlari va tumanlarida manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Gullaridan tayyorlangan qaynatma yo'talga va nafas qisishiga qarshi ishlataladi. Poyasining po'stlog'idan tayyorlangan damlamasi ishtaha ochuvchi va ovqat hazm qilish organlarini davolovchi sifatida ishlataladi. Po'stloq va novdalaridan tayyorlangan damlamasi gijjalarni haydash uchun ishlataladi.

Navbatlashgan gulli afsonak-Термопсис очередноцветковый- *Thermopsis alterniflora* Regel. et Schmalh.



Burchoqdoshlar (*Dukkakkodoshlar*)

Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasining balandligi 50-70 sm, tik o'suvchi, shoxlangan siyrak tuklar bilan qoplangan. Barglari uchlik tipda, bandli, nashtarsimon, yaproqlari ellipssimon uzunroq, 25-40-(60) mm uzunlikda va eni 5-20-25 mm. Ustki qismi tuksiz, ostki qismi tukli. Gullari yirik, sariq, poyani uchida shingilchada to'langan. Kosachasi 10-15-(20) mm uzunlikda va eni 5-8-(10) mm, qalin tuklangan. Yelkani 20-30 mm uzunlikda, va eni 15-25 mm yumaloq yuqori qismi o'yilgan. Dukkagi 3-6 sm uzunlikda, eni 1-1,6 mm kalta yopishgan tuklar bilan qoplangan. Urug'lari ochiq, qo'ng'ir, yashilsimon qo'ng'ir, tekkis, 5-6 mm uzunlikda va eni 3-4 mm. May-iyunda gullab, urug'lari iyun-iyulda yetiladi. Tog'larning pastki qismida mayda tuproqli, va ekinzorlar chetida o'sadi. Toshkent viloyatida (Angren) tarqalgan.

Yer ustki qismining damlamasi surunkali bronxit, o'pka tuberkulyozida, balg'am ko'chiruvchi, nafas olish to'xtab qolganda qo'zg'atuvchi, qon bosimini ko'taruvchi sifatida qo'llaniladi.

Nayza bargli sano-Кассия африканская (Сenna-остролистная)- *Cassia acutifolia* Del.



Burchoqdoshlar (*Dukkakkodoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, chala buta o'simlik. Barglari (3)-5-7 tadan (toq bargchali) murakkab barg, yaproqlari tuxumsimon lansetnik shaklida, momiq tuklar bilan qoplangan, 15-30 mm uzunlikda va eni 4-10 mm. Gullari mayda,

sharsimon, shingillarda to‘plangan sariq rangda. Dukkak mevalari buyraksimon 40-45 mm uzunlikda va eni 16-20 mm. Iyul-sentabr oylarida gullab urug‘laydi. Surxondaryo viloyatida ekib ko‘paytiriladi.

Barg va mevalari tarkibida antratsen unumlari (sennozid, A va B, rein, aloyemodin, glyukorein flavonoidlar, salitsilat kislotalar, smolalar bor. Dori preparatlari (damlamasi) quruq ekstrakt, senadeksin, murakkab sano damlamasi surgi sifatida qo‘llaniladi. Sano bargi surgi sifatida va bavosil kasalligida ishlatiladigan choylar yig‘malar, kafiol va antrasenin preparatlari tarkibiga kiradi.

Oddiy (tuksiz) shirinmiya-Солодка обыкновенная-*Glycyrrhiza glabra L.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi tik o‘suvchi, kam shoxlanuvchan, balandligi 45-120 sm kalta, dag‘al tuklar bilan qoplangan. Barglari 9-15 sm uzunlikda. Yaproqchalari 3-7-9 juftlikda, uzunchoq tuxumsimon 2-4 sm uzunlikda va eni 0,8-2 sm uzunlikda. Gul shingili chala, uzunligi 7-8(12) sm. Gulqo‘rg‘oni novsimon 5-6 mm uzunlikda. Gultojbarglari binafsha, ostki tomoni oqish. Parusi novsimon 8-9 mm uzunlikda va eni 5 mm. Qayiqchani uzunligi 6-6,5 mm va eni 1,5 mm. Dukkagi 2-7 urug‘li. Aprel-iyul oylarida gullab, urug‘lari may-sentabr oylarida yetiladi. Tekkisliklardagi ekinlar qirg‘og‘ida, daryo o‘zanlari, ariq va soylarning o‘zanlaridan tog‘larni o‘rta mintaqalarigacha chiqadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizi tarkibida ko‘p miqdorda triterpen salonin glitsirizin, flavonoidlar, qandlar, kraxmal, efir moyi, vitamin C, uralenoglyukuron kislota, achchiq moddalar bor. Dori preparatlari quruq va quyuq ekstrakti, sharbati nafas yo‘llari kasallanganda balg‘am ko‘chiruvchi, surunkali qabziyatda, siyidik haydovchi vosita sifatida qo‘llanadi. O‘simlik kukuni, qaynatilgan ildizi va quruq ekstrakti farmatsevtika amaliyotida dori tayyorlashda, suyuq, dori shakllari va choylar yig‘malar ta’mini yaxshilash uchun ishlatiladi. Ildizining kukuni murakkab

qizilmiya kukuni, ekstrakti ko'krak eliksiri, qirqilgan-ildiz bo'lakchalari siyidik haydovchi va ich yumshatuvchi, choylar yig'malar tarkibiga kiradi.

Oddiy loviya-Фасоль обыкновенная-*Phaseolus vulgaris* L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – Fabaceae oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi chirmashib o'suvchi, uzunligi 3 m ga boradi. Barglari 3-5 tipida murakkab barg. Gullari uzun gulbandli bo'lib, uni uchidagi o'troq holidagi bir nechta gullar to'plamini hosil qiladi. Gullar bir vaqtida rivojlanmay ketma-ketlikda rivojlanadi.

Gultojlari oq, binafsha va pushti ranglarda. Yelkan tojisi 10-15 mm uzunlikda. Dukkak mevalarining uzunligi 10-22 sm va unda 8-13 tagacha urug'lari bo'ladi. Iyul-avgust oylarida gullab, sentabr-noyabr oylarida yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida qandlar organik kislotalar, flavonoidlar, vitaminlar B₁, B₂, B₃, PP, C, E, karotin, pantaten va foli kislotalar, minerallar, ko'p miqdorda oqsil moddalar bor. Mevasi po'chog'ining qaynatmasi xalq tabobatida qon bosimi oshishi (gipertoniya), bod, qovuq yallig'lanishi (sistit), qandli diabet kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Siyidik haydovchi vosita sifatida esa istisqo, buyrak-tosh, podagra, artrit kasalliklarida qo'llaniladi. Loviya parhez taom sifatida surunkali bod, podagra, artrit, buyrak va qovuq yallig'lanishida, gastritda (me'da shirasida kislota kamayishi bilan o'tadigan), loviyaning uni esa yaralarni davolashda ishlatiladi. Mevasining po'chog'i qandli diabet kasalligini davolash uchun qo'llanadigan yig'malar tarkibiga kiradi.

Oddiy talxak (afsonak)-Талхак обыкновенный (горчак)-*Vexibia alopecuroides* (L.) Bunge.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi bittadan, tik o'suvchi, shoxlangan, mayin tuklar bilan qoplangan, balandligi 70 sm, barglari 8-20 sm uzunlikda, 8-13 ta juft bargchali, uzunchoq

tuxumsimon, tekis chetli, 25-35 mm uzunlikda, eni esa 10 mm, kumush rangda tuklangan. Gullari poyaning uchida qalin joylashgan shingil gullar to'plamida, 30 sm uzunlikda, o'tkir tishchali. Tojbarglari sarg'ish oq, 17-20 mm uzunlikda. Gulning yelkani ovalsimon 6-7 mm kenglikda. Qayiqchasi 4 mm qalnlikda. Dukkagi 6-10 sm uzunlikda va eni 6 mm. Urug'i sariq, tekis, tuxumsimon. Aprel-may oyalarida gullaydi, iyun-iyul oyalarida urug'i yetiladi.

To'qaylarda, ariqlar bo'yalarida, ekinzorlar qirg'og'ida, qumli yerlarda o'sadi. Toshkent, Farg'on, Samarqand, Buxoro (Qorako'l tumani) viloyatlarida tarqalgan.

Inson va hayvonlar uchun zaharli. Urug'ida sofaralin, sofaridin va alloperin alkaloidlari bor. Maydalab tuyilgan urug'lari oshqozon xastaliklarida va ishtaha ochish uchun oz miqdorda ichiladi. O'simlikning hamma qismidan qaynatma tayyorlanib, hayvonlarning og'iz bo'shlig'idagi zuluklarni tushirish uchun ishlataladi.

Oddiy tikandaraxt-Гледичия колючая-*Gleditschia triacanthos* L.



Burchoqqoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 40 m bo'lgan, poyasi yo'g'on shoxlanuvchi daraxt. Poyasi va novdalarida shoxlangan uzun yog'ochlangan tikanlar bilan qoplangan. Barglari 11-25 sm uzunlikda va u ikki bora bo'laklarga bo'lingan, tutqichlari 1,5-2,5 sm uzunlikda va bo'laklarini eni 5-10 mm. Gul shingili 2-7 sm uzunlikda. Guli 4 mm uzunlikda, kosachasi qo'ng'iroqsimon, qalin tuklangan, tuguncha yashil bo'lib, yetilish davrida to'q qo'ng'ir rangga aylanadi. Uzunligi 18-40 sm va eni 2,5-4 sm. May oyida gullab, iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Ayrim hollarda urug'lari to'kilmay bahorgacha saqlanadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda bargi ishlataladi. Tarkibida alkaloidlar triakantin va boshqalar, vitamin C, organik kislotalar va boshqa moddalar bor. Triakantin gidroxlorid me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasida, yo'g'on ichak yallig'lanishida hamda qaytalangan xolesistit o't qop yallig'lanishida og'riq qoldiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

От бурчоқ-Вика посевная (конские бобы)-*Vicia faba L.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oиласига мансуб бир ўйлик о'симлик. Пояси асосидан шохланувчи, то'ғ'ри о'сан, 4 киррали, баландлиги 10-15 см. Барглари остиқи қисмидаги биттадан, ўуқоридагиси 2-3 юфтапроқчали. Bargchalari teskarituxumsimon, 4-10 см узунликда, 3-4 mm enlikda, to'mtoq. Gullari 2-4 тадан barg qo'ltiqlarida joylashgan. kosachasi novsimon

13-14 смм узунликда, туksiz. Yelkani 20-30 mm узунликда pixsiz oqish, binafsha, qo'ng'ir nurli dog'lari bor. Dukkagi nashtarsimon uzunchoq, silindirsimon, 8-12 sm узунликда, 1-2 sm enlilikda. Urug'i burchakli ovalsimon 1-2,5 sm узунликда, очиқ kulrang sariq, qizg'ish. May-sentabr oylarida gullab, iyun-oktabrda urug'lari yetiladi. O'zbekistonda ko'plab navlari ekiladi. O'simlikdan tayyorlangan damlama muskullar spazmasida qo'llaniladi.

Sariqlanuvchi xedizarum-Копеечник желтеющий-*Hedysarum flavescent Regel et Schmalh.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oиласига мансуб ко'п ўйлик о'симлик. Poyasini balandligi 40-80 sm, kam shoxlangan, tik o'suvchi, egatchali, ikki tomoni siyrak tuklangan, bargi 5-16 sm узунликда, yaproqlari 3-7 юфтли, ovalsimon, 10-28 mm узунликда ва ени 5-18 mm. Gullari siyrak, shingilga to'plangan 5-8 sm узунликда.

Kosachasi keng qo'ng'iroqsimon 8 mm узунликда, teng bo'lмаган tishchali. tishchasi tukli, bigizsimon, 0.5-3 mm узунликда. Tojbarglari sariq. Yelkani 13-18 mm узунликда ва ени 6-7 mm, qayiqchasi 12-18 mm узунликда ва ени 5-7 mm. Dukkagi (1)-2-(4) uyali. Urug'i to'q qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir, buyraksimon, 4-5 mm узунликда ва ени 2,5-4 mm, tekis. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oyida urug'i yetiladi. Tog'larning qoyali va o'rmon bilan qoplangan qismlarida,

qorga yaqin joylarda o'sadi. Farg'ona (Shohimardon), Samarqand (Turkiston tizmasi) va Surxondaryo (To'palang daryosining yuqori qismi) viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi viruslarga qarshi, katta shishlarga qarshi qo'llaniladi.

**Siversan singregi (no'xatak, kiyikpanja)-Астрагал Сиверса-
*Astragalus Sieversianus Pall.***



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -
Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik, poyasining balandligi 60-150 sm, yo'g'on tik o'suvchi, egatchali, tuklangan. Bargi 15-20(30) sm uzunlikda, bandi kalta. Bargchalari 8-12(14) juftdan, ellipssimon uzunroq, 3,5-4-5 sm uzunlikda yuzasi tuksiz, ostki cheti tukli. Gullar tutqichi 1-3 mm uzunlikda, 3-5 tadan shingilga to'plangan. Kosachasi naysimon, 18-22 mm uzunlikda, qalin oq tukli. Yelkani 35-40 mm uzunlikda. Qayiqchasi 20-30-mm uzunlikda. Dukkagi o'troq, sharsimon, tuxumsimon 20-32 mm uzunlikda, 15-18 mm enlikda. Urug'i buyraksimon 4-7 mm uzunlikda. Qo'ng'ir rangda. May-iyun oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Mayda toshli, toshli joylarda, archazorlarda, mezofil o'simliklar bilan o'sadi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barglarida ko'p oshlovchi pentoza moddasi saqlanadi. Urug'laridan maydalab, talqon tayyorlanib, bolalar grijasida, sigareta sifatida sifilis xastaliklarida chekiladi. Otlarni tanasidagi yag'irlarini ildizdan tayyorlangan damlama bilan yuvib davolanadi.

**Siyrak bargli yantoq-Янтак рыхлолистный-*Alhagi sparsifolia*
(shap.) Scop.**



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -
Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik, poya va shoxlari tik o'suvchi, balandligi 60-100 sm . Tikanlari tuksiz, 1-1,5-(2) sm uzunlikda va yo'g'onligi 1,5-2 mm, poyani uchki qismidagi

tikanlar 2-2,5 sm uzunlikda va eni 0,5 mm. Barglari tuksiz 2-4 sm uzunlikda va 1,5-2,5 sm enlikda. Gullari tikanlarida 3-7 tadan joylashadi. Tojbarglari pushti rangda. Iyun-avgust oylarida gullaydi, avgust-oktabr oylarida urug'lari pishadi. Tog'oldi tumanlarida, soylar o'zanlarida o'sadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Namangan viloyatlarida tarqalgan.

Ildizining qaynatmasi, ba'zan, damlamasi xalq tabobatida ichburug', bavosil, jigar, me'da yarasi kasalliklarini, yaralarni davolash uchun hamda o't va siyidik haydovchi, terlatuvchi va surgi dori sifatida qo'llaniladi. Burun-tomoq yallig'lanishi, bachadon yarasi va burishtiruvchi vosita sifatida ichketar, me'da-ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Soxta akas (o'ris daraxt)-Робиния ложноакация (белая акация)-

Robinia pseudasacia. L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) - *Fabaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, bo'yi 20-25 m ga boradigan daraxt. Barg tutqichlarini, ya'ni keyinchalik bandlari yon bandchalari tikanga aylangan, ular to'kilib ketadi. Barglari toq bargchali bo'lib, ularni umumiy soni 5-11 tagacha bo'ladi. Barg yaproqchalari tuxumsimon, uzunligi 1,5-4 sm va eni 0,8-2 sm. Gul shingillari 12-15 sm uzunlikda va undagi gul bandining uzunligi 3 sm. Gullari 2 sm uzunlikda tojbarglari oq, o'ta hidli bo'ladi. Dukkak mevasining uzunligi 5-7 sm va eni 1,8-2 sm. Aprel-may oylarida gullab, sentabr-oktabr oylarida urug'i pishadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida, shaharlarda ekiladi.

Tibbiyotda guli ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavanoidlar (robinin, akatsin, kversetin) oq diaromatik kislotalar, oshlovchi moddalar bor. Gulining damlamasi isitmada haroratni pasaytirishda hamda nafas olish yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Soxta yantoq-Янтақ ложный-Alhagi pseudalhagi MB. Desv.

Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oиласига мансуб ко‘п



yillik о‘симлик. Пояси 50-110-(130) см баландликда, поя и шохчалари түксиз. Остки тиканлари mustahкам bo‘lib, 7-15 мм узунликдаги ва 1-1,5 мм yo‘g‘онликда, поянинг учкни qismidagisi 18-25 мм узунликда ва ени 0,5-1 мм. Barglari uzunchoq nashtarsimon. Gullari 3-8 tadan tikanlarda joylashgan, qizil va pushti rangda. May-sentabr oylarida gullab, urug‘лари avgust-sentabr oylarida

yetiladi. Tekisliklarda maydonlarda, tog‘oldi туманларда ва екинзорлар qirg‘og‘идаги yerlarda begona о‘т сифатида о‘sadi. Toshkent, Farg‘она, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizining qaynatmasi, damlamasi xalq tabobatida ichburug‘, bavosil, jigar, me‘da yarasi. kasalliklarini, yaralarni davolash uchun hamda о‘т ва siydiq haydovchi, terlatuvchi va surgi dori sifatida qo‘llaniladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi yuqorida ko‘rsatilgan kasalliklardan tashqari, yana tomoq og‘rig‘i, tonsillit, stomatit, yiringli otit (qulquning yiringli yallig‘lanishi), burun-tomoq yallig‘lanishi, bachardon yarasi va burishtiruvchi vosita sifatida ichketar, me‘da-ichak kasalliklarini davolashda ishlataladi. Yantoq shakari yosh bolalarga surgi sifatida beriladi lekin chechak bilan kasallangan bolalarga berib bo‘lmaydi. Ildizi va yer ustki qismining qaynatmasi va damlamasi siydiq haydash, terlatuvchi, qon oqishini to‘xtatuvchi, yallig‘lanishga qarshi ta’sir etuvchi va yaralarni davolovchi xossaga ega ekanligi tajribada tasdiqlangan va ilmiy tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan.

Tikanli shirinmiya-Солодка шиповатая-*Glycyrrhiza aspera* Pall.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Poyasi 10-20-(35) sm oddiy, ba’zan shoxlangan, tikansimon qalin tuklar bilan qoplangan. Barglari 6-8-(12) sm uzunlikda, bargchalari 1,5-2 mm uzunlikdagi bandlar bilan tutashgan. 3-4-5 juftdan, teskari tuxumsimon uzunligi 3,5 sm

va eni 1-3 sm. Gul shingillari zich joylashgan 2-8 sm. Gulkosasi naysimon 0,9-1,1 sm uzunlikda. Gullari yirik, 10-15 mm. Parusi 0,9-1,5 sm uzunlikda va eni 5-6 mm ellipssimon. Qiyiq qismi 0,9-1,2 sm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi va o‘rta mintaqalarida, ekinzorlar atrofida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo va Qoraqalpoqistonda tarqalgan.

Ildizi tarkibida ko‘p miqdorda triterpen salonin glitsirrin, flavonoidlar, qandlar, kraxmal, efir moyi, vitamin C, uralenoglyukuron kislota, achchiq moddalar bor. Dori preparatlari quruq va quyuq ekstrakti, sharbati nafas yo’llari kasallanganda balg‘am ko‘chiruvchi, surunkali qabziyatda, siyidik haydovchi vosita sifatida qo‘llanadi.

To‘ldirilgan jinjak-Мимозка выполненная-*Lagonychium farctum* (Banks et Sol) Bibr. (*Prosopis stephaniana* Kunth).

Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -




Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik buta, balandligi 20-45 sm juda shoxlangan. Poyalari oq kulrang tuklar bilan qoplangan. Barglari 2-4 sm uzunlikda, ikki bora qirqilgan, 3-5 juft birinchi tartibi, ularni oxiri tikan bilan yakunlanadi, unda 8-12 ta juft uzun nashtarsimon bargchalari 2-7 mm uzunlikda va eni 0,3-3 mm, ikki tomoni kalta qalin tuklar bilan qoplangan. Guli 4-6 mm uzunlikda sariq, qalin shingilda 4-7 sm uzunlikda. Kosachasi 1-1,5 mm uzunlikda keng qo‘ngiroqsimon. yumaloq, bukilgan, 2-5 sm uzunlikda va eni 1-2 sm.

Urug'i qo'ng'ir-qora, yapaloq, 6-8 mm uzunlikda va eni 3,5-5 mm. Iyun-avgust oylarida gullab, avgust-oktabr oylarida urug'lari pishib yetiladi. Tuproqli cho'l va tog' oldi hududlarda o'sadi. Buxoro (Qamashi), Qashqadaryo (G'uzor, Yakkabog') va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizi va urug'larida oshlovchi moddalar saqlaydi. Urug'idan tayyorlangan damlama dizenteriyada qo'llaniladi. Ildizi va urug'idan oshlovchi moddalar tayyorlanadi.


Tulkisimon singrek (kiyikpanja)-Астрагал лисовидный-*Astragalus alopecias* Pall.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib, poyasining balandligi 40-80 sm, tik o'suvchi, egatchali, yumshoq tuklangan. Yon bargchalari bandli, uchburchak shaklda, yuqori qismi nashtarsimon, uzunligi 8-12 mm. Bargi 15-25-(30) sm uzunlikda, bandi qisqa. Bargchalari 18-22 juftdan, keng ellipssimon, 10-20-(30) sm uzunlikda, yuzasi tuksiz, ostki tomoni oq mayin tukli. Gullari o'troq, gul to'plami (7)-10-15-(25) mm uzunlikda. Tojbargi tuksiz, och sariq. Yelkani 16-21 mm uzunlikda, uni yaprog'i 6-8-(10) enlikda. Qayiqchasi 16-20 mm uzunlikda, bukilgan 8 mm uzunlikda va eni 3 mm. Urug'i oval-buyraksimon, 4 mm uzunlikda va eni 3 mm. Tekis yashilroq yoki qo'ng'irroq ranglarda. May-iyunda gullab, iyun-iyul oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning daraxtzorlarida, o'tloqlar, yonbag'rilaridagi efemer o'simlik qopqlamlari bilan o'sadi. Andijon, Samarqand, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida o'simlikni bargidan qirg'ichlab, undan yaralarni quritish va dezinfeksiyalash maqsadida va yosh bolalarni terisini pichilishiga qarshi sepiladigan malham sifatida ham qo'llaniladi.

To'mtoq bargli sano-Кассия обратнояйцевидная (итальянская).
Cassia obovata Collad.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -
Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik, kichik chala buta, barglari (3)-5-(7) tadan joylashgan toq bargchali murakkab barg, yaproqlari etli, tuklangan. Shigillari ko'p gulli va gullari yirik. Dukkaklari uzunchoq, o'roqsimon bukilgan, 40-55 mm uzunlikda va eni 15-25 mm. Urug'larini ustida burishgan egatlari bor. Iyul-avgust-sentabr oylarida gullab, urug'lari yetiladi. Surxondaryo viloyatlarida ekib ko'paytiriladi.

O'simlik bargi surgi sifatida va bavosil kasalligida ishlatiladigan choylar yig'malari, kafiol va antrasennin preparatlari tarkibiga kiradi.

Turkiston patlog'i-Смирновия туркестанская-*Smirnowia turkestanica Bunge.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) -
Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik, buta, poyasini balandligi 100 sm, qalin shoxlangan. Poya yo'g'onligi 5-10 mm, sariq-kulrang qobiqli. Bargi teskari yuraksimon 4-20 sm uzunlikda va eni 4-15 mm, ostki tomoni kumushsimon qalin oq tuklangan. Gullari pushti qizil, bittadan yuqori barglar qo'ltig'ida joylashgan. Tutqichi 2-5 mm uzunlikda. Kosachasi oq shoxisimon qalin tukli 4-6 mm uzunlikda. Yelkani 9-12 mm uzunlikda va eni 7-9 mm yuraksimon. Dukkagi bir uyali katta, 25-40 mm uzunlikda va eni 15-25 mm, qalin tuk bilan qoplangan. Aprel-may oylarida gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. Qumli cho'llarda, barhanlar ustida o'sadi. Buxoro viloyatida tarqalgan.

Tibbiyotda yosh novdalari ishlatiladi. Yer ustki qismidan olingan sferofizin (sferofizin benzoat) va smirnovin alkaloidlari qon bosimi oshganda, sferofizin benzoat yana akusherlik ginekologiya amaliyotida,

bachadon zaiflashganda, bola tug‘ishni tezlatish, tuqqandan keyingi qon ketishini to‘xtatish uchun qo‘llaniladi.

Uzun urug‘li afsonak-Термопсис длинноплодный-*Thermopsis dolichocarpa* V.Nikit.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Поясining баландлиги 20-70 см, тик о‘сувчи, шохланган, yumshоq туклар билан qопланган. Barglari uchlik tipda, bandli, yon bargchali. Yaproqchalari uzunroq 25-60 mm uzunlikda va eni 8-25 mm yuqori qismi tuksiz, ostki qismi uzun tukli. Gullari sariq, uzun shingilsimon to‘pgulni hosil qiladi. Kosachasi novsimon 10-15 mm uzunlikda va eni 5-9 mm, yumshоq туклар билан qопланган. Yelkani 15-20 mm enlikda va uzunligi 20-25(30) mm, tuxumsimon yumaloq. Dukkagi nashtarsimon, ensiz qisilgan. 8-10 sm uzunlikda va eni 0,5 -1,2 sm qalin tuklangan. Urug‘i ochiq qo‘ng‘ir, tekis, 5-6 mm uzunlikda va eni 3 mm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning (800)-1500-2650 m gacha баландликларда, butazorlar, archazorlarda, tog‘ oldi tumanlaridagi ekinzorlar atrofida o‘sadi. Surxondaryo viloyatida tarqalgan.

Quruq ekstraktining o‘zi balg‘am ko‘chiruvchi va yo‘talni qoldiruvchi, yer ustki qismi esa yo‘talga qarshi ishlataladigan tabletka tarkibiga kiradi.

Ural shirinmiyasi-Солодка уральская-*Glycyrrhiza uralensis* Fiss.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик, пояси кам шохланувчан, тик о‘сувчи, баландлиги 35-100 см гача yetadi. Hamma qismi dag‘al tikansimon туклар билан qопланган. Barglarining uzunligi 10-17-(28) sm, 2-5-6-(8) juftli bargchalardan iborat bo‘lib, ularning uzunligi 2,5-8 sm va eni 1,1-3,5 sm. Gul shingilining uzunligi 5-6 sm, gullari zinch joylashadi. Kosachasi novsimon 10-14 mm uzunlikda.

Tojbarglari binafsha rangda. Parusi 1,4-1,5 sm, qayiqchasingin uzunligi 11-12 mm va eni 2-2,1 mm. Aprel-mayda gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog' daryolarining o'zanlarida, tog'larni o'rta mintaqalarida tarqalgan. Qashqadaryo viloyati (Qizilsuv va katta urudaryo) da tarqalgan.

Dori preparatlari quruq va quyuq ekstrakti, sharbati nafas yo'llari kasallanganda balg'am ko'chiruvchi, surunkali qabziyatda, siyidik haydovchi vosita sifatida qo'llanadi.

O'rmalovchi sebarga-Клевер ползучий-*Trifolium repens* L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*)

Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi o'rmalovchi, yerga tekkan qismidan ildiz hosil qiladi, shoxlangan, balandligi 15-40 sm, siyrak tuklangan. barglari uzun bandli (20 sm gacha). Bargchalari ustidan, uzunligi 12-27 mm va eni 9-22 mm, keng tuxumsimon, cheti mayda tishchali. Gul to'plamining boshog'i sharsimon 2-2,5 sm enlikda, gullar tutqichi 25 sm gacha uzunlikda. Kosachasi 2 labli 4-5,5 mm uzunlikda, qo'ng'iroqsimon, tuksiz, 5 tishchali. Tojbargi oq, ayrim hollarda och pushti. Yelkani 5-10 mm uzunlikda va eni 2-5 mm uzunchoq-ellipssimon. Qanotchasi 4-6 mm uzunlikda, qayiqchasi 3-5 mm uzunlikda. Dukkagi 5 mm uzunlikda, 3-5 urug'li. Urug'i qo'ng'ir mayda. Aprel-sentabr oylarida gullab, may-oktabr oylarida urug'lari yetiladi. Zax yerlar, ariq va soylar bo'yida, sug'oriladigan yerdarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tarqalgan.

Yer ustki damlamasi bilan qaynatmasi xalq tabobatida astma, ko'k yo'tal, ko'krak qisishi, kamqonlik, qon bosimining oshishi, bezgak, yara, kuygan yerkarni, xavfli shishlarni va shamollash kasalliklarini davolash uchun hamda balg'am ko'chiruvchi, siyidik haydovchi va antiseptik dori sifatida qo'llaniladi. Quritilmagan bargini ezib yara va shishgan joyga bog'lanadi. Ilmiy tibbiyotda siyidik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

O'tloq mulkoki-Чина луговая-*Lathyrus pratensis L.*

Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar) —



Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik turi. Poyasi ko‘p shoxlangan, qirrali, kalta tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-100 sm. Barglari 1-5 sm li bandlarga ega. Gullari 3-12 tadan to‘plangan shingillar hosil qiladi va uzunligi 5-15 sm. Gulkosasi novsimon-qo‘ng‘iroqsimon, uzunligi 6-8 mm. Tojbarglari sariq. Yelkani 11-18 mm uzunlikda. Dukkagi 6-12 urug‘li va uzunligi 25-35 mm, eni 5-6 mm. May-avgust oylarida gullab, iyun-sentabr oylarida urug‘i yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqalarida, chakalakzorlar, archazorlar va tog‘ oldi tumanlariga tushadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Jigar, buyrak, oshqozon-ichak xastaliklarida, uyqusizlikda, yurak xastaliklarida qo‘llaniladi.

O'tloq sebargasi-Клевер луговой-*Trifolium pratense L.*

Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar) —



Fabaceae oilasiga mansub o‘simlik. Ko‘p yillik, poyasi ingichka, yuqoriga ko‘tarilib o‘suvchi, balandligi 25-50 sm, qalin uzun tuklar bilan qoplangan. Barglari uzun bandli, ostki qisimlari 10-20 sm uzunlikda. Yaproqlari 15-36 mm uzunlikda va eni 9-28 mm, chetlari tuxumsimon, gul to‘plami boshoqsimon, shakli sharsimon 2-3,5 sm enlilikda, ular poyaning uchi va yon shoxlar uchida joylashgan. Gullari o‘troq, kosachasi novsimon-qo‘ng‘iroqcha, 7 mm uzunlikda, 5 ta ignachasimon tishchali, ulardan 4 tasi kosacha novi bilan teng, 1 tasi ulardan ikki bora uzun. Tojibarglari qizil pushti. Qanotlari 13 mm uzunlikda, qayiqchasidan biroz uzun. Dukkagi bir urug‘li, uzunligi 2,5-3 mm. Urug‘i sariq, tekis, yumaloq, 1,5-2 mm uzunlikda. Aprel-sentabrda gullab, iyun-oktabr oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi hududlarida, sug‘oriladigan yerlarda, daryolar bo‘yida, bedazorlarda o‘sadi.

Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki damlamasasi bilan qaynatmasi xalq tabobatida astma, ko'k yo'tal, ko'krak qisishi, kamqonlik, qon bosimining oshishi, bezgak, yara, kuygan yerlarni, xavfli shishlarni va shamollash kasalliklarini davolash uchun hamda balg'am ko'chiruvchi, siyidik haydovchi va antiseptik dori sifatida qo'llaniladi.

Xmelsimon beda (yong'uchqa)-Люцерна хмелевидная-*Medicago lupulina L.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) - *Fabaceae* oilasiga mansub o'simlik. Bir yillik, poyasi yer bag'irlab o'suvchi va uzunligi 15-60 sm, tuklangan. Barglari teskari tuxumsimon, 7-8-(19) mm uzunlikda va eni 6-7-(15) mm. Biroz tishchali. Shingillari ko'p gulli. Gullari sariq. Tojbarglari 1,5-2 mm uzunlikda. Dukkagi 1,8-2,2 mm uzunlikda va eni 1,5-1,6 mm, buyraksimon, bir urug'li chatnamaydigan.

May oyida gullab, iyun-iyul oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning yuqori o'tloqlaridan to tekislikdagi ekinlar orasida ham o'sadi.

Qirqilgan joylar, yaralarni tez bitiruvchi, qon to'xtatuvchi sifatida qo'llaniladi.

Shakar yantoq-Янтақ персидский (верблюжья колючка)-*Alhagi persarum Boiss et Buhse.*



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) - *Fabaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 30-75 sm, tik o'suvchi, yer yuzasidan 10-15 sm dan so'ng shoxlanadi. Tikanlari yog'ochlanuvchan, pastki qismidagilari 1-3 sm uzunlikda va eni 2-3 mm. Barglarini bandi uzunligi 1mm ega. Yuqori shoxlaridagi tikanlari 15-22 mm uzunlikda bo'lib unda (2)-4-5-7 tadan gullar hosil

bo'ladi. Tojibarglari qizil. Iyul-sentabr oylarida gullab, avgust-oktabrda urug'lari yetiladi.

Asosan cho'l hududlarida, baland bo'lмаган qum barxanlarida va tog'oldi tumanlaridagi shag'alli, gil tuproqli sho'rxok yerlarda o'sadi. Farg'ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barglarida qumni issiqligida sarg'ish kristall moddalar to'planadi. Uni ertalab o'simlik silkitib to'planadi. Kuchli fitonsid, bakteriostatik burishturuvchi va qonni tiklovchi xususiyatlardan keng foydalanib, ichburug', o't va siydir haydovchi, jigar xastaliklarida foydalaniladi. Oshqozon yazvasida ham gulli novdalari damlama qilib ichib foydalaniladi.

Sharq yasmig'i-Чечевица восточная-*Lens orientalis* (Boiss)


Schmalh.



Burchoqdoshlar (*Dukkakdoshlar*) – *Fabaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi bir va bir nechta, balandligi 5-25 sm kam shoxlangan. Bargi 1-2 sm uzunlikda, juft barglarini oxirida jingalagi bor, juft barglari 3-6 juft, uzunroq ellipssimon 4-12 mm uzunlikda va eni 1-3 mm uzunlikda. Gullari qo'ltiqlarda 1-2 tadan o'troq holda. Gul tutqichlari 1-3 mm uzunlikda. Kosachasi 4-6 mm uzunlikda, tishchali. Tojbargi och pushti yelkani teskari tuxumsimon, uchki qismi o'yiqli 5-8 mm uzunlikda va eni 4-5 mm. Dukkagi tuksiz, to'rtburchakli uzunchoq, 5-11 mm uzunlikda va eni 4-8 mm. Urug'ining diametri 3-3,5 mm. Aprel-mayda gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. Asosan efemer o'simliklar bilan o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Urug'ida kraxmal, yog'lar, oqsillar va mineral tuzlar saqlaydi. Urug'idan tayyorlangan damlamasidan yaralarni yuviladi. Tomoq og'rig'ida chayqaladi va sariq xastaligida ichiladi.

Shahar yerchoyi-Гравилат городской-*Geum urbanum* L.



Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar)

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Yo‘g‘on ildizpoyali, yer bag‘irlab o‘suvchi poyalari 30-70 sm. Ildiz oldi barglari uzun bandli, yaproqlari 1-3 bo‘lakli, chetlari tishchali. Gullari 1,5 sm diametrda va ingichka, uzun bandli. Tojbarglari ochiq sariq, teskarı tuxumsimon, ellipssimon. May-iyunda gullab, iyun-iyul oylarida urug‘lari yetiladi. Bog‘larda, yo‘l yoqalarida, soy o‘zanlarida o‘sadi. Toshkent viloyati (Zarkent) da tarqalgan.

Milkardan qon ketishida, yallig‘langanda chayqaladi. Damlama tayyorlab, xronik, ichburug‘da, yaralarni tez bitirish uchun ishlataladi.

Sho‘rxok shildirboshi (Shildirmiya, sho‘r bo‘yan)-Круглоплодник солончаковый-*Sphaerophysa salsula* (Pall) DC.



Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar)

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ildizi yo‘g‘on 4-7 mm, poyasining balandligi 45-80 sm, 4-5 mm yo‘g‘onlikda, ikki uchli tuklar bilan qoplangan. Bargi tog‘ bargchali murakkab, 4-8 sm uzunlikda, bandi 1-2 sm uzunlikda, barglari 5-9 juftdan, ellipssimon. Gullari g‘ishtrang pushti, qalin shingilga to‘plangan uzunligi 3-10 sm. Kosachasi 4-6 mm uzunlikda kulrang, yelkani yumaloq 10-13 mm uzunlikda va eni ham bir xil. Dukkagi 8-16 mm enlikda, bandi 6 mm uzunlikda. Urug‘i ko‘p sonli qora qo‘ng‘ir. May-iyunda gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Zax joylarda, sho‘rxok yerlarda, to‘qay va ariqlar bo‘ylarida o‘sadi. Buxoro, Samarqand Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Yer ustki qismidan qon bosimi oshganda, akusherlik amaliyotida tug‘ishni tezlatish va tug‘ishdan so‘nggi qon ketishini to‘xtatish uchun qo‘llaniladi.

Ekma yeryong‘oq-Арахис земляной орех-*Arachis hypogaea* L.



Burchoqdoshlar (*Dukkakkodoshlar*) —

Fabaceae oilasiga mansub bir yillik, poyalarini uzunligi 30-45 sm bo‘lgan sershoxlanuvchan o‘t o‘simlik. Barglari juft bargli 4 ta dan bo‘laklarga bo‘lingan murakkab. Yaproqlari teskarli tuxumsimon ellips shakllarda, chetlari kipriksimon tishchali ostki tomoni tuklangan. Yon bargchalari nashtarsimon yoki o‘roqsimon bukilgan. Gullari shingilga to‘plangan, umumiy shakli supurgisimon bo‘lib, barg qo‘ltiqlarida joylashgan. Tojibarglari sariq, ba’zan pushti ranglarda. Mayda gullaydi, mevalari sentabr-oktabrda yetiladi.

O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi. Tibbiyotda o‘simlik moyi ishlatiladi. Urug‘i tarkibida ko‘p miqdorda moy, oqsil, triterpen saponinlar, vitamin B va E, biotin, pantaten kislota, betain, xolin, qand moddalari bor. Yeryong‘oq urug‘ining emulsiyasi bodom moyi o‘rnida ba’zi dori moddalaridan ineksion eritma hamda uchuvchan suyuq surtmalar va mingdevona moyi tayyorlashda qo‘llaniladi. Urug‘ining emulsiyasi bodom urug‘i emulsiyasi o‘rnida me’dada va ichak og‘rig‘ini qoldirish uchun hamda yumshoq surgi, yumshatuvchi va tirishishga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Yapon tuxumagi-Софора японская-*Sophora japonica* L.




Burchoqdoshlar (*Dukkakkodoshlar*) —

Fabaceae oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 15-20 m bo‘lgan, barglari toq bargchali murakkab, yaproqlari tuxumsimon, chetlari tekis, qisqa bandli, tuksiz o‘simlik. Gullari supurgisimon shingillardagi to‘pgullar hosil qiladi. Gullab turganda yuqoriga tik o‘sib, urug‘laganda pastga osilib turadi. Tojbarglari oqish, sarg‘ish, 10 ta changchiga ega. Urug‘i dukkak bo‘lib yashil, urug‘lari yetilganda ham chatnamaydi, uzunligi 5-7 sm, urug‘lar orasi berk. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida manzarali daraxt sifatida xiyobonlarda, yo‘l yoqalarida ekiladi.

Urug‘idan olingan moddalar yurak qon tomirlar xastaligida, gemoroya, arterial qon bosimini pasaytirishda, ichki qon ketishlarini to‘xtatishda qo‘llaniladi.

Shakarli zarang-Клен сахаристый-*Acer saccharinum* L.



Zarangdoshlar – *Aceraceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 40 m bo‘lgan sershox daraxt. Barg yaproqlari yarmigacha bo‘laklarga bo‘lingan, 6-12 sm uzunlikda va eni 5-10 sm, chetlari yirik tishli qirqilgan, bandlari qo‘ng‘ir qizil. Gullari ko‘rimsiz yirik. Urug‘ qanolari 3,5-4 sm uzunlikda. Gullari barglaridan oldin ochiladi. Aprel oyida gullab, iyunda urug‘lari yetiladi. Respublikaning hamma tuman va shaharlarida ekiladi.

Zarang shirasini to‘plab (ildizini yuqorisidan qirqib 1 tupdan 20-25 litr shira olinadi), uni qaynatib quyuq asalsimon qiyom olinadi. Olingan shira (asal) organizmni umumiyligida quvvatlanadir.

Soxta kashtan-Конский каштан-*Aesculus hippocastanum* L.



Soxtakashtandoshlar – *Hippocastanaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, poyasi 30 m bo‘lgan daraxt. Barglari qarama-qarshi joylashgan, panjasimon, bandlari 15-20 sm. Yaproq‘ining uzunligi 20 sm va eni 10 sm. Gullari yirik, 20-30 sm uzunlikda tik turuvchi shingilda joylashgan. Tojbarglari biroz bukilgan chetlari kipriksimon, och pushti, asosi sariq rangda. Ko‘ragi tikanli, 1-2 urug‘lardan iborat. Aprel-may oylarida gullaydi, avgust-sentabr oyida urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning barcha shahar va tumanlarida manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Po‘stlog‘i va urug‘idan tayyorlangan damlamalar gemoroy va bachadonlardan qon ketishida, varikozlarda, jigar, oshqozon va nafas yo‘li xastaliklarida qo‘llaniladi.

Amur baxmali (barxat)-Бархат амурский-*Phellodendron amurense*

Rupr.



Toshbaqatoldoshlar – *Rutaceae* oиласига mansub ko‘п yillik, balandligi 10-15 m bo‘lgan daraxt. Novdalarini pastki barglari navbatlashib joylashgan, yuqoridagilari qarama-qarshi joylashgan, bandli 3-6 ta, just yaproqchali, mayda egatchali. Gullari supurgisimon to‘pgullar hosil qiladi, kosachasi uchburchak tuxumsimon, o‘tkir, 1-2 mm uzunlikda.

Tojbarglari yashilsimon rangda, uchkurroq, 3-4 mm uzunlikda, 1.5-2 marotaba changchilari kaltaroq. Danagi sharsimon qora rangda. Aprelda gullaydi. O‘zbekistonning shaharlari va bog‘larida manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi qon oqishini to‘xtatishda va ayrim teri xastaliklarida qo‘llaniladi.

Poyachil toshbaqao‘t (Toshbaqatol)-Цельнолистник стебельчатый (Рута обыкновенная)-*Haplophyllum pedicellatum* Bunge et Boiss.



Toshbaqatoldoshlar – *Rutaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Poyalari ko‘p shoxlangan, sezilmaydigan bezchalar bilan qoplangan, shoxchalari barg qo‘ltig‘idan chiqadi, balandligi 20-50 sm. Barglari butun, ayrim holda uch bo‘lakli, nashtarsimon. Gullari qalqonsimon, qalin gullar joylashishidan umumiy ko‘rinishi sharsimon. Kosacha barglari tuxumsimon 1,5 mm uzunlikda. Tojbargi sariq, keng tuxumsimon 8-9 mm uzunlikda va eni 6-7 mm. Ko‘sakchasi ochiluvchan, o’troq, bo‘rtiqchali 5 mm enlikda. May-iyunda gullaydi iyun-avgustda urug‘lari yetiladi. Tuproqli cho‘llarda va tog‘ oldi qismining tuproqli joylarida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismining qaynatmasi tish og‘rig‘ida, oshqozon og‘rig‘ida va absintum shuvog‘i bilan qichimaga ishlatiladi.

**Tekis bargli toshbaqao't (Toshbaqatol)-Цельнолистник
исколотый-*Haplophyllum perforatum* Kar. et Kir.**



Toshbaqatoldoshlar – *Rutaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, poyasi tik o‘suvchi, qalqonsimon shoxlanuvchan, tuksiz, balandligi 30-70 sm, o‘t o‘simlik. Barglar oddiy tuksiz, kalta bandli, chetlari tekis. Gulkosachasi uchburchaksimon, 1 mm uzunlikda. Tojbarglari mayda 3-3,5(5) mm uzunlikda, nashtarsimon, sariq rangda. Mevasi ochilmaydigan ko‘sakcha. May-iyulda gullab, iyun-avgustda urug‘lari yetiladi. Mayda tuproqli, shag‘alli joylarda, tog‘oldi va tog‘ni o‘rtta mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qon ketishini to‘xtatishda, oshqozon spazmasida, ayollar menstruatsiyasining buzilishida qo‘llaniladi.

Baland bo‘yli sassiq daraxt-Айлант высочайший-*Ailanthus altissima* (Mill) Swingle.



Aylantdoshlar – *Simaroubaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi yuqori qismidan shoxlanuvchan, balandligi 20-30 m. Bargi (30)-45-60-(80) sm uzunlikda, yaproqlari 11-25-(41) tagacha, ovalsimon, uzun nashtarsimon. Gullari siyrak supurgisimon, uzunligi 20-30 sm har ikki jinsdagisi gullar shu joyda joylashgan. Tojbarglari yashilsimon sariq 2,5-3,5 mm uzunlikda mevalari qanotchali 3-4 sm uzunlikda. May oyida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Mevasi tarkibida moy, achchiq moddalar, po‘stlog‘ida laktonlar, saponinlar, kumarinlar, oz miqdorda alkaloidlar, oshlovchi moddalar bor. Mevasidan tayyorlangan surmasi (nastoykasi) murakkab preparatlar tarkibiga kiradi. Xalq tabobatida po‘stlog‘ining qaynatmasi ichburug‘, mevasining qaynatmasi bavosil

kasalligini davolashda hamda hayz buzilishida uni tartibga solib turish uchun qo'llaniladi.

Yer bag'irlovchi temirtikan-Якорцы приземные-*Tribulus terrestris L.*



Tuyatovondoshlar – *Zygophyllaceae* oиласига мансуб о'sимлик. Bir yillik, poyasi yer bag'irlab o'suvchi uzunligi 10-60 sm. Shoxlanuvchi 2 uchli. Tuklar bilan qoplangan. Barglar 3-6 sm uzunlikda. Bandi kalta, barg yaprog'i 10 mm uzunlikda och kulrang. Gullari 1-2 tadan, uzun bandli. Kosachasi 5 mm uzunlikda, nashtarsimon, gullagandan so'ng to'kiladi. Tojbargi sariq uzunchoq 5-7 mm uzunlikda. Urug'lari yumaloq shaklda 10-15 mm diametrda tikanlari gorizontal joylashgan 10 mm. May-avgust oyalarida gullab urug'laydi. Chala cho'l, cho'l, adirlar va lalmi ekinzorlar, sug'oriladigan maydonlar va yo'llar chetida o'sadi. Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Qashqdaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi aterosklerozda qo'llaniladi.

Oddiy isiriq (adraspan, xazaraspan)-Гармала адраспан-*Peganum harmala L.*



Isiriqdoshlar – *Peganaceae* oиласига мансуб ko'p yillik, ildizi mustahkam, ko'p poyalı, hamma qismi tuksiz, o'rtacha shoxlangan, egatchali, 20-50 sm balandlikda. Barglari nisbatan ko'p, o'troq, uzunligi 10sm va eni 9-10 sm, 3 ta asosiy bo'lakka va ular o'z navbatida mayda bo'laklarga bo'lingan. Kosachasi uch bo'lakchali, nashtarsimon bo'ladi. Tojibarglari oq 5 tadan, tuguni 2-3 chanoqli, sharsimon tuksiz, tekis, Urug'i endospermli, uch qirrali, panjasimon to'q qo'ng'ir qora ranglarda. May oyida gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Tog'oldi va cho'l hududlarida keng tarqalgan. O'zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Tibbiyotda isiriqning yer ustki qismi ishlatiladi. Alkaloidlar (garmin, peganii vazitsin), dnioksipegavin bor. Garmin alkadoidi ensefalit kasalligini, parkinson kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Dezoksipeganin gidroxloridning ampuladagi eritmasi miosteniya, miopatiya mushak kasalliklarda, hamda nerv kasalik (nevritlar) larida ishlatiladi. Xalq orasida bir qator kasalliklarda kiyim-kechaklarni dezinfeksiya qilishda qo'llaniladi.

Meliya azidarax-Мелия азедарах-*Melia azedarah L.*



Meliyadoshlar – *Meliaceae* oиласига мансуб ко‘п yilik, 12-18 m balanlikdagi ser shox daraxt. Bargi 25-30 sm uzunlikda ikki yoki uch marotaba qirqilgan, bo‘laklari 3-12, 2-5 sm uzunlikda va eni 1,5-2,5 sm, ovalsimon, chetlari tishchali. Gullari kuchli asal hidini beradi, 2 sm uzunlikda. Kosachasi 2 mm uzunlikda.

Tojbarglari ochko‘k rangda, 1 sm uzunlikda va eni 2 mm. Danagi sariq 1,5 sm uzunlikda. May oyida gullab, oktabrda mevasi yetiladi. Bog‘ va xiyobonlarda manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Po‘stlog‘idan tayyorlangan qaynatmasi isitmani tushiruvchi dori sifatida qo’llaniladi.

Ildiz hosil qiluvchi toksikodendron-Токсикодендрон укореняющийся-*Toxosodendron radicans (L.) Kuntze.*



Pistadoshlar – *Anacardiaceae* oиласига мансуб ko‘p yilik, buta yoki ilashib o’suvchi liana, barglari 3-5 panjasimon qirqilgan. Chetlari butun, oxirgi bargining uzunligi 20-30 sm, eni 1,3-13 sm bandi 1-4,5 sm. YOn bargchalari assimetrik 3-17 sm uzunlikda eni 1,3-10 sm, bandi 1-5 mm uzunlikda. Kosachasi uzunchoq, ovalsimon, tekis 1 mm uzunlikda, eni 0,8 mm. Tojbarglari teskari tuxumsimon, tekis 3 mm uzunlikda va eni 1 mm. Urug‘i oqish yumaloq 5-6 mm diametrda. Urug‘i 3 mm va eni 4 mm, qalinligi 2 mm. Iyun-iyul oylarida gullaydi, oktabr oyida urug‘i yetiladi. Ekib ko‘paytiriladi.

Tibbiyotda quritilmagan bargi ishlatiladi. Bargi sutsimon shiraga boy. Quritilmagan bargidan tayyorlangan surtma (nastoyka) nevralgiya, bod va boshqa shamollash kasalliklarida qo'llaniladi. Murakkab dorilar tarkibida yoki moyli ajratmasi namli temiratki, yiringli ho'ppos, saramas, qizamiq, bezgak kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Oshlovchi skumpiya (kotinus)-Скумпия коггигрия-*Cotinus coggygria Scop.*



Pistadoshlar – *Anacardiaceae* oиласига mansub ko'p yillik, poyasini balandligi 2-3 m bo'lgan buta yoki kichik daraxt. Barglari tuxumsimon, uzunligi 3-8-10 sm va eni 3-4-7 sm, chetlari tekis, yuzasi tuksiz, ostki tomoni tuklangan, bandlarini uzunligi 1-4 sm. Gullari yashilsimon oq, diametiri 3 mm. Tojbarglari 1,5-2 mm uzunlikda. Mevalari diametiri 3-5 mm. Iyun-iyul oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida mevasi yetiladi. Manzarali o'simlik sifatida bog'larda, xiyobonlarda o'stiriladi.

Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda tanin, flavonoidlar, efir moyi kabi moddalar bor. Bargidan tanin olinadi. Tanin preparatlarining suvdagi eritmasi va surtmasi burishtiruvchi, antiseptik va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida me'da-ichak kasalliklari (ichketar, kolit)da, og'iz bo'shlig'i, burun va tomoq yallig'lanishida, kuyganni, surunkali ekzema va turli yaralar davolashda qo'llaniladi. Tanin yana og'ir metall tuzlari va ba'zi alkaloidlar bilan zaharlanganda zaharga qarshi ishlatiladi.

Oshlovchi totim (sirka daraxt)-Сумах дубильный-*Rhus coriaria L.*



Pistadoshlar – *Anacardiaceae* oиласига mansub ko'p yillik, uncha katta bo'limgan daraxt yoki buta, balandligi 1-3(5) m kam shoxlanadi, yangi novdalari kulrang-qo'ng'ir. Bargi 15-18 sm uzunlikda, 9-17 ta yaproqchali, yaproqchalari dag'alroq 3-5-(6) sm uzunlikda va eni (1.5)2-3 sm uchki qismi uchkirlashgan. Gullari supurgisimon to'pgul hosil qiladi. Erkak gullari uzunroq va

siyrap joylashgan bo'lib, 20-25 sm uzunlikda, kosachasi yashil, tashqi tomoni qalin tuklangan, 2 mm uzunlikda va eni 1-1.5 mm uzunlikda. Urg'ochi gullari nisbatan mayda, to'pgullari 15 sm uzunlikda, Urug'i sharsimon yoki buyraksimon diametri 5-6 mm, qizil-qo'ng'ir bezchali, tuklangan. Iyun-iyul oylarida gullaydi, sentabr-oktabr oylarida yetiladi. Dengiz sathidan 900-1700 m balandlikda kichik o'rmonlar hosil qiladi, Surxondaryo viloyatida ekiladi.

Urug'idan tayyorlangan choy, gipertoniya, oshqozon og'rig'i va yazvasida, qayt qilishda, ichburug'da, qon ketishida, siydk haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Xandon pista-Фисташка настоящая-*Pistacia vera L.*




Pistadoshlar – *Anacardiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik daraxt, ko'p hollarda ko'p poyali buta. Balandligi 5-7 (10) m. Barglari 3 yaproqli ba'zan 5(7) yaproqli. Gullari juda mayda diametri 3 mm. Erkak gullari qalin supurgisimon 5-8 sm uzunlikda. Gul yonbarglari 1-3 tadan 2 mm uzunlikda. Urg'ochi gullari siyrap supurgisimon to'pgullarda joylashgan 5-10 (12) sm uzunlikda. Urug'lari tuxumsimon (6)8-15-32 mm uzunlikda va eni (5) 6-8 (10) mm. Mart-may oylarida gullab iyul-sentabr oylarida yetiladi. Tog'larning dengiz sathidan (450) 700-800 dan to 1500-2000 m bo'lgan balandliklarida o'ziga xos pistazorlarni hosil qiladi.

O'zbekiston va Tojikistonning tog'li joylarida alohida navlari ekiladi. Toshkent (Angren), Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yovvoyi holda tarqalgan.

Tibbiyotda bargida hosil bo'ladigan patalogik o'simtalarda bujrunlari (pallalari) ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda oshlovchi modda tanin bor. Bujrunlaridan (pallalari) tanin olinadi.

Yavan totumi-Сумах яванский-*Rhus javanica L.*

Pistadoshlar – *Anacardiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, kichik daraxt yoki buta, balandligi 3-8 m, shoxlari sarg'ish, tekis. Barglari 7-13 ta yaproqchali, yaproqlari o'troq, 6-12 sm uzunlikda, chetlari yirik



tishchali, ostki tomoni kalta tuklar bilan qoplangan. Kosacha barglari qanotli, tuklangan. Gullari pushti-oq, bandining uzunligi 1 mm siyrak supurgisimon, to'p gullarining uzunligi 15-25 sm. Kosachasi tuxumsimon 0,5 mm uzunlikda. Tojbargi uzunroq 2 mm uzunlikda va eni 1 mm. Urug'i doirasimon 4-5 mm, pushti-qizil. Avgust-sentabr oylarida gullaydi, urug'lari oktabrda yetiladi. O'zbekistonning shaharlarida manzarali daraxt sifatida ekiladi.

Ichki qon ketishida, antitoksin sifatida, gemaroyda, zaharli ilon chaqqanda, istimani tushirishda, kuyganda qo'llaniladi.

Past bo'yli zig'ir-Лен низкий-*Linum humile* Mill. (*L. usitatissimum* L.).



Zig'irdoshlar – *Linaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyalari bittadan, ayrim hollarda bir nechta, tuksiz, balandligi 30-70 sm. Barglari lentasimon-nashtarsimon o'troq, 15-35 mm uzunlikda va eni 1-5 mm. Gul to'plami qalqonsimon, supurgisimon, siyrak. Kosachasi 5-7 mm uzunlikda, tuxumsimon. Tojbarglari teskari tuxumsimon, to'q ko'k, 10-20 mm uzunlikda va eni 6-9 mm. Ko'sakchasi sharsimon, urug'lari to'q qo'ng'ir rangda, 5-6 mm uzunlikda. Aprel-mayda gullab, iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Ekinzorlarda keng tarqalgan begona o't sifatida o'sadi. O'zbekistonning ko'p joylarida moyli o'simlik sifatida ekiladi.

Urug'idan quyuq tayyorlangan qaynatmasi oshqozon, o'n ikki barmoqli ichak yaralarida, shamollahsga qarshi, teridagi yaralar, chipqon va furunkul yaralarida qo'llaniladi.

Bibershteyn qontepar-Биберштейния многонадрезная- *Biebersteinia multifida* DC.



Qontepardoshlar – *Biebersteiniaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi tik o’suvchan, balandligi 25-60 sm, hamma qismi tuklar bilan qoplangan. Ildizi yo‘g‘on, tiganaksimon, 1,5-4 sm yo‘g‘onlikda, shoxlangan ayrim hollarda jenshenga o‘xhash, to‘q qo‘ng‘ir rangda. Barglari mayda qirqilgan,

10-20 sm uzunlikda va 1,5-5 sm enlilikda. Gul kosasi tuxumsimon 5,5-7,5 mm uzunlikda. Tojbarglari tuxumsimon mayda tishchali, yuqori qismi pushti rangda, asos qismi sariq, 5-7,5 mm uzunlikda. Aprel oyida gullab, iyun oyida urug‘lari yetiladi. Tog‘larning mayda shag‘alli va tuproqli qismlarida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida ildizi ishlatiladi. Tarkibida saponinlar, uglevodlar, ko‘p miqdorda oshlovchi moddalar bor. Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi ichakdan va bachadondan (tuqqandan so‘ng) qon ketishni to‘xtatishda qo‘llaniladi.

Oddiy qarqaratumshuq-Аистник обыкновенный-*Erodium cicutarium* (L.) Her.



Yoronguldoshlar – *Geraniceae* oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Poyalari va bargalari kalta dag‘al tuklar bilan qoplangan va yopishqoq. Kuchli shoxlangan, balandligi 15-40 sm o‘t o‘simlik. Barglarini umumiyo ko‘rinishi uzunchoq tuxumsimon, eni 10-15-20 mm 5-13 bo‘laklarga bo‘lingan, bo‘laklari qarama-qarshi joylashgan.

Gullari zigomorf. Kosachasi uzunchoq tuxumsimon, 3,5-4 mm teskari tuxumsimon. Aprel-iyunda gullab urug‘laydi. Tog‘ oldi adirlarda, ekinzorlarda, tuproqli ariqlar qirg‘og‘ida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Xalq tabobatida o‘simlikdan olingen shirasi teri tuberkulyozida qo‘llaniladi.

Roberta yoronguli-Герань Роберта-Geranium Robertianum L.



Yoronguldoshlar – *Geraniceae* oиласига mansub bir yillik, poyasi bittadan, balandligi 15-35 sm, tik o'suvchi, shoxlangan, kichik egatchali, bo'g'imlar oralig'i, bukilgan va bo'g'imlari yo'g'onlashgan. Barglari ingichka, 4-8 sm enlilikda, umumiyo ko'rinishi beshburchak 3-5 bo'lakli. Bo'laklari tuxumsimon. Ildiz bo'g'zidagi barglari mozaika ko'rinishida. Gullari barg qo'ltig'ida, ikkitadan, gulbandi 2-5 mm uzunlikda. Gulkosachasi 5-6 mm uzunlikda. Gultojlari to'q qizil-pushti, 11-14 mm uzunlikda, tuxumsimon-ponasimon. Urug'lari 2 mm uzunlikda va eni 1 mm qo'ng'ir rangda, tekis. May oyida gullab, urug'lari avgust oyida yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqasida, qoyalar soyasida, daraxtlar soyasida, soylar o'zanida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning yer ustki qismidan turli ko'rinishdagi qon ketishida teridagi yara va jarohatlarni davolashda qo'llaniladi.

Tepalik yoronguli-Герань холмовая-Geranium collinum Steph.



Yoronguldoshlar – *Geraniceae* oиласига mansub ko'p yillik, och yashil rangli, poyani yuqori qismlari tuklangan. Poyasini balandligi 15-50 (60) sm bo'lib ayrim hollarda bir nechta poya hosil qiladi. Barglari buyraksimon, uzun bandli, yuqoridagilari o'troq, eni 3-7 sm. Gullari ikkitadan. Gulkosachasi uzunchoq 7-8 mm uzunlikda. Tojbarglari pushti-binafsharoq rangda, 9-17 mm uzunlikda va eni 5-8 mm. Urug'lari uzunchoq 3 mm uzunlikda. Iyun-sentabr oylarida gullaydi. Nam joylarda, tog' oldi sho'rxak joylarda, tog'ning o'rta mintaqalarigacha bo'lgan hududlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi ich ketish, meda-ichak xastaliklari va ichki qon ketishlarini davolashda qo'llaniladi.

Mayda gulli (yovvoyi) xina-Недотрога мелкоцветная-*Impatiens parviflora* DS.



Xinaguldoshlar – *Balsaminaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, balandligi 30-50(70) sm. Barglari navbatlashib joylashgan, tuxumsimon 2-9 sm uzunlikda va eni 1-4 sm, asosi ingichka ponasimon, bandi 1-2 sm, chetlari yirik tishchali. Gul tutqichi 4-9 sm, barg qo'ltig'iida joylashgan.

Gullari 1 sm uzunlikda sariq, 1 tupda 3-12 tagacha gul bor. Gul bandi 1.5-2 sm, gulida qayrilgan pixi bor. Gultojlari 5 mm uzunlikda va eni 4 mm. Iyun-iyulda gullaydi, iyul- avgustda urug'i yetiladi. Tog'larning soya joylaridagi nam ko'p joyda, qoyalar, daraxtlar soyasida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqdaryo va Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

O'simlikning suvdagi qaynatmasi qon ketishni to'xtatuvchi va bachadon xastaliklarida ishlatiladi. Zaharlanishda zaharga qarshi ham qo'llaniladi.

Chatishgan istod (qayiqchagul)-Истод гибридный-*Polygala hybrida DC. (P.comosa Schkuhr.)*



Qayiqchaguldoshlar – *Polygalaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, poyasi serbarg, shoxlanmaydigan, balandligi 15-30(50) sm. Bargi nashtarsimon lenta ko'rinishida, o'troq, tuksiz, ostki barglarida 0.5-1 sm uzunlikda, yuqoridagilari 2-3sm uzunlikda va eni 3,5-4 mm. Gul shingillari zinch gullar bilan to'plangan

2-3 sm uzunlikda va eni 3,5-4 sm. Kosachasi ochiq ko'k, to'liq ochilganda och pushti, pushti. Tojbarglari ham shunday ranglarda 5 mm uzunlikda va eni 4 mm tuksiz. Urug'i uzunchoq 2-2,5 mm uzunlikda. Qalin tuklangan. Iyun-iyulda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog'larning qalin archazorlarida, bog'larda daraxtlar soyasida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarda tarqalgan.

Tibbiyotda ildizi ishlatiladi. Ildizi tarkibida saponinlar, spirt, yog, smola kabi moddalar bor. Qaynatmasi nafas yo'llari kasalliliklarda balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Oddiy-chilonjiyda-Унаби обыкновенный-*Zizyphus jujuba* Mill.



Chilonjiydadoshlar – *Rhamnaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, balandligi 3-6 m bo‘lgan daraxt. Barglarining bandi tuklangan, yaproqlari tuksiz, chetlari to‘lqinsimon tishli, 3-10 mm uzunlikda, gullarini diametri 3-4 mm. Gulbandlari 3-4 mm uzunlikda Tojibargi kosachasidan kalta, ostki qismi qisqargan.

Danagi uzunroq, mevasining rangi qizil, pushti, tekis. Iyulda gullab, sentabr oyida mevasi pishib yetiladi. Tog‘larning quruq yonbag‘irlarida, o‘rta qismida o‘sadi. Surxondaryo viloyati (To‘palondaryoning atrofi) da tarqalgan. Madaniy navlari O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida bargi va mevasi ishlatiladi. Mevasidan tayyorlangan damlama xalq orasida ko‘krak og‘rig‘ida, yo‘talda ko‘krakni yumshatuvchi, yo‘tal qoldiruvchi dori sifatida, kamqonlik, astma, chechak, ichketar, isitmada, o‘pka, jigar, buyrak va qovuq kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Olxasimon itjumrut (frangula)-Франгуля ольховидная-*Frangula alnus* Mill.



Chilonjiydadoshlar – *Rhamnaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, poyalarini balandligi 3 metr bo‘lgan buta o‘simlik. Kurtaklari ipaksimon tuklar bilan qoplangan. Barglari navbatlashib joylashgan, chetlari tekis, tuksiz, 4-7 sm uzunlikda. Gullari 2-7 tadan barg qo‘ltig‘ida joylashgan, sarg‘ish rangda. Danagi sharsimon, qoramtir-binafsha rangda, diametri 8-10 mm. Aprel-mayda gullaydi. O‘zbekistonda bog‘dorchilikda va xiyobonlarni bezash uchun ekiladi.

Tibbiyotda po'stlog'i ishlatiladi. Dori preparatlari qaynatmasi, suyuq ekstrakti, quruq ekstraktining tabletkasi, sharbati va choylar, yig'malar tarkibida surunkali qabziyatda surgi sifatida qo'llaniladi.

Xristov qoratikani-Держи-дерево христовы-тернини-*Paliurus spinosa-christi* Mill. (*P. australis* Gartn.)



Chilonjiydadoshlar – *Rhamnaceae* oиласига mansub ko'p yillik, buta o'simlik. O'tkir tikanli, balandligi 2-3 mm. Novdalari bukilgan burchaksimon, yoshlari tuklangan. Bargi tuxumsimon, 3 tadan tomirlangan, chetlari bilinar-bilinmas arrasimon tishchali. Yonbarglari tikansimon uchli. Urug'lari qizil-qo'ng'ir, 15-25 mm enlilikda. May-iyunda gullab, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Ekib o'stiriladi.

Bargi va tanasi ich burug', ichdan shilimshiq holda ich ketganda qabul qilinadi. Urug'lari siyidik to'xtab qolganda yurgizish uchun va o'pka xastaliklarida qabul qilinadi.

Yumshatuvchi tog'jumrut (bug'ibag'r)-Крушина слабительная-*Rhamnus cathartica* L.



Chilonjiydadoshlar – *Rhamnaceae* oиласига mansub ko'p yillik, novdalarining uchi tikan bilan tugallanadigan kichik daraxt yoki buta. Bargi 2-5sm uzunlikda, qarama-qarshi joylashgan, tuksiz, tuxumsimon. Gul bandi 1 sm uzunlikda. Kosachasi 5 mm uzunlikda. Tojbarglari uzunroq, kosachasidan kaltaroq. Ikki uyli, gullari sarg'ish yashil. Tuguni 2-3 (4) chanoqli, mevasi 2-3-4 danakli. Danagi 5 mm enlikda, qora rangda. Urug'i ingichka kertikli. May-iyunda gullaydi, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Tog' yonbag'ridagi yong'oqzor, archazor, o'rmonlar va daryolar o'zanida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida antraglikodizlar, flavonoidlar, organik kislotalar, qandlar, pektin moddalari bor.

Mevasining damlamasi va qaynatmasi oq surgi dori sifatida qabziyatda iste'mol qilinadi. Mevasi surgi choylar, yig'malar tarkibiga kiradi.

Jumritsimon chakanda(oq changal)-Облепиха крушиновидная- *Hippophae rhamnoides L.*



Jiydoshlar - *Elaeagnaceae* oиласига mansub ko'п yillik, balandligi 2-5 m bo'lган kichik daraxt yoki buta o'simlik. Poyasi va novdalari o'tkir tikanlar bilan qoplangan. Barglari uzunchoq nashtarsimon, 2-9 sm uzunlikda va eni 3-15 mm, kulrang-yashil, ostki tomoni kumushsimon oq. Gullari barglari bilan bir vaqtida rivojlanadi. Urug'chi gullari yumaloq-tuxumsimon 3 mm uzunlikda. Changchi gullari undan kichik. Ikki uyi o'simlik. Mevasi danakli, yetilganda och sariq ba'zan och pushti ranglarda. May oyida gullab, avgust-sentabr oylarida mevasi yetiladi. Tog' to'qayzorlarida, buloqlar atrofida, daryolar o'zanida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarcand, Buxoro, Qashqdaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevasi va moyi ishlatiladi. Chakanda moyi radioaktiv nurlar ta'siridan zararlangan teri, shilliq qavatlar (qizilo'ngach, me'da va bachadon shilliq qavatlari), yaralar, me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, ba'zi ginekologik kasalliklar hamda vitaminlar yetishmasligidan kelib chiqqan avitaminoz kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.


Ingichka bargli jiyda (qush jiyda, qarg'a jiyda)-Лох узколистный- *Elaeagnus angustifolia L.*



Jiydoshlar - *Elaeagnaceae* oиласига mansub ko'п yillik, balandligi 3-8 m bo'lган daraxt. Barglari nashtarsimon 3,5-7 sm uzunlikda va eni 7-18 mm, bandi 5-12 mm uzunlikda. Gullari o'ziga xos hidli, 2-5 mm uzunlikdagi bandga ega bo'lib barg qo'ltig'ida 1-3 tadan joylashgan. Kosachasi va tojbarglari qo'ng'iroqsimon, uzunligi 5-6 mm va eni 2,5-3

mm. Mevasining danagi ovalsimon dumaloq, 10 mm uzunlikda va eni 7 mm. May oyida gullab, sentabr-oktabrda mevalari yetiladi. Asosan to‘qaylarda, ba’zan cho‘llardagi ekin maydonlarining atrofida ixota sifatida ham ekiladi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘istonda tarqalgan. Mevasining qaynatmasi me‘da-ichak xastaliklarida, yurak, nafas yo‘llari shamollaganda qo‘llaniladi. Daraxt tanasining yelimi dorishunoslik amaliyotida emulgator sifatida qo‘llaniladi.

Izabella toki-Виноград Изабелла-*Vitis labrusca L.*



Tokdoshlar – *Vitaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, poyaning uzunligi 10-15 m bo‘lgan, ilashib o‘suvchi buta o‘simlik. Bargini umumiy ko‘rinishi keng tuxumsimon, yuqori qismi ikkita katta tishli. Yuqori qismi tuksiz, to‘q yashil ostki tomoni tuklar bilan qoplangan och yashil. Gullari turlichcha, bir jinsli, ikki jinsli, murakkab shingilga to‘plangan. Kosachasi bakalsimon, tishchasisiz. Tojibargi 5 ta, yuqori qismida hammasi bitta asosda joylashgan. Changchisi 5 ta. Mevasi ikki uyali oq. May oyida gullab, iyul-avgust oylarida yetiladi. O‘zbekistonda kam ekiladi. asosan shimoliy Amerikada ekiladi. Mevasidan tayyorlangan vinosi yurak qon-tomirlar xastaligida, yurak muskullarining faoliyatini yaxshilashda, qon bosimini ko‘tarishda qo‘llaniladi.

Madaniy tok (uzum)-Виноград культурный-*Vitis vinifera L.*



Tokdoshlar – *Vitaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, uzunligi 30 m, poyasi diametri 0.5 m. Bargining umumiy ko‘rinishi doirasimon, yoki buyraksimon, 3-5 panjali qirqilgan. Gul to‘plami chachala supurgisimon. Gullari ikki jinsli, urug‘chi va erkak gullari alohida. Mevalari turli shakllarda va ranglarda, mazasiga ko‘ra shirin nordon mevalarga bo‘linadi. Mevalari 2-3 urug‘li yoki urug‘siz. May-iyun oylarida gullab, iyul-oktabr oylarida pishib yetiladi.

Yovvoyi holda Toshkent (Angren daryo vohasida) va Surxondaryo (To'palang daryo vohasi) viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida mevasi va urug'i hamda bargi ishlatiladi. Mevasi tarkibida bavosil, podagra, buyrak, qovuq, jigar, yurak, me'da-ichak kasalliklarini davolashda, siyidik va o't haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va quvvatga kirituvchi sifatida qo'llaniladi. Mevasi ilmiy tibbiyotda ham ishlatiladi. Me'da-ichak kasalliklari, kamqonlik, nefrit, surunkali bronxit kasalliklarda beriladi. Bundan tashqari, mevasi yana o'pka sili, organizm darmonsizlanganda ham qo'llaniladi.

Erkak qo'ng'irpo'st-Кизил мужской-*Cornus mas L.*



Qo'ng'irpo'stdoshlar – *Cornaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, yirik buta yoki kichik daraxt, moyasini balandligi 6 m, barglari tuxumsimon, 8 sm uzunlikda va eni 5 sm, yashil har ikki tomoni kalta tuklar bilan qoplangan. Gulkosasi tuklangan, tojbargi sariq, changchilaridan 2-3 barobar uzun. Mevasi danakli, danagi 15 mm uzunlikda, to'q qo'ng'ir rangda. Mevasi to'p-to'p bo'ladi. Mart-aprelda gullab, mevalari iyulda yetiladi. Bog'larda manzarali daraxt sifatida, ayrim xo'jaliklarda mevali urug'i ekiladi. Farg'ona vodiysi, Samarcand va Toshkent viloyatida o'stililadi.

Barglarining qaynatmasi ichburug' uchun ishlatiladi. Kungaboqar yog'ida maydalab tuyilgan urug'lari asal bilan aralashtirilib, ichburug'ning kuchli formalarida qo'llaniladi. Mevasining shirasi qant xastaliklarida ham ishlatiladi. Ildizining po'stlog'idan tayyorlangan qaynatmasi suli uni bilan kasha tayyorlab furunkulga qo'yiladi.

Bibershteyn ko'ktikani-Синеголовник Биберштейна-*Eryngium*



Biebersteinianum Nevska. (E. caucasicum Traktv.)

Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, ko'kish o'simlik. Ildizi yo'g'on. Poyasi silindrsimon, ingichka egatchali o'rta qismidan ikki bora shoxlanadi, umumiy ko'rinishi qalqonsimon, supurgisimon,

balandligi 50 sm. Barglari och yashil, uch qirrali bandli tekkis chetli, ovalsimon. Boshchasi sharsimon, diametri 10 mm. Kosachasi nashtarsimon, yuqoriga qarab qisqarib ingichkalashib boradi, tikansimon 1,5 mm uzunlikda. Tojbargi uzunchoq nashtarsimon, eni 2 mm. Urug'i teskari tuxumsimon, qobirg'ali. May oyida gullab, urug'lari iyul oyida yetiladi. Namli yerlarda, ekinzorlar qirg'og'ida, bog'larda, yo'l yoqalarida begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizining qaynatmasi shishlar, istisqo va boshqa teri kasalliklarida hamda buyrak va siyidik yo'llari kasalliklarida qo'llaniladi.

Butenev zirasi-Буниум бутеневый-*Bunium chaerophylloides* (Regel. et. Schmalh.) Drude.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi silindrsimon, oz qirrali o'rta qismidan shoxlanuvchan, balandligi 50-70 sm. Ildizida tukanagi bo'lib, u sharsimon yoki qisqa slindirsimon. Ildiz bo'g'izidagi barglari bandli, yaproqlari uch bora mayda qirqilgan. Poyadagi barglari o'troq yoki qinli kalta bandli. Soyaboni 10-16 nurli, o'rta qismidagilari kalta 3-5 sm. Yon bargchalari 20-25 gulli va ular ikki jinsli. Tojbarglari keng teskari tuxumsimon, ichkariga bukilgan. Urug'lari 4-4,5 mm uzunlikda va pishib yetilishida bir-biridan ajiraladi. Aprelda gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalaridagi tuproqli, mayda shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Urug'idan qorin og'rig'ida, taloq shishini davolashda va urug'inining sirkadagi damlamasidan burundan qon ketishida va qovurilgan urug'laridan siyidik haydashda qo'llaniladi. Shuningdek, o't yo'llarini yallig'lanishida, me'da-ichak yo'llari kolitida, jigar va oshqozon osti bez faoliyatlarini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi.

Golike arxarshairi-Шренкия голике-Schrenkia Golickeana (Regel et Schmalh) B.Fedtsch.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб пойаси даг‘алроқ айим holda туksиз, ildizi silindrsimon bir o‘закли ко‘п yillik o‘simlik. Poyasi 10-15-(35) sm balandlikda. Barglari kalta bandli, yaprog‘i uzunchoq 7-10 juft, oxirgi yuqoridagi barglari o‘troq, 1-2 mm uzunlikda. Soyaboni 15-20-(40) nurli, nurlari o‘tkir qobirg‘ali, dag‘alroq,

tashqilarini ichkaridagilaridan ikki bora uzun, 3-4-(5) sm uzunlikda. Soyabonlari 15-20 gulli. Gullarining markazdagilari o‘troq. Kosacha tishchalari nashtarsimon. Tojbarglari keng, teskari tuxumsimon. Urug‘larining eni 4 mm ponasmimon. Aprel-may oylarida gullab, may-iyunda urug‘lari yetiladi. Tepaliklarda, yumshatilgan gipsli tuproqlarda, qumli joylarda, tog‘ oldi hududlarida o‘sadi. Toshkent, Samarqand viloyatlari tarqalgan. Ildizini maydalab talqon qilib, og‘iz shamollaganda, yaralanganda sepiladi.

Dog‘li zangrooya-Болиголов пятнистый-Conium maculatum L.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб ikki yillik, o‘q ildizli o‘simlik. Poyasi o‘rtacha uzunlikda, barglari ham, poyasi ham tuksiz, balandligi 1 m ga boradi. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari uzun bandli, 3 marotaba qirqilgan, poyadagi barglari kalta qinli, uchli, tilchali. Soyaboni 10 nurli, 20-25

mm uzunlikda, yon bargchali. Tojbarglari 1 mm uzunlikda. Urug‘lari tuxumsimon, 3 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘i yetiladi. Asosan ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Tog‘ oldi hududlarda ham uchraydi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatalidi. Tarkibida alkaloidlar, efir moyi, vitamin C, karotin, flavonoidlar (kversetin va kempferol) birikmalar bor. Xalq orasida ichki organlar spazmasi vaqtida vujudga

keladigan og'riq va tirishishni to'xtatuvchi, yo'tal qoldiruvchi vosita sifatida, migran va bachadonning o'sma kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Ilmiy tibbiyotda o'simlik ekstrakti, malhami og'riq qoldiruvchi dori sifatida ishlatsishga tavsiya etilgan.

Dorivor ukrop (Oq zira)-Фенхель обыкновенный-*Foeniculum Vulgare Mill. (F.Officinale)*.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyalari yuqori qismidan shoxlanuvchan, balandligi 1 m bo'lgan o't o'simlik. Ildiz oldi barglari uzun bandli, poyadagilari plyonkasimon qinli o'troq yoki kalta bandli, oxirgi bo'laklari ingichka bo'lib, uzunligi 2 sm. Soyabonlari 10 nurli, yonbargchasiz, soyabonlari 20-25 gulli yonbargsiz. Gullari och sariq. Urug'lari silindirsimon uzunchoq, uzunligi 5 mm. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Asosan madaniy holda ekiladi. Yovvoyi holda kam uchraydi.

Tibbiyotda mevasi va mevasining efir moyi ishlataladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog', oqsil moddalar bor. Efir moyi asosan anetol terpenoidlardan tashkil topgan. Meva, efir moyi va moyidan tayyorlangan ukrop suvi yuqori nafas yo'llari yallig'langanda va shamollaganda balg'am ko'chiruvchi, ich yumshatuvchi hamda yel haydovchi vosita sifatida me'da-ichak kasalliklari va meteorizm (ichaklarda gaz to'planib, qorin dam bo'lishi) da qo'llaniladi.

Yovvoyi sabzi-Морковь дикая-*Daucus carota L.*




Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub, ikki yillik o'simlik. Ildizi ingichka. Poyasi yumaloq, tekis, o'rta qismidan shoxlangan, dag'al siyrak tuklangan, balandligi 1 m. Barglarining yuzasi tuksiz, ostki tomoni tuklangan, yaprog'i ikki bora mayda bo'laklarga bo'lingan. Asos qismidagilari bandli, poyani yuqori qismidagisi o'troq. Poyaning va shoxchalarining uchki qismlarida soyabonli to'p gullar bilan tugallanadi.

Soyabonlari eni 10 sm, soyabonchalari 15-20 gulli. Kosachasi nashtarsimon-bigizsimon tishchali. Tojbargi sariq, tashqisi 2 mm uzunlikda, ichkaridagilaridan ikki bora uzun. Urug'lari 3 mm uzunlikda, ipsimon qobirg'ali. May-iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi. Sug'oriladigan yerlarning atrofida, ariq va soylar labida, nam soyaroq joylarda o'sadi.

Tabobatda urug'lari foydalilaniladi. Urug'larining qaynatmasi jigar xastaliklari, sariq, xushdan ketishda qo'llanilsa, ildizi kamqonlikda va oshqozon xastaliklarida qo'llaniladi. Urug'i kuchsiz surgi va siyidik, gijjalarni to'kishda qo'llaniladi.

Zibtorpa beklar o'ti-Колюченосец зибторпа-*Echinophora sibthorpiana* Guss.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб, ко'п yellik, o't o'simlik. Poyasi bittadan egatchali, o'rtा qismidan shoxlangan, balandligi 50 sm. Ostki shoxlari navbatlashib joylashgan, yuqoridagilari qarama-qarshi va halqasimon joylashgan. Ostki barglari uzun bandli, keng qinli poyani yarmigacha o'rab olgan.

Yaprog'i uch bora qirqilgan, tuxumsimon, uchli yakunlanadi 5-8 mm uzunlikda. Soyaboni ko'p sonli, poyani va shoxlarni uchida ko'p sonli 3(4-5) yo'g'onlashgan, 5 mm uzunlikda. Soyabonlari 5-6 gulli.

Kosachasi 2 ta nashtarsimon tashqi va mayda ichki uchburchak tishchalaridan iborat. Tojbargi tuklangan uzunchoq ovalsimon, 1 mm uzunlikda sarg'ish. Urug'i tuklangan, qobirg'ali. Iyul oyida gullab, avgust oyida urug'lari yetiladi. Tog'oldi va tog'ning pastki qisimlaridagi qurg'oqchil joylarda o'sadi. Toshkent (Toshkent shahri atrofida), Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Gullari va mevasi yiringli yaralarga qo'yiladi. Qaynatma damlamasi zaharli ilon chaqqanda ichiladi.

Zirai karmon (*traxispermum*)-Айован столовый-*Trachyspermum ammi* (L.) Sprague.



nurli, ular bir xil emas, 10-15 mm uzunlikda, egatchali.

Soyabonchalari 10 gulli. Kosachasi kalta tishchali. Tojbarglari tashqi tomoni tuklangan. 0.7 mm uzunlikda. Urug'i keng tuxumsimon, kalta so'rg'ichli bezlar bilan qoplangan 1.5 mm uzunlikda. May oyida gullaydi. Urug'lari iyul-avgustda yetiladi. Sug'oriladigan maydonlarda, bog'larda o'sadi. Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida tarqalgan.

Gul va barglaridan tayyorlangan qaynatmasi, angina, gripp, o'pka tuberkulyozida, yo'talga qarshi qo'llaniladi.

Yirik kosachali ko'ktikan (savatchali)-Синеголовник крупночашечный-*Eryngium macrocalyx* Schrenk.



2-2,5 sm uzunlikda. Gul yonbarglari tikansimon, uch qirrali, kosachadan uzun. Kosacha tishchasi 4 mm uzunlikda. Tojbarglari 3 mm uzunlikda, keng nashtarsimon ichkariga bukilgan. Uzunligi 6 mm uzunlikda, bilinar-bilinmas qirralari, yupqa qobiq bilan o'ralgan. Iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi.

Tog'larning savanna o'simliklari qoplamida, yumshoq tuproqli, shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Namangan

Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub, bir yillik o'simlik. Ildizi silindirsimon, ingichka. Poyasi yarim egatchali, tuksiz shoxlangan, och yashil, balandligi 35-60 sm. Barglari tuksiz, ildiz oldi bandli, yaprog'i uch karra qirqilgan, ingichka nashtarsimon 5 mm uzunlikda. Soyabonlari 4-8

va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Ildizidan tayyorlangan qaynatma va damlamasi kam qonlikda, siyidik haydashda, buyrak va siyidik yo'llari xastaliklarida, teridagi turli yaralarda qo'llaniladi.

Karelina shumanniyasi-Щуманния карелина-Schumannia Karelinskii Korov. (*Ferula Karelinskii Bunge.*)



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizi tuxumsimon yo'g'onlashgan. Poyasi bittadan, bo'lingan, yarmidan yuqori qismi shoxlangan, egatchali, balandligi 25-40 sm. Shoxlari oz, ostki shoxlari navbatlashib, yuqoridagilari halqasimon joylashgan. Barglari och yashil, uch marta qirqilgan, oxirgi bo'laklari uchli, tikansimon. Soyaboni 15-29 nurli, eni 12 sm. Gullari o'troq. Tojbarglarining eni 1,5 mm. Urug'i ovalsimon, kumushrang, tuklangan, mayda qanotchalari bor, 9-12 mm uzunlikda va eni 4,5-8 mm. Mayda gullaydi, iyun-iyulda urug'i yetiladi. Toshkent, (Yettisoy) Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryoda tarqalgan.

Shirin ildizi tish va milk xastaliklarida, qo'y yog'i bilan aralashtirilib pay cho'zilganda, suyaklar singanda foydalilanadi. Ertabahorda xom ildizi iste'mol qilinadi.

Ko'xiston kavragi-Ферула кугистанская-*Ferula kuhistanica* Korov.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Monakarpik poyasi yo'g'on, balandligi 1 m. Barglari tez qurib ketadigan. Uch maratoba qirqilgan, bo'laklarini chetlari tekis. Soyaboni 25 nurli, 12 sm eni, soyabonchalari 15 gulli, yon bargchasiz. Tojbarglari sariq, qisman tuklangan. Urug'lari ikki tomondan (ost va yuqoridan) qisilgan 20 mm uzunlikda eni 11 mm. Iyun-iyulda gullab, iyul-sentabrda urug'i yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqasigacha va cho'llarning o'tloq joyolarida o'sadi. Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizi va poyasidan olingan yelimi teridagi yaralar va o'pka silida, ko'k yo'talda, gijjalarni haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Qinli arxarshair-Шренкия влагалищная-*Schrenkia Vaginata* (Labet.) Fisch. et Mey.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, mutloq tuksiz, och yashil o'simlik. Ildizi silindirsimon, yo'g'onlashgan, poyasining balanligi 30-45 sm. Ingichka egatchali, shoxlangan, ildiz oldi barglari kalta bandli, poyadagi barglari qinli, poyani yarimidan ko'proq qismini o'rav oluvchi. Soyaboni 10-20 nurli, nurlari 9 sm uzunlikda, ichkilari 2-3 marotaba qisqa. Soyabonchalari 10-15 gulli. Soyabonidagi gullarining o'rtaligida qismidagilaridan tashqari hammasi urug'laydi. Tojbaglarining uchki qismi o'yiqli, ichkariga bukilgan, 2 mm uzunlikda. Urug'i 4 mm enlilikda. Ayrim hollarda aprel oyida, asosan, mayda gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Tog'larning toshli joylarida, qoyalarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

Ildizini maydalab talqon qilib, og'iz shamollaganda, yaralanganda sepiladi.

Qum sassiqqurayi-Дорема песчаная-*Dorema sabulosum* Litv.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, ildizi sholg'omsimon yo'g'onlashgan. Poyasi yo'g'on, ildiz bo'g'zi eski barg qoldiqlari bilan o'raglan, o'rtaligida shoxlanadi. Barglari kulrang tuslangan, ildiz oldi barglari kalta bandli, uch bora qirqilgan, 12 sm uzunlikda va eni 3.5 sm poyadagilari o'troq, qin bilan poyani yarmigacha o'rav oladi. Soyaboni 8-12 nurli, navbatlashib joylashgan, uzunligi 10 mm. Kosachasi tishchasiz, tojbargi 2.5 mm uzunlikda. Urug'i ellipssimon, spiralsimon eshilgan, 15 mm uzunlikda va 9 mm enlilikda. Aprelda gullab, may oyida urug'lari yetiladi. Qumli

cho'llarning mustahkamlangan barhanlarida o'sadi. Qoraqalpog'istonda ham tarqalgan.

Ajralgan yelimi siydk haydovchi va yuqori nafas yo'llari xastaligida balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Lemannii sabzisi-Пустынноморковник Леманна-*Eremodaucus lehmannii* Bunge.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasi yumaloq, ingichka egatchali, o'rta qismidan shoxlanuvchi o'simlik. Barglari mutlaqo tuksiz, bo'laklarga bo'lingan, barglarini bo'laklari 2-3 sm uzunlikda. Soyaboni 10-15 nurli. Nurlari turli uzunlikda, tashqilari 4 sm uzunlkda, markazdagilari 5 mm uzunlikda. Soyaboni ko'p gulli. Tojibarglari teskari yuraksimon, to'g'ri gullari o'rtadagilariga nisbatan yirikroq 4 mm uzunlikda. Urug'lari yumaloq 4-4,5 mm enlilikda. May oyida gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Gil tuproqli tepaliklarda, tog' oldi hududlarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'on'a, Andijon, Qashqadaryo, Surondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildiz mevasidan olingen karotinoidlarning yog'idagi eritmasi ekzema, qiyin bitadigan yarali teri kasalliklarini, yiringli yara, kuygan, sovuq urgan yerlarni hamda burun va tomoq shilliq pardasi zararlanishini davolash uchun ishlatiladi.

Lentabargli buplerum-Вододушка линейнолистная-*Bupleurum Linearifolium* DC. (*B.falcatum* L.)



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ko'p poyali, ingichka, to'g'ri, qirrasi egatchali, supurgisimon shoxlangan, balandligi 50-90 sm. Barglari mevasiz shoxlarini uchida joylashgan, 2-2,5 mm, uzunchoq ignasimon. Soyaboni 3-5-7 nurli, 5-10-30 mm uzunlikda. Soyabonchalari 5-10 gulli. Gullarining bandi kalta. Urug'lari uzunchoq slindrsimon 4,5 mm uzunlikda, to'mtoq yoki o'tkir qobiqli. Iyun-iyul oylarida gullab,

iyul–avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘larning butazorlaridagi toshli joylarida o‘sadi. Toshkent, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yangi terilgan va qurutilgan o’simlik yaralarni tozalovchi va tez bitiruvchi sifatida ishlataladi. Ildiz damlamasi bezgakka qarshi eng yaxshi vosita sifatida e’zozlanadi.

Mayda qirqilgan kovrak (chair)-Ферула тонкорассеченная-*Ferula tenuisecta* Korov.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar)

Apiaceae oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Monokarpik, ko‘p poyali, poyasini balandligi 80-110 sm, poyani yarmidan gullar hosil qilib, umumiy ko‘rinishi supurgisimon to‘p, soyabon gullarga ega. Ildiz oldi barglari bandli, ularni uzunligi 15-25 sm, yaproqlari uchbora mayda

qirqimlarga ega. Oxirgi mayda qirqimli barglari ipsimon, uchi uchli, 2-5 mm uzunlikda. Poyadagi barglari qinli o’troq. Soyabonlari turlicha bo‘lib, 8-15 nurli, ostki 1-5 navbatlashib joylashadi, qolganlari halqasimon joylashgan. Soyabonchalar 10-12 gulli. Tojbarglari sariq, oval shaklda, 1-1,2 mm uzunlikda. Urug‘lari yuqori va ost qisimdan qisilgan, uzunligi 10-11 mm va eni 5-6 mm. May-iyunda gullab, iyul–avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning mayda shag‘alli va tuproqli qismlarida, tog‘ni 2700 m bo‘lgan balandliklarida o‘sadi. Toshkent, Namangan viloyatida tarqalgan.

O’simlikning ildizi va yer ustki qismidan olingan shirasi estrogen sifatida ishlataladi.

Oddiy arpabodiyon-Анис обыкновенный-*Anisum vulgare* Gaertn (*Pimpinella anisum* L.)



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub bir yillik o’simlik. Poyasi qisman qirrali, balandligi 20-50 sm. Ildiz bo‘g‘zidagi barglari uzun tutqichli, yuqori barglari poyaga qinli birikkan, o’troq. Soyabonlari 7-15 nurli, ularning umumiy eni 2,5-6 sm, yon bargchalari

yo‘q. Tojbarglari oq, 1,5 mm uzunlikda, chetlari kipriksimon. Urug‘lari yuraksimon-tuxumsimon, uzunligi 3-5 mm. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda mevasi va efir moyi ishlataladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog‘, oqsil moddalar bor. Efir moyi ko‘p miqdorda anetol, anis aldegid, anis kislotasi birikmalardan tarkib topgan. Mevasi va efir moyi balg‘am ko‘chiruvchi (bronxit, laringit, ko‘k yo‘tal, nafas olish yo‘llarining yallig‘lanish kasalliklarida), ichak faoliyatini kuchaytiruvchi, yel haydovchi va surgi vosita sifatida qo‘llaniladi. Mevasi ich yumshatuvchi va ko‘krak og‘rig‘iga qarshi ishlataladigan choylar, shuningdek efir moyi navshadil-arpabodiyon tomchisi va ko‘krak eleksir tarkibiga kiradi. Efir moyi yana farmatsevtika amaliyotida yoqimsiz ta‘mli dori shakllari mazasini yaxshilash uchun ishlataladi.

Oddiy qora zira-Тмин обыкновенный-Carum carvi L.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) –

Apiaceae oilasiga mansub ikki yillik, o‘q ildizli, bittadan poyaga ega, balandligi 40-60 sm o‘simlik. Barglari tuksiz, yaproqlari 6-8 juft o‘troq. Ikki bora qirqilgan, oxirgi qirqim qismlari 3-4 mm uzunlikda. Soyabonlari yon bargsiz, 5-11 nurli ichki nurlar tashqaridagisidan kalta. Soyabonchalari 20 gulli. Tojbarglari oq,

ayrim hollarda pushti rangda, 1,6-2 mm uzunlikda. Urug‘lari tuxumsimon 3 mm uzunlikda. Iyunda gullab, iyulda urug‘lari yetiladi. Tog‘ning o‘rta mintaqalarida mayin tuproqli, tosh-shag‘alli joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Organizmni quvvatlantiruvchi, oshqozon yallig‘lanishida, ishtahani ochuvchi, sut bezlarining ish faoliyatini yaxshilashda, raxitni davolashda va siyidik haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Oddiy petrushka-Петрушка обыкновенная-*Petroselinum crispum* (Mill) Nym.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar)
Apiaceae oilasiga mansub bir yoki ikki yillik o't o'simlik. Poyalari va barglari ham tuksiz yashil rangda, balandligi 10-80 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari bandli, poyadagilari o'troq. Yaproqlari ikki bora qirqilgan va chetlari oz-moz tishchali, qirqilgan. Soyaboni 20-(30) nurli, nurlari 2,5 sm uzunlikda. Soyabonchalari 20 tadan gullarga ega. Gullarining tojbarglari 0,5 mm uzunlikda va yuqori qismi o'yiqli. Urug'i tuyumsimon, 2 mm uzunlikda. Iyulda gullab, avgustda urug'lari yetiladi. Barcha viloyatlarda xonadonlarda va farmatsevtika uchun ekiladi.

Meva damlamasi siydik haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Ular buyrak, qovuq va siydik yo'llarida tosh bo'lganda, istisqo kabi kasalliklarda siydik haydovchi vosita sifatida ichiladi.

Sariq zira-Тминовый-*Cumin cyminum L.*



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar)
Apiaceae oilasiga mansub bir yoki ikki yillik, balandligi 10-50 sm, shoxlanuvchan, tuksiz o'simlik. Barglari uch bora qirqilgan, ingichka bo'lakchali, oxirgi bo'lakchalari 1-3 mm uzunlikda va eni 0,3 mm, soyaboni 3-5 ta, tuksiz nurdan iborat. Tojbargi uzunchoq, chuqur kertikli, ichkari tomonga bukilgan. Ustunchasi kalta, tashqariga bukilgan. Urug'i uzunchoq, 6 mm uzunlikda va eni 1.5 mm. Aprelda gullab, may oyida urug'lari yetiladi. Qizilqum cho'llarida o'sishi kuzatilgan.

Xalq tabobatida sariq ziraning mevasi o't va siydik haydovchi dori sifatida buyrak, jigar va o't qopi hamda nafas yo'llari kasalligini, yaralarni, davolash uchun qorin dam bo'lganida yel haydovchi sifatida ilmiy tibbiyotda ham qo'llaniladi.

Sassiq kovrak (shair)-Ферула вонючая-*Ferula foetida* (Bunge)
Regel.



A photograph of a flowering plant, likely a member of the Apiaceae family, showing dense clusters of small yellow flowers.

Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, monakarpik, poyasi yo‘g‘on, 80-120 sm balandlikka ega o‘simgilik. Poyasi kam hollarda 2 ta, asosan 1 tadan, poyaning yarmidan soyabonlari hosil bo‘ladi. Barglari ildiz bo‘g‘zidagisi qisqa bandli, uch karra qirqilgan, mayni o‘rtalarida qurib ketadi. Poyadagi barglari plynkasimon, yupqa qinli o‘troq. Soyabonlari 25 nurli, tashqi tomondagilarining uzunligi 15-20 sm va yon soyabonlari 3-6 ta. Soyabonchalari 15 gulli, yon bargsiz. Tojbarglari yorqin sariq 3,5 mm uzunlikda va eni 12-16 mm. Mart-aprelda gullab, aprel-mayda urug‘lari yetiladi. Asosan tog‘ oldi va cho‘l hududlarida, loy tuproqli joylarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qashqdaryo, Surxondaryo va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Ildizidan olingan yelimi tomir tortishishda, o'pka silida, o'lat, zaxm, ko'k yo'tal, tish og'rig'ida va quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi, gjijalarни haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Soxta kovrak (lambuta)-Ферула ложнореоселиновая-Ferula pseudoreoselinum (Regel et Schmalh) K.Pol.

Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, ildizi yo‘g‘on, bo‘g‘zi eski barglari bilan o‘ralgan. Poyasi asosan bittadan, 2-3 metr balandlikda, slindrsimon, barglari yo‘q. Yuqori qismidan shoxlanadi. Barglar yumaloq, tezda ayni gullah paytida qurib ketadi. Yaprogi 3 bora qirqilgan va oxirgi bo‘laklari 2 bora qirqilgan bo‘lib, uzunligi 3-5 sm, eni 1-4 sm. Soyaboni 8-20 nurli eni 6 sm, yon soyaboni 2 tadan. Soyabonchasi 15 gulli. Tojbarglari sariq, uzunchoq ellipssimon, 1-2 mm uzunlikda. Urug‘i ellipssimon 7-9 mm uzunlikda va eni 4,5-6 mm. Iyunda gullab, iyulda urug‘i yetiladi. Tog‘larning o‘rta qismidagi yong‘oqzorlar, archazorlar va butazorlarda o‘sadi. Toshkent, Namangan viloyatlarida tarqalgan. Tibbiyotda ildizi va ildiz yelimining smolasi ishlatiladi. Kovrakning yelimi, smolasi tabobatda tomir tortishishi, o‘pka sili, o‘lat, zaxm, ko‘kyo‘tal, tish og‘rig‘i, asab

kasalliklarini davolash uchun hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

Sunbul kovrak-Ферула мускусная-Ferula Sumbul (Kauffm.) Hook. (*F. moschata* K. Pol.)

Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Yo'g'on, ko'p o'zakli, eski barg qoldiqlari bilan o'zaklari o'ralgan. Poyasi bir nechta, yoshligida bir oz tukli, so'ngra yo'qolib ketadi, balandligi 50 sm, yuqori qismi shoxlangan. Barglari dag'al, ildiz bo'g'zidagilari uzun bandli, yaprog'i uchburchak, rombik shaklda, uch marotaba mayda qirqilgan, 20-30 mm uzunlikda, va eni 10-15 mm uzunlikda, oxirgi qirqim bo'laklari butun. Soyaboni 6-10 nurli, eni 4-6 sm. Soyabonchali 10-15 gulli. Gullari sariq, kosachasi tishchasisiz. Tojibargi 0,7 mm uzunlikda. Urug'i 7 mm uzunlikda. Iyunda gullab, urug'lari iyulda yetiladi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Yelimi tomir tortishishi, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k yo'talda qo'llaniladi.

Xashakbop shashir (yugon, tulkiquyruq)-Прангос кормовой- *Prangos pabularia* Lindl.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizi yo'g'on, slindrsimon, bo'g'zi yo'g'onlashgan, eski barg qoldiqlari bilan o'ralgan. Poyalari bir nechta, balandligi 1 mm, qirrali, egatchali, yuqori qismidan qalqonsimon shoxlangan, shoxlari qarama-qarshi, yuqorisi halqasimon joylashgan. Barglari ildiz oldidagisi uzun bandli, poyadagilari o'troq. Yaprog'in uzunligi 40 sm, 4-5 marotaba qirqilgan, oxirgi qirqimlarini uzunligi 15-20 mm. Soyaboni 10-20 nurli, nurlarining uzunligi 4-6 sm, soyabonchasi 15-20 gulli. Erkak gullari o'rta qismda, urg'ochilar chetki soyabonlarda joylashgan. Tojbarglari sariq, chetlari tuxumsimon, 1,4 mm uzunlikda. Urug'lari uzunchoq silindrsimon 12-15 mm uzunlikda, chetki qismida uzunasiga ketgan qobirg'ali. May-iyun oylarida gullaydi, iyun-iyul oylarida urug'lari yetiladi. Tuproqli va tuproqli toshli joylarda tog'larning o'rta

qismida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida ildizi (ba'zan boshqa qismlari ko'p) ishlatiladi. Tarkibida esfir moyi, smolalar, alkaloidlar, kumarinlar, oshlovchi moddalar bor. Kumarinlar yig'ndisidan ostxol kumarin, prangenin, ksantotoksol furokumarinlar ajratib olingan. Ildiz qaynatmasi bilan damlamasi qo'tirni davolash uchun qo'llaniladi. Ildizning smolasi xasharotlar va kanalarni o'ldiradigan ta'sirga ega ekanligi aniqlangan. O'simlikning ildizi bilan mevasi furokumarinli preparatlar olish manbai sifatida tavsiya etilgan.

Xushbo'y qarafs-Сельдерей пахучий-*Apium graveolens* L.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, poyasi chuqur qirrali, balandligi 50 sm. O'rta qismidan shoxlanadi. Ildiz bo'g'zidagi barglari uzun bandli, qovirg'alarli bor. Soyabonlari barglarga qarshi tomonda joylashgan. Soyabonidagi gullari 8-14 tadan. Kosachasi tishchasisiz.

Tojibarglari yashil-oq, 0,4 mm uzunlikda. Urug'i sharsimon 1,2 mm uzunlikda. Iyulda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Ariqlar bo'yida, tog' oldi tumanlarida, soylar o'zanida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan olingen shirasi kuchli siydiq haydovchi sifatida qo'llaniladi. O'simlik shirasi buyrakdagagi toshlarni tushurishda ham qo'llaniladi. O'simlikning yer ustki qismining qaynatmasi qandli diabet xastaligining yengil formalarida qaynatmasi qo'llaniladi.

Xushbo'y shivit-Укроп пахучий-*Anethum graveolens* L.



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) - *Apiaceae* oilasiga mansub bir yillik, o'q ildizli o'simlik. Poyasi yuqori qismidan shoxlanadi, barglari va poyasi ham och yashil. Barglari tuksiz, ostki tomondagilari bandli, pastagilari o'troq, ikki bora asosgacha qirqilgan.

Soyabonlaridagi gullar 10-15 nurlarga ega bo'lgan to'plamdan iborat. Ikkilamchi soyabonlari 15 gulli, yon bargchalari yo'q. Tojbarglari 0,8 mm uzunlikda, oq rangda. Aprelda gullaydi, mayning oxirida urug'lari yetiladi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda mevasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, yog', kumarinlar, flavonoid moddalar bor. Efir moyi asosan karvon, apiol, limonen, terpenoidlardan tashkil topgan. Dori preparatlari qorin bo'shilg'i a'zolari spazmasida, surunkali spastik kolitda, surunkali yurak-tomir ishi yetishmovchiligidagi hamda yurak kasalligini oldini olish uchun qo'llaniladi.

Shair kovrak-Ферула шаир-*Ferula Varia* (Schrenk) Trantv.(F. Schair Boz.)



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, monokarpik o'simlik, poyasi bittadan, o'rtacha yo'g'onlikda, balandligi 1 m, yuqori qismidan shoxlangan, umumiy ko'rinish sharsimon. Barglari yumshoq, tezda qurib ketadi, tuksiz, ildiz oldi barglari uzun bandli, yaprog'i 40-2,5 mm uzunlikda va enlilikda. Soyaboni 10-15 (25) nurli, eni 8-12 sm. Soyabonchasi 13-18 gulli.

Kosachasi tishchasiz. Tojibarglari sariq, uzunchoq, yuqori qismi biroz uchkirlashgan. Urug'i qo'ng'ir, yassi 8-10 uzunlikda, 4,5-6 mm va enlilikda. May oyida gullab, iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Cho'llarda va qoldiq tog' tepaliklarida o'sadi. Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Yosh novdalari tuyilib qatiqqa qorib xavfli shishlar va zaxmga davo qilinadi. Shuningdek, o'pka sili, tish og'rig'i, asab xastaliklari, organizmni quvvatlantiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Ekma kashnich-Кишнеч посевной (Кориандр)-*Coriandrum sativum L.*



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб бир йиллик, тұксız, yashil o't o'simlik. Poyasi egatchali, shoxlangan, yuqori qismigacha barglar joylashgan. Barglari ko'p bora bo'laklarga bo'lingan, 5 mm uzunlikda va eni 0,5 -1 mm. Soyaboni 4-5 nurli, yonbargchasisiz, nurlari 2 sm uzunlikda. Soyabonchalari 10-15 nurli, har ikkala jinsli gullar aralash joylashgan. Tojibarglari urg'ochi jinsli gullari 0,7 mm uzundikda, chetki gullari 4 mm uzunlikda. Iyun-iyul oyalarida gullab, iyul-avgust oyida urug'i yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarda ekiladi.

Tibbiyotda mevasi va uning efir moyi ishlatiladi. Mevasi tarkibida efir moyi, yog', oqsil moddalar bor. Mevasi va efir moyi o't haydash, og'riq qoldirish va antiseptik ta'sirga ega; ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Mevasi damlamasi va dori preparatlari kukuni ishtaha ochadigan, ovqat hazm qilishni yaxshilaydigan va o't haydaydigan vosita sifatida hamda bavosil kasalligi va yaralarni davolashda qo'llaniladi. Efir moyi antiseptik, og'riq qoldiruvchi, o't haydovchi vosita o'rnda va bavosil kasalligida ishlatiladi. Kashnichning spirtli suvi va efir moyi ba'zi suyuq dori shakllarining ta'mini yaxshilash uchun ularga qo'shiladi.

Ekma pasternak-Пастернак огородный-*Pastinaca sativa L.*



Ziradoshlar (Soyabonguldoshlar) – *Apiaceae* oиласига мансуб ikki yillik o'simlik. Poyasining balandligi 80-100 sm, tik o'suvchi, qirrali egatchali, tuksiz, yuqori qismi qalqonsimon shoxlangan. Barglari bandli, siyrak tuklangan, 9 tacha bo'laklarga bo'lingan, chetlari tishchali, 5 sm uzunlikda. Soyaboni 8-35 nurli, yonbargchasisiz, 6 sm uzunlikda. Soyabonchalari 15-25 gulli, erkak gullari markazida, qisqa bandli, chetlarda ikki jinsli gullar joylashgan, tojibarglari doirasimon, yuqori qismi ingichkalashgan

0,6 mm uzunlikda. Urug'i ellipssimon yassi, sarg'ish-yashil, 6-7 mm uzunlikda va eni 4-5 mm. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'i yetiladi O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

O'simlikdan olingan "Beroksan", "Pastinatsin" pereparatlari teridagi pes va oq dog'larni davolashga, sochlarni uyali to'kilishiga qarshi tavsiya etilgan. Bundan tashqari, buyrak va oshqozon ichak xastaliklarida ham qo'llaniladi.

Qoramajron daraxt-Бузина черная-Sambucus nigra L.



Marjondaraxtdoshlar – *Sambucaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 4,5 m bo'lgan buta. Barglari 25-30 sm uzunlikda va eni 6 sm, bandli yaproqlari 5-7 tadan bo'lib, 12 sm uzunlikda va eni 6 sm uzunlikda, tuxumsimon va ellipssimon, chetlari arrasimon tishchali. Gullari yuqori qismida qalqonsimon to'pgul hosil qiladi, diametri 10-20 sm, hushbo'y hidli. Gullari o'troq yoki 7-10 mm uzunlikdagi gultutqichli, kosachasining tishchalari uchburghakli. Tojibarglari qo'ng'iroq, 5-8 diametrda. Mevasi sharsimon, 5-8 mm uzunlikda, binafsha-qora, yaltiroq, Urug'i qo'ng'ir. May-iyunda gullab, iyul-sentabrdaga mevalari yetiladi.

Manzarali o'simlik sifatida xiyobonlarda, shahar ko'chalarida ekiladi. Gullaridan tayyorlangan damlamasini ter haydovchi, shamollahsga va bezgakka qarshi qo'llaniladi.

Oddiy bodrezak-Калина обыкновенная-Viburnum opulus L.



Chingizdoshlar (Bodrezakdoshlar) – *Viburnaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi 2 m bo'lgan buta. Barglari keng tuxumsimon 5-10 sm uzunlikda, 3-5 panjasimon bo'laklarga bo'lingan, to'q-yashil. Gul to'plami sharsimon bo'lib, yosh novdalar uchida hosil bo'ladi, diametri 5-10 sm. Gul tutqichlari va to'pgul nurlari tuksiz, ammo bezchalar bilan qoplangan. Gullari oq diametri 2 sm. Tugunchasi silindrsimon, mevasi sharsimon 8-10 mm uzunlikda, ochiq qizil rangda. Aprel-may oylarida

gullaydi, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi. Manzarali o'simlik sifatida barcha viloyatlarda ekiladi.

Tibbiyotda po'stlog'i, mevasi ishlataladi. Mevasida ko'p miqdorda qand bo'ladi. Dori preparatlari (po'stloqning qaynatma va suyuq ekstrakti) bachadondan qon ketishini to'xtatish hamda hayz ko'rganda yuzaga keladigan og'riqni qoldirish uchun qo'llaniladi. Mevasi vitaminli choylar-yig'malar tarkibiga kiradi. Avitaminoz kasalliklarini davolashda hamda ularning oldini olishda ishlataladi.

Qirqilgan to'ng'iztarroq-Ворсянка разрезная-*Dipsacus laciniatus* L.



To'ng'iztarroqdoshlar – *Dipsacaceae* oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyasi qirrali, tik o'suvchi, egatchali, yuqori qismidan shoxlanuvchi, pastga qaragan tikanli, balandligi 100-250 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari qisqa bandli, panjasimon qirqilgan, ikki tomoni siyrak tuklangan. Savatchalari uzun tuxumsimon 5-8 sm uzunlikda. yon barglari tikansimon nashtarsimon tikanlar bilan qoplangan. Tojbarglari ochiq pushti, oqish, naychasining uzunligi 13 mm uzunlikda. Changchilar tojibarglardan tashqariga egilib chiqib turadi va uning uzunligi 5 mm. Urug'lari 4 qirrali 8 ta egatchali, 5 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning pastki va o'rta mintaqalaridagi butalar ekinzorlarda, tashlandiq joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

O'tkir revmatizmda gul savatchalarini qaynatma damlamasidan qaynoq holda 2-3 piyola ichiladi. Terlatadi, shuning uchun qalin kiyinish kerak. Shundan so'ng o'zini yaxshi xis qiladi.

Bo'yoq dor ro'yan-Марена красильная-*Rubia tinctorum* L.



Ro'yandoshlar – *Rubiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi to'rt qirrali, bo'g'imlari tuklangan, balandligi 50-100 sm. To'pgullari siyrak supurgisimon. Barglari halqasimon 4-6 tadan joylashgan. Tuxumsimon nashtarsimon. Gullari shoxlar qo'ltig'ida, yarim

soyabonsimon tekis guli tutqichli. Tojbarglari sarg'ish-yashil, diametri 1-1,5 mm va uzunligi 1,5-2 mm. Urug'i qora, yumaloq, 5-6 mm uzunlikda va eni 5 mm. Iyun oyida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Arik va soylar bo'yida, bog'larda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizpoyasi bilan ildizining dori preparatlari-kukuni va quruq ekstrakti, qaynatmasi siyidik haydovchi, antiseptik va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida, siyidik yo'llari, buyrak hamda o't pufagining tosh kasalliklarida hamda podagra kasalligida qo'llaniladi.

Yopishqoq qumrio't (chakamug')-Подмаренник цепкий-Galium Aparine L.



Ro'yandoshlar – *Rubiaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi aniq 4 qirrali, balandligi 30-100 sm, bo'g'lnlari yo'g'onlashgan va tuklangan, pastga qaragan tikanli. Barglari halqasimon 6-8 tadan joylashgan, 2,5-6 sm uzunlikda va eni 3-6 mm. Tojbarglari yashil-oq, juda mayda tugunchasidan 2-2,5 marotaba kalta. Urug'i 4-5 mm uzunlikda va eni 3-4 mm, to'q-qo'ng'ir rangda va tikansimon tuklar bilan qoplangan. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Nam, toshli daryo o'zanlarida, to'qaylarda, daralarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning yer ustki qismidan qon ketishini to'xtatishda va burishtiruvchi xususiyatlaridan foydalilaniladi.

Pomir-Oloy qumri o'ti-Подмаренник памиро алайский-Galium pamira-alaicum Pobed.

Ro'yandoshlar – *Rubiaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyalari ko'p sonli, balandligi 20-80 sm, aniq bo'lingan 4 qirrali. Gul to'plami siyrak supurgisimon. Barglari 6-8 tadan halqasimon joylashgan, nashtarsimon, 2,5-5(6) sm uzunlikda (poyani o'rta qismida). Gullari barg qo'ltiqlarida yarim soyabonsimon joylashgan. Tojbargi



sariq, tuksiz. Urug'lari qo'ng'ir, 1,8-2 mm uzunlikda, tuksiz. May-iyunda gullab, iyul-avgustda urug'i yetiladi. Asosan, archazorlarda, tog'oldi hududlarda, o'tloqlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizi va ildizpoyasining qaynatmasi buyrak va siyidik yo'llari xastaliklarida, yer ustki qismi yara, chipqon, jarohatlar va teridagi toshmalarni davolashda qo'llaniladi.

Olive gazak o'ti (yer bahosi)-Горечавка оливье-*Gentiana olivieri* Griseb.



Gazako'tdoshlar – *Gentianaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, ildiz poyasi chilvirsimon ko'p sonli ildizlarga ega o'simlik. Poyasi bir nechta, 10-30-(40) sm balandlikda, tuksiz asos qismi eski barglar qoldig'i bilan o'rالgan. Barglari ikki tomoni ham tuksiz, uzunchoq nashtarsimon. Gullari poyani uchki qismida soyabonsimon, to'pgullar soni 3-6

ta. Kosachasi qisman qo'ng'iroqqa o'xshash 10-13 (15) mm uzunlikda. Tojbarglari o'roqsimon, ochiq- binafsha, ko'k yoki och ko'k ranglarda, ayrim hollarda oq, 2-3 sm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug'i yetiladi. Tog'larning o'rta va old qismlarida, quruq shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Andijon va Farg'ona viloyatlarida tarqalgan.

Ildizi tarkibida achchiq glikozidlar (gensiopikrin), alkaloidlar, flavonoidlar, trisaxaroza moddalar bor. Ildizining qaynatmasi va quyuq ekstrakti ishtaha ochish va ovqat hazm bo'lishini yaxshilash uchun hamda o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Chiroli tillabosh-Золототысячник красивый-Centaurium pulchellum (sw.) Druce. (*Erythraea ranosissima* Pers.)



Gazako'tdoshlar

Gentianaceae

oиласига мансуб бир йиллик о'симлиқ. Пояси биттадан, баландлиги (5-10-30 см), то'рт qirrali, о'рта qismidan shoxlangan. Barglari yashil, ikki tomoni ham tuksiz. Gullari ko'p sonli to'pgullarni hosil qiladi. Kosachasi ingichka silindrsimon. Gullari 12-15 mm uzunlikda, pushti rangli. Ko'sagi 9-12 mm uzunlikda.

Iyun-iyulda gullab, avgustda urug'lari yetiladi. Nam joylarda, ariq va soylar qirg'og'ida, cho'llardan to tog'larning o'rta mintaqasigacha bo'lgan hududlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismi tarkibida alkaloidlar (gensianin), achchiq glikozidlar, flavonoidlar, fenolkarbon kislotalar, vitamin C moddalari bor. Damlamasи ishtaha ochish va ovqat hazm qilishni yaxshilash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi, ishtaha ochadigan achchiq nastoyka va ishtaha ochuvchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

**Dag'al kanop (kendir)-Кендырь шероховатый-Apocynum seabrum
Russian. (*Trachomitum scabrum*. (Russian.) Robed.)**



Kendirdoshlar – *Apocynaceae* oиласига мансуб Ko'p yillik о'симлиқ. Poyasining balandligi 1-1,5-6 m. Tik o'suvchi, shoxlangan. Barglari kalta bandli, qaramaqarshi joylashgan, ayrim hollarda aralash, lentasimon, nashtarsimon, 3-8 sm uzunlikda va eni 0,4-2 sm, chetlari tishchali. Gullari poyaning uchida, kam gulli, qalqonsimon to'pgul hosil qiladi. Kosachasi 2 mm uzunlikda, kalta, qalin tuklangan. Tojibarglari pushti, 5-6 mm uzunlikda. Urug'i qo'ng'ir rangda, uzunchoqroq, 3 mm uzunlikda. May-oktabr oylarida gullab urug'laydi. Daryolarning bo'ylaridagi daraxtzorlar va butazorli to'qaylarda, tog'larni 2000 m bo'lgan balandlikdagi soylar, buloqlar atrofidagi toshli

shag'alli joylarda o'sadi. Samarqand, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan. Tabobatda urug'idan ajratib olingen yog'lari yaxshi ta'sir etuvchi siyidik haydash xususiyatiga ega. Bundan tashqari, solyotirlarni haydashda ham qo'llaniladi.

Katta bo'rigul-Барвинок большой-*Vinca major L.*



Kendirdoshlar – *Apocynaceae* oиласига mansub ko'п yillik, poyasi yer bag'irlab o'suvchi, doimo yashil o'simlik. Barglari etli, kalta bandli, tuxumsimon uzunligi 4-8 sm va eni 2-5 sm. Gul bandlari barglaridan qisqa. Kosachasi gultojbarglari bilan teng. Tojbarglari to'q favorang, uzunligi 25-37 mm va diametri 30-50 mm, parraksimon qismi 15-25 mm uzunlikda, va eni 10-18 mm, tojbarg karnayi 10-12 mm uzunlikda. Urug'i 10-12 mm uzunlikda, qo'ng'ir rangli egatchali. May-avgust oylarida gullaydi va urug'laydi. Shaharlarni, xiyobonlarni va gazonlarni bezash uchun ekiladi. Qon bosimi ortganda va miya tomirlari siqilishi kasalliklarida qo'llaniladi.

Tik o'suvchi bo'rigul-Барвинок прямостоячий-*Vinca erecta Regel et Schmalh.*



Kendirdoshlar – *Apocynaceae* oиласига mansub ko'п yillik, ildiz poyali, ko'п sonli poyalar hosil qiluvchi, balandligi 15-40 sm. Barglari poyada zich joylashgan o'troq, chetlari tekis, uzunligi 1-2 sm va eni 7 mm tuxumsimon, 2,5-5,5 sm uzunlikda va eni 1,2-3 sm uchi uchkurroq. Gullari bittadan, barg qo'ltig'idan hosil bo'ladi. Gul tutqichi 1,5-3 sm tojbarglari 2-2,5 sm uzunlikda och ko'kish rangda. Urug'lari 2-5 tadan bo'lib uzunligi 12-15 mm o'rta qismida chuqur egatchasi bor. May-avgust oylarida gullab urug'laydi. Tog'larni toshli shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning yer ustki qismlari tarkibida alkaloidlar borligi va ular qon bosimini pasaytirish ta'siriga ega ekanligi aniqlangan. Bu o'simliklarning alkaloidlarini tibbiyotda ishlatishga tavsiya etilgan.

Butasimon gomfokarpus-Гомфокарпус кустарниковый- *Gomphocarpus fruticosus* (L.) Alt. fil.



Sutpechakdoshlar - *Asclepiadaceae*
oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, чала бута о‘симлик. Пояси 40-60 см, тик о‘сувчи, бaxmalsimon tuklangan, kam shoxlangan. Barglari 6-10 sm uzunlikda va eni 3-8 mm, har ikki tomoni qalin kalta tuklar bilan qoplangan, uzunchoq-nashtarsimon, bandi 5 mm uzunlikda. Gullari 4-5 tadan soyobonga to‘plangan, ular yuqori poya

barglar qo‘ltig‘ida joylashgan. Kosachasi uzun nashtarsimon 3,5 mm uzunlikda. Tojbarglari oq, 7-8 mm uzunlikda va eni 4 mm. Urug‘lari 4 mm uzunlikda, kalta burmalarga ega, ipaksimon tuklari bor. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘laydi.

Farg‘ona viloyatida ariqlar bo‘yida yovvoyi holda o‘sadi. Yurak qisqarishini kuchaytiradi va yurak ritimni pasaytiradi.

Yunon peripolkasi-Обвойник греческий-*Periploca graeca* L.



Sutpechakdoshlar - *Asclepiadaceae*
oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, ilashib o‘suvchi hamda uzun shoxlanuvchi buta. Barglari tuksiz qisqa bandli tuxumsimon 6-10 sm uzunlikda va eni 2,5-6,5 sm to‘mtoq yoki o‘tkir. Poyani uchida 4-5 ta gullari yarim soyabonsimon to‘pgul hosil qiladi. Kosachasi keng tuxumsimon. Tojbarglari qo‘ng‘ir-yashil 1,5-2,2 sm diametrda.

Urug‘lari urchuqsimon, qizg‘ish-qo‘ng‘ir 11 mm uzunlikda. Aprel-avgust oylarida gullab urug‘laydi. Istirohat bog‘larida manzarali o‘simlik sifatida ekiladi. Tibbiyotda po‘stlog‘i ishlatiladi. Po‘stloq

surtmasi (nastoykasi) yurak kasalliklari qon aylanishining 2 va 3-darajali buzilishlarini davolash uchun qo'llaniladi.

Daryo shumtoli (shung shum)-Ясень речной-*Fraxinus potamophila* Herd. (*F.sogdiana* (Bunge) Vassil.)



Zaytundoshlar – *Oleaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, balandligi 25-30 m bo‘lgan daraxt. Shoxlari qizg‘ish yoki kulrang. Vegetativ shoxlardagi barglari navbatlashib, generativ shoxlarida esa halqasimon joylashgan. Uchtadan 7-11-13 yaproqli, 2,5-8 sm uzunlikda va eni 1-3,5 sm. Kosacha va tojibarglari yo‘q. Qanotchasi turli shaklda 3-4 sm

uzunlikda va eni 3-4 mm. Mart-aprelda gullab, sentabr-oktabr oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ daryolarining bo‘yida kichik o‘rmonlar hosil qilib o‘sadi. Toshkent, Samarcand, Surxondaryo viloyatlarida kam bo‘lsa-da, madaniy holda ham ekiladi.

Urug‘lari va guli ichburug‘da qo’llaniladi, farzandsizlikda ham qo’llaniladi. Asal bilan aralashtirib istemol qilinsa qo‘zg‘atish xususiyatini beradi.

Qora shumtol-Ясень обыкновенный-*Fraxinus excelsior* L.



Zaytundoshlar – *Oleaceae* oиласига mansub ko‘p ko‘p yillik, 25-30 m balandlikdagi daraxt. Barglari 9-13 bargchali, ular kalta band bilan to‘tashgan, 6-10 sm uzunlikda va 1,5-3 sm enilikda, chetlari kemirilganga o‘xhash tishchali. Kosachasi yo‘q. Urug‘ qanotchaları uzunchoq 1,5-2 sm uzunlikda va eni 0,4-0,5 sm. Mart-aprel oylarida gullab, sentabr-oktabr oylarida urug‘i yetiladi. O‘zbekistonning hamma viloyatlarida ekiladi.

O‘simlikdan tayyorlangan damlama bachadondan qon ketishiga qarshi ishlatiladi.

Oddiy sireniya-Сирень обыкновенная-*Syringa vulgaris* L.



Zaytundoshlar – *Oleaceae* oиласига mansub ко‘п ко‘п yillik, balandligi 3-6 m buta o‘simlik. Barglari tekis, chetli, qarama-qarshi joylashgan, bandlari 1,5-2 sm uzunlikda, yaprog‘i yuraksimon, 8-10 sm uzunlikda va eni 3-5 sm, tuksiz, ikki tomoni ham yashil. Kosachasi kalta qong‘iroqsimon, 4 ta teng bo‘limgan tishchali, tojbarglari silindrsimon, 4 yaproqli oq, pushti, to‘q ko‘kish. Ko‘sakchasi tekis 1,5 sm uzunlikda. Aprelda gullaydi, urug‘lari iyunda yetiladi. Manzarali o‘simlik sifatida shaharda, xo‘jaliklarda keng miqiyosda ekiladi. Bargidan tayyorlangan qaynatmasi bezgak xastaligida qo‘llaniladi.

Binafsharang bangidevona-Дурман фиолетовый-*Datura tatula* L.



Ituzumdoslar – *Solanaceae* oиласига mansub bir yillik, ko‘p shoxlangan, barglari chuqr bo‘lingan, tojbarglari ko‘kish, ko‘kish-qizg‘ish ranglarda va ko‘sagi bir tekisda tikanlar bilan qoplanganligi, gullarini katta-kichikligi va oddiyligi bilan bangidevonaga o‘xshash o‘simlik.

O‘zbekistonda yovvoyi holda uchratilmagan. Toshkent botanika bog‘ida, Farg‘ona Davlat universitetini bog‘ida uchraganligi aniqlangan.

Bargi nafas qisishi, og‘ir yo‘tal, bronxial astma va nafas olish yo‘llarining boshqa kasalliklarida chekiladigan astmatol va astmatin sigaretalari tarkibiga kiradi.

Bir yillik qalampir (Garimdori)-Перец однолетний-*Capsicum annuum* L.



Ituzumdoslar – *Solanaceae* oиласига mansub bir yillik, poyasi tik o‘suvchi, tuksiz, balandligi 70-90 sm, o‘rtta qismidan shoxlanuvchan, o‘t o‘simlik. Barglari tuksiz, lanset va tuxumsimon. Kosachasi tuklangan, tojbargda 2 bora kalta. Tojbarglari 5-12 mm uzunlikda, oq,

qaymoqsimon oq, ayrimlarida och binafsha ranglarda. Mevasi sharsimon, tuxumsimon, silindirsimon, xartumsimon turli ranglarda. Iyun oyida gullab, iyul oyida mevasi yetila boshlaydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida 10 dan ortiq turi tarqalgan.

Spirtdagi ekstrakti revmatizmda teriga surtib davolanadi. Urug'idan tayyorlangan plasterlari sovuq urgan joylarni davolashda qo'llaniladi.

Qora ituzum-Паслен черный-*Solanum nigrum L.*



Ituzumdoshlar – *Solanaceae* oиласига mansub bir yilik, poyasi tik o'suvchi yoki yarim yotib o'suvchi ildiz bo'g'zidan shoxlanuvchi balandligi 25-50-(75) sm. Barglari to'q yashil, sersuv, tuksiz, kam tuklangan, uzunchoq tuxumsimon, chetlari o'yqli tishli, 3-5-7 sm uzunlikda va eni 2-4 sm, bandi yaprog'idan kalta. Gullari 3-8 tadan soyabon yoki shingilga to'plangan. Kosachasi silindirsimon, qo'ng'iroqsimon, 2-2,5 mm uzunlikda. Tojibarglari oqish 6-7 mm uzunlikda mevasi yetilganda qora, sharsimon diametri 6-10 mm. Urug'i sariq, buyraksimon, 2 mm uzunlikda. Iyun-oktabr oylarida gullab, iyul-avgust oylarida mevasi yetiladi. Ekinzorlarda, bog'larda, suvga yaqin joylarda o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

Yangi urug'idan va barglaridan siyidik haydovchi vosita sifatida ishlataladi. Sariq yog' bilan yer ustki qismidan tuyib tayyorlangan aralashma yaralarga, qon bosimi ortganda, jigar, gemaroy, jig'ildon qaynaganda ishlataladi.

Qora mingdevona-Белена черная-*Hyoscyamus niger L.*



Ituzumdoshlar – *Solanaceae* oиласига mansub ikki yillik, qo'lansa hidli, qattiq tuklar bilan qoplangan, ildizi yo'g'on, bo'g'iz qismi burishgan. Poyasi tik o'suvchi, yo'g'onligi 1 sm, Yuqori qismi shoxlangan balandligi 50-70-100 sm. Barglari yuqori qismi och yashil ostki tomoni kulrangsimon, ildiz bo'g'zidagi barglar bandli, yuqoridagisi o'troq, poyani yarim o'rabi.

oluvchi, uzunligi 5-8-13 sm va eni 2-3-5 sm. Gullari o'troq. Kosachasi 1,5 sm uzunlikda, voronkasimon, ingichka quvirsimon. Tojbargi dog'li-pushti-qo'ng'ir. Ko'sagi uchki tomonidagi qopqog'ini ochilishi bilan urug'lari to'kiladi. Aprel-May oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'i yetiladi. Aholi yashayotgan joylarda, yo'l yoqalarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda bargi ishlataladi. Tarkibida alkaloidlar (giosiamin, atropin), glikozidlar, flavonoid moddalar bor. Bargining dori preparatlari moyi og'riq qoldiruvchi va spazmolitik vosita sifatida, surtma dorilar tarkibida bod va nevralgiya kasalliklarida tananing og'rigan joyiga surtiladi. Bargi asthma kasalligida qo'llaniladigan astmatol va astmatin sigaretlari tarkibiga kiradi.

Mayda moxovkosa-Белена крошечная-*Hyoscyamus pusillus L.*



Ituzumdoshlari – *Solanaceae* oilasiga mansub bir yillik, ildizi ingichka, yog'ochlanuvchi. Poyasi tik o'suvchi, balandligi (5)-10-25-(40) sm, oddiy asosidan shoxlangan. Barglari yashil har ikki tomoni tuklangan, nashtarsimon bo'lib, uzunligi 3-5-7-(14) sm va eni 1-3,5-(5) sm. Gullari bittadan barglar qo'ltig'ida joylashgan, o'troq. Kosachasi tuklanib, qo'ng'iroqsimon, 10 mm uzunlikda. Tojbarglari kosachasidan biroz uzun, tashqi tomoni tuksiz, sariq, to'q-binafsha rangli nursimon dog'lari bor. Ko'sagini uchida diametri 4-4,5 mm bo'lgan qopqog'i bor urug'lar yetilganda ochilib ketadi.

Aprel-iyun oylarida gullab, may-iyulda urug'lari yetiladi. Tog'ning o'rmonli qismida, ochiq joylarida, qo'ng'ir tuproqli qismlarida o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida, Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Barglari va yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi og'riq qoldiruvchi, uni (maydalab tuyilgan qismini) kungaboqar yog'i bilan tayyorlangan mazi revmatizmni davolashda ishlataladi. Barglaridan astma uchun chekiladigan sigareta tayyorlanadi.

Meksika bangidevonasi-Дурман безвредный-*Datura innoxia* Mill.



Ituzumdosqlar – Solanaceae oиласига мансуб бир yellik, пояси коп маротаба шохланган, 50-100 см баландликда, майин тукланган. Барлари калта, қалин туклар билан қопланган, чукур болинган боекларга ега, 10-20 см узунликда ва ени 5-15 см, һаммаси бандли.

Гуллари биттадан barg qo'ltig'idан хосил болади. Косачаси қалин, майин туклар билан қопланган, 8-10 см узунликда. Тошибарлари косачасидан 2 баровар узун, 6-8,5 см диаметрида 10 та сезилмас тишчадан иборат. Ко'sаги 4-5 см узунликда, уни усти о'tkir тиканлар билан қопланган, тиканлар узунлiği 8-10 mm. Июн-августда гуллаб, августда уруг'lари yetiladi. Toshkent, Farg'она viloyatlarida kam bo'lsada begona o't sifatida uchraydi.

O'simlikning hamma qismi alkaloidlar saqlaydi. Yetilmagan (pishmagan) mevasidan va urug'idан олинган skupolamin aeron preparati tarkibiga kiradi. Bargi nafas qisishi, og'ir yo'tal, bronxial astma va nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklarda chekiladigan astmatol va astmatin sigaretalari tarkibiga kiradi.

Metalloid bangidevonasi-Дурман метелоидный-*Datura meteloides* DC.



Ituzumdosqlar – Solanaceae оиласига мансуб бир yellik, о'зига хос о'tkir hidli, тукланган, пояси асосидан шохланган, сербарт. Барлари о'rtacha etli, ostki томони бахмалсимон қалин тукли, теккис четли, 15-20-22 см узунликда ва ени 14-15 см, банди yaprog'идан калта.

Гуллари биттадан barg qo'ltig'ida joylashgan, банди 1,5-2 см. Косачаси бокалсимон тукланган yashil-qo'ng'ir, 10 см узунликда. Тошибарларини диаметри 12 см, ташги томони очи кө'kish ва ichki томони, кө'kish, үчкі қисми оқ-кө'kish. Ко'sаги қалин ignasimon тиканлар билан қопланган. Июн-sентабрда гуллаб

sentabr-oktabrda urug'lari yetiladi. Begona o't sifatida kam bo'lsada uchraydi. Toshkent, Andijon viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning hamma qismi alkaloidlar saqlaydi. Toza yetilmagan (pishmagan) mevasidan va urug'idan olingen mahsulot aeron preparati tarkibiga kiradi. Bargi nafas qisishi, og'ir yo'tal, bronxial astma va nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklarida qo'llaniladi. Chekiladigan astmatol va astmatin sigaretalari tarkibiga kiradi.

Nos tamaki-Табак маҳорка-*Nicotiana rustica* L.



Ituzumdoshlar - *Solanaceae* oиласига mansub bir yillik, poyasi yaxshi rivojlangan, qovurg'ali, asosidan shohlangan. Balandligi 100-150 sm. Barglari to'q yashil, yumshoq, tuhumsimon, asosi yuraksimon, bandli. Gullari shingilsimon, supurgisimon qisqa to'plam hosil qiladi. Kosachasi keng, qo'ng'iroqsimon 6-10 mm uzunlikda, 5 ta keng uchburchaksimon tishli.

Tojbargi 1,5-2 sm uzunlikda, qo'ng'iroqsimon oqish, sariq rangda, spiralsimon bo'lib, uzunligi 1 sm. Iyuldan oktabrgacha gullab urug'laydi. Madaniy o'simlik bo'lib, ekib ko'paytiriladi. O'simlik o'zida vitamin PP saqlaydi.

Oddiy bangdevona- Дурман обыкновенный-*Datura stramonium* L.



Ituzumdoshlar - *Solanaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Qo'lansa hidli, poyasi yuqori qismidan ayirsimon shoxlangan, balandligi 1,25-1,5 sm. Barglari har ikki tomonidan ham tuklangan, bo'laklarini chetlari o'tkir tishli, 20 sm uzunlikda va eni 15 sm, bandlari 7-10 sm uzunlikda. Gullari bittadan barg qo'ltig'ida joylashgan, gul tutqichi 7-12

mm uzunlikda, o'tkir tishchali. Tojbargi oq, 6-10-(12) sm uzunlikda, ko'sagi yuqoriga qaragan, sharsimon, qattiq, o'tkir tikanli, Urug'i yetilganda to'rtta chanoqqa ochiladi. May-sentabrda gullab, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida begona o't sifatida keng tarqalgan.

O'simlikning hamma qismi alkaloidlar saqlaydi. Toza yetilmagan (pishmagan) mevasidan va urug'idan olingan aeron preparati tarkibiga kiradi. Bargi nafas qisishi, og'ir yo'tal, bronxial astma va nafas olish yo'llarining boshqa kasalliklarida chekiladigan astmatol va astmatin sigaretalari tarkibiga kiradi.

Fizalissimon belladonna- Никандра физалисовидная (красавка обыкновенная)-*Nicandra physaloides* (L.) Gaertn.



Ituzumdoshlari - *Solanaceae* oиласига mansub bir yilik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, qovurg'ali, ayrisimon shoxlangan, tuksiz, balandligi 30-40 sm. Bargini yuqori qismi tuklangan, tuxumsimon, o'yiqli tishli, 7-8 sm uzunlikda va enii 4-5 sm. Gullari bittadan, qarama-qarshi barglarga ega. Kosachasi beshqirrali 1,5-1,8 sm uzunlikda, urug'lari yetilganda yo'g'onlashadi. Tojbarglari 2 sm uzunlikda oqish ko'kish naysimon.

Mevasi tekis, chatnab ochiluvchan. Oktabr-noyabr oylarida gullab urug'laydi. Kam hollarda begona o't sifatida uchraydi. Toshkent, (Toshkent shahri) va Jizzax (G'allaorol) viloyatlarida tarqalgan.

Barglarining qaynatmasi qon ketishini to'xtatuvchi, gemoroy va qonovchi yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Oddiy paq-paq-Физалис обыкновенная-*Physalis alkekengi* L.



Ituzumdoshlari - *Solanaceae* oиласига mansub ko'p yillik, ingichka ildizpovali o'simlik. Poyasi tik turuvchi, kam shoxlanuvchi va balandligi 30-60 sm. Bargi juft bargchali yaprog'i tuxumsimon 6-9 sm uzunlikda va eni 3,5-4 sm chetlari tekis, bandlari 1,5-2-4 sm uzunlikda. Gul tutqichi tuklangan 10-15 mm uzunlikda. Tojbargi oqish, tashqi tomoni tuklangan gulchasi o'yilqlari besh burchakli diametri 18-20 mm bukilgan. Mevasi qizg'ish-sariq tekis yaltiroq diametri 13 mm. Urug'i sarg'ish yoki oqish buyraksimon mayda to'rlangan. Iyun-iyul oylarida gullab iyul-avgust oylarida mevasi

pishadi. Tog' yong'oqzorlaridagi soya joylarida bog'larda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tarqalgan.

Mevasidan olingan shirasi qon ketishini to'xtatuvchi, og'riqni qoldiruvchi, buyrak, siydiq qopchig'i, tosh xastaliklarida, sariq, siydiq haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Rus qarochingili (qalqon jingil)-Дереза русская-*Lycium ruthenicum* Murr.



Ituzumdoslar - *Solanaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, sertikan buta, balandligi 70-150 sm, ser shox, o'tkir tikanlar bilan qoplangan. Barglari o'troq och yashil etli, teskar, nashtarsimon, 0,5-2,5 sm uzunlikda va eni 1-3 mm. Kosachasi 3-5 mm uzunlikda, qo'ng'iroqsimon, besh tishchali. Tojibarglari 13-15 mm uzunlikda, oq voronkasimon, yuqori

qismi keng, naychali ko'kish rangda. Mevasi qizil, diametri 5-8 mm. Urug'i ko'p sonli buyraksimon shaklda, burchakli 2 mm uzunlikda. Aprel-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. To'qayzorlarda, sho'rxok pastliklarda o'sadi. Namangan, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Pishib yetilgan urug'i oshqozon yallig'lanishida, nafas olish qiyinlashganda va sariq xastaligini davolashda ishlatiladi. Mevasi zaharli shuning uchun ishlatilmaydi.

Turkmaniston oq changali (qalqon jingil)-Дереза туркменская-*Lycium turkomanicum* Turcz ex Miers.



Ituzumdoslar - *Solanaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, tikanli buta, balandligi 1,5-2,5 m. Sershox novdalari ko'p tuklar bilan qoplangan. Barglari och yashil, nashtarsimon 2-5-6 sm uzunlikda, eni 0,2-1-1,5 sm, bandi 2-6 bora yaprog'idan kaltaroq. Gullari barglari bilan to'p bo'lib 3-5 tadan bandi 4-12 mm uzunlikda. Kosachasi keng qo'ng'iroqsimon 4-

6 ta tishchali. Tojibarglari och binafsha rangda, (9)10-13 mm uzunlikda, varonkasimon, yuqoriga qarab kengayib boradi. Mevasi qizil, sharsimon yoki tuxumsimon, 4-8 mm uzunlikda, (2)5-9-15 tagacha urug‘li, Urug‘i buyraksimon, 2-3 mm uzunlikda. May-avgust oylarida gullab, iyunsentabr oylarida mevasi yetiladi. Qo‘ng‘ir tuproqli va buloqlarga yaqin joyda o‘sadi. Surxondaryo (Jeraboz daryo) viloyatida tarqalgan.

Urug‘lari nafas olish qiyinlashganda, sariq xastaligida va siyidik haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Sharq tabobatida kuchli zaharli o‘simlik hisoblanadi.

To‘rsimon moxovkosa-Белена сетчатая-*Hyoscyamus reticulatus L.*



Ituzumdoslar – *Solanaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, oq tuklar bilan qoplangan, ildizi yo‘g‘onlashgan, bo‘g‘iz qismida, oldingi yillardan qolgan barg bandi bilan o‘ralgan. Poyasi tik o‘suvchi, asosan shoxlangan, balandligi 30 sm. Barglari to‘q yashil, yoshligida tuklangan bo‘lib, so‘ngra tuklar siyraklashadi. Gullari 3-6 mm. li tutqichlarga ega. Kosachasi tuklangan, 15 mm uzunlikda, qo‘ng‘iroqsimon-voronkaga o‘xshash. Tojbarglari tashqi tomondan siyrak tuklangan, 25 mm uzunlikda, binafsha rangda, boshqa rangli dog‘lari yo‘q. May oyida gullab, iyun oyida urug‘lari yetiladi. Samarqand atrofida bir marotaba ekilgan.

Buyrakdagagi toshlarni haydovchi, tinchlaniruvchi va “astmatol” sigaretsasi tarkibiga qo‘shiladi.

Chilim tamaki-Табак настоящий-*Nicotiana tabacum L.*



Ituzumdoslar – *Solanaceae* oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Poyasi oddiy kam shohlanuvchi aniq bo‘lmagan qovurg‘ali barglari poyada qalin joylashgan. Balandligi 60-150 sm. Barglari poyada navbatlashib joylashgan. To‘q yashil tekis chetli, yuqoridagilari kalta bandli yoki o‘troq. Gullari supurgisimon to‘pgulda joylashgan. Kosachasi naysimon qo‘ng‘iroqsimon. 1-2 sm uzunlikda 5 ta tor uchburchak tishchali. Tojbargi qizil yoki pushti ayrim hollarda oq, 4-

6 sm uzunlikda varonkasimon. Ko'sakchasi uzunchoq tuhumsimon yuqori tomoni uchkirroq 1,5-2 sm uzunlikda. Iyuldan to oktabrgacha gullab urug'laydi. Keng miqyosda sanoat uchun ekiladi. O'simlik qoldig'idan nikotinamid moddasi olinadi.

Shirin achchiq ituzum-Паслен сладкогорький-*Solanum dulcamara* L.



Ituzumdoshlar - *Solanaceae* oиласига mansub ko'п yillik, balandligi 2 m bo'lган chala buta, asosidan siyrak shoxlangan. Barglarini ikki yuzasi ham siyrak tuklangan, bandi qiya. Gullari qo'ltiqda 2 marta qarama-qarshi barglar yoki aralash joylashgan 6-20-(30) tadan supurgisimon bir yoki ikki karra ayrisimon shoxlangan. Gul tutqichlari 6-15 mm uzunlikda. Tojbarglari binafsha rangda, 12-18 mm diametrda, oq dog'lari bor. Mevasi och qizil yaltiroq mevalari yetiladi. Ayrim hollarda dekorativ o'simlik sifatida ekiladi. O'simlik qand, kraxmal, smola va salanin glyukoalkaloidi, dulkamarin achchiq moddalarni saqlaydi. Poyasidan tayyorlangan nastoykasi balg'am ko'chiruvchi, astma bronxiti, ko'k yo'talda, sariq xastaliklarida buyuriladi.

Ekma kartoshka-Паслен клубненосный-*Solanum tuberosum* L.



Ituzumdoshlar - *Solanaceae* oиласига mansub bir yillik, o'simlik sifatida ekib o'stiriladi. Poyasi shoxlangan, tanasi yopishgan kalta tuklar bilan qoplangan, balandligi 50-100 sm. Barglari parsimon yirik bo'laklari 7-11 tadan, navbatlashib joylashgan. Yuzasi tuksiz, ostki tomoni tuklangan. Gullari yuqori qismida 2-3 tasi tup bo'lib, soyabonsimon joylashgan. Toj barglari oq, qizg'ish, binafsha ranglarda, qisqa naysimon diametri 2-3 (4) sm. Changchilari sariq. Ustunchasi ostidan bukilgan, mevasi yashil sharsimon, yetilganda qizaradi, diametri 1,5-2 sm. Aprel-iyul oylarida gullab, may-sentabrdada mevalari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Ovqat xazm organlarining xastaliklarida, oshqozon yallig'lanishida, o'n ikki barmoqli ichak xastaliklarida, shamollahsha qarshi qo'llaniladi.

Ekma pomidor-Томат съедобный (помидор)-*Lycopersicon esculentum* Mill.



Ituzumdoshlari - *Solanaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi shoxlanuvchan, poyacha qismi uzun mayin tuklar bilan qoplangan, o'ziga xos qo'lansa hidli, poyasini balandligi 30-100 sm. Barglari yashil, bandli, asosigacha bo'laklarga bo'lingan, uzunligi 20 sm. Gullari 30-20 tadan to'pgul hosil qiladi. Kosachasi uchli, meva bilan bir vaqtida o'sib boradi. Tojbarglari sariq, 2,5 sm diametrda. Mevasi yoshligida tuklangan, yetilishida tuklari to'kilib ketadi, qizil, sariq va pushti, oq binafsha ranglarda. Apreldan kech kuzgacha gullaydi, mevasi maydan pisha boshlaydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida o'nlab navlari ekiladi.

Moddalar almashinushi buzilganda, yurak qon-tomirlar xastaligidagi, jigar va ovqat hazm organlari xastaliklarida, oshqozon kislotali muhiti pasayganda qo'llaniladi.

Eron ituzumi-Паслен персидский-*Solanum persicum* Willd. Ex Roem.



Ituzumdoshlari - *Solanaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, chala buta, ko'p shoxlangan, yosh novdalari tuklangan. Barglari butun yuzasi siyrak tuklangan, kalta bandli. Gullari yuqori qismida, qalqonsimon supurgisimon uch bora shoxlangan, 15-40 (60) ta gullar to'plamiga ega. Gul tutqichlari 6-11 mm uzunlikda. Kosachasi qalin, kalta tuklar bilan qoplangan. Toj bargi ochiq binafsha rangda diametri 16-18 (20) mm. Mevasi sharsimon qizil, diametri 6-10 mm.

Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda mevalari yetiladi. Qoraqolpog'istonda tarqalgan.

O'simlikni yer ustki qismidan nafas yo'llaridagi balg'amni ko'chiruvchi, siydiq haydovchi, bezgakda istma tushuruvchi sifatida qo'llaniladi.

Govpechak (arxar o'ti)-Повой заборный-Calystegia sepium (L.) R.Br.



Pechakdoshlar – *Convolvulaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Mutloq yalang'och (tuksiz), ochiq yashil, balandligi 2-3 m. Barglari nayzasimon uchli, ikki bo'lakli, kalta bandli. Gullari uzun barglari qo'ltig'idan bitta yoki ikkitadan hosil bo'ladi. Kosacha bargi nashtarsimon, uchli, 12-15 mm uzunlikda. Tojibarglari oq 4.5-5 sm uzunlikda, tuksiz.

Ko'sagi sharsimon, 9-10 mm diametrda. May-avgust oyida gullab, iyunsentaborda urug'lari yetiladi. Tog'larni pastki qismida, to'qaylar, bog'lar va daryolar qirg'og'ida o'sadi. Farg'ona Toshkent, Samarqand, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Xalq tabobatda ildizida qatronlar ko'p bo'lganligi uchun ishlataladi. Yer ustki qismidan quritib tayyorlangan talqoni suvli yaralar va kuyganda suvli pufakchalarga sepilib quritiladi.

Dag'al tukli pechak (Mingbosh)-Вьюнок жестковолосистый- *Convolvulus subhirsutus* Regel. et Schmalh.



Pechakdoshlar – *Convolvulaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi kuchli shakllanuvchi, dag'al qalin tuklar bilan qoplangan balandligi 60-80 sm. Barglari tuksiz, chetlari tekis, kalta bandli. Gullari shoxchalari uchida bittadan joylashgan. Kosachasi uzunchoq tuxumsimon, 3-5 mm uzunlikda.

Tojibarglari pushti rangda, 12-17 mm uzunlikda. Ko'sagi tuxumsimon, tuksiz 6-7 mm uzunlikda. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Tog'larning pastki va o'rta mintaqalaridagi toshli, tuproqli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Urug'idan olingan qaynatmasi oshqozon ichaklar xastaligida qo'llaniladi. Tuberkulyoz, astma va yaralarni tez bitiruvchi sifatida ham ishlataladi.

Karnaygul (chirmovgul)-Вьюн батат-*Ipomoea batatas* (L.) Lam.



uzunlikda. May oyida gullab urug'laydi.

Ildizi iste'mol qilinadi. Shuning uchun ekiladi. Ildizida tiganaklari bo'lib ko'p miqdorda kraxmal saqlaydi. Kartoshkaga nisbatan qand moddasi ko'p (6 %), kartoshkaga o'xshatib qaynatib iste'mol qilinadi.

Qo'ypechak (Dala pechak)-Вьюнок полевой-*Convolvulus arvensis*

L.



ranglarda 15-20 mm uzunlikda.

May-avgust oylarida gullab, iyun-sentabr oylarida urug'i yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlaridagi ekinzorlar va tashlandiq maydonlarda tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi va ildizi ishlataladi. Tarkibida smola, flavonoidlar vitamin C va B kabi moddalar bor. Ildizining qaynatmasi kuchli surgi vosita sifatida, yer ustki qaynatmasi yaralar, jarohat, temiratkilarga qo'llaniladi. Smolasiga kuchli surgi ta'siriga ega.

Soxta pechak (mingbosh, partak)-Въюнок ложнокантабрийский- *Convolvulus pseudocantabrica* Schrenk.



Pechakdoshlar – *Convolvulaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Poyasi bir nechta, o’tsimon, ostki qismidan shoxlangan, tolali, balandligi 40-50 sm. Barglarini yuzasi tuksiz, ostki tomoni siyrak tuklangan, chetlari butun. Gullari bittadan. Kosachasi teskari tuxumsimon, 5-6 mm uzunlikda. Tojibarglari pushti rangda 17-20 mm uzunlikda, tashqi tomondan 5 ta tuklangan choklari bor. ko‘sakchasi uzunchoq teskari tuxumsimon, 7-8 mm uzunlikda, tuksiz yaltiroq. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug‘lari yetiladi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bargi va urug‘larida konvol’vin va konvolavin alkoloidlari saqlaydi. Undan ishlab chiqarilgan mahsulot hozirda konvokain nomi bilan ishlatiladi.

Bokalsimon zarpechak (chirmovgul)-Повилика бокальчатая- *Cuscuta cupulata* Engelm. (*C. approximata* Bab.)



Zarpechakdoshlar – *Cuscutaceae* oиласига mansub bir yillik o‘simlik. Barglari ingichka ipsimon, och yashil qo‘ng‘ir-qizg‘ish ranglarda tekis. Gullari mayda 3-3,5 mm uzunlikda o‘troq, oq sharsimon to‘pgullar hosil qiladi. Eski gul yon barglarini uzunligi 2 mm. Kosachasi bakalsimon 2-2,5 mm uzunlikda, etli sarg‘ish chuqur o‘yqli, qobiqsimon. Tugunchasi sharsimon 1,5 mm enlilikda. Kosachasi yupqa devorli, 3-4 urug‘li. Urug‘i 1 mm uzunlikda va ovalsimon. Iyun-iyul oylarida gullab, urug‘lari yetiladi. Ko‘п yillik, buta va chalabuta o‘simliklar ildizida parazitlik qilib yashaydi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida ushbu o‘simlikning qurug‘i maydalab boshqa o‘simliklar bilan qo‘sib asab xastaliklarida va aqldan ozganlikni davolashda qo’llashadi. Quritilgan o‘simlikning maxorka qilib nafas

yo'llarini xirillashida, bo'g'imlar revmatizmi, zaxm (sifilis) va teri yaralarini davolashda qo'llaniladi.

Bir ustunchali zarpechak (chirmovgul)- Повилика одностолбиковая-*Cuscuta monogyna* Vahl



Zarpechakkoshlar - *Cuscutaceae* oиласига mansub bir yillik о'simlik. Poyasi chilvirsimon, yo'g'onligi 2 mm shoxlangan qizg'ish, va qizg'ish dog'li tuksiz, tekis. Gullari 3,5-4,5 mm uzunlikda o'troq, ko'p gulli, siyrap bochkasimon. Kosachasi sharsimon 2 mm uzunlikda asosigacha bo'lingan etli. Tojibarglari 3,5-4 mm uzunlikda, kolbasimon. Tugunchasi sharsimon, 1 mm enlilikda, tekis, tuksiz, ustunchasi juda qisqa, ikki bo'lak tugunchaga ega. Kosachasi to'g'ri, sharsimon 4 mm uzunlikda tekis, 1-2 ta urug'larga ega. Ko'sagi 4 mm uzunlikda, tekis, 1-2 ta urug'ga ega. To'q qo'ng'ir rangda. Iyun-avgust oyalarida gullab, urug'lari yetiladi. Asosan ko'p yillik, о'simliklar, butalar, daraxtlar, ildizlarida, bog', tog' soyлари qirg'og'ida, uzumzorlarda о'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Tabobatda urug'i yordamida oshqozon xastaliklari, oshqozon ish faoliyatining sustligida, bezgak xastaligida, terlatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Urug'larida 3 yilgacha о'z xususiyatini yo'qotmaydi.

Lemann zarpechagi (chirmovguli)-Повилика Леманна-*Cuscuta Lehmanniana* Bunge.



Zarpechakkoshlar - *Cuscutaceae* oиласига mansub bir yillik о'simlik. Poyasi chilvirsimon, yo'g'onligi 2 mm shoxlangan ayrim holda qirrali, qizg'ish-qo'ng'ir, tuksiz, tekis. Gullari och-pushti, o'troq yoki 3 mm uzunlikdan tutqichlarida joylashgan. Gul to'plarining uzunligi 8 mm, boshoqsimon. Kosachasi yarim sharsimon, 2-3 mm uzunlikda, rangdor.

Tojibargi voronkasimon, kosachadan ikki marta uzun. Tugunchasi tuxumsimon, yo'g'on, kalta, ustunchali. Kosachasi tuxumsimon, 5-6 mm

uzunlikda va eni 4-4,5 mm, yaltiroq, 3-4 ta urug'li. Urug'i 3 mm uzunlikda, sariq-qo'ng'ir ranglarda. Iyun-sentabr oylarida gullab, urug'laydi. Asosan buta daraxtlar va o'simliklar ildizida parazitlik qiladi. To'qayzorlar, kanal, ariq va soylarni qirg'og'ida o'sadi.

Xalq tabobatida ushbu o'simlikning quritilgani maydalaniib, boshqa o'simliklar bilan qo'shib, asab xastaliklarida va aqldan ozganlikni davolashda qo'llaniladi. Quritilgan o'simlikning maxorka qilib nafas yo'llari kasalliklari, bo'g'imlar revmatizmi, zaxm (sifilis) va teri yaralarini davolashda qo'llaniladi.

Dorivor iloncho'p (chumchuq o't)-Воробейник лекарственный *Lithospermum officinale* L.



Govzabondoshlar – *Boraginaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, o't o'simlik, poyasi tik o'suvchi, barglari qalin joylashgan, balandligi 50-80 sm. Barglari nashtarsimon, o'troq, ikki tomoni mayda tukli. Gullari shingilsimon yoki soyabonsimon bo'lib, poyalarini uchida joylashgan. Gul to'tqichlari 2-3 mm. Kosachasi oq qalqonsimon 2-4 mm uzunlikda, urug' yetilishida cho'ziladi. Tojbarglari oq yoki sarg'ish-oq 3-5 mm uzunlikda. Yong'og'i uzunchoq tuhumsimon 3 mm uzunlikda. Aprel-may oyida gullab, may-iyun oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larni o'rta mintaqalaridagi ariq va soylar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida litospermin buyoq, moddasi, oz miqdorda alkaloidlar, alantoin birikmasi, vitamin C, karotin moddalar, urug'ida ko'p miqdorda yog' bor.

Yer ustki qismining qaynatmasi xalq orasida shamollash kasalliklari, bosh og'rig'i, qorin og'rig'i va buyrak tosh kasalliklarini davolash uchun, bola tug'ilishini yengillatish va tezlatishda hamda siyidik haydovchi, surgi va og'riqsizlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Yangi yig'ib uzilgan iloncho'pning yer ustki qismi kesilgan, urilgan, ko'kargan, teriga bog'lanadi.

Ikki rangli mehrigiyox-Оносма двуцветная-*Onosma dichroanthum* Boiss.



Govzabondoshlar – *Boraginaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, poyasi 1-3 tadan, o‘zini ko‘rinishi qizg‘ish yoki ko‘k dog‘li, yuqori qismidan shoxlangan, tikansimon dag‘al tuklar bilan qoplangan, balandligi 20-50-(60) sm.

Ildiz bo‘g‘zidagi barglari nashtarsimon, uzunligi 15 sm, eni 8-10(12) mm, poyadagilari o‘troq, 5-8(10) sm uzunlikda, hamma qismi dag‘al tikansimon tuklar bilan qoplangan. Gul to‘plami ko‘p gulli.

Gul bandlari 1-3 mm, urug‘langanda 15 mm gacha yetadi. Tojibarglari uzun naysimon, 30 mm uzunlikda, ochilish boshlanganda sariq so‘ngra, pushti va ko‘k ranglarda o‘sadi. Yong‘oqchasi 4-6 mm uzunlikda, yaltiroq. Aprel-avgust oylarida gullab, urug‘lari yetiladi.

Yumshoq shag‘alli, qo‘ng‘ir tuproqli tog‘ yonbag‘irlarida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Ildizida qizil rang beradigan alkamina alkaloidi saqlaydi. Barg va gullarining maydalangan kukuni yog‘ bilan qorishtirib, teridagi oq dog‘larga bog‘lanadi.

Italiya xo‘kiz tili-Анхуса итальянская-*Anchusa italicica* Retz.



Govzabondoshlar – *Boraginaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildizi yo‘g‘on, ko‘p poyali o‘simlik. Poyasi tik o‘suvchi, o‘tkir uzun tuklar bilan qoplangan, balandligi 40-100 sm. Barglari ildiz bo‘g‘zida mozaika hosil qiladi, uzun bandli, yaprog‘i 10-30 sm uzunlikda gullah vaqtida quriydi. Gullari 1-1,2 mm uzunlikdagi

tugunchaga ega. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda. Tojbarglari havorang-ko‘k 10-15 mm uzunlikda. Ko‘saklari kulrang 7 mm uzunlikda. Aprel-iyulda gullab, may-avgustda urug‘laydi. Tog‘larni o‘rta mintaqasigacha, bog‘lar va ekinzorlarda, begona o‘t sifatida uchraydi. Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Mol yog'i bilan qaynatilgan ildizi malham sifatida teridagi qon ketayotgan yaralarga surtiladi. Gullarini qaynatmasi astma va ko'krak og'riqlarida ishlataladi.

Chipor kampirchopon-Триходесма седая-*Trichodesma incanum* (Bunge) DC.



Govzabondoshlar - *Boraginaceae* oиласига mansub ko'p yillik, och yashil, ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, ko'p shoxlangan, balandligi 30-60-(100) sm ga yetadigan o'simlik. Barglari 3-8 sm uzunlikda va eni 1,3-2,8 sm, o'troq, tekis chetli, tuxumsimon uzunchoq. Gullari qin va novdalarning ichki qismida supurgisimon, siyrak, gullar to'plamini hosil qiladi. Kosachasi 12-15 mm uzunlikda va diametri 3-4-5) sm. Tojibarglari gullah boshlanishida oq so'ngra xavorang va oxirida pushti ranglarda bo'ladi, diametri 2-2,5 sm naychasi kosachasidan 2 marta kalta. Yong'oqchasi kulrang-qo'ng'ir. May-noyabr oylarida gullab urug'laydi. Tog' oldi va tog'larni o'rta qismigacha bo'lgan qo'ng'ir tuproqli, tosh shag'alli joylar, ekinzorlarda o'sadi.

Qurug'i va maydalangan ildizi yetilmagan va frunkul yaralarga plaster sifatida qo'yiladi. Otlarni yag'iriga ham sepiladi. Bargi va ildizining qaynatmasi bilan otlarning junlari yuviladi. Chunki qaynatmasi tarkibida otlar junini to'kilishini oldini oladigan moddalar bor.

Lenta bargli arnebiya-Арнебия линейнолистная-*Arnebia linearifolia* DC.



Govzabondoshlar - *Boraginaceae* oиласига mansub bir yillik o'simlik. Poyalari tik o'suvchi, shoxlangan, tuksiz, balandligi 5-10 sm. Barglari lansetsimon uzunchoq, tuklangan. Kosachasi gullah oldida 10 mm uzunlikda, uruglash davrida 2,5-3sm uzunlikda va eni 4-6 mm. Tojbarglari sariq, 15-20mm uzunlikda, yassi qo'ng'iroqsimon bukilgan, diametri 3-5mm. Yong'oqchasi qo'ng'ir, 4

mm uzunlikda, burishgan. Mart-may oylarida gullab, urug'laydi. Cho'llarning toshli va shag'alli joylarida o'sadi. Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Ildizidan hayvon yog'i bilan maz tayyorlanadi va teridagi yaralar, psoriaz, temiratki va boshqa kasalliklarga qo'llaniladi.

Oddiy ilon o't-Cиняк обыкновенный-*Echium vulgare L.*



Govzabondoshlar – *Boraginaceae* oilasiga mansub ikki yillik, poyasi bittadan, gullari shoxlangan, mayda tuklar bilan qoplangan, tuklari tikonsimon qattiq, balandligi 60-100 sm. Barglari och yashil, oq qalqonsimon tuklar bilan qoplangan. Ildiz bo'g'zidagi barglari bandli bo'lib, ularning uzunligi 12-20 sm va eni 10-20 mm, keng nashtarsimon. Gul to'plami shingilsimon ayrimlari supurgisimon, uzunligi 10-12 sm. Kosachasi mayda oq qalqonsimon, kalta tuklar bilan qoplangan, uzunligi urug'langanda 8-10 mm ni tashkil etadi. Tojbarglari zichroq, keng bo'limgan qo'ng'iroqsimon, 12-18 mm uzunlikda, pushti-qizil yoki ko'k-binafsha ranglarga o'tadi. Yanog'i kulrang 2.5 mm uzunlikda. Iyul-avgustda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Bog' va xiyobonlarda ekiladi. Ayrim hollarda yovvoyi holda ham uchraydi. Jizzax (Guralash), Toshkent (Angren) viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan damlama paylar cho'zilganda, revmatizmda va yo'talda, tinchlantiruvchi sifatida qo'llaniladi.

Bukilgan shumg'iya (egiluvchi)-Заразиха поникшая-*Orobanche cernua Loefl.*



Shumgiyoxdoshlar – *Orobanchaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Balandligi 12-25 sm. Poyasi sarg'ish-qo'ng'irroq yoki qizg'ish-qo'ng'ir. O'rta qismining yo'g'onligi 2-10 mm keng nashtarsimon, qobig'i 8-12 mm uzunlikda. Gullari silindirsimon, ko'p gulli, gullar qalin joylashgan. Kosachasi 5-10 mm uzunlikda. Tojibarglari 10-18 mm uzunlikda,

tashqi tomondan yalang'och, naysimon, to'q ko'kish-havorang, asos qismi oq. Ko'sakchasi uzunroq tuxumsimon, tuksiz urug'lari mayda 0,5 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullaydi va iyun-iyulda urug'lari yetiladi. Cho'ldan to tog'larning o'rta qismlarigacha bo'lgan joylardagi shuvoq, karraklarda parazitlik qiladi. Toshkent, Farg'ona, Samarcand, Surxondaryo, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan. O'simlikni qurutilgani tuyilib sigareta sifatida zaxm (sifilis) xastaligida chekiladi.

Yegipt (Misr) shumg'iysi-Заразиха египетская-*Orobanche aegyptiaca Pers.*




Shumgiyoxdoshlar – *Orobanchaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Balandligi 40 sm. Poyasi shoxlangan, ochiq sariq rangli, o'rta qismini yo'g'onligi 2 mm. Gul to'plamining uzunligi 25 sm silindirsimon, ko'p gulli, siyrak, Kosachasi kalta qo'ng'iroqsimon, 10-12 mm uzunlikda, tashqi tomoni tuklangan, naychasining ichki

tomoni tuksiz. Tojbarglari 25-35 mm uzunlikda ko'k-binafsha rangli yoki xavorang, asosi oq, naychasimon, voronkasimon, yuqori qismi kengaygan. Kosakchasi tuxumsimon 14 mm gacha uzunlikda, yalang'och, ikki xonalidagi urug'i sharsimon 0,3-0,4 mm uzunlikda. Iyul-sentabrda gullaydi, avgust-oktabrda urug'lari yetiladi. Ko'proq baqlajon, pomidor, kartoshka, ayrim hollarda yovvoyi o'simliklarda ham parazitlik qiladi. O'zbekistonning ko'pgina viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda tarqalgan.

Quritib tuyilgan o'simlikni sigareta sifatida zaxm (sifilis) xastaligida chekiladi. Tarkibida oshlovchi moddalar va rimantin glikozidi saqlaydi. Damlamasasi oshqozonni mustahkamlovchi sifatida ichiladi.

Sho'rxokli ilonchop (qumso'ta)-Цистанхе солончаковая-Cistanche Salsa(C.A.Mey). G Beck.



Shumgiyodoshlar – *Orobanchaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Tanasining balandligi 15-30 (40) sm va yo‘g‘onligi 10-12 mm, ostki qismi yo‘g‘onlashgan. Gullar to‘plami silindrishimon 8-20(25) sm uzunlikda, gullari o‘troq, qalin joylashgan. Kosachasi naysimon, qo‘ng‘iroqsimon, 10-14 mm uzunlikda to‘plangan. Tojibarglari 25-35 mm uzunlikda, tashqariga egilgan, oqish ichki tomonida binafsha ranglarda. Tugunchasi uzunchoq tuxumsimon, tojbarglar naychasi bilan teng. Kosakchasi tuxumsimon, kosacha uzunligi bilan teng yoki oz-moz uzunroq, urug‘lari naysimon, ko‘p sonli. May-aprelda gullab may-iyunda urug‘lari yetiladi. Cho‘l hududlarida qumli va sho‘rxo‘k joylarda boshqa o‘simlik ildizida parazitlik qilib xayot kechiradi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqlapog‘istonda tarqalgan. Tabobatda o‘simlikning qaynatma damlamasi sifilis xastaligiga qarshi ichiladi.

Hind kunjuti-Кунжут индийский-Sesamum indicum L.



Kunjutdoshlar – *Pedaliaceae* oilasiga mansub bir yillik, poyasi tik o‘suvchi qirrali, ko‘p hujayrali uzun tuklar bilan qoplangan, balandligi 50-180 sm. Barglari uzunchoq keng nashtarsimon 3 bo‘lakka barglari uzun yaprog‘idan 2-3 barobar kaltaroq. Gullari 1-3 tadan qisqa gul tutqichlarida joylashgan.

Gullari barg qo‘ltig‘idan chiqadi. Kosachasi qalin tuklangan. Tojbarglari oq pushti rangda (15)-20-30-(40) mm uzunlikda tashqi tomoni tuklangan ko‘sakchasi 30-50 mm uzunlikda tuklangan urug‘lari yetilganda chatnovchi. Urug‘i yassi oq-qora, kulrang, sariq, oq, qizg‘ish-qo‘ng‘ir 3-3,5 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab urug‘laydi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi.

Tibbiyotda urug'idan olinadigan moyi ishlatiladi. Urug'i tarkibida ko'p miqdorda moy, vitamin E, moddalar bor. Moyi dori moddalarni eritish, malham va surtmalar tayyorlashda qo'llaniladi. U qondagi trombotsitlar miqdorini oshiradi va qon ivishini tezlatadi. Shuning uchun u ba'zi qon kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Katta zubturum (bargizub)-Подорожник большой-*Plantago major*.L.



Zubturumdoshlari – *Plantaginaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, balandligi (5)-30-50-(70) sm o'simlik. Barglari tuxumsimon yoki keng tuxumsimon chetlari tekis ayrim hollarda ikki tomoni tuklangan yaprog'i 2-25 sm uzunlikda va eni 1,5-14 sm bandi ingichka qanolti yaprog'ining uzunligi bilan teng. Gul o'qlari bir yoki bir nechta bukilgan ingichka qovurg'ali gul boshog'i 3,5-7 mm enilikda slindrsimon 4-25 sm uzunlikda.

Kosachabarglarining hammasi ellipssimon 2 mm uzunlikda. Tojbarglari ochiq qo'ng'ir naysimon 2 mm uzunlikda tuxumsimon. Ko'sakchasi tuxumsimon 3-4 mm uzunlikda ikki uyali 8-30 ta urug'li uyali urug'lari qo'ng'ir burchakli, 0,6-1,4 mm uzunlikda radial holdagi egatchasi bor. May-sentabr oylarida gullab, urug'laydi. Ariqlar soylar qirg'og'ida bog'lar va ekinzorlarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Barglari qon ketishiga qarshi, yo'talga qarshi, paylar cho'zilganda, qirqilganda, teri shamollaganda, hasharotlar chaqqanda, og'riq qoldiruvchi, ichburug'da, bronxitda qo'llaniladi.

Laxnanta zubtumumi-Подорожник шерстистоцветковый-*Plantago lachnantha* Bunge.



Zubturumdoshlari – *Plantaginaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasining balandligi 1,5-6 sm. Barglari etli ingichka uzunchoq, uchki qismi uchli, tekkis chetli, to'q yashil, ostki tomoni tuklangan, uzun o'qli, 1,8-6 sm uzunlikda (1-3)-5-

18 boshog'i sharsimon, kam gulli 4-8 mm yo'g'onlikda. Kosacha barglari ellipssimon, yupqa qobiq bilan o'ralgan. 2,5-3 mm enlikda. Tojbarglari slindrsimon qalin tuklangan, naysimon, 2-3 mm uzunlikda. Ko'sagi ellipssimon, 3 mm uzunlikda ikki uyali bir urug'li. Urug'i qo'ng'ir 2,5-3 mm uzunlikda. Aprel-iyunda gullab urug'laydi. Buxoro, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

O'simlikning hamma qismi kuchli ichburug'da qo'llaniladi.

Nashtar bargli bargizub-Подорожник ланцетный-*Plantago lanceolata* L.



Zubturumdoshlar – *Plantaginaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 10-70 sm. Barglari uzun nashtarsimon yoki ensiz nashtarsimon uchi uchli bandlari yaprog'idan 2-3 bora kalta chetlari tekkis yoki kichik tishchali 3-5 ta tomirlangan ost tomoni tuklangan 4-20 sm uzunlikda va eni 0,4-3,5 sm. Hosil qilgan gul o'qlari 2-10 (20) ta tik o'suvchi gullari joylashgan qismi 0,7-6 sm uzunlikda va yo'g'onligi 7-10 mm. Kosacha bargi 2,5-3,5 mm uzunlikda plyonkasimon tuksiz. Tojbargi ochiq qo'ng'ir naysimon 2 mm uzunlikda tuxumsimon. Ko'sakchasi uzunchoq 2,5-3 mm uzunlikda ikki uyli bir urug'li. Urug'i qo'ng'irsimon 2,5-3 mm uzunlikda. Iyun-sentabr oylarida gullab urug'laydi. Ariqlar bo'yida, tog' yon bag'rilarida, bog'larda, yo'l yoqalarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Tibbiyotda urug'i va quritilmagan yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida ko'p miqdorda shilliq moddalar, almubin glikozidi, vitamin C va K, karotin, oshlovchi moddalar bor. Urug'inining shilliq eritmasi yengil surgi (qabziyatda) hamda qoplab oluvchi (surunkali kolitda) vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlikning damlamasi, surtmasi (nastoykasi), me'da-ichak kasalliklari gastrit, enterit va kolit (yo'g'on ichakning yallig'lanishi), me'da va o'n ikki barmoqli ichakning yara kasalliklarini davolash uchun hamda me'da shirasida kislota kamayib ketganida

qo'llaniladi. Shirasi tuzalishi qiyin bo'lgan kolitga hamda yaralarga davo bo'ladi.

Dorivor tizimgul-Вербена лекарственная-*Verbena officinalis* L.



Tizimguldoshlar - *Verbenaceae* oиласига mansub ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, yuqori qismi dag'al bo'lib tuklangan, balandligi 30-70 smga yetadigan o'simlik. Barglari tuxumsimon, 4-8.5 sm uzunlikda. Kalta, dag'al tuklar bilan qoplangan kosacha tishchalari naychasidan 4-5 marotaba kalta. Tojibarglari yorqin binafsha rang yoki oqish rangda. 5-5.5 mm uzunlikda va diametri 5 sm. Urug'i ikki qirrali, uznasiga egatchali, 1,8-2 mm uzunlikda yaltiroq. Aprel-sentabr oyalarida gullab, may-oktabr oyalarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi, tog'li yerlarda, bog' va ekinzorlar, yo'l yoqalarida begona o't sifatida o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi qo'llaniladi. Qaynatmasi xalq tabobatida turli kasalliklar (bosh va qorin og'rig'i, isitma, taloq shishi, qo'tir, shishlar, lat yeb momataloq bo'lgan joylar) ni davolashda hamda siyidik haydovchi, antiseptik vosita sifatida ishlataladi.

Ilohiy tog'murchi (Maryam daraxti, boshbarmoq)-Витекс священный (абрамово дерево)-*Vitex agnus-castus* L.



Tizimguldoshlar - *Verbenaceae* oиласига mansub ko'p yillik, balandligi 2 m bo'lgan kichik daraxt yoki buta novdalari to'rt qirrali, qo'ng'ir qalin kulrang tuklar bilan qoplangan. Barglari bandli 1,5-4-(5)-sm uzunlikda, yaproqchalari 5-7 tadan, uchli, ensiz nashtarsimon, chetlari tekis. Gullari qalqonsimon yarim soyabonsimon shoxchalar uchida joylashgan, gul tutqichi 1-2 mm uzunlikda. Kosachasi naysimon-qo'ng'iroqchaga o'xshash, 3 mm uzunlikda. Tojbarglari ko'kish yoki oqish, 9-12 mm uzunlikda, tashqi tomoni tuklangan. Danagi sharsimon,

3-4-(5) mm diametrda. Iyun-sentabr oylarida gullab, avgust-oktabrda mevalari pishib yetiladi. Madaniy o'simlik sifatida ekib o'stiriladi.

Barglarida tayyorlangan damlamasi eshak yemi va qichima xastaliklarida yuviladi. Urug'lari ayrim joylarda murch o'rnida qo'llaniladi. Gippokrat urug'larini taloq xastaliklarida ishlatishni ko'rsatgan.

Bog' gulrayxonii-Чабер садовый -*Satureja hortensis* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar)

Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб бир ўллик о'sимлик. Пояси ингичка, юғори қисмидан шохланган, баландлиги 10-20 см. Barglari nashtarsimon, chetlari tekis. Gullari kalta tutqichli bo'lib 1-(2) tadan barg qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi keng qo'ng'iroqsimon 4-5 mm uzunlikda ingichka uchburchaksimon.

Tojbarglari och havorang, tashqi tomoni tuklangan 6-7 mm uzunlikda, yong'oqchasi uch qirrali, qora rangda tekis 1 mm uzunlikda. Iyul-sentabr oylarida gullab, avgust-oktabr oylarida urug'lari yetiladi. Respublikada madaniylashtirilgan, ayrim hollarda yovvoyi holda o'sadi.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismining damlamasi xalq orasida bosh og'riganda, yo'tal, tumov, ich ketganda, ovqat hazm qilish buzilganda, qorin dam bo'lganda, ko'ngil aynib qusganda va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Siyidik va yel haydovchi, terlatuvchi, bakteriyalarga va spazmga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi.

Gangituvchi bozilbang (Bangi devona)-Зайцегуб опьяняющая-

***Lagochilus inebrians* Bunge.**




Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко'п ўллик о'sимлик. Пояси yog'ochlanuvchan, shoхlangan, gorizontal tuklar bilan qoplangan, yaltiroq oq qobiqli, баландлиги (20)-30-40-(60) см. Barglari tuxumsimon-rombik, bo'laklarga bo'lingan, tuklar bilan qoplangan. Gullari o'troq, 4-6 tadan

yuqoridagi barglar qo'ltig'idan o'rinni olgan. Kosachasi ingichka qo'ng'iroqsimon, uchi tikanli, 15-23 mm uzunlikda. Tojbargi oq yoki pushti, qo'ng'irsimon dog'lari bor, 20-28 mm uzunlikda. Yong'og'i tuksiz, 4-5 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog' oldi tumanlarda toshli-shag'alli tuproqlarda o'sadi. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi guli va bargi ishlatiladi. Dori preparatlari (damlamasasi, nastoykasi va quruq ekstrakti) qon ivishini tezlatish va qon bosimini pasaytirish ta'siriga ega bo'lgani uchun bachardon, o'pka, burun, yaralardan va boshqa joylardan qon oqishini to'xtatish hamda bavosil, 1-2 darajali gipertoniya kasalligini davolash uchun qo'llaniladi.

Gul tutqichli kiyiko'ti-Зизифора цветоножечная-Ziziphora suffruticosa Pazij. (*Z.slinopodiooides Lam.*)



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига mansub ko'p yillik, ko'p sonli poyalar hosil qiluvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, mayda tukli, binafsha rangli, balandligi 20-40 sm. Barglari bo'g'imlarda qaramaqarshi joylashgan. Nashtarsimon qisqa bandli, chetlari tekis, mayda tuklangan. Tuklari poyalar uchida qalqonsimon

joylashgan, gul tutqichlari (3)-4-5 mm uzunlikda. Kosachasi 5-6 mm uzunlikda, tuklangan, tojibargi ochiq-binafsha, 7-8 mm uzunlikda, naysimon, ostki labi 4-5 mm enlikda. Iyun-avgust oylarida gullaydi, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog'larning oldi va o'rtalintaqalarida toshli shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan. Barglaridan tayyorlangan damlamasi bolalar tomoq og'rig'ida, qorindagi og'riqlarda, qayt qilishda va sifilisda qo'llaniladi. Gullarining ekstrakti oshqozon yallig'ida, tez-tez qayt qilishda va yel haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Dala yalpizi (suv yalpizi)-Мята полевая-*Mentha arvensis L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, пояси тик о‘сувчи, асосидан шохланувчи, пояси то‘рт киррали, 25-50 см баландликдаги о‘т о‘симлиқ. Барлари узунчоқ наштарсимон, қалин, калта туклар билан қопланган. Гуллари шохлар ва пойанинг учидаги босгоқсимон то‘п гуллар ҳосил қилиди. Косачаси 2.5 мм узунлікда, уч киррали о‘тиккада тишчали. Тобжарлари пушти-бинафша рангда, 4-5 мм узунлікда. Июл-августда гуллаб, август-сентабрда уруг‘лари yetiladi. Tekkisliklarda va tog‘ oldi tumanlarida ariq va suv havzalarining qirg‘og‘ida, zax yerlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda bargi va efir moyi ishlataladi. Bargining dori preparatlari damlamasi, surtmasi (nastoykasi), suvi ko‘ngil aynishiga va quşishga qarshi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilashda ishlataladi. Yalpiz suvi yana og‘iz chayqash va suyuq dorilar ta‘mini yaxshilash uchun qo‘llaniladi. Bargi tinchlantiruvchi, o‘t haydovchi va me‘da kasalliklarida ishlataladigan choylar-yig‘malar, efir moyi qorin og‘rig‘ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentol ingofen tarkibiga kiradi. O‘simlikning bargi zdrenko yig‘masi tarkibiga kiradi.

Dog‘siz ko‘kamaron-Шлемник непятнистый-*Scutellaria immaculata Nevski. (S.orientalis L.)*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* оиласига мансуб, ко‘п ўйлиқ, сиyrak ко‘п сонли юстиқсимон, бир ўйлиқ нодалари ингичка 5-10 см узунлікда, о‘тсимон о‘симлиқ. Барлари ellipssimon, ayrim hollarda chetlari tekis. Гуллари юқоридаги barglar qo‘ltig‘ida joylashgan. Косачаси 2 mm узунлікда, Уруг‘и yetilishida biroz uzunlashadi. Tojibarglari och sariq, 25-30 mm узунлікда. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqalaridagi qoyalarda o‘sadi. Toshkent

(shagaltag) Farg'ona, Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Ushbu o'simlikni ildizidan spazmatik xastaliklarga qarshi qo'llaniladi.

Dorivor limono't-Мелисса лекарственная-*Melissa officinalis* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar)

Lamiaceae (*Labiatae*) oilasiga mansub ko'p yillik, poyasi tik, asosidan shoxlanuvchan, qalin dag'al bezlar va tuklar bilan qoplangan, limon singari hidga ega, 30-60 sm balanlikdagi o't o'simlik. Barglari tuxumsimon, chetlari yirik tishchali, ostki tomoni tuksiz, ust tomoni siyrak kalta tuklangan. Gullari uzun tutqichli, halqasimon joylashgan. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, uzun tolali tuklarga ega. Tojbargalari oq, tashqi tomoni biroz tuklangan, 13-14 mm uzunlikda. Yong'oqchasi uch qirrali, to'q-qo'ng'ir 1.7 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabr oylarida urug'i yetiladi. Tog'larni o'rta mintaqalarida, qoyalar, soyalarda o'sadi. Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Yer ustki qismining (ba'zan bargining) damlamasi ovqat hazm bo'lishi buzilganda uni tartibga solish, kamqonlik, ba'zi asab va yurak kasalliklarini davolash uchun hamda tirishishga qarshi ta'sir etuvchi, og'riq qoldiruvchi, surgi, siyidik va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Limono't asosan xalq tabobatida ishlatiladi.

Yevropa bo'riyog'i-Зюзник европейский-*Lycopus europaeus* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – Lamiaceae

(*Labiatae*) oilasiga mansub ko'p yillik, o't o'simlik, poyasi tik o'suvchi, balandligi 30-80 sm. Barglari nashtarsimon, bo'laklarga bo'lingan. Gullari o'troq, ko'p sonli, halqasimon bo'lib barg qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi 3-3.5 mm uzunlikda tuklangan, ignasimon tishchali, nayidan uzun. Tojbargi oq, kosachadan bir oz kaltaroq. Yong'oqchasi 1.5 mm uzunlikda. Iyul-sentabrda gullab, avgust-oktabr oylarida urug'i yetiladi. Ariq va soyalar qirg'og'idagi zax joylarida

o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qoraqolpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatlariida tarqalgan.

Yurak ritmlari buzilganda, qalqonsimon bezining faoliyati ortganda, uyqusizlikda qo'llaniladi.

Jeneva ayugasi-Живучка женевская-*Ajuga genevensis* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, поясини баландлиги 25 см. Барғи тескари узунроқ лансетсимон, ўирік тішчали, ости туksиз, уст томони сиyrak тукланган о‘симлик. Гуллари ھалқасимон то‘pgullar hosil qiladi. Kosachasi qo'ng'iroqsimon, ko'k rang 7 mm узунлікда.

Tojbarglari havorang 15 mm узунлікда ташқи томони тукланган. Май ойда гуллаб уруг‘лаиди. Toshkent viloyatining dalalarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismining дамламаси, qaynatmasi bezgak, rak kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Zarafshon ko‘k o‘ti (issop)-Иссоп зеравшанский-*Hyssopus zerafschanicus* (Dubjan.) Paziж.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Ко‘п сонли пояси бор, шохланган, 20-50 см баландликда. Барғлари наштарсимон, о‘трок, четлери текис. Гуллари калта тутқичли, оз сондаги гулларга ега. Kosachasi rangli, 7-8 mm узунлікда, майда тукланган, үчбүрчаксимон.

Tojbarglari to‘q ко‘к-бинафша ranglarda, 9-10 mm узунлікда. Июль-августда гуллаб, август-сентабр ойларда уруг‘и пishади. Тог‘ларнинг о‘рта мінтақадаги quruq toshli yonbag‘irlarida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Samarqand Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O‘симликнинг yer ustki qismining gulli qismi novdalari bilan qaynatmasi ko‘krak organlarida astma, bronxit, tomoq va angina xastaliklarida qo'llaniladi. Shuningdek ovqat hazm qilish organlarini davolashda ham ishlatiladi.

Zarafshon jambuli-Тимьян зеравшанский-*Thymus zeravshanicus* Klok. (*Th. serpyllum* L.)



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п yillik, yer bag‘irlab o‘suvchi, ildizlari oldidagi qismlari yog‘ochlangan chala buta. Yangi novdalari tuklangan, balandligi 5-10 (15) sm. Barglari teskari tuxumsimon o‘troq, 3-4 tadan tomirlangan, tuksiz, chetlari tekis. Gullari poyalarining uchida joylashgan boshoqsimon to‘pgullardir. Kosachasi 4-5 mm uzunlikda. Tojbarglari 5-7 mm uzunlikda pushti-qizg‘ish, pushti-qizil ranglarda. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘larni o‘rta va yuqori mintaqalaridagi toshli va mayda shag‘alli tuproqlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida o‘sadi.

Yer ustki qismining damlamasi og‘riq qoldiruvchi, radikulitda, yo‘talga qarshi, ich burug‘da qo‘llaniladi.

Ingichka cho‘l yalpiz-Зизифора тонкая-*Ziziphora tenuior* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб bir yillik o‘simlik. Asosidan shoxlanuvchi, momiq tuklangan, gullar to‘plamlarida uzun tuklar joylashgan, balandligi 5-30 sm. Barglari poyada 2 juft uzunchoq tuxumsimon kalta bandli tez to‘kilib ketuvchi, kosachasi nashtarsimon 5-8 mm uzunlikda.

Uchburchaksimon uchli, tishchali. Tojbarglari ochiq binafsha rangli, 8-11 mm uzunlikda. Yong‘oqchasi 3 qirrali uzunchoq nashtarsimon. Qo‘ng‘ir rangda, 1,5 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. O‘zbekistonni barcha tog‘ oldi va tog‘larni o‘rta mintaqalaridagi toshli, gil tuproqli, shag‘alli joylarida tarqalgan.

O‘zbekistonning barcha tog‘ oldi va tog‘larning o‘rta mintaqalaridagi toshli, gil tuproqli, shag‘alli joylarida tarqalgan. Cho‘l yalpiz uncha tuproq tanlamaydi. U yuqori cho‘ldan tortib pastki tog‘

mintaqasigacha tarqalgan. Asosan adir mintaqasida juda ko‘p o‘sadi. Sernam, serhosil, soz tuproqlarda, ayniqsa, yaxshi unib chiqadi. Mamlakatimizdan tashqari Afg‘oniston, Sharqiy Egey dengizi, Fors ko‘rfazi davlatlari, Eron, Iroq, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Qirim, Livan-Suriya, Falastin, Janubiy Evropa, Tojikiston, Kavkaz, Turkiya, Turkmaniston, Ukraina, Shinjon va G‘arbiy Sibirda keng tarqalgan.

Ushbu o‘simlik organlarida juda ko‘plab makro va mikroelementlar mavjud. Jumladan, Farg‘ona viloyati Chimyon adirlari (Oqbilol hududi) dan terilgan o‘simlik tarkibini tekshirganimizda Na, K, Mn, Mo, Ca, Ba, Zn, Co, Fe, W, Au kabi elementlar borligi aniqlandi.

Mazkur shifobaxsh o‘simlik xalq tabobatida keng qo‘llaniladi. Uni gullab turgan paytida yig‘ib olib, suvda bir oz qaynatiladi va shamollashda va yo‘talni davolashda foydalaniladi. Ba’zan gullagan cho‘l yalpiz yig‘ib olib quritiladi va qishda suyuq ovqatlarga ziravor sifatida ishlataladi. O‘simlikdan tayyorlangan qaynatma yurak ish faoliyatini yaxshilashda, ichaklar ish faoliyatini yaxshilashda, ichburug‘da va ich qotishida ishlataladi.

Kalta kosachali yalpiz-Зизифора короткочашечная-Ziziphora brevicalyx Juz.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Ko‘p poyali, ingichka, asosi yog‘ochlanuvchi, balandligi (10)-20-40 sm. Barglari uzunchoq ellipssimon ponasimon. Gullari kalta (1,5-2 mm) tutqichli, ko‘p gulli bo‘lib ular novdalar uchida joylashgan. Kosachasi (4)-5-(6)mm uzunlikda. Tojbargi yorqin binafsha, uzunligi 8-9 mm naysimon pastki gul labi 4-5 mm enlilikda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larni ostki va o‘rtal mintaqalaridagi toshli, shag‘alli joylarda o‘sadi. Farg‘ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bargidan tayyorlangan damlamasi bolalarning tomoq og‘rig‘ida, oshqozon ichak xastaligida, qayt qilishda, qon tomir xastaligida, ichburug‘da foydalaniлади. Gullaridan tayyorlangan damlamasi ishtaha

ochuvchi, siyidik haydovchi, terlatuvchi, yurak ishini mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Keng kosachali bozulbang-Зайцевуб широкочашечная-*Lagochilus platycalyx Schrenk. ex Fisch.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub ko‘p yillik, poyasi o‘t o‘simgilik, bo‘g‘inlari oq po‘stloqli, balandligi 30-60 sm. Barglari rombik, keng uzunchoq, qirqilgan, bo‘laklarini uchi tikanli. Gullari o‘troq, poyani yuqorisidagi barg qo‘ltig‘ida 4-6 tadan joylashgan. Kosachasi ingichka qo‘ng‘iroqsimon 25-35 mm kenglikda, pastki kosachasi 20-30 mm uzunlikda. Tojbarglari pushti va qo‘ng‘ir nursimon dog‘lari bor, 25-30 mm uzunlikda, yuqori labi uzun. May-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida urug‘laydi. Tog‘larning old qismlaridan to o‘rta mintaqasigacha bo‘lgan toshli, mayda tuproqli, shag‘alli joylarda o‘sadi. Toshkent viloyati. G‘arbiy Tyan-Shan tizmalarida tarqalgan.

Qon quyulishini to‘xtatadi va zaharli xususiyati yo‘q.

Komarov tog‘ bo‘znochi (ajdarbosh)-Змееголовник комарова-*Dracocephalum Komarovii Lipsky.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simgilik. Poyalari ko‘p sonli, asos qismi yo‘g‘onlashgan, balandligi 10-20 sm. Barglari uchburchaksimon, asosan yuraksimon, chetlari tekis, kalta bandli. Gullari yuqori qismidan kichraygan, barglar qo‘ltig‘idan bittadan hosil bo‘ladi, kalta tutqichli. Kosachasi 10-11mm uzunlikda, binafsha rangda, ikki labli, mayda burmali, uch tishchali. Tojibarglarining ko‘rinishi tashqi tomondan momiq tuklar bilan qoplangan, 20-22 mm uzunlikda. Yong‘oqchasi nashtarsimon uzunchoq uch qirrali, tekis, 3 mm uzunlikda. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning yuqori qismidagi toshli joylarda o‘sadi. Toshkent viloyati (Oxangaron daryosini yuqori qismi) da tarqalgan.

Mahalliy aholi tomonidan qadrlanib uni tuyub, qaynoq suvgaga bir choy qoshiq qo'shib, choy o'mnida ham iste'mol qilinadi. Qaynoq choy oshqozon spazmasida, qorindagi boshqa og'riqlarda ham ichiladi.

Qalampir yalpiz-Мята перечная-*Mentha piperita L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Balandligi 30-40 sm, poyalari oddiy kam shoxlangan. Barglari uzun nashtarsimon, uchi uchli, qisqa bandli, tishchalarini arrasimon. Gullari poya va shoxchalar uchida boshoqsimon to'pgul hosil qiladi. Kosachasi binafsha, tuksiz, uchli kipriksimon tishchali. Tojbarglari pushti-ko'kish 3-4 mm uzunlikda. Changchilar tojbarglaridan qisqa. Iyun-avgust oyalarida gullaydi. Kam hollarda ariqlar qirg'og'ida o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

Bargi tinchlanuvchi, o't haydovchi va me'da kasalliklarida ishlatalidigan choylar yig'malar, efir moyi qorin og'rig'ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentol ingofen tarkibiga kiradi. O'simlikning bargi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

Qalpoqchali ko'kamaron-Шлемник колпачковый-*Scutellaria galericulata L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi to'rt qirrali, yuqori qismidan shoxlanuvchi, balandligi 40-50 sm. Bargi qisqa bandli, asosi yuraksimon, mayda tishchali, yuzasi tuksiz, ostki tomoni siyrak tuklangan. Gullari bittadan, yuqoridagi barglar qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi mayda tuklar bilan qoplangan 3,5 mm uzunlikda, urug'lari yoqimli hidli, 6 mm tashkil etadi. Tojbarglari ochiq, binafsha rangda, 13-16 mm uzunlikda. Yong'oqchasi sharsimon, 1,5 mm uzunlikda, och qo'ng'ir, tuksiz, mayda egatchali. May oxiridan to avgustgacha gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Daryolar, ariqlar

va sholipoyalar qirg'og'ida, nam yerlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'stonda tarqalgan.

Ildiz va ildizpoyalarining damlamasi hamma turdag'i qon ketishlarda, oshqozon ichak, buyrak, nafas yo'llari, revmatizm, uyqusizlik, yurak o'ynog'i, istimani tushiruvchi, bezgakka qarshi va gijjalarni to'kishda qo'llaniladi.

Qatortishli devortagi o'ti-Шандра очереднозубая-*Marrubium alternidens* Rech.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiateae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ko'p sonli poyali, kam shoxlanandigan dag'al tuklangan, balandligi 30-80 sm. Barglari yumaloq uzun bandli, tishchali-egatchali. Gullari ko'p sonli bo'lib, halqasimon joylashgan. Kosachasi 9-11 mm uzunlikda, yulduzsimon tuklari bilan qoplangan. Tojbarglari oq, tashqi tomoni yulduzsimon tuklar egallangan, uzunligi 9-11 mm, bargi ikki bo'lakli, qirqilgan. Yong'oqchasi uch qirrali tuxumsimon, 1,5 mm uzunlikda. May-sentabr oylarida gullab urug'laydi. Begona o't sifatida bog'larda, ekinzorlar chetida va tashlandiq yerlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida yer ustki qismi ishlataladi. Yer ustki qismining qaynatmasi xalq orasida tomoq og'rig'i, nafas yo'llarining surunkali shamollashi va tish og'rishi kabi kasalliliklarda og'iz va tomoq chayishda ishlataladi. Surtmasi (nastoykasi) esa tinchlaniruvchi va qon bosimini pasaytiruvchi ta'sirga ega ekanligi tajribada aniqlangan.

Mayda gulli tog' rayhoni-Душица мелкоцветная-*Origanum tytthanthum* Yontseh.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiateae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, ko'p sonli, yuqori qismidan shoxlanuvchi balandligi 30-60 sm. Bargi tuxumsimon yoki uzunchoqroq, to'mtoq asosi ponasimon, chetlari tekis, yuzasi tuksiz. Gullari

o'troq boshoqsimon yarim soyabonsimon, qalqonsimon to'pgullarga to'plangan. Kosachasi 3 mm uzunlikda kalta tuklangan. Tojbargi och ko'kish-pushti 5 mm uzunlikda. Yong'oqchasi to'q-qo'ng'ir 0,75 mm uzunlikda. Iyul-avgust oylarida gullab, iyul-sentabr oyida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta va pastki mintaqalaridagi toshli-shag'alli joylarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismi tarkibida efir moyi, triterpen kislotalar, kumarinlar, flavonoidlar va boshqa moddalar bor. Oddiy tog' rayhonning yer ustki qismidan tayyorlangan suyuq ekstrakti nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida, ichak yurishi zaiflashganda, ishtaha ochish, ovqat xazm qilishni yaxshilash, siyidik va yel haydash uchun qo'llaniladi. Suyuq ekstrakti nafas yo'llari kasalligida va ko'k yo'talda ishlatiladigan pertussin tarkibiga kiradi. Timol og'iz shilliq qavatini dezinfeksiya qilish va tish og'rishi qoldirish hamda terining zamburug'li kasalliklarini davolash, ba'zan gijjalarni haydash uchun ishlatiladi.

Mushuk zufo-Котовник кошачий-*Nepeta cataria L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyalari yo'g'on, sershox, balandligi 60-80 sm. Barglari uchburchakli, teskari tuxumsimon, asosi yuraksimon, yirik tishchali, yuzasi tuksiz, ostki tomoni siyrak tukli. Gullari siyrak, ko'p sonli, yarim soyabonsimon, to'pgul hosil qiladi. Gul tutqichlari 5-10 mm uzunlikda, gul yon barglari juda mayda, nashtarsimon, ignaga o'xhash tuklangan. Kosachasi 5-6 mm uzunlikda, kulrang momiqqli. Tojibarglari och havorang yoki ko'k ayrim hollarda oq, 7-8 mm uzunlikda. Yong'oqchasi ellipssimon, qo'ng'ir rangda, tekis 1,5 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullaydi, iyul-avgustda urug'laydi. Tog'larni o'rta mintaqasigacha begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

O'simlikning yer ustki qismi bosh og'rig'ida, oshqozon yallig'lanishida, yo'talda qo'llaniladi.

Oddiy ustixudus-Черноголовка обыкновенная-*Prunella vulgaris L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко‘п
yillik o‘simlik. Poyasi tik o’suvchi yuqori
qismidan shoxlanuvchi 10-40 sm balandlikdagi
o’t o‘simlik. Barglari uzunchoq tuxumsimon,
chetlari tekis, to‘q yashil, tuksiz. Gullari kalta
tutqichli, zikh boshoqsimon gul to‘plamiga ega.

Kosachasi 5-6 mm, urug‘laydi, binafsha rangda. Tojibarglari oqish,
binafsha dog‘lari bor. Tuksiz, 9-10 mm uzunlikda. Yong‘oqchasi
ellipssimon uch qirrali tuksiz, tekis, ochiq-ko‘ng‘ir, 2 mm uzunlikda.
Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida urug‘i yetiladi. Tog‘
oldi va yuqori tog‘ mintaqalaridagi nam joylarda o‘sadi. Toshkent,
Farg‘ona, Samarqand, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Poya va barglari teridagi diatez, og‘iz tuberkulyozida, oshqozon,
nafas yo‘llarida, qonli ich burug‘da qo‘llaniladi.

Oq lamium (oq par, oq yasnotka)-Яснотка белая-*Lamium album L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко‘п
yillik o‘simlik. Poyalari ildiz poyali, kam
shoxlangan, balandligi 25-70 sm. Barglari
tuxumsimon, uchli, asos qismi yumaloq, ostki
barglari tutqichli, yuqoridagilari o‘troq. Gullari
o‘troq, yuqori barg qo‘ltig‘ida qalqonsimon
joylashgan. Kosachasi tishchalar bilan birga
uzunligi 15 mm tuksiz, tikonsimon. Tojibarglari oq, tashqi tomoni
tuklangan, 20-22 mm uzunlikda, egilgan. Yong‘oqlari teskar
tuxumsimon, o‘tkir uch qirrali 2.5 mm uzunlikda. Iyulda gullab,
avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larni o‘rta mintaqasida nam joylarda
o‘sadi. Toshkent, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yurak xastaliklari, nafas yo‘llari yallig‘lanishida, taloq
xastaliklarida ekzema, eshakyemida, yaralarni davolashda qo‘llaniladi.

Osiyo suv yalpizi (cho'l yalpiz)-Мята азиатская-*Mentha asiatica*
Boriss. (*M. longifolia*).



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Poyasi tik o’suvchi, sershox, qalin tuklangan, balandligi 60-100 sm. Barglari nashtarsimon, o’troq, har ikki tomoni tuklangan. Gullari qisqa tutqichli bo‘lib, poya uchida boshhoqsimon to‘p gullar hosil qiladi. Kosachasi qalin tuklangan 2-2.5-(3) mm uzunlikda, ensiz uchburchak, uchki qismi tishchali. Tojbarglari ochiq-binafsha rangda va uzunligi 3-4 mm. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda urug‘i yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqasigacha, nam yerlar, ariqlar, buloqlar atrofida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda bargi va efir moyi ishlatiladi. Dori preparatlari damlamasni, surtmasi (nastoykasi), suvi ko‘ngil aynishiga va quisishga qarshi hamda ovqat hazm qilishni yaxshilashda ishlatiladi. Yalpiz suvi yana og‘iz chayqash va suyuq dorilar ta’mini yaxshilash uchun qo‘llaniladi. Mentol quloiq, burun, nafas yo‘llari kasalliklarida hamda tish og‘rig‘ini qoldirish uchun ishlatiladi. Mentol preparati, validol stenokardiya (ko‘krak qisish kasalligi) ga davo qilinadi. Bargi tinchlantiruvchi, o‘t haydovchi va me’da kasalliklarida ishlatiladigan choylar yig‘malar tarkibiga kiradi. Efir moyi qorin og‘rig‘ini qoldiruvchi tabletka va tomchilar, mentol ingofen tarkibiga kiradi.

**Paulsena bozulbangi-Зайцевуб Паульсена-*Lagochilus paulsenii*
Brig.**



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Poyalari kam shoxlangan, ingichka, yaltiroq oq po‘stli, balandligi 25-50 sm. Barglari rombiksimon, 1-2 marotaba qirqilgan, ingichka tikanli. Gullari poyani ikki qismidagi barglar qo‘ltig‘ida 2 tadan joylashgan. Kosachasi

ingichka qo'ng'iroqsimon, tuklangan, 4 tadan tikanga aylanuvchi o'simtali, ostki kosachasi 25-35 mm uzunlikda. Tojbarglari och-pushti 30-40 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabr oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalaridagi toshli joylarda o'sadi. Farg'ona viloyatida tarqalgan (Oloy tizmasida). Qon quyulishini tezlatib, ichki qon ketishini to'xtatadi.

Pashsha qo'nmas marmarak (tikanli marmarak)-Шалфей колючий-Salvia spinosa L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi asosidan shoxlangan, hamma qismi tuklangan, balandligi 25-50 sm. Bargi turlicha bo'lib, ildiz bo'gzidagilari qalin momiq tuklangan, ellipssimon, yuqoridagilari o'troq poyani o'rab oluvchi. Gullari kalta tutqichli 1-2 tadan gul barglarini qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi naysimon, hamma qismi momiq bezchali tuklar bilan qoplangan, uzunligi 17-20 mm, uchburchak shaklda, tikanli tishchali.

Tojibarglari oq, 23-25 mm uzunlikda, yong'oqchasi uch qirrali yumaloq, ochiq qo'ng'ir 2,5 mm uzunlikda. Mayda gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Qo'ng'ir tuproqli, tog' o'rnmonlari atrofida o'sadi. Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi ishtaha ochishda, yurak tez urganda, darmonsizlikda, bezgak, buyrak va ovqat hazm bo'lishini yaxshilashda, teridagi tangachali psoriazda qo'llaniladi.

Poyani o'rab oluvchi yasnotka-Яснотка стеблеобъемлющая-Lamim amplexicaule L.




Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб bir yillik o'simlik. Poyalari asosida shoxlangan, shoxchalari asosiy poya bilan teng, (5)-10-25-(40) sm balandlikda. Barglari yumaloq, tuklar bilan qoplangan, uzun bandli, yuqoridagilari (gul

to'plami ostkidagilari) o'troq. Gullari o'troq, kam sonli bargalar qo'ltig'ida xalqasimon joylashgan. Kosachasi 5-6 mm uzunlikda, tuklangan, uchli tishchali. Tojbarglari pushti, tashqi tomoni tuklangan 14-15 mm uzunlikda. Yong'oqchasi teskari tuxumsimon, o'tkir uch qirrali, tuksiz, 2 mm uzunlikda. Mart oyini oxirida gullab aprel-mayda urug'lari yetiladi. Tog'oldi lalmi yerlarida, cho'llarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

Qon oqishini to'xtatuvchi, asab tizimini qo'zg'atuvchi, uyqusizliklarda qo'llaniladi.

Royla mallachoyi-Лаллеманция ройла-*Lallemantia Royleana* (Wall.) Bnth.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Oddiy, poyali asosidan shoxlangan, balandligi (5)-10 -25-60 sm. Barglari ellipssimon, asosi keng ponasimon, bandlari yaprog'idan ikki bora uzun. Gullari yo'g'on bandli, boshoqsimon. Kosachasi 7-8 mm uzunlikda, momiq tuklangan, qalqonsimon o'tkir tishchali.

Tojibarglari binafsha rangda, tashqi tomoni momiq tuklangan, kosasidan oz-moz uzunroq, yong'oqchasi uch qirrali, tuksiz tekis, to'q qo'ng'ir 2,75 mm uzunlikda. Aprel-iyul oylarida gullab, may-iyulda urug'lari yetiladi. Cho'l hududlaridan to tog'larni o'rta mintaqalarigacha bo'lgan joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Yetilgan urug'idan tayyorlangan qaynatmasi siydik haydovchi va balg'am ko'chiruvchi, oshqozon va ichaklardagi xastaliklarga qo'llaniladi.

Sigirquyruqsimon qo'ziquloq-Зопник коровяковидный-*Phlomis thapsoides* Bunge.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п yilik, ko‘p sonli poyali, tik o‘suvchi, shoxlangan, yulduzsimon momiq tuklar bilan qoplangan o‘simlik. Balandligi 30-50 sm. Barglari keng tuxumsimon, ostki barglari bandli yuqoridagilari qisqa bandli, yuza va ostki qismlari ham yulduzsimon tuklar bilan qoplangan. Gullari yuqoridagi gul barglarini qo‘ltig‘ida 2-6 tadan joylashgan. Kosachasi 12-14 mm uzunlikda, qalin yulduzli tuklar bilan qoplangan, qobirg‘ali, 0,5-2 mm uzunlikdagi kalta tikansimon tishchali, tojibarglari pushti-ko‘k rangda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi yaylovlarda asosiy landshaft o‘simligi sifatida o‘sadi. Samarqand, Surxondaryo, viloyatlarining g‘arbiy qismlarida tarqalgan.

Gullari oz miqdorda choy bilan aralashtirilib, shamollahsha qabul qilinadi.

Tez to‘kluvchi teukrium-Дубровник скордиевидный-*Teucrium skorodonia* Schreb.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oиласига мансуб ко‘п yilik o‘simlik. Poyasi ko‘tarilib o‘suvchi shoxlangan (10)-20-40-(60) sm balandlikda. Bargi o‘troq yirik arrasimon tishchalari o‘tkir uchli. Gullari 2-6 tadan halqasimon joylashgan kosachasi qo‘ng‘iroqsimon, 3-4,5 mm uzunlikda. Tojbarglari pushti 7-10 mm uzunlikda, tashqi tomoni tuklangan. Yong‘oqchasi yarim sharsimon 1mm uzunlikda. Maydan sentabrgacha gullab urug‘laydi. Sho‘rxok va nam botqoqlashgan joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi gemoroy xastaligida vanna qilish uchun va teridagi yaralarga qarshi ishlatiladi.

**Tog' qudusi-Чистец буквицецветный-Stachus betoniciflora Rupr.
(Betonica officinalis L.)**



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Tik o‘suvchi, tuklar bilan qoplangan, balandligi 40-100 sm. Barglari lansetsimon, yirik arrasimon tishchali, uzun bandli, poyadagilari o‘troq. Gullari boshoqsimon, poyaning uchida joylashgan. Kosachasi 11-13 mm uzunlikda, tuklangan, qisqa uchburchaksimon. Toj barglari to‘q qizil, 16-20 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Butalar orasida, tog‘ning o‘rtta mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Namangan viloyatlari tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, alkaloidlar, stahidrin, iridoidlar, vitamin C va K, smolalar bor. Suyuq ekstrakti yallig‘lanish va fibromioma natijasida bachadondan qon ketishini to‘xtatish hamda tug‘ishdan so‘ng va abortdan keyingi bachadon qisqarishini kuchaytirish (o‘z holiga kelishini tezlatish) uchun qo‘llaniladi.

Turkiston arslonquyrug‘i-Пустырник туркестанский-Leonurus turkestanicus V.Krecz. et Kuprian.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) –
Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Poyasi ko‘p sonli tik o‘suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchan, mayda tuklangan, 40-50 sm balandlikda. Barglarining ko‘rinishi doirasimon besh panjali bo‘laklarga bo‘lingan. Gullari o‘troq, kam sonli halqasimon joylashgan. Kosachasi 8-9 mm uzunlikda, kalta tuklangan, uzun uchlari tikanga aylangan. Tojbarglari pushti-qizg‘ish, tashqi tomoni tuklangan 12-13 mm uzunlikda. Yong‘oqchali mevasi

ochiq qo'ng'ir, o'tkir uch qirrali. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta mintaqalarida nam, shag'alli tuproqli joylarda o'sadi. Toshkent, Smarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismi tarkibida flavonoidlar (rutin, kversetin va kvinkvelozid), alkaloidlar, efir moyi, vitamin C, karotin, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari damlamasi, surtmasi (nastoykasi) va suyuq ekstrakti tinchlantiruvchi vosita sifatida qon bosimini oshishi, asabiylashish, ba'zi yurak kasalliklari, yurak nevrozida hamda kardiosklerozni davolash uchun qo'llaniladi.

Ushbu dorivor o'simlik organlarida Na, K, Ca kabi makroelementlarni, Fe, Zn, Sr, Mo, Br, Cs, Mn, Rb mikroelementlarni hamda Co, Se, Cr, As, Ni, Ba, Hg, Sc, U, Th kabi ultramikroelementlarni saqlaydi.

O'rganilgan elementlarning biologik roli nuqtayi nazaridan tasnifiga e'tibor beradigan bo'lsak, ular hayot uchun zaruriy biogen, essensial elementlar qatoridan joy oladi. Arslonquyruq tarkibidagi elementlarning miqdori tuproq xossa va xususiyatlariga, xususan elementlar tarkibiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi.

O'rmon quddusi-Чистец лесной-*Stachys sylvatica L.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae (Labiatae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi to'g'ri o'suvchi, balandligi 1 m. Bargi yirik, katta arrasimon tishli, ikki yuzasi siyrak tuklangan, bandli. Gullari siyrak halqasimon bo'lib, guli barglar qo'ltig'ida joylashgan.

Kosachasi 8-9 mm uzunlikda uchburchak shaklda bo'lib, uchki qismi tikanga aylangan. Tojibarglari to'q qo'ng'ir qizil, 14-16 mm uzunlikda, ostki lab tojibargi tepadagidan 1.5 marta uzun. Iyunda gullaydi. Tog'larning o'rta mintaqasidagi butazorlarda o'sadi. Farg'ona viloyati (chodaksoy) da tarqalgan.

Yer ustki qismidan tayyorlangan suyuq ekstrakti yallig'lanish, fibromioma natijasida qon ketishiga qarshi, bachadonni tez qisqartirishda qo'llaniladi.

Xarifgulli tog'quddusi-Чистец буквицецветный-Stachys betoniciflora Rupr.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar)

Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко'п yilik o'simlik. Poyasi yaxshi rivojlangan, balandligi 40-100 sm. Barglari uzunchoq nashtarsimon, yirik arrasimon tishchali. Gullari boshoqsimon to'pgullarda joylashgan. Kosachasi 11-13 mm uzunlikda, tuklangan.

Tojbarglari qizil, 16-20 mm uzunlikda momiq tuklangan, naychani ustki tomoni tuksiz. Iyun-avgust oylarida gullab, iyun-sentaborda urug'lari yetiladi. Tog'larni o'rta mintaqasidagi butazorlarda o'sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan. Yer ustki qismidan tayyorlangan suyuq ekstrakti yallig'lanish, fibromioma natijasida qon ketishiga qarshi, bachadonni tez qisqartirishda qo'llaniladi.

Xushbo'y marmarak-Шалфей мускатный-Salvia ssarea L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar)

Lamiaceae (Labiatae) oиласига мансуб ко'п yilik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, qalin uzun tuklar bilan qoplangan, balandligi 50-100 sm. Barglari yirik tuxumsimon, asosi yuraksimon, kosachasi 9-11 mm uzunlikda qovurg'ali, qalin bezchali tuklar

bilan qoplangan. Tojbarglari och-pushti binafsha rangda, 25 mm uzunlikda. Yong'oqchasi yumshoq, uch qirrali, och-ko'ng'ir 2,5 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Vohalarda, ekinzorlarda va bog'larda, tog'oldi hududlarda o'sadi. Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bargining damlamasи burushtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llari

yallig‘langanda, tomoq, milk shilliq pardalari yallig‘lanishida og‘iz chayish uchun qo‘llaniladi. Bargi tomoq, me‘da kasalliklari va ichketarda ishlatiladigan choylar-yig‘malar tarkibiga kiradi.

Hisor ko‘kamaroni-Шлемник гиссарский-*Scutellaria hissarica*

B.Fedtsch.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oиласига мансуб ко‘п yillik, ko‘p sonli poyalar hosil qiluvchi, shoxlangan, tuksiz, balandligi 20-50 smga yetadigan o‘simlik. Barglari keng ayrisimon, keng tuxumsimon, chetlari katta arrasimon tishli, yuqoridagi barglarining chetlari tekis. Gullari kalta tutqichli, bittadan barglar qo‘ltig‘ida joylashgan.

Kosachasi 5 mm uzunlikda, urug‘lari yetilganda 7-8 mm ga yetadi. Tojibarglari to‘q binafsha, 22-25 mm uzunlikda, ustki lab guli sariq, binafsha dog‘li. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ning o‘rtal mintaqalaridagi qoyalarda o‘sadi. Surxondaryo viloyati (Hisor tizmasidagi Sangardak, To‘palang daryo havzalari) da tarqalgan.

Gullari va barglaridan choy tayyorlab burundan qon ketishida ichiladi. Shamollashda, oshqozon ichaklar shamollaganda ham qo‘llaniladi. Yurak qon tomirlar xastaligida, tinchlantiruvchi, quvvatga kirituvchi sifatida ham qo‘llaniladi.

Cho‘l marmaragi-Шалфей пустынный-*Salvia deserta Schang.*



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Poyasi ingichka, tik o‘suvchi, qalin tuklangan, balandligi, 60-80 sm. Barglari uchburchaksimon-nashtarsimon, uchki qismi o‘tkir uchli, har ikki tomoni tuklangan, ostkilari uzun yuqoridagilari kalta yoki o‘troq. Gullari kalta tutqichli, 2-3 tadan barg qo‘ltig‘ida

shingilsimon to‘pgul hosil qiladi. Kosachasi 6-8 mm uzunlikda, momiq tuklar bilan qoplangan. Tojibarglari binafsha rangda, 11-12 mm

uzunlikda. Yong‘oqchalari doirasimon uchburchakli, qora, 1,5 mm uzunlikda. May-avgust oylarida gullab, iyun-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi va vohalarda, sug‘oriladigan yerkarda, o‘tloqlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barg va gullari va urug‘idan tayyorlangan qaynatmasini yurak nevrozlarida maydalab tuyilgan va qovurilgan yong‘oqchalari dizenteriyada, yurak o‘ynog‘ida qo‘llaniladi.

Efioipiya marmaragi-Шалфей эфиопский-*Salvia aethiopis* L.



Yalpizdoshlar (Labguldoshlar) – *Lamiaceae* (*Labiatae*) oilasiga mansub ikki yillik o‘simlik. Mustahkam poyali, shoxlangan, balandligi 50-80 sm. Barglari keng uzunchoq, asosi yuraksimon, panjasimon bo‘laklangan, ikki tomoni tuklangan, kosachasi gullagan davrda 9-10, urug‘langanda 12-14 mm uzunlikda, qovurg‘ali, uchki qismi tikanga aylangan tishchali. Tojibarglari oq, 15-16 mm uzunlikda, o‘roqsimon qalqonli. Yong‘oqchasi ellipssimon uch qirrali, qo‘ng‘ir rangli, 3 mm uzunlikda. May-iyunda gullab, iyun-iyulda urug‘lari yetiladi. Begona o‘t sifatida tarqalgan. Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yurak, teridagi yaralarda, bezgak, buyrak xastaliklarida qo‘llaniladi.

Zich qo‘ng‘iroqgul-Колокольчик скученный-*Campanula glomerata* L.



Qo‘ng‘iroqguldoshlar – *Campanulaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi tik o‘suvchi, qirrali balandligi 25-60 sm. Ostki barglari uzun bandli, uzunchoq nashtarsimon, asosi yuraksimon. Gullari o‘troq, poyani uchida joylashgan bo‘lib, barg qo‘ltig‘idan hosil bo‘ladi. Kosachasi uchburchaksimon Tojibarglardan 2 barobar kalta. Tojibargi binafsha rangda 15-25 mm uzunlikda. Tashqi tomoni qalin tuklar bilan qoplangan. Iyunda gullab, avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rtal mintaqalaridagi mayda tuproqli-toshli

joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona (Shoximardon) va Samarqand viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatda barglaridan tayyorlangan damlama tomoq shamollaganda va tamoqdagagi xirrillashlarni davolashda ishlatiladi. Gullari hamda o'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama tanadagi suvli yaralarni yuvishda ishlatiladi. Damlamasi bilan tutqanoqli bolalarni cho'miltiradilar.

Avtriya shuvog'i-Полынь австрийская-Artemisia austriaca Jacq.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar)

Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Oqish-kulrang ipaksimon tuklar bilan qoplangan, poyalari bir nechta, qalin barglar bilan qoplangan, blandligi 15-70 sm. Ostki poya barglari 4 sm uzunlikda, ovalsimon ikki bora qirqilgan, bo'laklari 12 mm uzunlikda.

Savatchasi 2 mm enlikda, o'troq, 10-15 gulli, gullari sariq, gullah oxirida qizil rangga o'tadi. Urug'lari 1 mm uzunlikda, uzunchoq tuxumsimon, qo'ng'ir, oz-moz burishgan. Iyulda gullab, oktabrda urug'lari yetiladi. Sho'rxok cho'llarning harakatlanuvchi barxanlari atrofida o'sadi. Qoraqalpog'istonning Ustyurt cho'llarida tarqalgan.

O'simlikning barg, gul va boshqa qismlarini erta bahorda, barglari chiqmasdan barg kurtaklari qirqib olinadi va ochiq havoda yoki sun'iy sharoitda issiq xonalarda quritiladi. Dorishunoslikda ulardan dori tayyorlashda foydalilanildi.

Ashurboyev shuvog'i-Полынь Ашурбайева-Artemisia

Aschurbajevii C. Winkl.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar)

Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Ko'p sonli poyalalar hosil qiluvchi, deyarli hamma qismi tuklangan, poyalari kulrang yoki och qo'ng'ir rangda, blandligi 20-30-(50) sm. Mevasiz poyalarni barglari bandli, qolganlari deyarli o'troq, bandlarni uzunligi 1,5-3 sm va eni 1,2-3 sm.

Savatchasi yarim sharsimon 6-8 mm enlikda. Urg'ochi gullari ingichka novsimon, siyrak tuklangan, ikki jinsli gullari naysimon, sariq, tuklangan. Urug'i 1 mm uzunlikda. Iyul oyida gullab, sentabrda urug'lari yetiladi. Tog'larning o'rta qismidagi yumshoq tuproqli, toshli surilmalarda, archazorlar atrofida o'sadi. Toshkent, Farg'ona viloyatlarda tarqalgan.

Tabobatda qaynatma damlamasi oshqozon xastaliklarida, ovqat xazm qilish og'irlashganda va yel haydash uchun ichiladi.

Baland bo'yli andiz (Qora andiz)-Девясил высокий-*Inula helenium L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Ildizi yo'g'on, poyasi tik o'suvchi, balandligi 100-175 sm Barglari tekis bo'limgan tukchali, uzunligi 50 sm, eni 25 sm yuqorisi o'troq yuraksimon poyani o'rab oluvchi, 10-30 sm uzunlikda va eni 3-12 sm. Tilsimon gullari uzunroq 30 mm uzunlikda eni 2-2,5 mm. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Nam ekinzorlarda, bedalar orasida, namli o'rmon chetlarida o'sadi. Tog'larni o'rta qismida, archazorlar, butazorlar chetida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarda tarqalgan.

Tibbiyotda ildizpoyasi va ildizi ishlataladi. Yer ostki qismi tarkibida efir moyi, ko'p miqdorda insulin uglevodlar, saponinlar, alkaloidlar, smola, achchiq va shilliq moddalar bor. Ildiz poyasi va ildizining qaynatmasi nafas yo'llari kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ushbu o'simlik o'z organlari tarkibida Na, K, Mn, Sm, Re, Mo, Lu, U, Yb, Au, Nd, As, W, Br, Ca, La, Ce, Se, Hg, Tb, Th, Cr, Hf, Ba, Sr, Cs, Ni, Sc, Rb, Zn, Co, Ta, Fe, Eu, Sb kabi makro, mikro va ultramikroelementlarni saqlaydi.

Bibershteyn bo‘ymadaroni-Тысячелистник биберштейна-*Achillea biebersteinii. Afan.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Пояси ко‘п сонли, тик о‘сувчи кам шохланувчи, сезилиши қиин бо‘лган қиррали, қалин ва калта туклар билан қопланган, баландлиги 20-40 см. Баргалари узун, тукланган, наشتарсимон, икки бора қирғилган, учкі қисмі майда қирғилган.

Саватчаси түзумсимон узунчоқ 4-5 мм узунликда, қалин қалқонсимон то‘п гулга то‘плangan. Тилсимон гуллари саріq 4-5-(6) тадан. Уруг‘лари узунчоқ понасимон, кулrang-қора 1-1,5 mm узунликда. Май-иуяда гуллайды, Июл-августда уруг‘лари yetiladi. Тог‘лarning о‘рta мінтақаларидаги о‘тлоqlar, о‘rmonlar, ariqlar va soylarni qirg‘oqlarida o‘sadi. Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Qaynatmasi tashqi va ichki qon ketishida, qonash bilan bog‘liq yaralar, gemoroy xastaliklarida, tuberkulyoz, kuygan joylarga hamda ayollar xastaliklarida qo‘llaniladi.

Bir yillik kungaboqar-Подсолнечник однолетний-*Helianthus annuus L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* оиласига мансуб bir ўйлиқ о‘симлик. Пояси то‘g‘ri o‘sadi, шохланмайды, сиyrak, dag‘al туклар билан қопланган, баландлиги 2-4 m. Barglari bandli, yuraksimon, икки томони ham тукланган.

Саватчаси yirik, diametiri 30 sm, yassi. Tilchali гуллари och саріq, naychali, гуллари ochiq саридан то‘q pushti rangacha. Pistasi oq, qora, kulrang. Iyun-avgust oylarida гуллайды, avgust-sentabrda уруг‘i yetiladi. O‘zbekistonni barcha viloyatlarida keng ekiladi.

Tibbiyotda urug‘idan olinadigan moyi, bargi va gullari ishlataladi. Barg va gulidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida isitmani tushirish uchun ichiladi. Ularning suyuq ekstrakti esa ilmiy tibbiyotda ishtaha ochish uchun buyuriladi.

Bir yillik shuvoq (Burgan,sassiq kapa)-Полынь однолетняя- *Artemisia annua L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub bir yillik o’simlik. Poyalarini uchki qismi tuklangan, poyasi bittadan, asosidan ko‘p shoxlangan, qobirg‘ali, qizg‘ish, balandligi 30-100 sm. Barglari tuxumsimon 3-5 sm uzunlikda, ikki-uch marotaba bo‘laklangan, chetlari arrasimon tishchali. Savatchasi 2-2,5 mm kenglikda, sharsimon, o‘troq. Gullari sariq, mayda, tuksiz. Urug‘i qo‘ng‘ir, 0,5 mm uzunlikda. Sentabr oyida gullab, oktabr oyida urug‘lari yetiladi. To‘qaylarda, tashlandiq yerlarda va ekinlar orasida o‘sadi. O‘zbekistonning barcha sug‘oriladigan yerlarda tarqalgan.

Bargidan olingan shirasi teridagi qichima, yiringli yaralarni davolashda ishlataladi. Yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi ishtaha ochishda, revmatizmda, sibir yazvasida, bezgak xastaliklarda qo‘llaniladi.

Biritaniya andizi (chachalabosh)-Девясил британский-*Inula britannica L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Ildizsimon ingichka, poyasi yumshoq tuklar bilan qoplangan. Balandligi 20-60 sm. Barglari 4-10 sm uzunlikda va eni 0,5-2,5-(4) sm. Ildiz bo‘g‘zidagi ellipssimon, uzunchoq nashtarsimon, bandli chetlari To‘g‘ri yoki mayda tishchali, poyadagi barglari o‘rab oluvchi o‘troq.

Savatchasi kam sonli gullari 2-3 sm poyani uchki qismida bittadan joylashgan. Urug' uchidagi ko'pi oq rangda, taxminan 3-4 marotaba urug'dan uzun. Urug'i uzunroq 1,2-2 mm uzunlikda va eni 0,75 mm oqich qo'ng'ir rangda, 10 tadan qovirg'alarga ega. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi.

Bedazorlar, ariq va soylar bo'yida, ayrim hollarda ekinzorlarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildiz va ildizpoyasining qaynatmasi qandli diabetda, sariqda, nafas yo'llarini shamollahida, suyak tuberkulyozida, revmatizmda, gemoroyda, gjjalarni tushurishda va bachadondan qon ketishini to'xtatishda foydalilanadi.

Boshog'riq o'ti (bo'ymadaron)-Тысячелистник сантолинный-

Achillea santolina L. (Achillea kermanica Gaud.)



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) –
Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub ko'p yillik, poyalari bir nechta, kam shoxlangan, tik o'suvchi, balandligi 15-30 sm. Barglari och yashil, kulrang, barglarini oxirgi qirqimi 1-1,5-2 mm uzunlikda. Savatchasi teskari tuxumsimon, poyani uchidagi qalqonsimon to'pgullari 2 sm.

Gullar yonidagi yon bargchalar 4 mm uzunlikda. Gul o'rni yassi, ko'p sonli, nashtarsimon. Tilchali gullari sariq, 5-6 tadan. Urug'lari kulrang-qora, uzunchoq ponasimon, 1,25-2 mm uzunlikda. May-iyul oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi, cho'l mintaqalaridagi taqirlarda, lalmi maydonlarda, ariqlar atrofida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Efirli moylar, kamfora, sineol, pinen kabi moddalar saqlaydi. Xalq tabobatida yiringli yaralar va zamburug'li yaralarni yuvish uchun ishlataladi.

G‘o‘zasimon momiq (oqmomiq)-

Шерстистолистникхлопковидный-*Lachnophyllum gossypinum* Bunge.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир юлилк, qалин момиқсимон туклар билан qoplangan, ko‘p shoxlangan, balandligi 10-50 sm. Poyani pastki barglari teskari tuxumsimon, 1,5-4,5 sm uzunligi va eni 0,5-1,7 sm poyani yarim o‘rab oluvchi. Tilchali gullari pushtisimon-havorang, 1 sm uzunlikda, tuklangan. Gul o‘rni diskasi 7 mm

uzunlikda, sariq. Urug‘i 2-3 mm uzunlikda, yassi, oqish tukli, ko‘plari 5-6 mm uzunlikda. Iyul-oktabr oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘ oldi cho‘llaridan to tog‘ning o‘rta mintaqasigacha, toshli, shag‘alli joylarda o‘sadi. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

O‘simlik yer ustki qismida efir moyi saqlaydi. O‘simliklarning barglaridan olingan shirasi qaynatilib, quyuq xolga keltiriladi va bitishi qiyin bo‘lgan yaralarga surtiladi, asosan furunkul va chipqonlarda, ko‘ziga tushgan oq dog‘larni davolashda ham qo‘llaniladi.

Gnaploidis gulband-Блошица сушеницевидная-*Pulicaria gnaphalodes*. (Vent.) Boiss.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир юлилк o‘simlik. Poyasi asosidan shoxlanuvchi, balandligi 40-100 sm, barcha qismlari uzun tuklар bilan qoplangan, o‘ziga xos hidga ega, och yashil o‘simlik. Barglari uzunchoq, chetlari to‘lqinsimon, 5-9 mm uzunlikda. Savatchasi ko‘p sonli, 5-10 mm diametrda

poya va shoxchalar uchida joylashgan. Tilchali gullari oz sonli 1-3 mm uzunlikda. Urug‘i 1 mm uzunlikda tekis. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘oldi va cho‘l hududlarining toshli shag‘alli va gil tuproqli joylarida o‘sadi. Andijon, Namangan

(Uchqo'rg'on), Buxoro, Samarqand, Xorazm, Surxondaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan qaynatmasi bilan yaralar yuvilsa ulani tez bitishini ta'minlaydi.

Dala qirquyonjun-Жабник полевой-*Filago arvensis* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб бир ўйлик, баландлиги 10-40 см, оқиш юки кулrang оқиш о'sимлик. Barglari butun, uzunchoq nashtarsimon. Savatchasi 4-6 mm uzunlikda va eni 2-4 mm, gullari sharsimon to'pgul hosil qiladi, barg qo'ltig'ida 2-7 tadan joylashgan. Urug'lari ko'pparli, pari to'q kulrang, 0,5-0,75 mm uzunlikda va eni 0,2-0,25 mm. Ko'pparlari urug'idan 4-5 marotaba uzun. Aprel oyida gullab, may oyida urug'laydi. Tog' oldi qismlaridagi toshli-shag'alli va mayda tuproqli joylarda, bug'doyzorlarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bargidan tayyorlangan qaynatmasi oddiy va qonli ichburug'da, tish og'rig'ida ishlatiladi.

Dorivor qoqi (momaqaymoq, gulqoqi, qoqio't)-Одуванчик обыкновенный-*Taraxacum officinale* Wigg.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п ўйлик, barglari yerga tegib mozayka hosil qiladi. To'q yashil, ikki tomoni ham siyrak tuklangan, 10-20-25-(30) sm uzunlikda va eni 3-4,5-6 sm, chetlari chuqur qirqilgan. Mozaika o'rtasidan gul poya hosil bo'ladi, u qalin tuklangan. Savatchasi yirik 3-4 sm ayrim hollarda 1,5-2,5 sm diametrda. O'rabi oluvchi barglarining tashqisi to'q yashil. Chetga bukilgan, nashtarsimon, (5)-7-10-12 mm uzunlikda va eni 2-2,5mm bo'lib eng tashqisi

ichkilaridan kaltaroq. Guli ochiq sariq. Urug'lari kulrang-qo'ng'ir, aniq bo'limgan to'rt qirrali, 3-4 mm uzunlikda. Ko'ppari oq, 6-7 mm uzunlikda. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida urug'laydi. Ariqlar bo'yida, ekinzorlarda, yo'l yoqalarida o'sadi. O'zbekistonni barcha viloyatlarida keng tarqalgan.

Barglari uzelganda ajiralgan sutsimon shirasi bilan so'gallar yo'qotiladi. Shuningdek ko'krak og'riqlarida, kuchli surgi o'mida. Barglarini sut bilan qaynatib kamqonlikda, quvvatsizlikda ishlatiladi. Ildizidan tayyorlangan qaynatmasi tuberkulyozda, diabetda, jigar xastaligida, siyidik qopchiq xastaligida qo'llaniladi.

**Dorivor moychechak (gazako't, qirqmabarg moychechak)-
Ромашка обрезанная-*Matricaria recutita L.*(*Chamomilla recutita L.*)**



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. O'ziga xos hidga ega, tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, balandligi 15-40 sm. Barglari ochiq-yashil, tuksiz, ikki bora mayda qirqilgan. Savatchasi keng, novdalari uchida uzun ingichka tutqichda bittadan joylashgan. Tilsimon gullari oq, pastga bo'kilgan, 6-10 mm uzunlikda, markazidagi gullari sariq. Urug'lari to'q kulrang 1 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullab, urug'laydi. Dorivor o'simlik sifatida ekiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekib o'stiriladi.

Gullarini damlamasi me'da-ichak, ginekologik xastaliklarda, ter va yel haydovchi, yallig'lanishlarga qarshi ishlatiladi.

Dorivor tirnoqgul-Ноготки лекарственный-*Calendula officinalis* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi shoxlangan. Tuklar bilan qoplangan, balandligi 30-40 sm ildiz oldi barglari uzun bandli, teskari tuxumsimon yirik, poyadagi barglar poyani yarim o'rabi oluvchi

o'troq, chetlari to'lqinsimon. Savatchasini diametri 2-5 sm. Gullari sariq yoki pushti, ayrim hollarda to'q qizil urug'larini uchida ko'ppari yo'q, bukilgan 15 mm uzunlikda, yuqori qismi do'nglashgan. 10-12 mm uzunlikda va eni 8-10 mm. May-sentabr oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida xiyobonlarda, xo'jaliklarda ekiladi.

Xalq xo'jaligi, tabobatida o'simlik damlamasi (yoki qaynatmasi) surgi, siyidik va gjija haydovchi vosita syfatida qo'llaniladi.

Yovvoyi puttikan-Латук дикий-*Lactuca serriola L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ikki yillik, poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shakllanuvchi balandligi 60-100 sm. Barglari och yashil, nayzasimon asosli, poyasini o'rab oluvchi savatchasi silindirsimon, 10-12 mm uzunlikda, supurgisimon to'pgullarni hosil qiladi. Gullari sariq, quritilganda ko'k rangda bo'ladi. Urug'lari gullarinining uchi och qo'ng'ir tuzilgan, ikki tomonidan 6-8 qobirg'ali. Iyun-iyul oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'lari yetiladi.

Ekinzorlarda, tog' oldi va tog'larni ustki qismlarida mayda shag'alli tuproqlarda, ariqlar bo'yalarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Damlamasi uyqusizlikda, tutqanoq xastaligida, yurak va buyrak xastaligida qo'llaniladi.

Jussan shuvog'i (ermon)-Полын горькая-*Artemisia absinthium L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub o'simlik. O'simlikni hamma qismi kulrang-kumushsimon gullar bilan qoplangan. Poyalari ko'p sonli, ayrim holda bittadan, tik turuvchi, yuqori qismidan shoxlanadi, balandligi 60-100 sm. Ildiz oldi barglari uzun bandli, uch bora qirqilgan, uzunligi 20 sm. Gullari supurgisimon

to'pgullarni hosil qiladi. Savatchasi sharsimon, 2-4-(5) mm enlilikda, 40-90 gulni o'z ichiga oladi. Gul o'mni botiq, urg'ochi gullari ipsimon naysimon, ikki jinsli gullari keng naysimon, sariq. Urug'lari qo'ng'ir rangda, 1 mm uzunlikda. May oyida gullab, sentabrdas urug'lari yetiladi. To'qaylarda, ariqlar qirg'og'ida, tashlandiq yerlarda, tog'ning o'rta qismida bo'lgan hududlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Damlamasi, surtmasi va quyuq ekstrakti ishtaxa ochuvchi va ovqat xazm qilishga yordam beruvchi vosita sifatida hamda jigar, o't qop va gastrit kasalliklarida qo'llaniladi.

Iberi bo'ztikani (bo'tako'zi)-Василек иберийский-Centaurea iberica Trev. ex Spreng.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб икки yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, balandligi 20-70 sm ko'p hujayrali, tuklar bilan qoplangan, yuqori qismidan shoxlangan, shoxchalari bittadan savatchali. Barglarini ikki tomoni tuklangan chetlari bo'laklangan, nashtarsimon,

chetki bo'laklari 9-11 mm enlilikda. Tojbarglari och-qizildan to oq ranggacha. Urug'lari uzunchoq 4-5 mm, uzunlikda tuksiz, tekis, rangli, Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Vohalarda, tog' oldi hududlarda, shag'alli va tuproq joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Bargidan tayyorlangan damlamasi bezgak xastaligida hamda ildizidan suvchechak xastaliklarida qo'llaniladi.

Ittikanak, qoraqiz (uch bo'lak bargli qoraqiz)-Череда трехраздельная-Bidens tripartita L



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб ko'p yillik o'simlik. Bo'yi uncha baland bo'lмаган 90-100 sm. Barglari etli qisqa bandli teskari tuxumsimon ovalsimon yoki teskari tuxumsimon, nashtarsimon, chetlari kipriksimon tishchali, 2-5

sm uzunlikda va eni 1-2,5 sm. Gullarining shingillari tik turuvchi va siyrak gulli. Mevalari uzunchoq, ellipssimon to‘q qizil. Bog‘lar va ko‘kalamzorlashtirish maydonlarida ekiladi. Tibbiyotda bargi va ildizi ishlatiladi. Tarkibida alkaloid (berberin) birikmalar bor. Berberin bisulfat surunkali gepatit, gepatoxolesistit, xolesistit va jigar kasalliklarida hamda o‘t yo‘lining tosh kasalligida o‘t haydovchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Kanada maydatojbargi (qulonquyruq)-Мелколепетник канадский-*Erigeron canadensis L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига mansub bir yillik o‘simlik. Yuqori qismidan shoxlanuvchi tuklar bilan qoplangan. Balandligi 25-120 sm. Barglar ko‘p sonli yashil, nashtarsimon, chetlari tekis. Gullari supurgisimon to‘pgul hosil qiladi.

Savatchalari ko‘p sonli, mayda 3-5 mm diametrda. Tangachali barglari nashtarsimon, uchli tuksiz yoki siyrak tukli. Tilchali gullari ko‘p qatorli, 3,5 mm uzunlikda, oq. Gul o‘rni tuksiz, ochiq-sariq to‘rt tishchali ayrim hollarda uch tishchali. Urug‘i uzunchoq, ochiq-kulrang, 1,5 mm uzunlikda, siyrak tuklangan. Ko‘ppari 3 mm uzunlikda oq yoki sarg‘ish, bir qator joylashgan. Maydan-sentabrgacha gullab urug‘laydi. To‘qay, ariqlar bo‘yida, ekinzorlarda keng tarqalgan begona o‘t. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida keng tarqalgan.

O‘simlik tarkibida efir moylari bo‘lib, bachadondan qon ketishini to‘xtatish uchun 5-10 tomchidan ishlatiladi. Qaynatma damlamasidan ko‘z og‘rig‘ida, soch to‘kilishida va teridagi yaralar yuviladi.

Keng tangachali karrak-Кузиния широкочешуйная-*Cousinia platylepis Sehrenk.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига mansub ikki yillik o‘simlik. Poyasini balandligi 30-85 sm, tik o‘suvchi, shoxlangan, kam gulli, qanotchali, 3-7 mm enlikda. Barglari yumshoq, nashtarsimon, chetlari o‘yqli tishchali. Savatchasi sharsimon,

nisbatan mayda, 0,7-1sm diametrda. Gul o'rni tekis. Tojbarglari pushti rangda. Urug'i teskari tuxumsimon, qobirg'asi yo'q. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi va do'ngliklarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona viloyatlarida o'sadi. Qaynatilgan gullari yoki gullarining qaynatmasi kuchli yo'talganda ko'krak qafasiga bog'lanadi.

Ko'k bo'tako'z-Басилек обыкновенный-Centaurea cyanus L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб, бо'yi 40-80 sm ga yetadigan bir yillik o't. Asosan, o'tloqdarda, bog'larda, bug'doyzorlarda, ekinlar orasida o'sadi, ayrim joylarda manzarali o'simlik sifatida ekiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda guli ishlatiladi. Tarkibida glikozidlar, antotsianlar, kumarinlar, shilliq oshlovchi moddalar bor. Gulining damlamasi yurak va buyrak faoliyati buzilishi natijasida tanaga kelgan shishni davolashda va siyidik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gullari siyidik haydovchi choylar- yig'malar tarkibiga kiradi.

Kultiasov takasoqoli-Козлобородник культиасова-Tragopogon Kultiasovii M.Bp.t. (ruber S.G Gmel.)



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Yoshlik davrida tikanli tuklarga ega bo'ladi. Gullah davriga kelib kamayadi. Poyasi asosidan shoxlangan balandligi 30-40 sm. Gul tutqichlari yo'g'onlashgan savatchali, ildizning old barglari nashtarsimon 5-10 enlilikda, poyalari 15-20 enlikda, hammasining

chetlari to'lqinli. Savatchasi urug'langanda ochilmaydi, 30-40 mm uzunlikda diametri 15-20 mm, chetki urug'lari 5 qirrali, aniq ko'rinxagan egatchali, 11-12 mm uzunlikda. Mayda gullab, iyunda

urug'laydi. Qo'ng'ir tuproqli joylarda o'sadi. Farg'ona viloyatida uchratilgan.

O'simlikni erta bahorda avitaminoz uchun iste'mol qilinadi. Ildizini yorilishi qiyin bo'lgan chipqon va furunkullar tez yorilishi uchun qo'yiladi. Ildizi va poyalari ovqatga qo'shib istemol qilinadi.

Ko'p yillik dastargul-Маргаритка многолетняя-*Bellis perennis L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) -

Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub ko'p yillik, ildiz poyali, poyasi tik o'suvchi balandligi 15 sm o't o'simlik. Barglari kuraksimon, chetlari kipriksimon, ikki tomoni siyrak tuklangan. Savatchasini diametri 1,5-2,5-(3) mm, tilli gullari yassi to'q pushti yoki oq. Urug'lari tuksiz yoki kam tuklangan, 1-1,5 mm uzunlikda, kulrang oq rangda. Mart-oktabrda gullab urug'laydi. O'zbekistonda manzaralgi o'simlik sifatida ekiladi. Tibbiyotda foydalaniлади.

Ko'xiston solidogosi (Colidago)-Золотарник кухистанский- *Solidago kuhistanica M. Pop. ex Jux.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) -

Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasini asosi tuksiz, yuqori qismi siyrak tuklangan, balandligi 20-50 sm. Ildiz oldi barglari bandli, chetlari arrasimon tishchali, yuqoridagilari kalta bandli yoki o'troq. Gullari kalta bandli. Chetki gullari tilchali bo'lib, 7 mm uzunlikda. Urug'i to'q qo'ng'ir, qobirg'ali, hamma qismi tuklangan. Iyul-sentabrda gullab, urug'laydi. Tog'larning o'rta mintaqalarida toshli, shag'alli, mayda tuproqli joylarda o'sadi. Samarqand, Farg'ona (Shoximardon) va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ovqat hazm organlarining xastaliklarida, oshqozon yallig'langanda, o'n ikki barmoqli ichak xastaliklarida, shamollashga qarshi qo'llaniladi.

Yopishqoq qariqiz-Репей войлочный (лопух)-*Arctium tomentosum* Mill.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир yillik o'simlik. 60-100 sm balandlikda. Tik o'suvchi, chipor, qobirg'ali. Barglari yirik, bandli, keng tuxumsimon, siyrak to'plangan. Savatchalari ko'p sonli, poyani uchida joylashgan, diametri 2-3 sm. tojbarglari to'q binafsha rangda. Urug'lari 6-7 mm uzunlikda teskari tuxumsimon, bir oz burushgan, kulrang-qo'g'ir. Iyun-avgust oylarida gullab, avgust-sentabrda urug'i yetiladi. Tashlandiq joylarda, ekinzorlar qirg'og'ida o'sadi. Farg'ona viloyati (Shoximordon) da tarqalgan.

Tibbiyotda ildizi, bargi, ba'zan guli va mevasi ishlatiladi. Ular tarkibida insulin, efir moyi, qandlar, kumarinlar, alkaloidlar, flavonoidlar organik (vino, olma, limon va oqsalat) kislotalar, laktolar, glikozid arktin, g'amlovchi moddalar bor. Ildizining qaynatmasi tabobatda me'da yarasi kasalliklarini, bod podagra, ich ketish, buyrak toshi va ba'zi teri kasalliklarini davolashda hamda siyidik haydovchi, terlatuvchi va yaralarni davolovchi dori sifatida qo'llaniladi. Bargidan tayyorlangan damlamasi me'da va isitma kasalliklariga, barg shirasi yaralarga foyda qiladi. Ildiz surtmasi (nastoykasi) va gulining qaynatmasi, ba'zan, bargining qaynatmasi bilan rak kasalligini davolashadi. Bodom yoki zaytun moyida o'simlik ildizidan tayyorlangan suyuq surtma soch o'stirish uchun boshga surtiladi.

Qizil burgan (qizil shuvoq)-Полынь метельчатая-*Artemisia scoparia* Waldst. et Kit.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир yoki ikki yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlanuvchan, qizg'ish qobirgali, balandligi 30-70 sm. yaproqlari ikki va uch bora qirqilgan, lansetsimon, gullah davrida barglari quriydi. Gul to'plami keng supurgisimon. Savatchasi

tuxumsimon 2-2,5mm uzunlikda, o'troq, 6-7-12 gullar to'plamidan iborat. Urug'lari 1 mm uzunlikda, qo'ng'ir, uzunasiga burmalarga ega. Iyulda gullab, sentabr oyida urug'lari yetiladi. Tog' oldi tumanlarida keng tarqalgan. Cho'llardagi taqirlarda ham o'sadi. O'zbekistonning hamma viloyatlarida keng tarqalgan.

O'simlikni uchki gullari va poyalaridan tayyorlangan damlamasi buyrak xastaliklari, terlatuvchi, siyidik haydovchi, gjijalarni to'kuvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Qoratog' oqqunduzi-Мордовник каратавский-Echinops karatavicus Regel. et Schmalh.




Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi bittadan, balandligi 60-80-(100) sm. O'rta qismidan shoxlanuvchi, novda va poyasi bittadan gul bilan tugallanadi. Barglarini yuzasi yashil, ingichka bezchali tuklar bilan qoplangan, chetlari tikanli tishchali. Gul to'plami diametri 5,5-6 sm. Savatchasi 2,5 sm uzunlikda. Tashqi qobig'i oz sonli, 5-6 mm uzunlikda. Savatcha tashqi bargchalari 21-23 tadan ulardan 7-8 tasi nashtarsimon, o'rtadagi 6-8 tasi nashtarsimon o'rtadagilari uchburchak shaklda. Tojbarglari havorang, 15 mm uzunlikda, chuqur qirqilgan. Urug'i qalin sarg'ish tuklangan. Iyun-avgustda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog'larni o'rta mintaqasidagi toshli-shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent viloyati (Angren voxasi, So'qaqsoy xavzasi) da tarqalgan.

O'simlik zaharli bo'lib strixin kabi ta'sir etadi. Uning ildizidan tayyorlangan talqoni qo'ylardagi qurtlagan yaralarni davolash uchun sepiladi.

Qumloq bo‘znochi (o‘lmaso‘t)-Бессмертник песчаный-

Helichrysum arenarium (L.) Moench.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Ko‘p sonli, shoxlanmaydigan, tuklangan poyasini balandligi 20-25 sm. Barglari tekis chetli, uzunchoq, teskari tuxumsimon, ostkidagilari bandli, yuqoridagilari o’troq, 2-6 sm uzunlikda va eni 2-5 mm. Savatchasi 5-6 mm enlilikda. Yon kosachabarglari limonsimon-sariq, cheripitsasimon 2-4 qavat.

Tojbarglari sariq va pushti rangda, urug‘lari 0,5-0,7 mm uzunlikda, bezchalar bilan qoplangan. Iyun-iyulda gullab, iyul-avgustda urug‘lari yetiladi. Qoraqolpog‘iston cho‘llarida tarqalgan.

Tibbiyotda guli ishlatiladi. Gulining flavonoidlari yig‘ndisidan tayyorlangan surtma ko‘z kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Yaxshilik tilovchi qushqo‘nmas (Sariqgul)-Волчец

благословенный-*Cnicus benedictus L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб bir yillik, poyasini balandligi 15-30 sm, asosidan shoxlanuvchi, shoxchalar va poyalarini uchida gullari joylashgan, uzun ko‘p xujayrali tuklar bilan qoplangan. Barglari ikki tomoni ham ko‘p xujayrali tuklar bilan siyrak qoplangan. Savatchasi tuxumsimon, eni 12 mm. Kosacha

barglari uzun bo‘lib savatchasini o‘rab oladi. Tojbarglari sariq. Urug‘i 8 mm uzunlikda, qo‘ng‘ir, tuksiz, silindirsimon. May-iyun oyida gullab, iyun-iyul oyida urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi tumanlarida, yo‘l yoqalarida, tashlandiq yerlarda o‘sadi. Toshkent, Samarcand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki qismning gulli novdalari yig‘iladi. Oshqozon va ichaklarni to‘lqinli harakatini rivojlantiruvchi xususiyati bor. Shuning uchun ovqat hazm qilish organlarining ish faoliyatini yaxshilashda qo‘llaniladi.

Mavrak bargli gulband-Блошница шалфеелистная-*Pulicaria salviifolia* Bunge.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. O'tkir hidli, qalin tuklangan, poyalari ko'p sonli, balandligi 40-60 sm. Bargi uzunchoq, lopatkaga o'xshash, chetlari to'lqinsimon, butun chetli, 3-5 sm uzunlikda va eni 9-12 mm. Savatchalari oz sonli, diametri 10-18 mm, shoxchalar uchida joylashgan. Tilchali gullari chetki qismda novsimon gullar o'rtada joylashadi. Urug'i 2 mm uzunlikda. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentabr oylarida urug'lari yetiladi. Qurg'oq joylardagi toshli shag'alli joylarda tog'oldi va tog'larni o'cta qismigacha bo'lgan joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlik gullaganda uchki qismidan tayyorlangan damlamasi jigar va taloq xastaliklarida qo'llaniladi.

Maydatojbarg erigeron-Мелколепетник острый-*Erigeron acer* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ikki yillik o'simlik. Poyalari qobirg'ali, yuqori qismidan shoxlanuvchan, tuklangan, savatchasining ostki bezchalar bilan qoplangan, balandligi 25-55 sm. Bargini uzunligi 2-10 sm va eni 14 mm, ko'p hujayrali tuklar bilan qoplangan. Savatchasi ko'p sonli diametri 2 sm gacha, supurgisimon to'p gul hosil qiladi. Tangacha barglari nashtarsimon, uchi o'tkir tuklangan.

Tilchali gullari pushti rangda ichki gullari novsimon rangsiz. Tilchali gullardan kalta. Gul diskisi sariq. Urug'lari mayda 1,5 mm uzunlikda, siyrak yarim yopishgan tuklar bilan qoplangan. Ko'ppari ikki qator 4-5 mm uzunlikda, sarg'ish. Iyundan-sentabrgacha gullab urug'laydi.

Tog‘larni o‘rta qismigacha tekisliklarda qumli, shag‘alli va sho‘rxok joylarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Bargidan jig‘ildon qaynashida va ko‘krakdagi og‘riqlarda foydalaniladi.

Mingbargsimon tog‘ dastarboshi-Пижма тысячелистниковая- *Tanacetum pseudachillea C.Winkl.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Poyalari bir nechta, tik o‘suvchi, qobirg‘ali, eng yuqori qismi qalqonsimon shoxlangan, balandligi 50-100 sm. Bargi siyrak tuklangan, ikki bora qirqilgan, chetlari arrasimon qirqilgan. Savatchalari qalqonsimon to‘pgullarda joylashgan. savatchasi geterogamiya, sariq. Urug‘lari ponasimon, ichki tomoni qobirg‘ali, teppa qismi tekis.

Ko‘ppari kalta pilyonkasimon. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabr oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘ning o‘rta mintaqalarida daryolar, ariqlar bo‘yida, qumlar, daraxtlar orasida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo va Surxondaryo (Surxondaryo xavzası) da tarqalgan.

Tabobatda gul savatchalari ishlatiladi. Qaynatmasi o‘t xaltasidagi toshlarni tushirishda va sariq xastaliklarini davolashda qo‘llaniladi. Gulining choyidan yurakni tez urushida, asab qo‘zg‘alishlarida, jigar, buyrak, gemorroy, tuberkulyozda, gijjalarni tushurishda va sochlardagi qayizg‘oqlarni to‘xtatishda qo‘llaniladi.

Nashtarsimon paxtatikon (latta tikon)-Бодяк ланцетный-*Cirsium lanceolatum L. Skop.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ikki yillik, balandligi 60-150 sm dag‘al egatchali, qobirg‘ali, bo‘g‘inlar oralig‘i tikanlar bilan qoplangan. Barglari dag‘al, etli ildiz oldilari bandli tikanlar bilan qoplangan, poyadagilari 2-3 panjasimon bo‘laklangan, chetlari o‘tkir kalta

tikonlar bilan qoplangan. Savatchasini diametri 3-4 sm bo'lib, poya va shoxchalar uchida joylashgan. Tojbarglari ko'kish-qizil. Urug'i teskarı tuxumsimon, 3,5-4 mm uzunlikda, yaltiroq, tekis. Gulkosasi tojbarglaridan kaltaroq, 3-3,2 mm uzunlikda, tezda to'kilib ketadi. Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Ariqlar bo'yida ekinzor va tashlandiq yerlarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Mevasining qaynatmasi surgi va kuchli qusturuvchi.

Oddiy bo'yimadaron-Тысячелистник обыкновенный-*Achillea millefolium L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik, ildizpoyalari bilan ham ko'payuvchi, ko'p poyali, ildizoldi barglari mozaikasimon o't o'simlik. Poyalari tik o'suvchi, qalqonsimon to'pgullari poyani uchki qismida joylashgan, balandligi 30-50-70 sm. Barglari och yashil, tuklangan, uch bora qirqilgan, uchlari uchli, 0,75-1 mm uzunlikda. Savatchasi uzunchoq bokalsimon, 3-4-5 mm uzunlikda va eni 2-3,5 mm. Tilchali gullari 4-5 ta. Oq, och pushti, pushti yoki och qizil rangda. Urug'i ingichka ponasimon, 2 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Alp o'tloqlari, mayda toshli tuproqlar, butalar orasida, bog'larda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi va guli ishlataladi. Suyuq ekstrakti me'da yarasi, gastritni davolash, ishtaha ochish hamda qon oqishini (ichak, bachardon, burun, milk, yaralardan va gemoroydan qon oqishlarni) to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlikning guli va yer ustki qismi ishtaxa ochadigan va me'da-ichak kasalliklarida ishlataladigan choylar yig'malar tarkibiga kiradi.

Oddiy g'ozatikan-Дурнишник обыкновенный-Xanthium strumarium L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир юллик, баландлиги 20-90-(100) см бо‘лган о‘симлик. Кулранг-қизил, шохлари ham поя сингари тик о‘sувчи о‘т. Bargi doirasimon uchburchak, chetlari ikki bora tishli, 3-7 panjali qirqilgan, 4-12 см узунликда eni ham shuncha, bandli urg‘ochi гуллари bir nechta to‘plamga to‘plangan, uzunchoq тuxumsimon, 12-15 м узунликда va eni 7-9 mm uchida ikkita teng bo‘lmagan tikani bo‘lib, qolgan qismini mayda tikanlar o‘rab olgan. Iyun-iyul oyalarida гullaydi, avgust-sentabrda urug‘лари yetiladi. Asosan yo‘l yoqalari, axlatxonalarda, ekinzorlarda begona o‘t sifatida keng tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida tarqalgan.

Urug‘idan yog‘ olinadi. Bargi va poyasida yod saqlaydi. O‘simlikdan buqoqda, terlatuvchi, tana xaroratini pasaytiruvchi tinchlantiruvchi, revmatizmda qo‘llaniladi. Urug‘idan tayyorlangan mazi teri jaroxatida, ekzema, qichitqi, dermatozda va xashoratlar chaqqanda surtiladi.

Oddiy yopishqoqo‘t-Крестовник обыкновенный-Senecio vulgaris L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир юллик о‘симлик. Пояси тик о‘sувчи, 15-40-(50) см баландликда, о‘рта qismidan shoxlanuvchi, egatchali, о‘rtacha tuklangan. Barglari uzunchoq, 3-11 см узунликда va eni 1,5-4 см, tekis bo‘lmagan tishchali, pastkilari bandli, yuqoridagilari bandsiz, poyani o‘rab oluvchi. Savatchalari mayda 3-7 mm enlikda va uzunligi 6-9 mm, qalqonsimon, supurgisimon to‘pgulga to‘plangan. Tilchali гуллари yo‘q, hamma гуллари novsimon, ikki jinsli. Urug‘i uzunchoq ingichka qobirg‘ali 2-2,5 mm узунликда. May-iyunda

gullab, iyun oxirida urug'lari yetiladi. Begona o't sifatida o'sadi. Toshkent viloyati (Toshkent shahri) da tarqalgan.

Barglarining qaynatmasi qon ketishini to'xtatuvchi, gemoroy va qonovchi yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Oddiy oqkarrak-Татарник обыкновенный-*Onopordon acanthium* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб иккι yellilik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, balandligi 60-120 sm, barglari qalin, qalqonsimon shoxlangan, poya va shoxlarini uchida 1 yoki 2-3 tada savatchali gullar to'plami bilan yakunlanadi. Barglari xar ikki tomoni kam tuklangan, kulrang kalta. Savatchasi tuxumsimon, sharsimon, 2,5-3 sm diametrda. Yonbargchasi ko'p sonli, ko'p qirrali, 12-15 mm uzunlikda, o'rtalig'i qismidagilari 25-27 mm uzunlikda. Tojbarglari qo'ng'ir qizil. Urug'lari uzunchoq, teskari tuxumsimon, 5,5-6 mm uzunlikda, to'rt qirrasi bilinar bilinmas, to'q kulrang, qo'ng'ir dog'lari bor. Ko'ppari bir xil tekislikda, qizg'ish 9-10 mm uzunlikda. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust-sentabr oylarida urug'i yetiladi. Yo'l yoqalarida, uylar atrofida, bog'larda o'sadi. Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Poyasini yuqori qismidan va novdalaridan tayyorlangan damlamasi bachadon raki, yiringli yaralar, qon oqishini to'xtatuvchi, siyidik haydovchi, teridagi yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Oddiy oqqaldirmoq- Мать-мачеха обыкновенная-*Tussilago farfara* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ko'p yellilik, ildiz poyasi uzun, shoxlab o'suvchi, erta bahorda bittadan poya hosil qilib unda bitta gul savatchasi hosil bo'ladi. Poyasi 5-25 sm balandlikda, tik o'suvchi, tuklangan. Ildiz oldi barglari yuraksimon, chetlari teng bo'lмаган

tishli, 10-25 sm enlikda uzun bandli, savatchasini diametri 2-2,5 sm. Tilchali gullari 16-18 mm uzunlikda, tarelkasidagilari 12-13 mm uzunlikda. Urug'lari 3-4 mm. Aprel-mayda gullab, mayni oxirida urug'lari yetiladi. Nam o'tloqlar, ariq va daryolar qirg'og'ida, ekinzorlar atrofida o'sadi. Toshkent Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Bargi va gulidan tayyorlangan damlama me'da-ichak, buyrak, siydiq pufagi, yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi kasalliklarida ishlatiladi. Quritilgan barglari ezilib yaralarga va chipqonlarga sepiladi.

Oddiy sachratqi (Sachratqi)-Цикорий обыкновенный-*Cichorium Intybus L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, balandligi 30-70 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari uzunchoq, teskari tuxumsimon, chetlari chuqr o'yqli, uzun bandli, poyadagi barglari o'troq, katta tishchali, asosi bilan poyani o'rabit turuvchi.

Tojbarglari yorqin ko'k rangda. Urug'lari kulrang-qo'ng'ir, aniq ko'rinish turuvchi uzunasiga ketgan qobirg'ali, 2-3 mm uzunlikda. Iyundan to kuzgacha gullab, urug'laydi. Tog'oldi qismlaridan tog'ning o'rta qismigacha, ariqlar bo'yida, nam joylardagi tuproqli, shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonnda tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi, ildizi ishlatiladi. Tarkibida flavonoidlar, kumarinlar, vitamin C va B₁, glikozidlar, aromatik oksikislotalar, achchiq sut shira, ko'p miqdorda insulin moddalar bor.

Ildizi qadimdan ishtaha ochish, ovqat hazm bulishini yaxshilash, sariq jigar kasalliklarini davolashda qo'llanib kelinadi. Yer ustki qismining qaynatmasidan oftob urgan bolalar cho'miltiriladi. Yer ustki qismining qaynatmasi yoki damlamasi yana turli teri, me'da-ichak, buyrak kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

**Oddiy silibum (dog'li targ'il silibum, olaot)-Остропестро
обыкновенное (расторопша)-*Silybum marianum* (L) Yaertn.**



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ikki yillik o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, 30-60 sm balandlikda, asosidan shoxlanuvchi, shoxchalari bittadan savatchali gul bilan yakunlanadi. Barglari yupqa, ochiq yashil, targ'il, ikki tomoni tuklar bilan qoplangan, ildiz bo'g'zidagilari bandli, yaproqlarini chetlari o'tkir tikanli, tishchali, poyadagilari o'troq. Savatchasini diametri 3-4 sm, sharsimon. Tojbarglari och pushti, qizil. Urug'lari teskari tuxumsimon, 6 mm uzunlikda va eni 3 mm, ozroq qisilgan, qo'ng'ir, kulrang. Aprel-mayda gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. Sug'oriladigan voxalarda begona o't sifatida o'sadi. Qashqadaryo, Samarcand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Urug'lari sariq va jigarni turli xastaliklarida qo'llaniladi.

Oddiy shuvoq-Полынь обыкновенная (чернобыльник)-*Artemisia vulgaris* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi bittadan, tik o'suvchi, qobirg'ali, qizil ayrim hollarda binafsha rangli, tuksiz balandligi 1.5 metr. Ostki poya barglari bandli, 3-12 sm uzunlikda. Elipissimon-lansetsimon, savatchasi uzunchoq ovalsimon, 3-5 mm uzunlikda va 2-4 sm enlikda. Urg'ochi gullari ingichka quvirsimon. Urug'i 1 mm uzunlikda qo'ng'ir rangda. Sentaborda urug'lari yetiladi. Tog' oldi va tekkisliklarda tog'ni o'rta mintaqasigacha ko'tariladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng tarqalgan.

O'simlikdan tayyorlangan damlama ovqat xazm organlarini ish faoliyatini yaxshilashda qo'llaniladi. Jumladan jig'ildon qaynashida, jigar xastaliklarida, o't xalta xastaliklarida, uyqusizlikda, o't haydovchi, siyidik haydovchi, gjijalarni tushurishda qo'llaniladi.

Oq burgan-Полынь беловатая-*Artemisia leucodes* Schrenk.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб бир юки иккى yellik o'simlik. Barcha qismi oq kumushsimon momiq tuklar bilan qoplangan. Poyasi bittadan bazan 3-4 ta, yuqori qismidan shoxlangan, balandligi 20-50-70 sm. Ildiz oldi barglari 3-7 sm uzunlikda. Gullar tuplami supurgisimon. Savatchasi 2-3 tadan shoxchalar uchida o'troq yoki 2-5 mm uzunlikdagi tutqichga ega, tutqichda 2-4 tadan gullar joylashgan. Gullari ikki jinsli, sariq, yetilganda qizaradi. Urug'lari teskari tuxumsimon, 2 mm uzunlikda, yaltiroq kulrang. Sentabrda gullab, oktabr oyida urug'lari yetiladi.

Birlamchi tuproqlarda, barxanlar orasidagi tekisliklarda o'sadi. Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm va Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Yer ustki qaynatma damlamasidan tuberkulyoz xastaligi davolanadi. Ichki qon ketishini to'xtatishda, vanna qilib revmatizm va bo'g'imlar og'rig'ini davolashda qo'llaniladi.

Oqish burgan-Полынь ситниковидная-*Artemisia juncea* Kaz. et Kir.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – Asteraceae (Compositae) oиласига мансуб ko'p yellik, chala buta, balandligi 25-50 sm ko'p poyali o'simlik. Poyani pastidagi barglari 1,5-2,5 sm uzunlikda, yaprog'i 2 sm uzunlikda asosigacha bo'laklangan. Gullari supurgisimon ammo asosiy poya o'qiga juftlashgan.

Savatchasi o'troq, uzunchoq tuxumsimon, (4)-4,5-5(6) mm uzunlikda va eni 2-2,5 mm bo'lib, 3-5 gulli. Gullari sariq, gullagach qizil rangga o'tadi. Urug'i teskari tuxumsimon, qobirg'ali, qo'ng'ir 2,5 mm uzunlikda. Sentabrda gullab, oktabrda urug'lari yetiladi. Adirliklarda, toshli-qumli tuproqlarda, tog'oldi qismlarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm Surxondaryo va Qashqadaryoda tarqalgan.

Barglari va poyalarining uchki qismining qaynatmasi tutqanoq, tif, buyrak, shamollash va gjijalarni tushuruvchi sifatida

qo'llaniladi. Qaynatma damlamasiga bodom yog'i qo'shib, ko'z og'rig'ida, bronx, astma, ekzema, kuyganda, teri yallig'lanishida ham qo'llaniladi.

Peretrum peretroides-Поповник пиретроидный-Pyrethrum pyrethroides. (Kar. et Kir) B. Fedtsch. ex Krasch.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Mutloq tuksiz, yashil, kulrang, ildizpoyasi yog'ochlanuvchi, ko'p yilliklarida ko'p sonli poyalar hosil qiladi. Poyasi tik turuvchi yoki egiluvchan. Ostki qismi qalin barglar bilan qoplangan, yuqorisi bargsiz, shoxcha va poyalar savatchali gul bilan

tugallanadi. Barglari ikki bora qisqargan. Savatchasini diametri 2-3 sm. Tilchali gullari urug'chilari hisoblanib, ayrim hollarda yetilmagan changchilarga ega, oq yoki pushti, 8-12 mm uzunlikda. Urug'lari (2)-2,5-3 mm uzunlikda, ko'plari 1-1,5 mm uzunlikda. Iyun-avgustda gullab, avgust-sentabrda urug'lari yetiladi. Mayda tuproqli, toshli, shag'alli, nuragan va qoyalar orasida tog'larning yuqori va o'rta qismlarida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarcand va Surxondaryo viloyatlarida o'sadi.

Gullaridan hasharotlarni o'ldiruvchi xususiyatlaridan foydalanib bit, burga, qandalaga qarshi qo'llaniladi.

Chachala bargli piretrum (Xrizantema)-Поповник патениелистный (Рамашник)-*Chrysanthemum parthenium*. Bernh.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik, och yashil, tuklangan, poyalari ko'p sonli, qobarg'ali, ayrim holda qizg'ish rangda, yuqori qismidan shoxlanuvchi, balandligi 40-70 sm. Barglari och yashil, tuklangan, uzunchoq tuxumsimon, ikki bora bo'laklangan, kalta bandli. Savatchasi bittadan shoxlarni uchida joylashadi. Tilsimon gullari

(6)-7-10 mm uzunlikda. Urug'i 1,2-1,7 mm uzunlikda oqish, ko'pparlari qisqa. Iyun-avgust oyalarida gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi.

Tog' daralardagi butazorlar orasida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

O'simlik guli tarkibida insektisid (hashoratlarni o'ldiruvchi) ta'siriga ega birikmalar: perertrin I va II hamda sinerin I va II, efir moyi, lakton pirotrozin, organik kislotali moddalar bor. Preparatlari (ko'kuni va spirtli ajratmasi) bit, burga, qandalaga qarshi qo'llaniladi.

Pushti peretrum-Поповник розовый-*Pyrethrum coccineum* (Willd)

Worosch.




Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Ildiz bo'g'zi barg qoldiqlari bilan o'ralgan. Oddiy poyali, qobirg'ali, mayda siyrak tuklangan, balandligi 30-40 sm. Barglari ikki bor mayda bo'laklarga bo'lingan. Savatchalari bittadan. Diametri 30-35 mm sharsimon. Tilsimon gullari pushti, egilgan 15-16 mm uzunlikda. Ko'pparlari kalta, plyonkasimon. May oyida gullaydi. Tog' va xiyobonlarda manzarali o'simlik sifatida ekiladi.

Maydalanim talqon qilingan yer ustki qismidan hashoratlarni yo'qotish uchun qo'llaniladi. Hayvonlarda ham, tashqi hashoratlarga ham qarshi qo'llaniladi.

Samarqand bo'znochi (o'lmaso't)-Бессмертник самаркандский-

Helichrysum maracanicum M. Pop. ex Kirp.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Ko'p poyali, poyalari shoxlanmaydi, balandligi 35-70 sm. Barglarini chetlari tekis, teskari tuxumsimon, ostkilari tuklangan. Savatchasi yarim sharsimon, diametri 8-10 mm, gulkosabarglari va savatcha barglari limon-sariq, tojbarglari to'q-pushti rangda. Iyun-iyul oyalarida gullab, iyul-avgustda yetiladi. Tog'larning

pastki va o'rta qismlaridagi toshli, shag'alli qo'ng'ir tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda guli ishlatiladi. Quruq ekstrakti va o't haydovchi choylar yig'malar tarkibida sarrayma, surunkali xolesistit, o't pufagiga tosh kelganda, o't yo'llari kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gulining flavonoidlari yig'ndisidan tayyorlangan surtma ko'z kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

**Sariq ulkan andiz-Девясил крупный-*Inula grandis* Schrenk.
(*Macrophilla* Kar et Kir.)**



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 50-120 sm. Ko'p poyali, poyalari yuqori qismidan shoxlanuchi. Barglari yirik, ildiz oldidagilari uzun bandli, poyadagilari o'troq, ostki barglar uzunligi 70 sm, poyadagilari 20-30 sm uzunlikda va eni 20-

35 sm. Savatchasi qalin tilsimon, gullari 2-3 sm. Tilsimon gullarining urug'i sariq, 2 sm uzunlikda. Urug'lari ko'p qirrali, qobirg'ali, qo'ng'ir bo'lib, 3-4 mm uzunlikda eni 1-1,5 mm. May-iyun oylarida gullab, iyun-avgust oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning oldi va orqa qisimlarida yumshoq tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildiz va ildizpoyasini qaynatmasi bronxit, nafas yo'llarini shamollashi, tuberkulyoz, siydiq haydashda, gjjalarni tushurishda, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichaklar yallig'lanishida qo'llaniladi.

Sariq yopishqoqo't-Крестовник желтуха-*Senecio jacobaea* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oilasiga mansub ko'p yillik yoki ikki yillik ildiz poyalari shoxlangan o'simlik. Hamma qismi tuklangan, poyasi tik o'suvchi, qobirg'ali, oddiy yoki yuqori qismidan shoxlangan, 20-100 sm balandlikda. Ildiz bo'g'zidagi barglari mozaika holida, gullagunga

qadar qurib qoladi. Uzunligi 2-10 sm va eni 2-3 sm yuqoridagilari lirasimon, patsimon, lenta shaklida, chetlari qirqilgan 2-8 sm uzunlikda va eni 1-3 sm. Savatchalari ko‘p sonli qalqonsimon to‘p gullar hosil qiladi. Tilchali gullari sariq, 12-15 ta uzunroq egilgan 2,5-4 mm enlikda. Urug‘lari uzun slindrsimon 2-3 mm uzunlikda. Iyulda gullab, avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘ oldi qismlaridan, tog‘ning o‘rta qismlarigacha bo‘lgan tuproqli joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona Andijon viloyatlarida tarqalgan.

O‘simlikning gullagan qismidan qaynatib qon ketishini to‘xtatuvchi, qonli va yiringli ichburug‘da, qo‘llaniladi. Shuningdek tamoq og‘rig‘ida chaynaladi.

Sivers ermoni (shuvogi)-Полынь сиверса-*Artemisia sieversiana*

Willd.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб bir yoki ikki yillik o‘simlik. Tuklangan, poyasi qobirg‘ali, tik o‘suvchi balandligi 30-100 sm. Barglari ikki tomoni ham tuklangan, kulrangsimon, ostki barglari bandli, 2-12 sm uzunlikda, keng uchburghaksimon, ikki va uch bora qirqilgan. Gullar to‘plami supurgisimon.

Savatchasi sharsimon 4-6mm enlikda, 100-150 ta gullar to‘plamidan iborat. Urug‘lari 1 mm uzunlikda, qo‘ng‘irsimon, oz moz bukilgan, bir oz qobirg‘ali. Iyulda gullab, avgustda urug‘lari yetiladi. To‘qaylarda, ariqlar bo‘yida, zax yerlarda tog‘ oldi va tog‘ni o‘rta qismida o‘sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan.

O‘simlikdan tayyorlangan damlama ovqat xazm qilish organlarining ish faoliyatini yaxshilashda qo‘llaniladi. Jumladan jig‘ildon qaynashida, jigar xastaliklarida, o‘t xalta xastaliklarida, uyqusizlikda, o‘t haydovchi, siyidik haydovchi, gjjalarni tushirishda qo‘llaniladi.

Soyabonli soxtaxandeliya-Псевдоханделия зонтичная-

Pseudohandelia umbellifera (Boiss) Tzvel.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Ildizi yo'g'on, poyasining balandligi 40-80 sm, yo'g'onligi 1 sm. Ildiz bo'g'zi yo'g'onlashgan. Diametri 2-3 sm, yungsimon tuklar bilan qalin qoplangan. Barglari kulrang, qalin tuklangan, kalta bandli, yuqoridagisi bandsiz. Gul to'plami diametri 4-8 sm. Savatchasining diametri 8-10 mm. Guli sariq, urug'i 2,5 mm uzunlikda. Aprel boshlarida gullaydi, may-iyul oylarida urug'lari yetiladi. Tog'oldi yonbag'irlarida, cho'l qismlarida o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Barglari va gullarining damlamasi o't xaltasidagi toshlarni xaydashda va sariq xastaligida, damlama choyi oshqozon-ichaklar, yurak o'ynoqda, buyrak xastaliklarida, gjjalarni to'kishda, terlatuvchi va siyidik xaydash uchun qo'llaniladi.

Tekis bargli sodak-Большеголовник цельнолистный (левзея)-

Rhaponticum integrifolium C. Winkl.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) - *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Balandligi 40-150 sm. Poyalari ko'p sonli tik o'suvchi, mayin tuklangan, deyarli poya shoxlanmaydi va har bir poya uchida bittadan savatchali gul bilan yakunlanadi. Barglari etli qalin, chetlari tekis, ildiz bo'g'izidagilari kaltaroq (3-5 sm) bandli poyadagilari kaltalashib yuqori qismdagilari o'troq. Savatchasi sharsimon bo'lib, 4,5-6 sm enlikda. Kosacha yon barglari 3-5 qabatlili cherepetsiyasimon joylashgan va ularni uchki qismlari qo'ng'ir, plyonkasimon bukilgan. Tojbargalri ochiq sariq, urug'lanib bo'lganda och pushti rangga aylanadi. Urug'lari teskari tuhumsimon bir oz bukilgan, to'rt qirrali. Ko'pparlari och sariq, kulrang. Iyun-iyul oylarida

gullab, iyul-avgust oylarida urug'i yetiladi. Tog'larning o'rta qismidagi archazor, zarangzorlar va butalar orasidagi toshli, tuproqlarda o'sadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizining qaynatmasi va spirtdag'i ekstraktlari markaziy asab tizimini qo'zg'atuvchi, mexnat qobilyati susayganda ko'taruvchi xususiyatga ega. Bundan tashqari undan surunkali spirtli ichimlikka berilganlarni davolash uchun ham qo'llaniladi.

Tovalgi bargisimon bo'ymadaron (Dastarbosh)-Тысячелистник таволголистный-*Achillea filipendulina* Lam.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik, poyasi ko'p sonli, yo'g'on, qirrali, qalin tuklangan, balandligi 60-75 sm. Bargi qalin tuklangan, yuqoridagi barglari o'troq. Savatchasi kam tukli, 4-10 mm uzunlikda, gullari poyani uchida qalqonsimon to'pgulda to'plangan. Savatchani chetlaridagi gullari 1-3-(4) ta bo'lib tojbarglari sariq. Urug'lari kulrang-qoramtil, ponasimon 2-2,25 mm uzunlikda. Iyun va sentabr boshlarida gullab, avgust oxiri-sentabrda urug'lari yetiladi. Tog' qoyalarining yoriqlarida, ariqlar bo'yida, soylar o'zanida mayda shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Efir moylari, fenollar saqlaydi. Xalq tabobatida bosh og'riganda, gul savatchalari hidlangsasa bosh og'rig'i to'xtaydi.

To'q qizil exinatsia-Эхинация пурпуровая-*Echinacea purpurea* (L.) Moench.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ko'p yillik o'simlik. Balandligi 70-100 sm, poyasi tuksiz. Barglari butun, dag'al, ostki barglari bandli, chetlari tishchali, poyadagilari o'troq. Gullari dag'al, tilchali, tojbarglari to'q qizil, 2,5-6 sm uzunlikda. Uchki gullari 4 mm uzunlikda, gul o'rni nashtarsimon, ignasimon

1-1,5 sm uzunlikda va eni 1-1,5 mm, to‘g‘ri tikanli, iyun oyida gullaydi. O‘zbekistonni barcha viloyatlarida manzarali o‘simlik sifatida ekiladi.

Tibbiyotda ildizpoyasi bilan ildizi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, exinakozid glikozidi, smolalar, betain, fenol kislota moddalar bor. Dori preparatlari quritilmagan ildizpoyasi bilan ildiz surtmasi (nastoykasi) tomoq og‘rig‘i (angina) ni davolashda qo‘llaniladigan dorilar tarkibiga kiradi.

Turkiston zarqulog‘i-Лепидолопсис туркестанский-Lepidolopsis turkestanica Regel. et Schmalh (*Crossostephium turkestanicum* Regel. et Schmalh).



tashqarisidagi bargchalari nashtarsimon, uchburchak, ichki tomondagilari esa uzun nashtarsimon, chetlaridagi va yuqoridagilari qisqa. Gullari sariq. Urug‘i 1,5-1,75 mm uzunlikda. Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda urug‘lari yetiladi. Tog‘oldi, gil tuproqli tepaliklarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Gul savati va guli bilan tayyorlangan damlama ovqat yo‘lidagi gijjalarni, ko‘krakdagilari og‘riqlar, nafas olish og‘irlashganda, bezgak xastaliklarida va aqldan ozganlikni davolashda qo‘llaniladi. Quritilgan o‘simlikni maxorka qilib nafas yo‘llarining xirillashida chekadi, bo‘g‘inlar revmatizmi, zaxm (sifilis), teri yaralarini davolashda qo‘llaniladi.

Uzun ko'pparli quruqgul-Сухоцветник длиннохолковый- *Xeranthemum longipapposum* F. et M.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб бир ўйлик о'sимлик. Поялари тик о'sувчи, баландлиги 40-45 см, ингичка, кирралы, оқ туклар билан қопланган, о'рта қисмидан супурғисимон шохланган. Барлари етли, лентасимон наштар шаклida, четлари текис узун туклар билан қопланган. Саватчаси ингичка силиндирсимон, 4-5 мм диаметрда ва узунлиги 20 мм, четларидаги косача барлар череңитсасимон, учи уchkir тикансимон 4-10 мм узунликда. Саватчадаги гуллар сони 11-12 та. Urug'lari kalta tuklangan 8-9 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida urug'lari yetiladi. Tog'larning pastki қисмлари va tog' oldi қисмida shag'alli, toshli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Yer ustki қисмидан тайyorланган дамламаси яраларни ювish va tish milklari og'riganda qo'llaniladi.

O'rmalovchi kakra-Горчак ползучий-*Acroptilon repens* (L.) DS.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* оиласига мансуб ко'п ўйлик о'sимлик. Поялар сони ко'п, тик о'sувчи, асосдан шохланган, барлари қалин юйлашган, гар бир шохчаси учидан биттадан саватчали гул ҳосил қилиб тугалланади, баландлиги 20-60 см. Барлари кулrang-yashil, гар икки томони тукланган, наштарсимон, текис четли. Саватчаси түхумсимон, 6-8 мм енлilikda va узунлиги 15-17 mm. Savatcha o'ramidagi barglari ko'p sonli, yashilroq, plyonkasimon. Guli och ko'kish, pushti. Urug'lari teskari түхумсимон. Ko'pparlari oson to'kilib ketadi. Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi. Tuproqli, tosh-shag'alli joylarda, tog'ning о'рта mintaqasigacha ko'tariladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng tarqalgan.

Xalq tabobatida damlamasi bezgak kasalligiga davo sifatida ichilgan. Qaynatmasidan vanna qilingan. Ildizi kuchli qayt qildiruvchi vosita sifatida qo'llanilgan.

Xondirilla qumsaqichi-Хондрилла ситниковая-*Chondrilla juncea* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко‘п yillik, ildiz tizimi yaxshi rivojlangan, ко‘п sonli poyali, poyasi asosidan shoxlanuvchan, balandligi 40-80 sm. Ildiz bo‘g‘izidagi barglari mozaikasimon bo‘lib gullagunga qadar quriydi. Savatchalari o‘troq bittadan yoki 2-3 tadan shingillarda to‘plangan. Savatchasi ikki gulli. Urug‘lari urchuqsimon 3,5-4 mm uzunlikda. Ko‘ppari 5-9 mm uzunlikda. Iyuldan kuzgacha urug‘lab gullaydi. Tog‘ oldi qismidan, pastki qismigacha bo‘lgan joylarda, mayda shag‘alli tuproqli yerlarda, quruq soylarda, daryolarning suv yuvgan joylarida o‘sadi. Toshkent, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Ildizidan chiqqan shirasi qurib elimga aylanadi. Uni axoli tishlarni tozalash uchun chaynaydi. Barg va ildizining qaynatmasidan zaxarli ilon chaqqanda va qurigan elimini ayollarda hayz sikli buzilganda qo’llaniladi.

Chalabutasimon yurineya-Наголоватка полукустарниковая-*Jurinea suffruticosa* Regel.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Yog‘ochlangan ko‘p sonli poyali, ildizlari mustaxkam, balandligi 30-50 sm bo‘lgan chalabuta o‘simlik. Barglari uzunchoq, och yashil, yuzasi tuksiz. Savatchasi bittadan poyani uchki qismida joylashgan, 14-18 mm uzunlikda, pastkilarini uzunligi 5-7 mm. Urug‘lari 6-6,5 mm uzunlikda va eni 10-15 mm. Tuksiz, gultojlari och pushti, qizil rangda, 14-17 mm

uzunlikda, uzunchoq qirrali. May-iyunda gullab, iyun-iyul oylarida urug'lari yetiladi. Tog' oldi va tog'larni o'rta mintaqalaridagi toshli, shag'alli tuproqlarda o'sadi. Toshkent, Samarcand (Nurota tumanda) viloyatlarida tarqalgan. Yer ustki qismida lakton va kumarinlari bo'lganligi uchun teridagi yaralarni hamda soch to'kilishiga qarshi damlamasi ishlatiladi.

Chiziqli qarg'atirnoq-Кельпиния линейная-*Koelpinia linearis* Pall.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб бир yillik o'simlik. Poyasi asosidan shoxlanuvchan, balandligi 10-20-(30) sm, tuksiz. Bargi nashtarsimon, uncha aniq bo'lмаган uch qirrali, eni 3 mm, ildizoldi barglari bandli, poyadagilari o'troq. Savatchasi ildiz oldiga yaqin bo'lganlari yaxshi rivojlanmagan, urug'lagan vaqtida diametri 17-18 mm. Gullari ochiq sariq. Urug'lari yo'g'onroq, bukilgan, uchi qarmoqsimon bukilgan, ust tomonida bir necha qator tikonchalari joylashgan. Aprel-may oylarida gullaydi, may-iyunda urug'lari yetiladi. Tog'oldi hududlarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Samarcand, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda keng tarqalgan. O'simlikning yer ustki qismi yel haydovchi sifatida va bahorda vitaminli ozuqa sifatida iste'mol qilinadi.

Sherolg'i shuvog'i (Troxun)-Полынь эстрагон-*Artemisia dracunculus* L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ko'p yillik o'simlik. Ko'p sonli poyalar hosil qiluvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, qisman qoburg'ali, kam tuklangan, balandligi 40-80 sm. Barglari butun, uzunchoq nashtarsimon, 1,5-8 sm uzunlikda va eni 3-5-(10) mm, tuksiz, gullari poyani uchlarida supurgisimon to'pgul hosil qiladi. Savatchasi ko'p sonli (2)-2,5-4 mm diametrda, sharsimon, Urug'lari to'q ko'kimtir yoki qoramtil, 1 mm uzunlikda. Iyulda gullab, sentabrda urug'lari yetiladi.

Tog‘larning o‘rta va yuqori qismlaridagi yumshoq tuproqli, shag‘alli joylarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Milklar qonashida barglari chaynaladi. Oshqozon yallig‘lanishida, balg‘am ko‘chirishda, gullaridan qaynatib gjijalarni tushurishda, yer ustki qismidan vanna qilib qichima, ekzema va boshqalarni davolashda qo‘llaniladi.

Ezilgan bo‘tako‘z-Василек придавленный-Centaurea depressa Bieb.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) –
Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub bir yillik o‘simlik. Poyasi tik o‘suvchi, uncha chuqur bo‘lmagan egatchali, asosidan shoxlanuvchi, shoxlari bittadan savatchalar bilan tugallanadi, balandligi 15-50 sm. Barglari o‘troq, kulrang-yashil ikki tomondan tuklangan. Savatchasi

tuxumsimon, 10-12mm enlilikda, chetki gullari ochiq ko‘k rangda yoki havorang-binafsha rangda. Urug‘lari teskari tuxumsimon, tekis, yaltiroq, ayrim hollarda kalta tuklangan. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘larni old qismidan, o‘rta mintaqalarigacha bo‘lgan yumshoq tuproqli va shag‘alli joylarda, ekinzorlarda begona o‘t sifatida o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Gulidan tayyorlangan damlamasi sariq xastaligida yaxshigina siyidik haydovchi sifatida ichiladi. Ko‘z og‘rig‘ida, asab bilan bog‘liq xastaliklarni davolashda ham ishlatiladi. Shuningdek, qon tarkibini tozalashda ham foydalaniadi.

Ekma maxsar-Сафлор красильный-Carthamus tinctorius L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) –
Asteraceae (Compositae) oilasiga mansub bir yillik, poyasi tik o‘suvchi tuksiz yaltiroq, 30-80 sm balandlikda, yuqori qismi shoxlangan, xar bir shoxchasi bittadan gul hosil qiladi. Barglari qalin, xar ikki tomoni ham tuksiz, uzunchoq

tuxumsimon. Savatchasi 2-2.5 sm enlikda, sharsimon yumaloq. Urug'i keng teskari tuxumsimon, to'rt qirrali. 6-7 mm uzunlikda va eni 4.5 mm, oq, tekkis yaltiroq, uchki qismidagi ko'ppari 5-6 mm uzunlikda ko'p sonli. Iyul-avgustda gullaydi, avgust-sentabrdagi urug'lari yetiladi. O'zbekistonning lalmi yerlarida ekiladi. Namangan, Toshkent, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida uchraydi.

Gulini damlamasi sarg'ayma va me'da-ichak xastaligini va urug'lari yumshoq surgi va siyidik haydovchi sifatida qo'llaniladi.

Ekma sutcho'p (salat)-Латук посевной-*Lactuca sativa L.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб бир ўйлик о'sимлик. Пояси текис, юқори қисмидан шохланган. Барлари текис, юли киприксимон гулларга ега, пойни о'раб оловчи о'tроқ, гул ва шохчалари барг qo'ltig'idan chiqadi. Savatchasi o'rtaligida. Гуллари сарич, уруг'i qong'ir yoki kulrang-qong'ir, Ko'plari oq rangda. May-iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi. Damlamasi uyqusizlikda, kuchli quruq yo'talda, bronxial astmada, ayrim asab xastaliklarida qo'llaniladi.

Eron (Fors) shuvog'i-Полынь персидская-*Artemisia persica Boiss.*



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п ўйлик,kulrang-yashil, chala buta o'simlik. Poyasi yog'ochlanuvchi yo'g'on. Poyani ostki va o'rtaligida barglari 1-1,5 5-6 sm uzunlikda. Ikki-uch bora qirqilgan, ingichka uzunroq. To'pguli shingil yoki supurgisimon. Savatchasi 4-5 mm uzunlikda, sharsimon, 40-60 gulli. Urug'lari 1 mm uzunlikda, sarg'ish, anik bo'limgan qovirg'ali. Iyunda gullab, oktabrda urug'lari yetiladi. Tog' oldi va tog'ni o'rtaligida, toshli, shag'alli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.

Hind tabobatida quvvatlantiruvchi, istimani tushuruvchi va gijjalarni haydovchi sifatida qo'llanadi. Gul savatchalarini asal bilan aralashtirilib glistlarga qarshi foydalilanildi. Yer ustki qismidan tayyorlangan choy damlamasi nafas qisganda, nafas yo'llarinining yuqori qismi shamollaganda, yurak ish faoliyati susayganda, shamollaganda va siyidik haydovchi vosita sifatida ishlataladi.

Yuksak bo'ymadaron-Тысячелистник благородный-Achillea nobilis L.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб ко'п yillik o'simlik. Poyasi bitta yoki bir nechta, tik o'suvchi, qirrali, yuqori qismidan shoxlanuvchi, tuklangan. Barglari uzun ellipissimon, ikki marotaba qirqilgan. Savatchasi qo'ng'iroqsimon-silindirsimon 3 mm uzunlikda, poyani uchida qalqonsimon to'pgulga ega. Gul o'rni qavariq, uzun nashtarsimon. Tilchali gullari pushti-oq, 4-5 tadan. Urug'lari qisqa, teskari tuxumsimon, 1 mm uzunlikda. Iyun-iyul oyalarida gullaydi, iyul-avgustda urug'lari yetiladi. Tog' yonbag'irlarida begona o't sifatida tog' oldi ekinzorlarida o'sadi. Toshkent (Toshkent shahar atrofida), Samarqand (Samarqand shahar atroflarida) viloyatida tarqalgan. Qaynatmasi yaralarni davolashda, qon ketishida va oshqozon xastaliklarida ichiladi.

Yaproqchali moychechak-Мелкоголовник пластинчатый- Matricaria lamellata Bunge.



Qoqidoshlar (Murakkabguldoshlar) – *Asteraceae (Compositae)* oиласига мансуб bir yillik o'simlik. Och yashil tuklangan ammo gullash davriga kelib tuklari to'kilib ketadi. Poyasi asosidan yoki o'rtaligida qismidan shoxlanuvchan, shoxchalarining uchi bittadan gul bilan yakunlanadi, balandligi 5-10-20 sm. Bargi etli uzunchoq nashtarsimon umumiyo ko'rinishi ikki bora qirqilgan bandli savatchasi poya uchida bargsiz bittadan. Yon bargchasi savatdag'i

tashqisi uzunchoq, ichkisi teskari tuxumsimon. Tilchali guli oq gorizontal bukilgan. Urug'i ko'ppari bilan 1,5-2 mm uzunlikda. Aprel mayda gullab, may-iyunda urug'lari yetiladi. Tog'larning pastki qismalaridagi mayda tuproqli shag'alli gilli, qumli va sho'rxok taqir yerlarning chetlarida o'sadi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda tarqalgan.

Tibbiyotda ikki turining guli ishlatiladi: Gullarining damlamasi me'da-ichak (ichak yopishib qolganda, ichketarda) va ayollar jinsiy organlar kasalliklarini davolashda hamda ter va yel haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Kesselring savrjonı-Безвременник кессельринга-*Colchicum kesselringii Regel.*



Savrjinjondoshlar – *Colchicaceae* oиласига mansub ko'p yillik, tukanak piyozli bo'lib uni shakli uzunchoq tuxumsimon, eni 10-25 mm. Poyasi yerdan uncha baland emas. Barglari 2-8 sm, eni 4-10 mm nashtarsimon. Gullari 1-3-5 tadan, tojibarglari oq va to'q binafsha rangda. Gullah davri dengiz sathidan balandligiga

qarab fevraldan-maygacha. Urug'lashi mart-iyun. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarini tog'larida o'sadi. Tibbiyotda ikki turining tukanak piyozi ishlatiladi. Tukanak piyozi tarkibida alkaloidlar (kolxitsin, kolhamin, spetsiozin va glikoalkaloidlar, flavonoidlar fitosterinli birikmalar bor. Kolhamin (omain) tabletka va surtma holida teri raki va surunkali leykoz kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Sariq savrjonı-Безвременник желтый-*Colchicum luteum Boker.*



Savrjinjondoshlar – *Colchicaceae* oиласига mansub ko'p yillik o'simlik. Tugunak piyozli bo'lib, shakli tuxumsimon, uzunchoqroq eni 10-30 mm. poyasi gullagan davrida hosil bo'lib 1-3 sm. Barglarini soni 2-3 ta bo'lib eni 7-30 mm. Gulkosalari sariq, ayrim vaqtida binafsha. Gullashi va urug'lanishi o'simlikning

dengiz sathidan balandligiga qarab o'zgaradi. Mart-iyul oylarida gullaydi va urug'lanishi aprel-avgust. Tog'larni mayda shag'alli, toshli yonbag'irlarida qorni erishidan so'ng tezda o'sib chiqadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida uchraydi. Piyozidan nafas yo'llarini xirillashida, bo'g'inlar og'rig'ida ishlatiladi. O'simlik juda zaharli hisoblanib, tarkibida kolxitsin alkaloidi bor.

Ulkan sangrayquloq-Мерендера крупная-*Merendera robusta Bunge.*



Savrinjondoshlar – *Colchicaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Tuganak piyozi uzunchoq tuxumsimon, enliliqi 15-25-45 mm qora-qo'ng'ir qobiq bilan o'rالgan. Barglari 3-6 tadan nashtarsimon eni 6-10-20-30 mm. Gullar soni 2-3 tadan yonbargchalar oq yoki pushti 25-40 mm uzunlikda. Ko'sakchasi uzunchoq 2-4 sm uzunlikda uchi uchli. Mart-aprel oylarida cho'llardan to tog'oldi tumanlarigacha o'sadi.

Toshkent (janubida), Samarqand, Buxoro va Qoraqalpog'istonda o'sadi. Piyozini oz miqdorda revmatizm, yurak og'rig'idagi sanchiqda va tanani quvvatsizligini tiklash uchun qo'llaniladi.

Germaniya gulisafsari (qurtqasoch)-Ирис германский-*Iris germanica L.*



Gulsafsardoshlar – *Iridaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizpoyali (ildizpoyasining yo'g'onligi 1,5 sm). Poyasi 60-80 sm bo'lib yuqori qismi shoxlangan.

Barglari qilichsimon (uchi uchkir) nashtarsimon bo'lib eni 1-2 sm, poyadan 3-4 marotaba qisqa. Gullari yirik to'q binafsha rangda kuchli hidli. Aprel va may oylarining boshida gullaydi. Barcha joylarda manzarali gul sifatida ekiladi.

Tibbiyotda ildizpoyasi ishlatiladi. Tarkibida oshlovchi moddalar bor. Qaynatmasi me'da-ichak kasalliklarida burishtiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ildizpoyasi Zdrenko yig'masi tarkibiga kiradi.

Jung'or gulsafsa (qurtqasoch)-Ирис джунгарский-Iris songarica Schrenk.



Gulsafsardoshlar – *Iridaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o’simlik. Ildiz chim hosil qiluvchi o’simlik, poyasi 35-60 sm balandlikda, ostki tomoni qoldiq barglar bilan o’raglan. Bargi dag‘al, nashtarsimon 2-6 mm enlikda uchi o’tkir, gullaridan baland. gullari och qo‘ng‘ir, Ko‘p sonl binafsha dog‘lar bor, kuchsiz hidli. Gullari 5 sm uzunlikda, ko‘sagi uzunchoq 3 qirrali, 3,5-6 sm uzunlikda. May oyida gullab, iyunda urug‘lari yetiladi. Cho‘llarda, qumli joylarda o’sadi. Samarqand, Buxoro, Qoraqalpog‘iston viloyatlarida tarqalgan. Urug‘ini maydalab tuyuib yog‘ bilan aralashtirilib tayyorlangan bo‘tqasimon aralashma, yorilishi qiyin bo‘lgan yaralarga bog‘lanadi.

Ifoslantiruvchi ilongul (Gladiolus)-Шпажник засоряющий-Gladiolus segetum Ker. Jawe.



Gulsafsardoshlar – *Iridaceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, tiganak piyozi o’simlik bo‘lib, tiganak piyozi eni 1.5 sm, qo‘ng‘ir rangda. Poyasi 40-70 sm balandlikda. Boshoqsimon to‘p gullari siyrak, eni va uzunligi 10-20 sm. Barglari ko‘pincha 4 tadan, keng nashtarsimon ostkilaringin yon bargchalari pushti, yuqoridagisi yirik bo‘lib 3-4 sm uzunlikda. Mayda gullaydi, iyunda urug‘i yetiladi.

Ekin maydonlarida, Buxoro viloyati (Boysun) da tarqalgan. Ayollarda hayz ko‘rishni yengillashtirish uchun ichiladi. Piyozi istemol qilishga yaroqli. Piyozini hamir ovqatlar bilan iste’mol qilinganda hazm qilishni yengillashtiradi.

Olatog' za'faroni- Шафран алатауский -*Crocus alatavicus* Regel.
et Semen.



Gulsafsardoshlar – *Iridaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik. Tugunak piyozi sharsimon 1-2 cm yo‘g‘onlikda qobiqli qo‘g‘ir qobiqli. Barglarini soni 5-15 ta ingichka tasmasimon 2 mm enlikda tekis yashil oqish. Gullar soni 1-4 ta. Gul yon barglari oq, ichki tomoni binafsha rangda, asosi sariq 14-70 mm uzunlikda, ko‘sagi uzunchoq 6-7 mm enlilikda. Gullash davri balandlikka qarab va bahorni kelishiga qarab fevral-iyul oylarida, urug‘lari aprel-avgust oylarida yetiladi. Tog‘ oldi tumanlardan tog‘ning o‘rta qismigacha o‘sadi. Toshkent, Farg‘она, viloyatlarida tarqalgan. Tugunagi bilan ovchilar bo‘rilarni zaharlashadi. Manzarali gul sifatida eksport qilinadi.

Greylolasi-Тюльпан грейга-*Tulipa greigii* Regel.



Loladoshlar – *Liliaceae* oиласига mansub ko‘п yillik o‘simlik, piyozi tuxumsimon, yo‘g‘onligi 2,5-4 sm, qizg‘ish-qo‘ng‘ir yupqa qobiqlar bilan o‘ralgan, yuqori qismi tuklar bilan qoplagan. Poyasini balandligi 20-40 sm. Barglari 3-4 tadan bo‘lib, yuza qismida binafsha dog‘lari bor, 3,5-14 sm enlikda, tuksiz. Gullarini rangi pushti-qizil, qora dog‘lari bilan, 3-10 sm uzunlikda. Tuguni yashil. Ko‘sagi 2-3 sm enlikda va uzunligi 4-6 sm, uch qirrali. Aprelda gullab, may oyida urug‘laydi. Tog‘larni o‘rta qismidagi tiproqli va mayda shag‘alli joylarida o‘sadi. Toshkent viloyati (Angren daryosini o‘rta oqimi) da tarqalgan.

Ko‘sagi urug‘lari bilan talqon qilib qon tupirishga qarshi qo‘llaniladi. Barglaridan tayyorlangan damlamasi bosh og‘rig‘ida tinchlantiruvchi sifatida qo‘llaniladi. Piyozidan erta bahorda salatlar tayyorlab iste’mol qilinadi.

Korolkov lolasi-Тюльпан королькова-*Tulipa korolkovii* Regel.




Loladoshlar – *Liliaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik o‘simlik. Piyozi тuxumsimon, yo‘g‘onligi 1-2-(3) sm, qora, qattiq qobig‘ bilan o‘ralgan, yuqori qismi tukli. Poyasini balandligi 10-20sm. Barglari soni 3ta, gulidan balandroq. Guli qizil, ayrim hollarda sariq ichki qismini asosida qora dog‘lar bor, (2)-3-(4-5)sm uzunlikda. Tuguni yashil, o‘troq holdagi

onalik tumshuqchasi bilan. Martni oxiri aprelni boshida gullab, aprel mayda urug‘laydi. Tog‘ oldi tumanlardagi qumli, tuproqli joylarda o‘sadi. Toshkent viloyatida tarqalgan. Tuyilgan urug‘lari ko‘sagi bilan qon tupurishda qo‘llaniladi. Piyozi ichburug‘da burishtiruvchi sifatida ishlatalidi.

Olga jumaguli (xolmon, qo‘zilola)-Рябчик Ольги-*Fritillaria Olgae*

Vved.



Loladoshlar – *Liliaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik o‘simlik. Piyozi novsimon, eni 2-3 sm, poyasi 30-70 sm balandlikda, tuksiz, ostkilari qarama-qarshi, o‘rta va yuqoridagisi halqasimon joylashgan uzunchoq nashtarsimon. Gullari (1)-2-3(8) siyrak joylashgan shingilda. Yon barglari sariq-yashil uchki qismi qizil, shaxmatsimon qora qizil, qoramdir dog‘lari bor. 2,5-3,5 sm

uzunlikda. Ko‘sagi juda qisqa tutqichda, eni 2 sm kalta qanotli. May oyida gullab, iyun oyida urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rta qismidagi daraxtlar, qoyalar soyasida o‘sadi. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo (Bobotog‘) viloyatlarida tarqalgan. Piyozi asosini teridagi qizilcha va boshqa yiringli yaralarga bog‘lab qo‘yiladi.

Poyali boychechak (Mazanak)-Гусиный лук стебельчатый-Gagea stipitata Merckl.



Loladoshlar – *Liliaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Piyozi bittadan, sharsimon balandligi 5-6 mm, qora qobiqli, poyasi yon tomonidan o‘sib chiqadi, balandligi (7)-10-20 sm. Ildiz oldi barglari bittadan, ipsimon, eni 0.75 mm, tuksiz. Yon gul barglari sariq, tashqi tomoni yashilsimon, gullahni oxirida qizaradi, 5-7 mm uzunlikda, tugunchasi 1

mm uzunlikda. Kurakchasi 2-4 mm. Mart oxiri aprelda gullab, aprelni oxirida urug‘i yetiladi. Tog‘ oldi va cho‘llarning qumli, toshli, shag‘alli, tuproqli yerida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarcand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Piyozini oshqozon ish faoliyati sustlashganda va yallig‘langanda iste’mol qilinadi.

Turkiston lolasi-Тюльпан туркестанский-Tulipa turkestanica Regel.



Loladoshlar – *Liliaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik o‘simlik. Ildizining yo‘g‘onligi 1,5-2-(3) sm, qora-qo‘ng‘ir yoki qo‘ng‘ir, qalin, tuklangan qobiqli. Poyasining balandligi 10-25 sm. Barglar 2 tadan, tuksiz, pastki bargi keng, (5)-8-15 mm kenglikda. Gullar soni 1-7 tadan, g‘unchalari to‘g‘ri. Gul barglari oq, asosi sariq, 12-25 mm uzunlikda. Tugunchasi

qisqa ustunchali. Ko‘sagi uzunchoq, 1 sm yo‘g‘onlikda, 1,5-2 sm uzunlikda. Mart-aprel oylarida gullab, Aprel-may oylarida urug‘i yetiladi. Tog‘oldi va o‘rta mintaqalardagi tuproqli, toshli joylarda o‘sadi. Toshkent (Mogaltov), Farg‘ona, Samarcand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Guli va piyoza tulipin alkaloidi hamda kislotalarni saqlaydi. Piyozi zaharli. Undan oz miqdorda revmatizmda va yurak xastaliklarida qo‘llaniladi.

Olg'i shirachi-Шириш ольги-*Eremurus Olgae* Regel.



Shirachdoshlar – *Asphodelaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, o't. Gul poyalarining uzunligi 80-120 sm. Qo'r poyasi tuksiz va barglarsiz. Urchuqsimon ildizi doirasimon joylashgan saqlovchi bo'lib, uzunligi (yo'g'onlashgan qismi) 10-12 sm, eni 1-1.5 sm. Barglari mozaika hosil qilib nashtarsimon, uzunligi 30-40 sm, eni 1-1,5 smga teng. Gulbandida gullar qalin joylashib, 20-50 sm ni tashkil etadi. Gullari och pushti rangda bo'lib, asosi sariq rangda. Iyun-avgustda gullab, iyul-sentabrda urug'lari yetiladi. Mayda toshli tuproqlarda, tog'oldi qismlaridan, tog'ni o'rtal mintaqalarigacha uchraydi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida uchraydi. Xalq tabobatida bargi va ildizi ishlatiladi. Bargi xalq orasida yel haydovchi, ildizi me'da-ichak kasalliklarida, qoplab oluvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Regel shirachi-Шириш Регеля-*Eremurus Regelii*. Vved.



Shirachdoshlar – *Asphodelaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, o't. Gul pallalarining balandligi 50-180 sm. Ildizlari urchuqsimon bo'lib, ildiz bo'g'zida doira bo'lib joylashgan. Barglarini eni 2-5 sm, uzunligi 35-45 sm. Gullari bargsiz gulpoyni o'rtal qismlaridan boshlanadi. Gullar zichroq joylashgan. Gulkosachalarida 3 tadan jigarrangli

tomirlanishlar alohida etiborga olinadi. May oylaridan tog'ni yuqori qismidagilari iyungacha gullab, urug'lari iyul-avgustda pishib yetiladi. Tog'larni tuproqli qismlarida o'sadi. Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida bargi va ildizi ishlatiladi. Bargi xalq orasida yel haydovchi, ildizi me'da-ichak kasalliklarida, qoplab oluvchi dori sifatida qo'llaniladi.

Ulkan shirach-Шириш мощный-*Eremurus robustus* Regel.



Shirachdoshlar – *Asphodelaceae*

oиласига мансуб ко‘п ўйлиқ, ildizi sabzisimon yo‘g‘onlashgan, ularni yo‘g‘onligi 12-15 mm. Barglari keng nashtarsimon 40-80 mm. Poyasi tuksiz 100-200 sm balandlikda, madaniylashtirilganda 350 sm ga yetgan. Shingili juda zinch gullar bilan qoplangan, slindirsimon 35-100 sm, madaniylarida 200 sm uzunlikda. Gul tutqichi uzun. Gulidagi ranglari ochiq pushti bo‘lib, eng asosi sariq dog‘li 17-18 mm uzunlikda. Ko‘sagi sharsimon, tuksiz 1,5-3 sm enlilikda, urug‘lari keng qanotchali. May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqalaridagi yumshoq tuproq qalim joylarda o‘sadi. Toshkent, Buxoro, Samarcand, Qashqadaryo viloyatlarida keng tarqalgan.

Erta bahorda bargidan somsa, manti, pirog va boshqa o‘zuqalar tayyorlanadi. Bargidan tayyorlangan maxsulotlar yel haydovchi va qon tarkibini glikozidlar bilan to‘yintiradi.

Qoratog‘ piyozi-Лук каратавиский-*Allium karataviense* Regel.



Piyozdoshlar – *Alliaceae* oиласига мансуб

ко‘п ўйлиқ о‘симлик. Piyozi tuxumsimon yo‘g‘onligi 2-6 sm tashqi qobig‘i qoramtil yoki kulrang qog‘ozsimon yupqa. Poyasi 10-25 sm balandlikda, uni 5-10 cm qismi yer ostida. Barglarini eni 1-2-3 sm ellipssimon 3-15 sm uzunlikda chetlari tekis. Tugunchasi tutqichli urug‘chisi teskari tuxumsimon eni 8 mm. Aprel-may oylarida gullaydi. May-iyunda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning pastki qismida shag‘alli toshli joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida piyozini qaynatmasi nafas qisishda va o‘pka xastaliklarida ishlatilgan.

Osh piyoz-Лук репчатый-*Allium cepa L.*



Ikki yillik, tuxumsimon yoki sharsimon, po'sti sariq, qizg'ish oq ranglarda. Poyasi 1 m gacha bo'lib, barglari slindirsimon g'ovak. May-iyun oylarida gullab, iyulda urug'lari pishib yetiladi. Boshpiyzning turli duragay navlari O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekib yetishtiriladi. Jumladan, Farg'ona vodiysi sharoitida shakllangan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarida piyozning yangi duragay navlari yetishtiriladi. Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar unumdorligi uning tarkibidagi gumus, oziqa moddalarning yalpi va harakatchan miqdori, qulay fizik, fizik-kimyoviy sharoitlari bilan bog'liq bo'lib, o'rganilgan haydov qatlami tuproqlarning unumdorligi, ya'ni agrokimyoviy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

O'rganilgan cho'l mintaqasining sug'oriladigan avtomorf sur tusli qo'ng'ir tuproqlari unumdorligini belgilashda gumus qatlami qalinligi, oziqa elementlar miqdori va sifati hamda tosh-shag'alli qatlamning joylashgan chuqurligi hamda skeletlilik darajasi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi.

Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarga mos bo'lgan quyidagi piyoz navlari tavsiya etiladi. **Manas F₁** – Gollandiyaning "Bejo Zaden" firmasining duragayi. Piyozboshining shakli yumaloq, tashqi quruq qobig'ining rangi sariq, eti oq. Eti o'rtacha qalinlikda. Quruq moddalar miqdori 9,7 %. Urug' hosildorligi 0,8-0,9 t/ga. Navning umumiyy mahsuldorligi 63,0 t/ga etadi.

Sur tusli qo'ng'ir tuproqlardagi hosildorligi esa 40-45 tonnagacha boradi. **Pantera F₁** – Gollandiyaning "Nickerson-Zwaan" firmasining duragayi. Bu duragay sovuqqa chidamli gibrid bo'lib, havo harorati-28° C gacha tushganda ham hayotchanligini saqlab qoladi. Piyozboshisi dumaloq, barglari ingichka, piyozboshining og'irligi 170-200 g ni tashkil qiladi. Piyozni to'la yetilish davri 135 kungacha boradi. Ushbu duragay sur tusli qo'ng'ir tuproqlar uchun juda mos nav hisoblanib, hosildorligi 37-43 tonnagacha.

Hozirgi kunda ushbu navlar sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarda ekib yetishtiriladi.

Barcha madaniy piyozi navlari qator morfologik, biologik va boshqa belgilari bilan tubdan farq qilib, bu belgilar ularning tur bo'yicha tasniflashga asos bo'lib xizmat qiladi. Piyozboshi shakli va sifati tuproq turi va tarkibi, agrotexnik tadbirlarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Piyozboshining o'lchami bo'yicha xam navlar orasida xilma-xillik kuzatiladi. Piyozboshining o'sishi va shakllanishi o'sish sharoitlarining majmui, xususan yorug' kun uzunligi va xarorat bilan belgilanadi. Piyozdagi morfo-biologik belgilari bilan bir qatorda uning kimyoviy tarkibi xam yuqori darajada o'zgaradi. Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir tuproqlari va piyozning tarkibida 0,01% dan ko'p bo'lgan P, S, Ca, K, Na, Fe, Ce, Mn kabi makroelementlar saqlaydi va bu birinchi guruhga kiradi deb shartli tafsiflash mumkin. Ikkinci guruhni miqdori 0,00001-0,01% bo'lgan Zn, F, Sr, Cu, Mo, Br, Si, Cs, Al, Pb, Cd, B kabi mikroelementlar tashkil qiladi. Miqdori 0,00001% dan kam bo'lgan Se, Co, V, Cr, As, Ni, Li, Ba, Ti, Ag, Sn, Be, Co, Ge, Hg, Se, Zr, Bi, Sb, U, Th kabilari uchinchi guruhga kiruvchi elementlar aniqlangan. Piyozning shifobaxshlik xususiyatlari yuqoriligi tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdoriga bog'liqidir.

Piyozning shifobaxsh xususiyatlari bundan taxminan to'rt ming yil avval sharq xalqlariga ma'lum bo'lgan. Ko'hna Yunon, Rum, Qadimiy Misr xalqlari piyozga bo'lgan chuqur hurmat-ehtiromlarini bo'yniga shoda qilib osib yurish bilan ifoda etganlar.

Buyuk allomalarimizdan Abu Ali ibn Sino piyozni sariq kasalligiga davo qilgan hamda ishtaha ochish uchun qo'llagan. Piyoz shirasini bilan yiringli yaralarni, qulodan yiring oqishini, angina va ko'zga oq tushishini davolagan. Bulardan tashqari piyoz shirasini bosh og'riqni qoldiruvchi, yumshoq ich suruvchi va ayollarda hayz to'xtaganda hayz keltiruvchi dori sifatida ishlatgan.

Xalq tabobatida piyozning shifobaxsh xususiyatlaridan siyidik haydovchi dori sifatida, turli yara, chipqon, singa, ichakning qattiq og'rishi, kolit, ateroskleroz, gipertoniya, avitaminoz kasalliklarini,

manqa, tumov, sizlog'ich, hatto yumaloq gjjjani tushirishda ham ishlataladi.

Ilmiy tibbiyotda piyozboshi tarkibida efir moyi, qandlar, vitamin C va B, karotin, flavonoid modda, bargida vitaminlar, karotin, limon va olma kislotalar, qandlar, fitonsid birikmalar bor. Dori preparati, spirtli ajratmasi bakteriyalarini, mikroblarni (masalan, trixomonadlarni) o'ldirish ta'siriga ega. Uni kolitda, ateroskleroz va gipertoniya kasalligining ba'zi turlarini davolashda qo'llaniladi. Piyozi gipo va avitaminoz kasalliklarida vitaminlarga boy sabzavot sifatida ko'p ishlataladi. Bundan tashqari piyoz po'stida kversetin moddasi kuchli antioksidant xususiyatiga ega.

Sarimsoq (sasiq piyoz)-Лук чеснок-*Allium sativum L.*



Piyozdoshlar – *Alliaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't, piyozi bir necha bo'laklardan tashkil topgan va disksimon, tuxumsimon shakkarda. Poyasining balandligi 1 m gacha bo'lib, to'p bo'laklar o'rtasidan o'sib chiqadi. Barglari uzun nashtarsimon. Iyun-iyul oylarida gullab urug'laydi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekiladi. Piyozboshisi tarkibida allin birikmasi, efir moyi, fitosterinlar, fitonsidlar, vitamin C, oz miqdorda yog', yod moddalar bor. Piyozboshisining surtmasi (nastoykasi) ateroskleroz, gipertoniya, kolit va o'pka sili kasalliklarini, ginekologiya amaliyotida trixomonada hamda yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Seversov piyozi (olg'i)-Корольковия северцова-Korolkovia

Severtzovii Regel.

Piyozdoshlar – *Alliaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Piyozi oq, yupqa qobiq bilan o'ralgan, diametri 3-5 sm. Poyasi yo'g'on, tik o'suvchi, tuksiz, balandligi 20-60 sm. Barglari poyani yarim o'rabi oluvchi och yashil, tuksiz. Gullari poyani uchki qismida shingilsimon joylashgan. Gullari 3-13 tagacha bo'lib bandlari qisqa, gullab turganda pastga qarab turadi. Mevasi yetilganda yuqoriga



ko'tariladi. Gul qismlari orqa tomonidan qo'ng'ir yashil, ichki tomonidan to'q qo'ng'ir, qizg'ish rangda. Ko'sagi 3-5 sm uzunlikda urug'lari to'q qo'ng'ir yupqa qanotli. O'sayotgan joyining dengiz sathidan balandligiga qarab apreldan-iyungacha gullab urug'laydi. Tog' oldi tuproqli qismidan, tog'ni o'rta mintaqalarigacha shag'alli va siyrak o'simliklar bilan qoplangan joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Ertabahorda yoki urug'lari pishgandan so'ng piyozi olinib, undan jigar, o't yo'li va quvvatsizlikni tiklash uchun qo'llaniladi.

Suvarov piyozi-Лук суворова-*Allium suworowii* Regel.



enlikda. May oyida tuproqlarda, vohalarda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida hidivita'mi sarimsoq piyoza o'xshash ammo kuchli hid va achchiqroq tamga ega. Piyozi vino uksus bilan marinovat qilingani qon tupirganda, tuberkulyoz xastaligini boshlanish davrida va nafas yo'llari xastaliklarida qo'llanilgan.

Uzumsimon piyozi-Лук виноградный-*Allium ampeloprasum* L.



Piyozdoshlar - *Alliaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Piyozi sharsimon 2-3 cm yo'g'onlikda. Ko'p qavatli qobig'i kulrang, poyasining balandligi 30-100 sm. Barglari 2-6 tadan tasmasimon uzun eni 5-20 mm soyaboni sharsimon. Ko'p sonli, gullari zikh joylashgan. Gullari pushti, binafsha, tuxumsimon 5 mm gullab, iyunda urug'lari yetiladi. Toshloq Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

qirrali Iyunda gullab, iyulda urug'lari yetiladi. Uzumzorlarda begona o't sifatida o'sadi. Buxoro viloyati (Sherobod tumani) da tarqalgan. Xalq tabobatida piyozi kuchli surgi hisobida foydalanilgan.

Viktor omonqorasi (qoraqobig'i)-Унгерния Виктора-Ungernia Victoris Vved. Ex Artjushenko.



Nargisdoshlar – *Amaryllidaceae* oilasiga mansub ko'p yillik, o't. Ko'p sonli piyozli, piyozi tuxumsimon 4-7 sm uzunlikda. Qora yupqa kobiqlar bilan o'ralgan. Barglari ikki qator 7-10 ta, nashtarsimon eni 2-3 sm. uzunligi 20-30 sm. Gul poyasi 5-10 sm balandlikda. Avgustda gullab, sentabrdaga urug'lari yetiladi. Tog'ning o'rta

mintaqalaridagi tuproqli joylarda o'sadi. Buxoro viloyati (Chulbar tog'lari) da tarqalgan.

Qoraqobiq turlarining bargi tarkibida alkaloidlar (galantamin, likorin), saponinlar, organik kislotalar, shilliq moddalar bor. Bu o'simliklardan galantamin va likorin olinadi. Galantamin gidrobromid miasteniya, miopatiya, poliomielit asoratlari hamda polinevrit, radikulit kasalliklarini davolash uchun, nervlar shikastlanib, uzilganida, ichak va qovuq zaiflashganida qo'llaniladi.

Konstantinopal nargisi-Нарцисс константинопольский-Narcissus tazetta L.



Nargisdoshlar – *Amaryllidaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o't. Poyasining yo'g'onligi 4-5 sm, tuxumsimon, qoramtil qobiqli. Poyasining balandligi 80 sm. Barglari 4 tadan nashtarsimon, eni 8-13 mm soyaboni 4-5 gulli, gullari pushti. Aprelda gullaydi. O'zbekistonning hamma joylarida dekorativ o'simlik sifatida ekiladi.

Bargidan likorin alkaloidi olinadi. Nafas qisishda eng yaxshi pereparat hisoblanadi.

Seversov omonqorasi (qoraqobog'i)-Унгерния Северцова- *Ungernia Sewertzowii (Regel) B.Fedtsch.*



Nargisdoshlar – *Amaryllidaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, o‘t. Yirik piyozli, piyozlari uzunchoq bo‘lib, 5-7 sm uzunlikda to‘p bo‘lib, bir nechta piyozdan iborat. Piyozlari yupqa qora pardasimon qobiqlar bilan o‘ralgan. Barglari ikki qator 4-6 tadan, nashtarsimon, eni 1.5-2 sm va 20sm uzunlikda. Bahorda barglar

hosil qilib, yozda ular qurib so‘ng, gullar urug‘laydi. Iyulda gullab, avgustda urug‘lari yetiladi. Tog‘larning o‘rta mintaqasida toshli, mayda shag‘alli tuproqda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona vodiysida uchraydi. Bu o‘simliklarda galantamin va likorin olinadi. Galantamin gidrobromid miasteniya, miopatiya, poliomielit asoratlari hamda polinevrit, radikulit kasalliklarini davolash uchun, nervlar shikastlanib uzilganida, ichak va qovuq zaiflashganida qo‘llaniladi. Likorin hidroxlorid qon bosimini tushiruvchi (gipotenziv) ta’sirga ega hamda bronxitlarni, astma va o‘pkadagi yallig‘lanish jarayonlarini davolashda balg‘am ko‘chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi.

Tatar chuchmomasi-Иксиолирион татарский-*Ixiolirion tataricum* (Pall.) Herb.



Chuchmomadoshlar – *Ixioliriaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘simlik. Piyozi tuxumsimon, yo‘g‘onligi 1,5-2,5 sm, och qo‘ng‘ir qobiqli, poyasini balandligi 9-60 sm. Barglari nashtarsimon, 2-10 mm uzunlikda. Gul to‘plami shingilsimon bo‘lib, gullari oz sonda, ayrim hollarda shoxlanadi. Yon barg gullari binafsha rangda, 2-3-(4,5) sm uzunlikda, teskari nashtarsimon. Kosasi to‘g‘nog‘ichsimon, yumoloq uchqirrali. Aprel-may oylarida gullab, may-iyunda urug‘lari yetiladi. Tog‘ni ostki qisimlarida, cho‘l mintaqalarida o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Piyozlari istemol qilinadi. Yosh bolalardagi ichburug' xastaligida qo'llaniladi. Piyozlari asosan bahorda iste'mol qilinadi.

Seversov poligonatum (zig'ir)-Купена Северцова-*Polygonatum sewerzowii* Regel.



Marvaridguldoshlar – *Convallariaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildiz poyasi yo‘g‘on bo‘g‘imlarga bo‘lingan gorizontal o‘sgan. Poyasi tik o‘suvchi, tuksiz egatchali, ostki tomoni bargsiz 30-80 sm balandlikda. Barglari tuksiz ostki barglari navbatlashgan, o‘rta va yuqoridagilari halqasimon joylashgan. Gullari yuqori barglar qo‘ltig‘ida joylashgan oq. Mevasi qizil. Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevasi pishadi. Tog‘larning pastki va o‘rta qisimlaridagi soya joylarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Urug‘larida 45% qand moddalar bo‘lganligi uchun aholi tomonida qiyom tayyorlanib, ishlatiladi. Qurutib maydalangan gulidan shamollahashga qarshi ishlatiladi.

Dorivor sarsabil-Спаржа аптечная-*Asparagus officinalis*.L



Sarsabildoshlar – *Asparagaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi 70-150 sm balandlikda shoxlangan, o‘rta va yuqoridagi poya barglarini ostkisidan kalta pixlari bor. Mevasi sharsimon qizil. May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevasi yetiladi. Toshkent, Namangan, Qashqadaryo viloyatlarida, daryo o‘zanlarida to‘qayzorlar va qum barxanli cho‘llarda uchraydi.

Tibbiyotda ildizpoyasi ildizi va yosh novdalari bilan birga ishlatiladi. Ildiz poyasi bilan ildizining qaynatmasi xalq tabobatida siyidik yo‘llari kasalliklarini davolash uchun yurakning tez urishini maromiga keltiruvchi vosita sifatida qo’llaniladi. Sarsabil ekstrakti qon bosimini pasaytirish, yurak urishini sekinlashtirish va siyidik xaydash

ta'siriga ega ekanligi tajribada aniqlandi. Hozir buyrak va yurak kasalliklarida ishlatishga tavsiya etilgan.

Kalta bargli sarsabil-Спаржа каротколистная-*Asparagus brachyphyllus* Turcz.



Sarsabildoshlar – *Asparagaceae* oиласига mansub ko‘p yillik o‘simlik. Poyasi bukilgan holda chirmashib o‘sadi, shoxlangan, balandligi 50-150 sm ko‘p sonli poyalar yo‘g‘onligi 05-07 mm. Gullari poya va novdasidagi barg qo‘ltiqlarida bittadan joylashgan. Gul tutqichlar uzunligi 10-15 mm uzunlikda. Gullari qo‘ng‘oqsimon 6-7 mm uzunlikda novdasi qizil, sharsimon diametri 5-7 mm. Mayda gullaydi va iyunda mevalari pishib yetiladi.

To‘qayzorlarda kulrang tuproqlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘она, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Tibbiyotda ildizpoyasi ildizi va yosh novdalari bilan birga ishlatiladi.

Tarkibida saponinlar, asparagin, karotin moddalari bor. Ildizpoyasi bilan ildizining qaynatmasi xalq tabobatida istisqo, qovuq yallig‘lanishi siydk yo‘llari kasalliklarini davolash uchun hamda siydk haydovchi va yurakning tez urishini maromiga keltiruvchi vosita sifatida qo‘llaniladi.

Keng bargli epipaktis-Дремлик широколистный-*Epipactis latifolia* (L.) All. (*E.helleborine* (L.) Gratz.)



Solabdoshlar – *Orchidaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildiz poyalari popuk ildizsimon, poyasini balandligi 40-50-(60) sm, barglari yumaloq. Barglari yumaloq 4-8 sm uzunlikda, eni 3.5-5.5 sm, chetlari tuklangan. Gul shingili uzaygan, ko‘pgulli, gullarini yon barglari ovalsimon 1-1.3 mm uzunlikda. Labini orqa tomoni qora to‘q qizil, xaltasimon, tugunlari tuksiz. Ko‘sagi kubsimon 10-11 mm uzunlikda va eni 9 mm. May va iyunda gullaydi, sentabrgacha davom etadi. Ariqlar, zax o‘tloqlar, daryolarning soya joylarida o‘sadi. Farg‘она (Qo‘qon) viloyatlarida tarqalgan. Bargidan tayyorlangan qaynatmasi kompress qilish uchun ishlatiladi.

Soyasevar solab-Ятрышник тенистый-*Orchis umbrosa* Kar. et Kir.



Solabdoshlar – *Orchidaceae* oиласига mansub ко‘п yillik о‘т. Ildiz tugunagi 1-6 tali panjasimon shoxlangan. Poyasi 30-40 (45) sm balandlikda, tik о‘suvchi, yo‘g‘on. Yon barglari 6-7 tadan nashtarsimon, ustki barglari 10-20 sm uzunlikda va 2- 2,5 sm enlikda. Gul to‘plari 5-15 sm, gullari och pushti va pushti ranglarda. Tog‘lardagi buloqlar, jilg‘alar qirg‘og‘ida , 700-2800 m balandliklarda о‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarcand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan. Ildiz tunganagidan doimiy qabziyatda, oshqozon ichak xastaliklarida, buyrakdagи toshlarda, tuberkulyozda, keksalarni quvvatlantiruvchi sifatida qо‘llaniladi.

Tuxumsimon listera-Тайник яйцевидный-*Listera ovata* (L.) R.Br.



Solabdoshlar – *Orchidaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildizpoyasi silindirsimon, Qisqa yo‘g‘on ildizli. Poyasini balandligi 30-60 sm, asosida qо‘ng‘irsimon qinlari bor. Barglari o‘troq ellipssimon, tuxumsimon, 6-14 sm uzunlikda, va eni 2,8-9 sm, poyani о‘rab oluvchi shingili 10-25 sm uzunlikda, siyrak. Gullarini rangi yashillikka yaqin. Gul yon barglari 4-5 mm uzunlikda. Tugunchasi tuksiz. Toshkent viloyatidan bir marotaba daraxt soyasidan topilgan. Bargidan tayyorlangan damlamadan yaralar yuviladi, grijani va yosh bolalardagi toshma yaralar yuviladi.

Nevski yakani-Ситник невского-*Juncus Nevskii* Lam.



Yakandoshlar – *Juncaceae* oиласига mansub ko‘p yillik, ildizpoyasi qalin chim hosil qiluvchi, balandligi 50-80 sm. Poyasi qattiq, qirrali, 2 mm yo‘g‘onlikda, ost qismi qо‘ng‘ir bargsiz, qinlar bilan о‘ralgan. Bargi silindrsimon, tikanli poyadan qisqa. Yon gullar to‘plami supurgisimon, 5-10 sm uzunlikda. Gullari 2,5-3

mm uzunlikda bittadan yoki 2-3 tadan to'plangan. Yon gul barglari somonsimon sariq, tepe qismi zanjirsimon rangda.

Ko'sakchasi uzunchoq tuxumsimon 3,2-4 mm uzunlikda, yashil qo'ng'ir. Urug'i qo'ng'ir 0,8 mm uzunlikda. May-iyun oylarida gullab urug'laydi. Sho'rhok pastlik joylarda o'sadi. Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Ildizi siyidik qopchig'i xastaliklarida va siyidik haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

G'uj hilol (salomalaykum, yakan)-Сыть скученная-*Cyperus glomeratus L.*



Hiloldoshlar – *Cyperaceae* oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi 10-80 sm balandlikda bittadan o'tkir uch qirrali tekis barglari nashtarsimon to'q yashil 3-10 mm enlilikda poyadan katta. Gul to'plami soyabonsimon yoki soyabon supurgisimon. Boshog'i nashtarsimon 8-15 mm uzunlikda va eni 1 mm. yong'oqchasi uzunchoq-nashtarsimon, uch qirrali 1-1,5 mm uzunlikda va eni 0,5 mm. Iyul-avgust oylarida gullab, urug'laydi.

Suv yurgan joylar va daryolar qirg'og'ida o'sadi. Qoraqlapog'istonda tarqalgan. Xalq tabobatida ildiz tunganagidan siyidik haydovchi va terlatuvchi sifatida bezgak xastaliklarida qo'llaniladi.

Oddiy qilich o't (shamshir o't)-Меч трава обыкновенная-*Cladium mariscus (L.) Roved.*



Hiloldoshlar – *Cyperaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi 100-200 cm balandlikda kulrang yashil, yo'g'onlashgan ildizpoyali, poyalar hosil qiladi yuqori qismigacha barglari bilan qoplangan. Barglari ensiz qattiq chetlari arrasimon tishchali 5-15 mm enlikda. Boshog'i 4-5 mm uzunlikda tuxumsimon. Yong'oqchasi tuxumsimon 3,5 -4 mm uzunlikda to'q qo'ng'ir rangda. Gullab urug'lash vaqtি iyul-avgust oylariga to'g'ri keladi. Toshkent, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Tabobatda ichburug‘ga qarshi damlamasi ichiladi.

Uzun xilol (slom alaykum, yakan)-Сыть длинная-*Cyperus longus L.*



Hiloldoshlar – *Cyperaceae* oиласига мансуб ко‘п yellik o‘simlik. Och yashil, uzun ildizpoyali balandligi 60-100 sm ayrim hollarda undan baland o‘tkir uchburchakli to‘qima orasidagi barglari qizg‘ish qo‘ng‘ir barg qiniga ega. Barglari yassi, guli va o‘tlari dag‘al 3-7 mm enlikda. Gul to‘plami murakkab, zikh, ko‘p sonli, nurli soyabonchasimon bo‘lib uzunligi 40 sm bo‘lib u ham o‘z navbatida shoxlanadi uchinchi tartibli nurlanishda gullar joylashadi ular soni 3-10 tani tashkil etib, 5-20 mm uzunlikda va eni 1-1,5 mm gullari qizil qo‘ng‘ir qobiqlar bilan o‘ralgan yong‘oqlari uzun, barglari tuxumsimon, uch qirrali 1,2-1,5mm uzunlikda. Iyun-sentabrda gullab urug‘laydi. Zax-botqoq joylarda daryo ariq bo‘ylarida, tog‘larning 2000 m bo‘lgan balandliklariдagi ekinzorlarda o‘sadi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Buxoro viloyatlarda tarqalgan.

Achchiq ta’mli ildizi va tunganaklari istemolga yaroqli hisoblanib, xalq tabobatida ayollardagi menstruatsiyasi to‘xtab qolganda yurgizish uchun ishlatiladi.

Yumaloq xilol (slom alaykum, yakan)-Сыть круглая-*Cyperus rotundus L.*



Hiloldoshlar – *Cyperaceae* oиласига мансуб ko‘p yellik o‘simlik. Kulrang yashil yer ostki ildizpoyali tugunaksimon yo‘g‘onlashgan o‘t o‘simlik poyasini balandligi 10-50 sm. barglari yassi 2-5 mm enlilikda pastga bukilgan poyadan kalta, gullari soyabonsimon ikki bor nurlangan, 3-8 gul to‘plamidan iborat boshoqsimon, boshog‘i uzun nashtarsimon o‘tkir 10-35-(40) mm uzunlikda va eni 1,5-1,8 mm zangsimon qizil rangda, yong‘oqchalari teskari tuxumsimon uch qirrali 1,6-1,8 mm uzunlikda to‘q kulrang. Iyun-sentabr oylarida gullab urug‘lanadi. Ariqlar, zax yerlar va ekinzorlarda o‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda ko‘p

tarqalgan. Qaynatma damlamasi oshqozon xastaligida, siyidik haydovchi, ter haydovchi sifatida, boshqa o'simliklar bilan birgalikda yurak, asab (nevroz) xastaligini davolashda qo'llaniladi.

Qon to'xtatuvchi buzoq tili-Бородоч кровоостанавливающий- *Andropogon ischaemum L. (Bothriochloa ischaemum L. Keng)*



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub ko'p yillik, ildiz poyalari chimir hosil qiluvchi bo'lib, poyasi tik turuvchi, ingichka, tuksiz 30-80 sm balandlikda. Barglari kichik barg qiniga ega bo'lib, nashtarsimon eni 2-4 mm. Gul to'plamda 2-10 tacha gul shoxlari bor. Iyul-avgust oylarida gullab, urug'laydi.

Tog'oldi yonbag'irlarida kichik maydonlarda, ariq va soylar qirg'oqlarida uchraydi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog'istonda o'sadi. O'simlikdan asosan bachadondon qon ketishida, oshqozon kasalliklarida, milklarni mustahkamlashda, ishtaha ochishda qo'llaniladi.

Jonson g'umay-Сорго аллепское (джухары) (Джонсонова трава)- *Sorghum halepense (L.) Rers.*



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Uzun, yo'g'on ildizpoyali. Poyasi tuksiz, tekis, 50-150 sm balandlikda. Barg qismlari tuksiz, tilchasi 1-2 mm uzunlikda, chetlari kipriksimon. Bargi nashtarsimon-nashtarsimon, 1-2 sm kenglikda, tuksiz, chetlari o'tkir dag'al. Gullari poyani uchida supurgisimon to'pgullarda to'plangan. Boshog'i yashil, sarg'ish, qo'ng'ir ranglarda. Iyul-avgust oylarida gullab, urug'lari yetiladi.

Ekinzorlarda, paxta, qovun, uzumzor, bog'larda begona o't sifatida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. Ildizi qonni tozalovchi xususiyatga ega. Urug'lari siyidik haydovchi xususiyatga ega.

Qizil qayoq (Botoo't)-Императа цилиндрическая-*Imperata cylindrica* (L.). Beauv.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub ko'p yillik, ildiz poyali o'simlik, poyasi 30-60 sm bo'lib, asosini eski barglar qoldig'i o'rab turadi. Barg qinlari qizg'ish, tuksiz. Aprel-may oylarida gullab urug'laydi. Namli tuproqlarda, tekislik va soylar, ariqlar bo'yida o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro hamda Qoraqalpog'istonda uchraydi. Ildizpoyasining qaynatmasidan siyidik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, bachadon qon ketishini to'xtatuvchi sifatida ishlatalidi.

Quyon arpa-Ячмень заячий-*Hordeum Leporinum* Zink.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub bir yillik, poyasini balandligi 15-40 sm, tuksiz, tekis. Barglari ham tuksiz, bargi nashtarsimon, 4-7 sm uzunlikda, boshog'i o'troq, ostki gul qobig'i keng nashtarsimon 7 mm, uzunlikda va o'qi 4 cm uzunlikda. Mayiyun oylarida gullab urug'laydi. Tekisliklarda, ariq bo'ylarida, bog'larda, tog'larni o'rta mintaqasigacha bo'lgan qismidagi o'tloqlarda o'sadi. Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida tarqalgan. Bargining qaynatmasidan ichburug'ni davolashda ishlatalidi.

Makkajo'xori-Кукуруза миас-*Zea mays* L.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Balandligi 200-300 sm o'simlik, barglari nashtarsimon bo'lib, uzunligi 50-70 sm, eni 2-5 sm siyrak tuklangan. Erkak gullar poyaning uchida, urg'ochi gullari poya bo'g'imidan chiqqan so'tada. Iyul-avgustda gullab, sentabrda mevasi yetiladi. O'zbekistonda ekiladi.

Tibbiyotda onalik gulining ustunchasi va tumshuqchasi mevasining kraxmali va moyi ishlataladi. Onalik guli ustunchasi va tumshuqchasi tarkibida yor, efir moyi, saponinlar, flavonoidlar organik kislotalar, ko‘p miqdorda vitamin C va K, karotin, pantoted kislota, inozit, fitosterin moddalari bor. Suyuq eketrakti yig‘malar tarkibida jigar, o‘t pufagi va o‘t yo‘llari kasalliklarida o‘t haydovchi, buyrak tosh va istisqo kasalliklarida hamda qovuqda tosh bo‘lganda siyidik haydovchi va qon oqishini to‘xtatuvchi vosita sifatida qo‘llaniladi. Mevasining moyi ateroskleroz kasalligini davolash va oldini olish uchun, kraxmali oshlovchi dori vosita sifatida ishlataladi (qaynatma holida ichiladi yoki ko‘xna (klizma qilinadi). Yana ba’zi surtmalar, chaqaloqlarga sepiladigan kukunlar tarkibiga kiradi.

Oddiy qamish-Тростник обыкновенный (Камыш)

Phragmites communis Trin.



Bug‘doydoshlar – *Poaceae*
(Graminea) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik. Uzun ildiz poyali (3-4 m), poyasi bo‘g‘inlarga bo‘lingan. Ayrimlari vegetativ yo‘l bilan ko‘payishga moslashgan, poyalari yerni ustki qismida gorizontal holda 7-8 m uzunlikda bo‘ladi. Balandligi 50-400 sm. Barglari poyani o‘rab olgan bandli, yaprog‘i uzun 20-25 sm va eni 2-3 sm. Gullari poyaning uchki qismida supurgisimon to‘p bo‘lib, uzunligi 20-50 sm. Qo‘ng‘ir binafsha ranglarda. Iyul-oktabrda gullab, urug‘laydi. Ko‘l, ariqlar, tekisliklarda, ba’zan yer osti suvi yaqin bo‘lgan cho‘l xududlarida ham, tog‘larni o‘rtal qismilaridagi soylarni atroflarida o‘sadi. O‘zbekistonni barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan.

Poyalari bargidan metil spiriti, formalin olinib, dorilar tayyorlashda qo‘llaniladi.

Panjali ajriq-Свинорой пальчатый-*Cynodon dactylon* (L.) Pers.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildiz poyasi uzun. Poyasi tik o'suvchi, balandligi 10–50 sm asosidan shoxlanuvchi tuksiz va tekis. Barg qini tuksiz. Gulchasi qisqa tukli. Bargi nashtarsimon qattiq. Gullari 3-5 va undan ortiq bo'ladi. Iyun-avgust oylarida gullab, urug'laydi. Ekin maydonlarda ariqlar bo'yida, yo'l yoqalarida, tog' o'tloqlarida o'sadi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida keng tarqalgan begona o't. Tabobatda damlamasidan ko'z og'rig'ida tampon qilib davolanadi. Ildizini qaynatma ekstrakti turli xastaliklarda qo'llaniladi.

O'rmalovchi bug'doyiç-Эллитригия ползучая (пырей)-*Elytrigia repens* (L.) Weevski.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub ko'p yillik, o't. Ildiz poyasi uzun. Poyasi 70-100 sm, tekis. Bargi yupqa nashtarsimon. Boshog'i to'g'ri 7-15 sm. Mayiyun oylarida gullab urug'laydi. Tog'larning quruq soylarida tosh-shag'alli yonbag'irlarida uchraydi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida uchraydi. Ildizini qaynatmasi siyidik va o't yo'llarini, ichaklar va oshqozon, buyrak, yo'tal va bronxitda, teri yaralarida, buyrakdag'i toshni xaydashda qo'llaniladi.

Ekma suli-Овес посевной-*Avena sativa* L.



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Barglari tasmasimon, parallel tomirlangan. Barg yaprog'ining barg bandidan ajralgan qismi mayda tuklar bilan qoplangan. Ular tilcha deb ataladi. Ushbu tilcha yozg'ir paytida poyani o'rab turuvchi barg qiniga suv kirmasligini ta'minlaydi. Poyasi 60-100 sm, tuksiz. Boshog'i 25 sm uzunlikda,

boshqchalari 2-3 gulli. May-iyunda gullab, urug'laydi. O'zbekistonda qisman ekiladi. Donidan virusli gepatitda, oshqozon yallig'lanishida, o'n ikki barmoqli ichak yallig'lanishida, qabziyatda qo'llaniladi. Urug'larining unidan tayyorlangan bo'tqasidan yuzlarga surtilib, yuz terisini normallashtirishda ham qo'llaniladi.

Ekma sholi-Рис посевной-*Oryza sativa L.*



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi asosidan shoxlanuvchi, poyasi 50-100 sm. Barg qinlari tuksiz, eni 1 sm. Gul to'plarining uzunligi 20 sm, Boshog'i 9 mm uzunlikda. Avgust-sentabr oylarida gullab, yetiladi. O'zbekistonning hamma viloyatlarda ekiladi.

Qaynatilib, kashasimon xolga keltirilgan guruchni, lotos ildizi bilan, soya uni qo'shib bronxial astmani davolanadi. Quvvatni oshiruvchi sifatida sut bilan yog' qo'shib ozgina shakar qo'shib iste'mol qilinadi.

Ekma yumshoq bug'doy-Пшеница мягкая-*Triticum aestivum L.*



Bug'doydoshlar – Poaceae (Graminea) oilasiga mansub bir yillik o'simlik. Poyasi 100-150 sm bo'lgan o't o'simlik. Barglari nashtarsimon tuksiz. Boshog'i 4-5 gulli, zikh ayrim hollarda siyrakroq joylashgan gullar to'plamidan iborat. Iyun-iyul oylarida gullab donlari yetiladi. Yovvoyi holda O'zbekistonda uchramaydi. Hamma viloyatlarda ekiladi.

Tibbiyotda bug'doyning uni va kraxmali ishlatiladi. Bug'doy donining qaynatmasi xalq tabobatida organizmga quvvat beruvchi, kepagining qaynatmasi asal bilan birga yo'talga qarshi vosita sifatida va nafas olish yo'llari yallig'lanishida qo'llaniladi. Bug'doy mevasi donidan olinadigan kraxmal tibbiyotda (ichketar me'da-ichak kasalliklarida) hamda dorishunoslik amaliyotida (kukunlar, sepma dorilar, tabletkalar tayyorlashda) ko'p ishlatiladi.

Soyabonli suvpiyoz-Сынк зонтичный-*Butomus umbellatus L.*



Suvpiyozdoshlar – *Batumaceae* oиласига мансуб ко‘п yillik, ildiz poyali yo‘g‘он горизонтал о‘sувчи о‘т о‘симлик. Barglari uzun tasmasimon, asosi uch qirrali uchki tomoni nashtarsimon eni 3-10 mm poyasi 20-150 sm gullar то‘лами soyabonsimon gultojlarini rangi oq qizil nursimon dog‘lari bor. May-iyul oylarida gullaydi iyul-avgust oylarida urug‘и yetiladi. Tekisliklardagi sayoz sekin oqadigan va oqmaydigan suvlarda о‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qoraqlpog‘istonda tarqalgan. Xalq tabobatida bargidan olingan suvi teridagi temiratki va oq dog‘larni davolashda ishlatiladi. Ildiz poyasining etli qismidan non tayyorlash mumkin.

Zubturimsimon bulduruqo‘t-Частуха подорожниковая-*Alisma plantago aquatica L.*



Bulduruqo‘tdoshlar – *Alismataceae* oиласига мансуб ко‘п yillik о‘симлик. Ildizpoyasi туганаксимон ко‘п sonli kurtaklarga ega. Poyasi tik о‘sувчи balandligi 10-70 sm. Barglari suv yuzasida suzuvchiları uzun bandli 7-10 sm uzunlikda eni 4,6-6 sm keng tuxumsimon ayrimlari yuraksimon. Gul то‘лами piramidasimon то‘pgullar bo‘lib, uzunligi 25-35 sm qolganlarida 5-6-(10) gullar то‘plamidan iborat. Kosachasi yashil keng tuxumsimon 2-2,5 mm uzunlikda va eni 1,5-2 mm. Tojbarglari kosachasidan 2 bora uzun oq pushti. Urug‘i 2-2,5 mm uzunlikda eni 1,2-1,5 mm.

May-avgust oylarida gullab urug‘laydi daryolar qirg‘og‘ida ko‘llarda botqoqliklarda о‘sadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqlpog‘istonda tarqalgan. Xalq tabobatida bargining qaynatmasini gemoroya, ildiz poyalarini esa quturgan itlar tishlaganda ichishga buyurilgan.

Uchbargli nayzabarg-Стрелолист трилистный-*Sagittaria trifolia* L.



Bulduruqo'tdoshlar – *Alismataceae* oilasiga mansub ko'p yillik, gul poyasi oddiy shoxlangan o'simlik. Urg'ochi gullarini kosachasi uchtadan, 1-4 tadan joylashgan, tutqichlari kalta urug'lari yetilish davrida 6-20 mm uzunlikda. Erkak gullari uzun tutqichli. Kosacha barglari yashil, nashtarsimon 4 mm uzunlikda va eni 2,5 mm. Tojbarglari oq. Urug'lari yassi qanotchali, keng uchburghaksimon. Iyun-avgust oylarida gullab, urug'laydi. Suv havzalarini qirg'og'ida, ariqlar, ko'llar, sholipoyalarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Ildiz poyasi va barglari burishtiruvchi va yaralarni yaxshi davolovchi xususiyatlarga ega. Yangi uzilgan barglari yaralarga qo'yildi. Tuganaklari istemol qilinadi.

Suzuvchi g'ijjak-Рдест плавающий-*Potamogeton natans* L.



G'ijjakdoshlar – *Potamogetonaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizpoyali suzib yuruvchi, ko'p shoxlangan, kuzda tiganaksimon tugunlar hosil qiladi. Poyasi uzun, yo'g'on, kam shoxlangan. Suvga botib turuvchi barglari ikki qavat, ostkilari 50 sm gacha uzunlikda, ingichka yuqoridagilari nashtarsimon, uzun bandli, suzib turuvchi, 12 sm uzunlikda va eni 5,5 sm. Boshogi 4-5 sm uzunlikda, silindirsimon. Tutqichlari 10 sm uzunlikda, poyaga nisbatan yo'g'on. Iyun-avgust oylarida gullab urug'laydi. Tekisliklardagi sekin oqadigan ariqlarda, ko'llarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

O'simlikning ustki qismi qabziyat buzilganda, qorinda sanchiq turganda, yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Kichik gulso‘ta-Взморник маленький-Zostera minor (Cavol) Nolte ex Roth.



Gulso‘tadoshlar – *Zosteraceae* oilasiga mansub ko‘p yillik o‘t. Shoxlangan ingichka ildiz poyali. Poyasi 40 sm uzunlikda. Barglari qisqa-nashtarsimon 5-15 sm uzunlikda, eni 0,5-1,5 mm, 3 ta asosiy tomirlangan. Gulbandi 1,5 sm uzunlikda. 6-12 ta gullar joylashgan. Iyun-iyulda urug‘laydi. Orol dengizingning qoldiq qismlarida uchraydi.

Qaynatilgan gullari kuchli yo‘talga qarshi ko‘krak qismiga bog‘lanadi.

Albert itkuchalasi (qoraquloq)-Эминиум альберта-Eminium alberti (Regel) Engl.



Kuchaladoshlar – *Araceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, balandligi 15-25 sm tunganagi qisilgan sharsimon eni 2,5 sm barglari ochiq yashil, barglari uchga bo‘lingan, yassi nayzasimon-nashtarsimon 6-11 sm uzunlikda poyasini asosiy qismi tuproq ostida joylashgan. O‘rab turgan qobig‘ining uzunligi 15-20 sm slidrsimon naysimon 12 sm uzunlikda ichki tomoni binafsha, to‘q qora, qizil rangda. So‘tasi 15 cm uzunlikda undan 4-5 cm qismli urug‘laydi, urug‘siz qismi 8-10 sm. Aprel-may oylarida gullab, urug‘laydi. Tog‘larni old va o‘rta qismlaridagi tuproqli joylarda o‘sadi. Buxoro, Toshkent, Samarqand, viloyatlarida tarqalgan. Eng zaharli o‘simliklardan hisoblanadi. Tuganagidan tayyorlangan damlamasi bilan revmatizmni davolanadi.

Korolkov kuchalasi-Аронник королькова-Arum korolkovii Regel.



Kuchaladoshlar – *Araceae* oilasiga mansub ko‘p yillik, tugunagi diskasimon, sharsimon shakllarda. Poyasi bittadan bo‘lib u bargidan yuqori bo‘ladi. Barglari keng nayzasimon, yuraksimon shakllarda. Gul poyani ichida makkajo‘xori so‘tasiga o‘xshash qismida urug‘chi gullar va uning

ichida changchi gullar joylashadi. Gulqo'rg'on sifatida qobig'ini tashqi tomoni yashil ichki tomoni pushti qo'ng'ir yoki to'q qizil ranglarda. Urug'lari yetilganda och qizil rangda. Mart-iyun oylarida gullab urug'laydi. Tog'larni o'rta qismida butalar, daraxtlar, ostida va qoyalar ostida nam yetarli joylarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarcand, Buxoro viloyatlarida tarqalgan.

Xalq tabobatida quritilgan tugaragi tuyub, chayon chaqqanda ishlataladi. Kunjut yog'i bilan tuyilgan ildizi tuz qo'shib, non kulcha qilib gemoroyni eng og'ir formalariga qo'yiladi. Yangi tugaragini qirib unga asal qo'shib teridagi temiratki va bo'yindagi oq dog'larga qo'yiladi. Asalsiz zaharli hasharotlar chaqqanda qo'yiladi. Urug'lari kuchli zahar hisoblanadi.

Lemani itkuchalasi (kuchala, qoraquloq)-Эминиум лемана-

Eminium Lehmannii (Bunge) O.Kuntze.



Kuchaladoshlar – *Araceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 15-30 sm. Tugaragi sharsimon eni 2 sm bargi to'q yashil chetlari tekkis, nayzasimon. Nay qobig'i uzun-silindrishimon 3-4 sm uzunlikda, tashqi tomoni binafsha yashil ichki qismi baxmalsimon qoramtr binafsha rangda, 5-10 sm uzunlikda va eni 3 sm, so'tasi 6-8 sm uzunlikda silindrishimon, qora qo'ng'ir rangda. Aprel-mayda gullab, urug'laydi. Qumli cho'llarda o'sadi. Buxoro viloyatida tarqalgan. O'simlikning hamma qismi alkaloidlar saqlab zaharlidir. Tugaragiga boshqa moddalar qo'shib qutirgan it, bo'rilar, tulkilari zaharlanadi. Tugaragi revmatizmni davolashda ishlataladi.

Oddiy igir-Аир болотный (Акорус)-*Acorus calamus L.*



Igirdoshlar – *Acoraceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildizpoyasi 3 sm gacha yo'g'onlikda, poyasi 60-100 sm balandlikda. Bargi nashtarsimon 1-8 sm. Iyun-iyul oylarida gullab urug'laydi. Ariqlar va soylar bo'yida o'sadi. Sekin oqadigan, oqmaydigan suvlar xavzalarida ham o'sadi. Samarcand shahri

Qorasuv atrofida (sholichilik dalalarida, Cho'limalik qishlog'i atrofidan olingan) ko'plab uchratish mumkin.

Tibbiyotda ildizpoyasi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, akorin glikozidi, ko'p mnqdorda kraxmal, smola, alkaloid, oshlovchi moddalar bor. Dori preparatlari (kukuni, damlamasi) xushbo'y achchiq vosita sifatida ishtaha ochish, ovqatni yaxshi hazm qilish uchun, ba'zan buyrak, jigar va o't pufagi kasalliklarida siydik va o't haydovchi sifatida qo'llaniladi. Oddiy igir ildizpoyasi achchiq surtma (nastoyka) va me'daichak kasalliklarida ishlatiladi.

Keng bargli qo'g'a-Poroz широколистный-*Typha latifolia* L.



Qo'g'adoshlar – *Typhaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Ildiz poyali o'simlik. Poyasi 100-200 sm, barglarini eni 1-1.5 sm bo'lib, erkak va urg'ochi gullari bir-biri bilan tutashgan holda joylashadi. Erkak to'pgullar 1-1.5 sm enlikda va urg'ochi gullardan kaltaroq. Urg'ochi gullar yetilganda yo'g'onligi ortib, 2-2.5 sm enlikda bo'ladi. Iyun-iyulda gullab yetiladi. Sekin oqadigan uncha chuqur bo'lмаган suv va ariqlar bo'ylarida o'sadi. O'zbekistonning hamma joylarida uchraydi. Ildiz va ildiz poyalarining qaynatmasi qon ketishini to'xtatish uchun va yaralarni tez bitirish uchun qo'llaniladi.

Kichik qug'a-Poroz малый-*Typha minima* Funek.



Qo'g'adoshlar – *Typhaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, ildiz poyalari ingichka, poyasi ingichka 30-100 sm balandlikda va eni 4-6 mm. Urug'siz tuplarini barglari lentasimon ensiz 1-1.5 mm, yarim silindirsimon. Erkak va urg'ochi gullar orasida 0.5-2 sm masofa qolib joylashadi. Iyun-avgust oylarida gullab, urug'laydi. Tekisliklardagi zax yerlar, ko'llar va zovurlarda o'sadi. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Xorazm, Buxoro viloyati va Qoraqalpog'istonda uchraydi.

Ildizlari va bargidan tayyorlangan damlamasi yaralarni tez bitirish uchun qo'llaniladi.

MUQADDIMA

O'zbekiston o'zining geografik joylashuviga ko'ra har tomonlama o'simliklar va hayvonot dunyosining yashashi uchun qulay makondir. Unda past tekisliklardan to dengiz sathidan balandligi 5000 metr bo'lgan tog'lari, qum barxanli cho'llari, dashtlari, madaniy ekinzorlari, turli suv havzalariga ega bo'lishi bilan ko'p turdag'i o'simliklar va hayvonot dunyosiga ega.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 4300 dan ortiq yuksak o'simliklar turi mayjud. Insonlar bu boyliklardan qadimdan o'z hayot faoliyati uchun foydalanib kelmoqda. Jumladan, shifobaxsh o'simliklar yordamida turli xastaliklarni davolab kelganlar va hozirgi kunda ham foydalanmoqda.

Biz "O'zbekiston florasi" ning 1-6 jiddlarida ko'rsatilgan 4148 tur o'simliklar ichida shifobaxsh o'simliklarni qancha turda ekanligi va ulardan qaysi xastaliklarni davolash mumkin bo'lgan jihatlarini yoritganda ma'lum bo'ldiki, O'zbekiston florasiidagi 4148 turдан 594 tur o'simlik shifobaxsh bo'lib, ular 111 oila va 375 turkumga mansub.

Shuni ta'kidlash joizki, "O'zbekiston florasi" ning oxirgi 6-jildi 1962 yilda chop etilgan. Hozirga qadar oradan 60 yilga yaqin vaqt o'tdi. Bu vaqt ichida yuzlab yangi turlar yozildi. Tabiiyki, xalq tabobatida ulardan o'nlab turlari turli xastaliklarni davolashda qo'llanilib kelinadi. Bulardan tashqari, o'simliklarning farmakologik, kimyoviy jihatlarini o'rganish jarayonida yangi shifobaxsh o'simliklar turi yanada ortib bormoqda. Demak, biz ko'rsatgan shifobaxsh o'simliklar turlari soni oxirgi son emas.

Oxirgi yillarda O'zbekiston hududiga iqlimlashtirilgan va issiqxonalarda, uylarda o'stirilayotgan, oziq ovqat uchun va manzarali o'simliklar turlari ko'plab keltirilmoqda. Ular ichida ham o'nlab shifobaxsh o'simliklar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, tabiatda foydasiz o'simliklar yo'q, faqat biz ulardan foydalanish imkoniyatini topsak yetarli. Shuning uchun har qanday o'simliklarga ham alohida mehr bilan ularni tabiatdan yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Bugun hech qanday foydasiz, deb

hisoblangan o'simlik olimlarimiz say-harakatlari bilan ertaga eng yaxshi shifobaxsh o'simlik deb topilishi mumkin.

Tabiatni asrang! Shifo uchun ularni yig'ishda, albatta, ularning ko'payishi uchun imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qarating. Ma'lum maydondagi shifobaxsh o'simliklarning eng kamida 10-15 foizini har qanday holda ham qoldiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lama Y.C., Ghimire S.K. and Thomas Y. Medicinal plants of dolopo: Amchic and Conservation. WWF Nepal Program, Kathmandu 2001.
2. Культиясов И.М. Охунов Х.М. "Ўсимликлар экологияси" Дарслик. Тошкент 1990 й. – 375 бет
3. Мустафаев С., Холмуродов А. "Ўсимликлар биологияси" Тошкент. Фан. Дарслик. 1992. – 270 бет
4. Ҳайдаров К.Х., Ҳожиматов К.Х., "Ўзбекистон ўсимликлари" Илмий адабиёт. Тошкент "Ўқитувчи" нашриёти Дарслик. 1976 й. – 260 бет
5. Эргашев А.Э., Шералиев А.Ш., Сувонов Х.А., Эргашев Т.А., "Экология ва табиатни мухофаза қилиш" Тошкент "ФАН" нашриёти – Дарслик. 2009 й. – 320 бет
6. Каримов В., Шомахмудов А. "Халк тобобати ва замонавий илмий тибда кўлланиладиган шифобахш ўсимликлар", "Ибн Сино" нашриёти, Дарслик. Тошкент, 1993 й. 308 бет.
7. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные Лекарственные растения и их применение» Справочник – Ташкент-1990 й. 38 бет.
8. НорқуловУ., Султонов.У.Т., Низомова М.У. Доривор ўсимликларни турлари ва уларнинг маҳаллий, илмий номлари. Ўқув кўлланма ТошДАУ 2013 й. 46 бет.
9. Акопов И.Э. Кровоостанавливающие растения Изд. Медицина Ташкент 1977. 266 с.
10. Акопов И.З. Важнейшие отечественный лекарственные расбения и их применение. Изд. «Медицина» Ташкент 1990. 442 с.
11. Арслонов М.Т., Набиев М.М., Пратов Ў.П. Ўзбекистон бегона ўсимликларининг замонавий тизими ва қўш (бинар) номлари. Тошкент. 2003. 94 б.
12. Гаммерман А.Ф Кадаев Г.Н Яценко- Хмелевасний А.А Лекарственные растения. Изд. «Высшая школа». Москва

- 1984, 400 с.
13. Гаммерман А.Ф., Грому И.И. Дикорастущий лекарственные растения СССР. Изд. Медицина. Москва. 1976. 286 с,
 14. Дамиров И.А., Прилипко Л.И., Шукюров Д.З., Керимов Ю.Б. Лекарственные растения Азарбайжана. Изд. «Маариф» Баку. 1988. 319 с.
 15. Дворецкий И.Х. Латинско-русский словарь. Изд. 2-е, перераб и дополы М.: «Русский язык», 1976. 1096 с,
 16. Зикирёев А. Биологиядан русча-узбекча изоҳли лугат Изд. Қомуслар бош таҳририяти. Тошкент. 1993. 160 с.
 17. Зокиров К.З., Набиев М.М., Пратов У., Жамолхонов К.А. русча-узбекча ботаник терминларнинг қисқача луғати Уз. ССР. Фанлар Академияси нашрёти. Тошкент. 1963.
 18. Зокиров К.З., Жамолхонов Ф.А. Ботаникадан русча-узбекча энциклопедик луғат. Тошкент. «Ўқитувчи», 1973. 200 б.
 19. Каримов В., Шомахмудов А. Ҳалқ табобати ва замонавий илми тибда кўлланиладиган шифобахш ўсимликлар. Изд. Ибн-Сино номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси. Тошкент. 1993. 318 с.
 20. Қосимов И.А., Холматов Ҳ.Ҳ. русча-узбекча-лотинча фармацевтик терминлар луғати. Тошкент. 1990. 128 б.
 21. Максуд Ходжиматов . Дикоро стущие лекарственные растения Таджикистана. Изд. Таджикской советской энциклопедии. Душанбе. 1989. 365 с.
 22. Муравьева Д.А. Тропические и субтропические лекарственные растения. Изд. «Медицина» Москва 1983, 335 с.
 23. Мурат З.А. русча -узбекча ботаник терминлар сўзлиги. Уз.дав. нашр. Тошкент. Самарканд. 1943.
 24. Мухамадхонов С.Р., Жонгуразов Ф.Х. Ўсимликшуносликдан русча-узбекча луғат справочник. Изд. Ўқитувчи. Тошкент. 1973. 323 с.
 25. Набиев М.М. Ботаника атлас-луғати изд. ФАН. Тошкент. 1969.

26. Набиев М.М. Ботаника атлас-лугат. Тошкент: "Фан". 1969. 253 б.
27. Пратов Ў.П., Одилов Т.О. Ўзбекистон юксак ўсимликлари оиласарининг замонавий тизими ва ўзбекча номлари (методик тавсия). Тошкент. 1995. 39 б.
28. Пратов Ў.П., Одилов Т.О., Мусаев К.Ю., Набиев М.М., Турсынов Ж.Ю., Охунов Х.М., Ибодов К. Ботаника атамаларининг русча-ўзбекча қисқача лугати. Тошкент: "Фан". 1993. 67 б.
29. Рабинович М.И Ветеринарная фитотерапия Изд. Росагропромиздат Москва 1988. 174 с.
30. С.С. Сохибиддинов. Дикорастущие лекарственные растения Средней -Азии. Тоениздат. Ўз ССР Тошкент. 1948. 215 с.
31. Сахобиддинов С.С. Қисқача русча-ўзбекча ботаника терминлари лугати. Ўқитувчилар нашри. Тошкент. 1954.
32. Сахобиддинов С.С. Ўрта Осиёдаги фойдали ва заарли ўсимликларнинг илмий ҳам маҳаллий номлари лугати Уз С.С.Р. Фанлар академияси нашри. Тошкент. 1954.
33. Соколов С.Я., Замотаев И.П. Справочник по лекарственным растениям Изд. Казахстан 1991. 415 с.
34. Тойжонов К., Мелибоев С., Махмудов В. Ўзбекистон юксак ўсимликлари туркум номларининг изохли лугати Изд. Фан. 2008. 151 с.
35. Ушбаев К.У., Курамысова И.И., Аксенова В.Ф. Целебные травы. Изд. Кайнар Алма-Ата. 1976. 199 с.
36. Флора Узбекистана 1-6 том Изд АН Узбекистана 1941-1962.
37. Флора Узбекистана. Гл. Ред./ И.Введенский. Ташкент. 1941-1962, Т.1-6.
38. Хайдаров К.Х., Хожимотов К.Х., Ўзбекистон ўсимликлари. Изд. Ўқитувчи. Тошкент. 1992. 245 с.
39. Холматов Х.Х., Косимов А.И. Русча-лотинча-ўзбекча доривор ўсимликлар лугати Изд. Ибн-Сино. Тошкент.

1992. 200 с.
40. Ҳамидов А., Набиев М., Одилов Т. Ўзбекистон ўсимликлари аниклагичи. Тошкент “Ўқитувчи”. 1987. 327 б.
41. Черпанов С.К. Сосудистые растения СССР. Изд. Наука. Ленинградское отделение. 1981. 510 с.

Internet saytlari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.edu.uz
5. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
6. <http://ziyonet.uz> — Ziyonet axborot-ta'lif resurslari portali
7. <https://planta-medica.uz/uz/o'simliklar-royhati/>

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI

Dala qirqbo‘g‘imi-Хвощ полевой- <i>Equisetum arvense</i> L.	3
Shoxdor qirqbo‘g‘im-Хвощ ветвистый- <i>Equisetum ramosissimum</i> Desf.	6
Erkak paparotnik-Щитовник мужской- <i>Dryopteris filix mas</i> (L.) Schott.	6
Dorivor seterax-Скребница аптечная (Цетеракс)- <i>Ceterach officinarum</i> Willd.	7
Sochtolasimon taloqdori (toshsumbul)-Костенец волосовидный- <i>Asplenium trichomanes</i> L.	7
Toshsumbul (taloqdori)-Костенец рута постенная- <i>Asplenium ruta-muraria</i> L.	8
Vinera sochi (fotma sochi)-Адиантум венерин волос- <i>Adiantum capillus veneris</i> L.	8
Ikki boshoqli oddiy qizilcha (zog‘aza)-Хвойник двухколосковый- <i>Ephedra distachya</i> L.	9
Qirqbo‘g‘imsimon qizilcha-Хвойник хвощевый- <i>Ephedra equisetina</i> Bunge.	10
Cho‘l qizilchasi-Хвойник средний- <i>Ephedra intermedia</i> Sehrenk. et C.A.Mey.	10
Oddiy qoraqarag‘ay-Ель обыкновенная- <i>Pisea abies</i> (L.) Karst.	11
Virgin archasi-Можжевельник виргинский- <i>Juniperus virginiana</i> . L.	11
G‘arb tuyasi-Туя западная- <i>Thuja occidentalis</i> L.	12
Hamisha yashil sarv-Кипарис вечнозеленый- <i>Cupressus sempervirens</i> L.	12
Qora archa (Zarafshon archasi)-Можжевельник зеравшанский- <i>Juniperus zeravshanica</i> Kom.	12
Saur archa-Можжевельник полушаровидный- <i>Juniperus semiglobosa</i> Regel.	13
O‘rik archa (Turkiston archasi)-Можжевельник туркестанский- <i>Juniperus turkestanica</i> Kom.	14
Sharq sauri-Биота восточная- <i>Biota orientalis</i> (L.) Endl.	15
Mevali zarnob-Тис ягодный (негной-дерево)- <i>Taxus baccata</i> L.	15
Sariq nilufar-Кубышка желтая- <i>Nuphar luteum</i> (L.) Smith.	16
Tiniq oq botqoqgul-Кувшинка чистобелая- <i>Numphaea candida</i> Presl. (alba) L.	16
Albert yer sovuni- Леонтица Альберта- <i>Leontice alberti</i> Regel.	17
Oddiy zirk (Qoraqat)-Барбарис обыкновенный- <i>Berberis vulgaris</i> L.	17
Tanga bargli zirk (Qoraqat)-Барбарис монетный- <i>Berberis nummularia</i> Bunge.	18

Tekis bargli zirk (Qoraqat)-Барбарис цельнокрайний- <i>Berberis integerrima</i> <i>Bunge</i>	18
Tillasimon bongardiya-Бонгардия золотистая- <i>Bongardia chrysogonum</i> (L.) <i>Spach</i>	19
Uzunchoq zirk (Qoraqat)-Барбарис продолговатый- <i>Berberis oblonga</i> (<i>Bunge</i>) <i>Schneid.</i>	19
Eversman yer sovuni-Леонтица Эверсманна- <i>Leontice eversmannii</i> <i>Bunge</i>	19
Damashq sedanasi-Чернушка дамасская- <i>Nigella damascena</i> L.....	20
Dorivor iloncho‘p (chumchuq o‘t)-Воробейник лекарственный- <i>Lithospermum officinale</i> L.....	21
Zarafshon parpisi-Аконит зеравшанский- <i>Aconitum Zeravshanicum</i> <i>Steinb.</i>	21
Zaharli ayiqtovon-Лютик ядовитый- <i>Ranunculus sceleratus</i> L.....	22
Izzapiroids sanchiq o‘ti-Василистник равноплодниковидный- <i>Thalictrum isopyroides</i> C.A.Mey.	23
Kichik sanchiqo‘t-Василистник малый- <i>Thalictrum minus</i> L.....	23
Mayda gulli adonis-Горицвет мелкоцветный- <i>Adonis parviflora</i> Fisch. (<i>A. aestivalis</i> L. <i>Thoms.</i>)	24
Oddiy sanchiqo‘t-Василистник простой- <i>Thalictrum simplex</i> L.....	24
Oddiy suvyig‘ar-Водосбор обыкновенный- <i>Aquilegia vulgaris</i> L.....	25
Sariq gulli isfarak-Живокость полубородатая- <i>Delphinium semibarbatum</i> <i>Bien. ex Boiss.</i>	25
Talas parpisi (oq parpi)-Аконит таласский- <i>Aconitum talassicum</i> M.Pop.....	26
Tillarang adonis-Горицвет золотистый- <i>Adonis chrysocyathus</i> <i>Hook. fil. et Thoms.</i>	26
Tog‘ seuvuchi tasmacho‘p-Живокость горолюбивая- <i>Delphinium oreophilum</i> <i>Huth.</i>	27
To‘g‘ri shoxli uchmao‘t-Рогоглавник пряморогий- <i>Ceratocephalus testiculata</i> (<i>Crantz</i>) <i>Bess. (C. orthoceras DC.)</i>	28
Turkiston adonisi (Sariq gul adonis)-Горицвет туркестанский- <i>Adonis turkestanica</i> <i>Korsh Adolf.</i>	28
O‘roqsimon uchmao‘t (otashak)-Рогоглавник серповидный- <i>Ceratocephalus falcatus</i> (<i>L.</i>) <i>Pers.</i>	29
Chalkashgan isfarak-Живокость спутанная- <i>Delphinium confusum</i> M. Pop.	29
Sharq iloncho‘pi-Ломонос восточный- <i>Clematis orientalis</i> L.....	30

Ekma sedana-Чернушка посевная- <i>Nigella sativa L.</i>	30
Yumaloq bargli tasmacho‘р-Живокость круглолистная- <i>Delphinium rotundifolium Afan.</i>	31
Og‘ma sallagul-Пион средний- <i>Paeonia anomala L. (intermedia CAM.)</i>	31
Xitoy sallaguli-Пион китайский- <i>Paeonia albiflora Pall.</i>	32
Lolaqizg‘aldoq-Ремерия отогнутая- <i>Roemeria refracta D.C.</i>	32
Nafis o‘rmonqora-Гляуциум изящный- <i>Glaucium elegans Fisch. et Meg.</i>	33
Popukli o‘rmonqora-Глямуциум баҳромчатый- <i>Glaucium fimbrilligerum (Trantr) Boiss.</i>	33
Tovussimon ko‘knori (qizg‘aldoq)-Мак павлиний- <i>Papaver pavoninum Schrenk.</i>	34
Vayyana shotarasi-Дымянка Вайяна- <i>Fumaria Vaillantii Loisel.</i>	34
Ledebura burmaqorasi-Хохлатка ледебура- <i>Corydalis Ledebouriana Kar.</i>	35
Mayda gulli shatora-Дымянка мелкоцветная- <i>Fumaria parviflora Lam.</i>	35
Seversov burmaqorasi-Хохлатка Северцова- <i>Corydalis severtzowii Regel.</i>	36
Amerika mingguldoshi-Лаконос американский- <i>Phytolacca americana L.</i>	36
Bezli bo‘ritikan (Knorin bo‘ritikani)-Качим кноринг- <i>Gypsophila Knorringtoniana (schischk.) Vved. (Acanthophyllum glandulosum Bunge.)</i>	37
Gelsera chinniguli-Гвоздика гельцера- <i>Dianthus Hoeltzeri C. Winkl.</i>	37
Gipsofilasimon bo‘ritikan (Kachemsimon yetmak)-Колючелистник качимовидный- <i>Acanthophyllum gypsophiloides Regel. (Allochrusa gypsophiloides (Regel.). Schischkin.)</i>	38
Griffita yer sovuni-Мыльнянка Гриффита- <i>Saponaria griffithii Boiss.</i>	38
Dag‘al tuklangan samincho‘р-Грыжник жестковолосистый- <i>Herniaria hirsuta L.</i>	39
Dorivor yer sovun (Dorivor saponariya)-Мыльнянка лекарственная- <i>Saponaria officinalis L.</i>	39
Ikki rangli machin (Tog‘chitir)-Качим двуцветный- <i>Gypsophila bicolor (Fregn et Sint) Grossh.</i>	40
Soyabonli qalampiro‘т-Костенечник зонтичный- <i>Holosteum umbellatum L.</i>	40
Tuksiz samincho‘р-Грыжник голый- <i>Herniaria glabra L. (H.Suvis Klok.)</i>	41
Xitoy chinniguli-Гвоздика китайская- <i>Dianthus chinensis L.</i>	41
Ekma qoramug‘-Тысячеголов посевной- <i>Vaccaria segetalis (Neck) Garcke.</i>	42
Yulduz o‘t (O‘rta yulduzo‘т)-Звездчатка средняя- <i>Stellaria media (L.) Vill.</i>	42

Ko'kish machin-Щирица синеватая- <i>Amaranthus lividus</i> L. (<i>A. Blitum</i> L.)	43
Og'ma machin-Щирица отогнутая- <i>Amaranthus retroflexus</i> L.	43
Oq machin-Щирица белая- <i>Amaranthus albus</i> L.	44
Bargsiz buyurg'un (itsigak)-Ежевник безлистный- <i>Anabasis aphylla</i> L.	44
Kambargli boyalich (cho'g'on sho'rak)-Элления малолистная- <i>Aellenia subaphylla</i> (C.A.Mey.) Aell. (<i>Salsolo subophylla</i> C.A.Mey.)	45
Qo'lansa sho'ra-Марь вонючая- <i>Chenopodium vulvaria</i> L.	45
Oq sho'ra-Марь белая- <i>Chenopodium album</i> L.	46
Rixter sho'tagi (cherkez)-Солянка Рихтера- <i>Salsola richteri</i> (Moq.) Kar. ex Litv.	46
Turkiston cho'chqa tikani (Ismaloq)-Шпинат туркестанский- <i>Spinacia turkestanica</i> . <i>Iljin</i> .	47
Xaltachali ebalak-Рогач сумчатый- <i>Ceratocarpus utriculosus</i> Bluk. (<i>C.Turkestanicus</i> Saw-Ryez)	48
Hidli sho'ra-Марь душистая- <i>Chenopodium botrys</i> L.	48
Ekma qizilcha-Свекла обыкновенная- <i>Beta vulgaris</i> L.	49
Bo'g'imli toron (suvzomchi)-Горец узловатый- <i>Polygonum nodosum</i> Pers. (<i>P. lapathifolium</i> L.)	49
Buyraksimon toron (suvzomchi)-Горец почечуйный- <i>Polygonum persicaria</i> L.	49
Buxoro toroni-Горец бухарский- <i>Polygonum bucharicum</i> Grig.	50
Dag'al toron-Горец шероховатый- <i>Polygonum scabrum</i> Moench.	50
Jingalak otquloq-Щавель курчавый- <i>Rumex crispus</i> L.	51
Ikki ustunchali yerqirmizak-Кисличник двустолбчатый- <i>Oxyria digyna</i> (L.) Hill.	51
Qush toron (Burgun, g'oz o'ti)-Горец птичий (спорыш, гусятница)- <i>Polygonum aviculare</i> L.	52
Maksimovich ravochi (chuxrasi)-Ревень Максимовича- <i>Rheum maximowiczii</i> Losinsk.	52
Oddiy otquloq-Щавель конский- <i>Rumex confertus</i> Willd.	53
Oshlovchi toron-Горец дубильный- <i>Polygonum coriarium</i> Grig.	53
Suv otquloq-Щавель водяной- <i>Rumex aquaticus</i> L.	54
Suvzamchi toron-Горец перечный (водяной перец)- <i>Polygonum hydropiper</i> L.	54
Tomirdori taroni-Горец земноводный (водяная гречиха)- <i>Polygonum amphibium</i> L.	54

Tuganakli otquloq-Щавель клубковатый- <i>Rumex conglomeratus</i> Murr.	55
Turkiston rovochi-Ревень Туркестанский- <i>Rheum turkestanicum</i> Janisch.	55
Chirmashuvchi toron-Горец вьющийся- <i>Polygonum sonvolvulus</i> L.	56
Chiroyli toron (Anjabar)-Горец красивый- <i>Polygonum nitens</i> (Fisch. et Meg.) v. <i>Petrov ex Kom.</i>	56
Cho'l rovochi (Tatar rovochi, chuxra)-Ревень татарский- <i>Rheum tataricum</i> L. Fil.	56
Ekma grechixa-Гречиха посевная- <i>Fagopyrum sagittatum</i> Gilib.	56
Meyer kermak sovuni-Кермек Мейера- <i>Limonium Meyeri</i> (Boiss.) O.Kuntze.	57
Doimiy yashil shamshod-Самшит вечнозеленый- <i>Buxus sempervirens</i> L. (<i>Colchica Pojark.</i>)	57
Katta changchili eman-Дуб крупнопыльниковый- <i>Quercus macranthera</i> Fisch. et Mey. ex Hohen.	58
Kashtanbarg eman-Дуб каштанолистный- <i>Quercus castaneifolia</i> C.A.Mey.	59
Oddiy eman (gul bandli eman, Yoz eman)-Дуб черешчатый- <i>Quercus robur</i> L.	59
Ot kashtan-Каштан посевной- <i>Castanea sativa</i> Mill.	60
Sharq qora qayini-Бук восточный- <i>Fagus orientalis</i> Lipsky.	60
Qorayopishqoq Olxa-Ольха клейкая (черная)- <i>Alnus glutinosa</i> (L.) Geartn.	61
Oqqayin, sugalli qayin-Береза бородавчатая- <i>Betula pendula</i> Roth (<i>verrucosa</i> Ehrh.)	61
Muskat yong'og'i-Лещина обыкновенная- <i>Corylus avellana</i> L.	62
Kolomikta aktinidiyasi-Актинидия коломикта- <i>Actinidia kolomikta</i> Maxim.	63
O'tkir (achchiq) aktinidiya-Актинидия острая- <i>Actinidia arguta</i> (Siebold et Zuec.) Planch.	63
Dag'al dalachoy-Зверобой шероховатый- <i>Hypericum scabrum</i> L.	64
Cho'ziq bargli dala choy-Зверобой удлиненный- <i>Hypericum elongatum</i> Lebed.	65
Kavkaz xurmosi (Safsan)-Хурма кавказская- <i>Diospyros lotus</i> L.	66
Djung'or sigir quytug'i-Коровяк джунгарский- <i>Verbascum songoricum</i> Schrenk.	67
Dorivor safroot'-т-Авран лекарственный- <i>Gratiola officinalis</i> L.	67
Itgunafsha-Вероника водяновидная- <i>Veronica anagalloides</i> Guss.	68
Papov tog'qoramig'i-Льнянка Попова- <i>Linaria Popovii Kuprian.</i>	68
Sharq takasoqli-Додартия восточная- <i>Dodartia orientalis</i> L.	69

Dala sovun o'ti-Очный цвет пашенный- <i>Anagallis arvensis</i> L.	69
Oddiy lizimaxiya-Вербейник обыкновенный- <i>Lysimachia vulgaris</i> L.	70
Turchanova androzasi-Проломник Турчанинова- <i>Androsace Turczaninowii</i> Freyn. (<i>A. maxima</i> L.)	70
Qora terak (ko'k terak)-Тополь бальзамический- <i>Populus balsamifera</i> L.	71
Qora terak (Mirzaterak)-Тополь черный- <i>Populus nigra</i> L.	72
Oq terak-Тополь белый- <i>Populus alba</i> L.	72
Oq tol-Ива белая- <i>Salix alba</i> L.	73
Osina teragi-Тополь осина- <i>Populus tremula</i> L.	73
To'q qizil tol-Ива пурпурная- <i>Salix purpurea</i> L.	73
Turon toli-Ива туранская- <i>Salix turanica</i> Nas.	74
Echki tol-Ива козья- <i>Salix caprea</i> L.	74
Dag'al tukli yulg'un-Гребенщик жестковолосистый- <i>Tamarix hispida</i> Willd.	75
Tulkidumli bolqin-Мюрикария лисохвостная- <i>Myricaria alopecuroides</i> Schrenk. (<i>M. bracteata</i> Royle)	75
Uvalanuvchi yulg'un-Гребенщик пихлий- <i>Tamarix laxa</i> Willd.	76
Tukli uchchanoq-Франкения волосистая- <i>Frankenia hirsuta</i> L.	76
Achchiq tarvuz-Арбуз колоцент- <i>Citrullus colocynthis</i> (L.) Schrad.	77
Ikki uylik tarvuzpalak (sirtan)-Переступень двудомный- <i>Bryonia dioica</i> Jacq.	77
Qora mevali tarvuzpalak-Переступень черноплодный- <i>Bryonia melanocarpa</i> Nabiev.	78
Oddiy qovoq (sapcha qovoq)-Тыква обыкновенная- <i>Cucurbita pepo</i> L.	78
Oq tarvuzpalak (Sirtan, abudjaxl tarvuzi)-Переступень белый- <i>Bryonia alba</i> L.	79
O'ris qovoq (O'ris-kadu)-Тыква крупная- <i>Cucurbita maxima</i> Duch.	80
Sharq qovuni-Дыня восточная- <i>Melo orientalis</i> (S. Kudr.) Nab.	81
Ekma tarvuz-Арбуз обыкновенный- <i>Citrullus vulgaris</i> Schrad.	81
Nashanamo datiska-Датиска коноплевая- <i>Datisca cannabina</i> L.	82
Botqoq roripasi-Жерушник болотный- <i>Roripa palustris</i> (Leyss.) Bess.	91
Bo'yoq o'sma-Вайдя красильная- <i>Isatis tinctoria</i> L.	92
Dala tlaspisi-Ярутка полевая- <i>Thlaspi arvense</i> L.	92
Dorivor sarimsaq o't-Чесночник лекарственный- <i>Alliaria officinalis</i> Andrz.	93

Draba-Крупка перелесковая- <i>Draba nemorosa</i> L.	93
Jag'-jag' (achambiti)-Пастушья сумка обыкновенная- <i>Capsella bursa-pastoris</i> (L.) Medik.	94
Yirik urug'li ojud-Крупноплодник гигантский- <i>Megacarpaea gigantea</i> Regel.	94
Kochi qatroni-Катран кочи- <i>Crambe kotschyana</i> Boiss.	95
Qaynarbuloq qaytaqgul (jo'shuruvchi)-Жеруха ключевая- <i>Nasturtium officinale</i> (Lam) Aschers.	95
Qishloq yerqalampiri (tuyaqaldirmoq, xren)-Хрен деревенский- <i>Armoracia rusticana</i> Yaertn. Mey et Schred.	95
Marshall chitrang'isi-Желтушник Маршалла- <i>Erysimum Marshallianum</i> Andr. (<i>E. hieracifolium</i> L.)	96
Sarept xantali-Капуста горчица сарептская- <i>Brassica juncea</i> (L.) Czern.	97
Semiz o'ti (qora o'ti)-Портулак огородный- <i>Portulaca oleracea</i> L.	97
Sofiya shuvarani (sassiqkara)-Дескурания София- <i>Descurainia sophia</i> (L.) Webb. ex Prantl.	98
O'tmalovchi boltiriq-Сердечница ползучая- <i>Cardaria repens</i> (Schrenk) Jarm.	98
Shoxlangan chitrang'i-Желтушник раскидистый- <i>Erysimum diffusum</i> Ehrh. (<i>E. canescens</i> Roth).	99
Ekma indov-Индау посевной- <i>Eruca sativa</i> Lam.	99
Ekma karam-Капуста огородная- <i>Brassica oleracea</i> L.	100
Ekma turp-Редька обыкновенная- <i>Raphanus sativus</i> L.	100
Sariq sayoq (qalampirgul)-Резеда желтенькая- <i>Reseda luteola</i> L.	101
G'udirish qaytrog'och-Вяз (Карагач) шершавый- <i>Ulmus scabra</i> Mill.	101
Sadaqaytrog'och-Вяз густой (Карагач)- <i>Ulmus densa</i> Litv.	102
Tekis qaytrog'och-Вяз гладкий- <i>Ulmus laevis</i> Pall.	102
Uzun mevali jut (Sovun o'ti)-Джут длинноплодный- <i>Corchorus olitorius</i> L.	103
Yurak bargli jo'ka-Липа сердцелистная- <i>Tilia cordifolia</i> Bess.	103
Yuraksimon jo'ka-Липа сердцевидная- <i>Tilia cordata</i> Mill.	104
Yassi bargli jo'ka-Липа широколистная- <i>Tilia platyphyllea</i> Scop.	104
Arman gulxayrisi-Алтей армянский- <i>Althaea armeniaca</i> Ten.	105
Dorivor gulxayri-Алтей лекарственный- <i>Althaea officinalis</i> L.	105
Yovvoyi tugmachagul-Мальва дикая- <i>Malva silvestris</i> L.	106

Xo'kiz bo'ritarog'i (kanof)-Гибискус воловий- <i>Hibiscus trionum L.</i>	106
Yalang'och gulli gulxayri-Алтей голоцветный- <i>Althaea nudiflora (Lindl.) Boiss.</i>	107
Qora shotut-Тут черный (шелковица)- <i>Morus nigra L.</i>	108
Oddiy anjir-Инжир обыкновенный- <i>Ficus carica L.</i>	108
Oq tut (baliq tut, ilon tut)-Белый тут (шелковица)- <i>Morus alba L.</i>	109
Ikki uyli chayono't-Kрапива жгучая- <i>Urtica dioica L.</i>	109
Doira bargli ko'kmara-Андрахие круглолистная- <i>Andrachne rotundifolia C.A.Mey.</i>	110
Yer bag'irlagan sutmama-Хамезице приземистая- <i>Chamaesyce humifusa (Willd) Prokh. (Euphorbia humifusa Willd.)</i>	110
Zarafshon sutlamasi-Молочай зеравшанский- <i>Tithymalus zeravschanicus (Regel). Prokh.</i>	111
Kunga boquvchi sutmama-Молочай солнцегляд- <i>Tithymalus helioscopius (L.) Scop.</i>	111
Oddiy kanakunjut-Клещевина обыкновенная- <i>Ricinus communis L.</i>	112
Sirdaryo sutlamasi-Молочай сырдарьинский- <i>Tithymalus jaxarticus Prokh.</i>	112
Farg'ona chunfuti (sutlamasi)-Молочай ферганский- <i>Tithymalus ferganensis (B.Fedtch) Prokh.</i>	113
Chalabo'ta sekurengi-Секуринга полукустарниковая- <i>Securinega suffruticosa (Pall) Rehd.</i>	114
Pufakchali kelinsupurgi-Двучленник пузырчатый- <i>Diarthron vesisulosum. (Fisch. et Meg) C.A. Meg.</i>	114
Sovuq zarchoy-Родиола холодная- <i>Rhodiola gelida Schrenk.</i>	115
Uzun tishchali soxtasemizak-Ложноочиток длиннозубчатый- <i>Pseudosedum longidentatum Boris.</i>	116
Qora qoraqat-Смородина черная- <i>Ribes nigrum L.</i>	116
Meyer qoraqati-Смородина Мейера- <i>Ribes meyeri Maxim.</i>	117
Yanchev qoraqati-Смородина янчевского- <i>Ribes janczewskii Pojaek.</i>	117
Alp yerchoyi-Гравилат алеппский- <i>Geum aleppicum Jacq.</i>	117
Alp qonyutari-Кровохлебка альпийская- <i>Sanguisorba alpina Bunge.</i>	118
Anatoliy parmachagi (maymunjon)-Малина анатольская (ежевика)- <i>Rubus anatolicus Focke. (Rubus turcomanicus Freyn).</i>	118

Beggeri na'matagi-Шиповник Беггера- <i>Rosa beggeriana</i> Schrenk.....	119
Besh urug'chili do'lana-Боярышник пятилистичный- <i>Crataegus pentagyna</i> Wuldst. et Kit.	119
Damashq na'matagi (qizil atirgul, qirqog'ayni)-Шиповник дамасский- <i>Rosa damascena</i> Mill.	119
Daryo yerchoyi-Гравилат речной- <i>Geum rivale</i> L.	120
Dorivor taflon (lavroserezus)-Лавровицня аптечная- <i>Laurocerasus officinalis</i> Roem.	120
Jung'or do'lanasi-Боярышник джунгарский- <i>Crataegus songorica</i> C. Koch.....	121
Zangori maymunjon (partmachak)-Ежевика сизая (малина)- <i>Rubus caesius</i> L....	122
Itburun na'matak-Шиповник собачий- <i>Rosa canina</i> L.	122
Kichik na'matak-Шиповник небольшой- <i>Rosa nanothamnus</i> Bouleng.	123
Ko'p oilali ko'ko't (xargizagiyo)-Черноголовник многобрачный- <i>Poterium polygamum</i> Waldst. et Kit. (<i>Sanguisorba minor</i>).	123
Qo'qon yerchoyi-Прямохвостник кокандский- <i>Orthurus kokanicus</i> (Regel et Schmalh.) Juz. (<i>Geum kokanicum</i> Regel et Schmalh.).	124
Qo'qon na'matagi-Шиповник кокандский- <i>Rosa kokanica</i> Regel ex Juz.	124
Og'ma g'ozyaproq-Манжетка отклоненноволосистая- <i>Alchimilla retropilosa</i> Juz.	125
Oddiy maymunjon-Ежевика анатольская- <i>Rubus idaeus</i> L.	125
Oddiy nok (Olmurut)-Груша обыкновенная- <i>Pirus communis</i> L.	126
Oddiy olcha (achchiq gilos, olvoli)-Вишня обыкновенная- <i>Cerasus vulgaris</i> Mill.	126
Oddiy o'rik-Абрикос обыкновенный- <i>Armeniaca vulgaris</i> . Lam.	127
Oddiy shaftoli-Персик обыкновенный- <i>Persica vulgaris</i> Mill.	127
Oddiy shimurt-Черемуха обыкновенная- <i>Padus racemosa</i> (Lam) Gilib. (<i>P. avium</i> Mill.).	128
Oq atirgul-Роза белая (Шиповник)- <i>Rosa alba</i> L.	128
Oltoy do'lanasi-Боярышник алтайский- <i>Crataegus altaica</i> Lange.	129
Samarqand na'matagi-Шиповник самаркандский- <i>Rosa maracandica</i> Bunga.	129
Sariq do'lana-Боярышник pontийский- <i>Crataegus pontica</i> C. Koch.	130
Sariq choy (Alomotchoy)-Репейничек азиатский- <i>Agrimonia asiatica</i> Juz.	131
Tikanli do'lana-Боярышник колючий- <i>Crataegus oxyacantha</i> L.	132

Turkiston chetani-Рябина туркестанская- <i>Sorbus turkestanica</i> (Franch) Hedl.	132
Tyanshon chetani-Рябина тяньшаньская- <i>Sorbus tianschanica</i> Rupr.	133
O'rmalovchi (tik o'suvchi) g'ozpanja-Лапчатка ползучая- <i>Potentilla reptans</i> L.	133
Fedchenko namatagi-Шиповник Федченки- <i>Rosa fedtschenkoana</i> Regel.	134
Xonaki olma-Яблоня домашняя- <i>Malus domestica</i> Borkh.	134
Xonaki olxo'ti-Слива домашняя- <i>Prunus domestica</i> L.	135
Har xil mevali yerchoy-Прямохвостник разноплодный- <i>Orthurus heterocarpus</i> (Boiss.) Juz.	135
Cho'zinchoq behi-Айва продолговатая- <i>Cydonia oblonga</i> Mill.	136
Sharq g'ozpanjası-Лапчатка восточная- <i>Potentilla orientalis</i> Juz (P. bifurca)	136
Sharq do'lanasi-Боярышник восточный- <i>Crataegus orientalis</i> Pall.	137
Sharq olxo'risi (olicha)-Слива восточная- <i>Prunus sogdiana</i> Vass.	137
Ekma (oddiy) bodom-Миндаль обыкновенный- <i>Amygdalus communis</i> L.	137
Eron pochaqirqari (chetik)-Хультемия перседская- <i>Hulthemia persica</i> (Mechx.) Borum (<i>Rosa persica</i> Michx.)	138
Oddiy naykosa (ko'k yo'ng'ichqa)-Дербенник обыкновенный- <i>Lythrum salicaria</i> L.	139
Oddiy anor (anor daraxti)-Гранат обыкновенный- <i>Punica granatum</i> L.	139
Ingichka bargli Xamanerium (Ivanchoy)-Иван-чай узколистный- <i>Chamaenerium angustifolium</i> (L.) Scop.	140
Tuklangan erilobium-Кипрей волосистый- <i>Epilobium hirsutum</i> L.	140
Boshoqdor urut-Урут колосистая- <i>Myriophyllum spicatum</i> L.	141
Bo'yoq beruvchi bosma-Индигофера красильная- <i>Indigofera tinctoria</i> (L.)	141
Bo'yoqdor genista-Дрок красильный- <i>Genista tinctoria</i> L.	142
Burushgan singrek (no'xatak, kiyikpanja)-Астрагал морщинистый- <i>Astragalus corrugatus</i> Bertol.	142
Butasimon amorfa-Аморфа кустарниковая- <i>Amorpha fruticosa</i> L.	143
Grek shambalasi-Пажитник греческий- <i>Trigonella foenum-graecum</i> L.	143
Danakli oqquray-Псоралея костянковая- <i>Psoralea drupacea</i> Bunge.	144
Dorivor qashqarbeda-Леспедеца двухцветная- <i>Melilotus officinalis</i> (L.) Pall.	144
Ikki rangli lespedeza-Леспедеца двухцветная- <i>Lespedeza bicolor</i> Turez.	145

Ingichka bargli sano (Hind sanosi)-Кассия узколистная (индийская)- <i>Cassia angustifolia</i> Vahl.....	146
Qalin urug'li talxaq-Талхак (горчак) толстоплодный- <i>Vexibia pachyearpa</i> (C. Mey.) Yakovl.	146
Lemani achchiqbutasi-Аммотамнус леманна- <i>Ammothamnus lehmanii</i> Bunge	146
Lenkorn Albitssiyasi (Dorivor albitssiya)-Альбиция ленкоранская- <i>Albizzia julibrissin</i> Durazz.	147
Nayza bargli sano-Кассия африканская (Сенна-остролистная)- <i>Cassia acutifolia</i> Del.	148
Oddiy (tuksiz) shirinmiya-Солодка обыкновенная- <i>Glycyrrhiza glabra</i> L.	149
Oddiy loviya-Фасоль обыкновенная- <i>Phaseolus vulgaris</i> L.	150
Oddiy talxak (afsonak)-Талхак обыкновенный (горчак)- <i>Vexibia alopecuroides</i> (L.) Bunge.	150
Oddiy tikandaraxt-Гледичия колючая- <i>Gleditschia triacanthos</i> L.	151
Ot burchoq-Вика посевная (конские бобы)- <i>Vicia faba</i> L.	152
Sariqlanuvchi xedizarum-Копеечник желтеющий- <i>Hedysarum flavescens</i> Regel et. Schmalh.	152
Siversan singregi (no 'xatak, kiyikpanja)-Астрагал Сиверса- <i>Astragalus Sieversianus</i> Pall.	153
Siytak bargli yantoq-Янтак рыхлолистный- <i>Alhagi sparsifolia</i> (shap.) Scop.	153
Soxta akas (o'ris daraxt)-Робиния ложноакация (белая акация)- <i>Robinia pseudorasaria</i> . L.	154
Soxta yantoq-Янтак ложный- <i>Alhagi pseudalhagi</i> MB. Desv.	155
Tikanli shirinmiya-Солодка шиповатая- <i>Glycyrrhiza aspera</i> Pall.	156
To'ldirilgan jinjak-Мимозка выполненная- <i>Lagonychium farctum</i> (Banks et Sol) Bibr. (<i>Prosopis stephaniana</i> Kunth).	156
Tulkisimon singrek (kiyikpanja)-Астрагал лисовидный- <i>Astragalus alopecias</i> Pall.	157
To'mtoq bargli sano-Кассия обратнояйцевидная (итальянская)- <i>Cassia obovata</i> Collad.	158
Turkiston patlog'i-Смирновия туркестанская- <i>Smirnowia turkestanica</i> Bunge.	158
Uzun urug'li afsonak-Термопсис длинноплодный- <i>Thermopsis dolichocarpa</i> V.Nikit.	159
Ural shirinmiyasi-Солодка уральская- <i>Glycyrrhiza uralensis</i> Fissh.	159

O'tmalovchi sebarga-Клевер ползучий- <i>Trifolium repens</i> L.	160
O'tloq mulkoki-Чина луговая- <i>Lathyrus pratensis</i> L.	161
O'tloq sebargasi-Клевер луговой- <i>Trifolium pratense</i> L.	161
Xmelsimon beda (yong'uchqa)-Люцерна хмелевидная- <i>Medicago lupulina</i> L.	162
Shakar yantoq-Янтар персидский (верблюжья колючка)- <i>Alhagi persarum</i> Boiss et Buhse.	162
Sharq yasmig'i-Чечевица восточная- <i>Lens orientalis</i> (Boiss) Schmalh.	163
Shahar yerchoyi-Гравилат городской- <i>Geum urbanum</i> L.	164
Sho'rxok shildirboshi (Shildirmiya, sho'r bo'yan)-Круглоплодник солончаковый- <i>Sphaerophyza salsula</i> (Pall) DC.	164
Yapon tuxumagi-Софора японская- <i>Sophora japonica</i> L.	165
Soxta kashtan-Конский каштан- <i>Aesculus hippocastanum</i> L.	166
Amur baxmali (barxat)-Бархат амурский- <i>Phellodendron amurense</i> Rupr.	167
Poyachil toshbaqao't (Toshbaqatol)-Цельнолистник стебельчатый (Рута обыкновенная)- <i>Haplophyllum pedicellatum</i> Bunge et Boiss.	167
Tekis bargli toshbaqao't (Toshbaqatol)-Цельнолистник исколотый- <i>Haplophyllum perforatum</i> Kar. et Kir.	168
Yer bag'irlovchi temirtikan-Якорцы приземные- <i>Tribulus terrestris</i> L.	169
Oddiy isiriq (adraspan, xazaraspan)-Гармала адраспан- <i>Peganum harmala</i> L.	169
Meliya azidarax-Мелия азедарах- <i>Melia azedarah</i> L.	170
Ildiz hosil qiluvchi toksikodendron-Токсикодендрон укореняющийся- <i>Toxisodendron radicans</i> (L.) Kuntze.	170
Oshlovchi skumpiya (kotinus)-Скумпия когтигрия- <i>Cotinus coggygria</i> Scop.	171
Oshlovchi totim (sirka daraxt)-Сумах дубильный- <i>Rhus coriaria</i> L.	171
Xandon pisto-Фисташка настоящая- <i>Pistacia vera</i> L.	172
Yavan totumi-Сумах яванский- <i>Rhus javanica</i> L.	172
Past bo'yli zig'ir-Лен низкий- <i>Linum humile</i> Mill. (<i>L. usitatissimum</i> L.)	173
Bibershteyn qontepar-Бибериштейния многонадрезная- <i>Biebersteinia multifida</i> DC.	174
Oddiy qarqaratumshuq-Аистник обыкновенный- <i>Erodium cicutarium</i> (L.) Her.	174
Roberta yoronguli-Герань Роберта- <i>Geranium Robertianum</i> L.	175
Tepalik yoronguli-Герань холмовая- <i>Geranium collinum</i> Steph.	175

Mayda gulli (yovvoyi) xina-Недотрога мелкоцветная- <i>Impatiens parviflora</i> DS.	176
Chatishgan istod (qayiqchagul)-Истод гибридный- <i>Polygala hybrida</i> DC. (<i>P.comosa</i> Schkuhr.)	176
Oddiy-chilonjiyda-Унаби обыкновенный- <i>Zizyphus jujuba</i> Mill.	177
Olxasimon itjumrut (frangula)-Франгуля ольховидная- <i>Frangula alnus</i> Mill.	177
Xristov qoratikani-Держи-дерево христовы-тернии- <i>Paliurus spina-christi</i> Mill. (<i>P. australis</i> Gartn.)	178
Yumshatuvchi tog‘jumrut (bug‘ibag‘r)-Крушина слабительная- <i>Rhamnus cathartica</i> L.	178
Jumritsimon chakanda(oq changal)-Облепиха крушиновидная- <i>Hippophae rhamnoides</i> L.	179
Ingichka bargli jiyda (qush jiyda, qarg‘a jiyda)-Лох узколистный- <i>Elaeagnus angustifolia</i> L.	179
Izabella toki-Виноград Изабелла- <i>Vitis labrusca</i> L.	180
Madaniy tok (uzum)-Виноград культурный- <i>Vitis vinifera</i> L.	180
Erkak qo‘ng‘irpo‘st-Кизил мужской- <i>Cornus mas</i> L.	181
Bibershteyn ko‘ktikani-Синеголовник Биберштейна- <i>Eryngium Biebersteinianum Nevski.</i> (<i>E. caucasicum</i> Trakv.)	181
Butenev zirasi-Буниум бутеневый- <i>Bunium chaerophylloides</i> (Regel. et Schmalh.) Drude	182
Golike arxarshairi-Шренкия голике- <i>Schrenkia Golickeana</i> (Regela et Schmalh) B.Fedtsch.	183
Dog‘li zangpoya-Болиголов пятнистый- <i>Conium maculatum</i> L.	183
Dorivor ukrop (Oq zira)-Фенхель обыкновенный- <i>Foeniculum Vulgare</i> Mill. (<i>F. Officinale</i>)	184
Yovvoyi sabzi-Морковь дикая- <i>Daucus carota</i> L.	184
Zibtorpa beklar o‘ti-Колюченосец зибторпа- <i>Echinophora sibthorpiana</i> Guss.	185
Zirai karmon (traxispermum)-Айован столовый- <i>Trachyspermum ammi</i> (L.) Sprague	186
Yirik kosachali ko‘ktikan (savatchali)-Синеголовник крупночашечный- <i>Eryngium macrocalyx</i> Schrenk.	186
Karelina shumanniyasi-Щуманния карелина- <i>Schumannia Karelinskii</i> Korov. (<i>Ferula Karelinskii</i> Bunge.)	187

Ko'xiston kavragi-Ферула кугистанская- <i>Ferula kuhistanica</i> Korov.	187
Qinli arxarshair-Шренкия влагалищная- <i>Schrenkia Vaginata</i> (Labad.) Fisch. et. Mey.	188
Qum sassiqqurayi-Дорема песчаная- <i>Dorema sabulosum</i> Litv.	188
Lemanni sabzisi-Пустынноморковник Леманна- <i>Eremodaucus lehmannii</i> Bunge.	189
Lentabargli buplerum-Володушка линейнолистная- <i>Bupleurum Linearifolium</i> DC. (<i>B.falcatum</i> L.)	189
Mayda qirqilgan kovrak (chair)-Ферула тонкорассеченная- <i>Ferula tenuisecta</i> Korov.	190
Oddiy arpabodiyon-Анис обыкновенный- <i>Anisum vulgare</i> Gaertn (<i>Pimpinella anisum</i> L.)	190
Oddiy qora zira-Тмин обыкновенный- <i>Carum carvi</i> L.	191
Oddiy petrushka-Петрушка обыкновенная- <i>Petroselinum crispum</i> (Mill) Nym.	192
Sariq zira-Тмин тминовый- <i>Cumin cyminum</i> L.	192
Sassiq kovrak (shair)-Ферула вонючая- <i>Ferula foetida</i> (Bunge) Regel.	193
Soxta kovrak (lambuta)-Ферула ложнореоселиновая- <i>Ferula pseudoreoselinum</i> (Regel et Schmalh) K.Pol.	193
Sunbul kovrak-Ферула мускусная- <i>Ferula Sumbul</i> (Kauffm.) Hook. (<i>F. moschata</i> K. Pol.)	194
Xashkbop shashir (yugon, tulkiqutuq)-Прянгос кормовой- <i>Prangos pabularia</i> Lindl.	194
Xushbo'y qarafs-Сельдерей пахучий- <i>Apium graveolens</i> L.	195
Xushbo'y shivit-Укроп пахучий- <i>Anethum graveolens</i> L.	195
Shair kovrak-Ферула шаир- <i>Ferula Varia</i> (Schrenk) Trantv. (<i>F. Schair Boz.</i>)	196
Ekma kashnich-Кишнец посевной (Кориандр)- <i>Coriandrum sativum</i> L.	197
Ekma pasternak-Пастернак огородный- <i>Pastinaca sativa</i> L.	197
Qoramajon daraxt-Бузина черная- <i>Sambucus nigra</i> L.	198
Oddiy bodrezak-Калина обыкновенная- <i>Viburnum opulus</i> L.	198
Qirqilgan to'ng'iztaroq-Ворсянка разрезная- <i>Dipsacus laciniatus</i> L.	199
Bo'yoqdr ro'yan-Марена красильная- <i>Rubia tinctorum</i> L.	199
Yopishqoq qumrio't (chakamug')-Подмаренник цепкий- <i>Galium Aparine</i> L.	200

Pomir-Oloy qumri o'ti-Подмаренник памиро алайский- <i>Galium pamira-alaicum</i> <i>Pobed.</i>	200
Olive gazak o'ti (yer bahosi)-Горечавка оливье- <i>Gentiana olivieri Griseb.</i>	201
Chiroyli tillabosh-Золототысячник красивый- <i>Centaureum pulchellum (sw.)</i> <i>Druce. (Erythraea ranosissima Pers.)</i>	201
Dag'al kanop (kendir)-Кендырь шероховатый- <i>Apocynum seabrum Russan.</i> <i>(Trachomitum scabrum. (Russan.) Robed.)</i>	202
Katta bo'rigul-Барвинок большой- <i>Vinca major L.</i>	203
Butasimon gomfokarpus-Гомфокарпус кустарниковый- <i>Gomphocarpus fruticosus (L.) Alt. fil.</i>	204
Yunon peripolkasi-Обвойник греческий- <i>Periploca graeca L.</i>	204
Qora shumtol-Ясень обыкновенный- <i>Fraxinus excelsior L.</i>	205
Oddiy sireniya-Сирень обыкновенная- <i>Syringa vulgaris L.</i>	206
Bir yillik qalampir (Garimdiri)-Перец однолетний- <i>Capsicum annuum L.</i>	206
Qora ituzum-Паслен черный- <i>Solanum nigrum L.</i>	207
Qora mingdevona-Белена черная- <i>Hyoscyamus niger L.</i>	207
Mayda moxovkosa-Белена крошечная- <i>Hyoscyamus pusillus L.</i>	208
Metalloid bangidevonası-Дурман метелоидный- <i>Datura meteloides DC.</i>	209
Nos tamaki-Табак махорка- <i>Nicotiana rustica L.</i>	210
Oddiy bangidevona- Дурман обыкновенный- <i>Datura stramonium L.</i>	210
Fizalissimon belladonna- Никандра физалисовидная (красавка обыкновенная)- <i>Nicandra physaloides (L.) Gaertn.</i>	211
Oddiy paq-paq-Физалис обыкновенная- <i>Physalis alkekengi L.</i>	211
Rus qarochingili (qalqon jingil)-Дереза русская- <i>Lycium ruthenicum Murr.</i>	212
Turkmaniston oq changali (qalqon jingil)- Дереза туркменская- <i>Lycium turcomanicum Turcz ex Miers.</i>	212
To'rsimon moxovkosa-Белена сетчатая- <i>Hyoscyamus reticulatus L.</i>	213
Chilim tamaki-Табак настоящий- <i>Nicotiana tabacum L.</i>	213
Shirin achchiq ituzum-Паслен сладкогорький- <i>Solanum dulcamara L.</i>	214
Ekma kartoshka-Паслен клубненосный- <i>Solanum tuberosum L.</i>	214
Ekma pomidor-Томат съедобный (помидор)- <i>Lycopersicon esculentum Mill.</i>	215
Eron ituzumi-Паслен персидский- <i>Solanum persicum Willd. Ex Roem.</i>	215

Govpechak (arxar o'ti)-Повой заборный- <i>Calystegia sepium</i> (L.) R.Br.	216
Dag'al tukli pechak (Mingbosh)-Вьюнок жестковолосистый- <i>Convolvulus subhirsutus</i> Regel. et Schmalh.	216
Karnaygul (chirmovgul)-Вьюн батат- <i>Ipomoea batatas</i> (L.) Lam.	217
Qo'ypechak (Dala pechak)-Вьюнок полевой- <i>Convolvulus arvensis</i> L.	217
Soxta pechak (mingbosh, partak)-Вьюнок ложнокантабрийский- <i>Convolvulus pseudocantabrica</i> Schrenk.	218
Bir ustunchali zarpechak (chirmovgul)- Повилика одностолбиковая- <i>Cuscuta monogyna</i> Vahl.	219
Lemann zarpechagi (chirmovguli)-Повилика Леманна- <i>Cuscuta Lehmanniana</i> Bunge	219
Dorivor iloncho'p (chumchuq o't)-Воробейник лекарственный- <i>Lithospermum officinale</i> L.	220
Ikki rangli mehrigiyox-Оносма двуцветная- <i>Onosma dichroanthum</i> Boiss.	221
Italiya xo'kiz tili-Анхуза итальянская- <i>Anchusa italicica</i> Retz.	221
Chipor kampirchopon-Триходесма седая- <i>Trichodesma incanum</i> (Bunge) DC.	222
Lenta bargli arnebiya-Арнебия линейнолистная- <i>Arnebia linearifolia</i> DC.	222
Oddiy ilon o't-Синяк обыкновенный- <i>Echium vulgare</i> L.	223
Bukilgan shumg'iya (egiluvchi)-Заразиха поникшая- <i>Orobanche cernua</i> Loefl.	223
Yegipt (Misr) shumg'iysi-Заразиха египетская- <i>Orobanche aegyptiaca</i> Pers.	224
Sho'rxokli ilonchop (qumso'ta)-Цистанхе солончаковая- <i>Cistanche Salsa</i> (C.A.Mey). G. Beck.	225
Hind kunjuti-Кунжут индийский- <i>Sesamum indicum</i> L.	225
Katta zubturum (bargizub)-Подорожник большой- <i>Plantago major</i> L.	226
Laxnanta zubturumi-Подорожник шерстистоцветковый- <i>Plantago lachnantha</i> Bunge.	226
Nashtar bargli bargizub-Подорожник ланцетный- <i>Plantago lanceolata</i> L.	227
Dorivor tizingul-Вербена лекарственная- <i>Verbena officinalis</i> L.	228
Ilohiy tog'murchi (Maryam daraxti, boshbarmoq)-Витекс священный (абрамово дерево)- <i>Vitex agnus-castus</i> L.	228
Bog' gulrayxoni-Чабер садовый - <i>Satureja hortensis</i> L.	229
Gangituvchi bozilbang (Bangi devona)-Зайцепуб опьяняющая- <i>Lagochilus inebrians</i> Bunge.	229

Gul tutqichli kiyiko 'ti-Зизифора цветоножечная- <i>Ziziphora suffruticosa</i> Pazij. (<i>Z.slinopodioides</i> Lam.)	230
Dog'siz ko 'kamaron-Шлемник непятнистый- <i>Scutellaria immaculate</i> Nevski. (<i>S.orientalis</i> L.)	231
Dorivor limono 't-Мелисса лекарственная- <i>Melissa officinalis</i> L.....	231
Yevropa bo 'rioyog 'i-Зюзник европейский- <i>Lycopus europaeus</i> L.....	232
Jeneva ayugasi-Живучка женевская- <i>Ajuga genevensis</i> L.....	232
Zarafshon jambuli-Тимьян зеравшанский- <i>Thymus zeravshanicus</i> Klok. (<i>Th. serpyllum</i> L.)	233
Ingichka cho 'l yalpiz-Зизифора тонкая- <i>Ziziphora tenuior</i> L.....	234
Kalta kosachali yalpiz-Зизифора короткочашечная- <i>Ziziphora brevicalyx</i> Juz.	235
Keng kosachali bozulbang-Зайцегуб широкочашечная- <i>Lagochilus platycalyx</i> <i>Schrenk. ex Fisch.</i>	236
Komarov tog' bo 'znochi (ajdarbosh)-Змееголовник комарова- <i>Dracocephalum</i> <i>Komarovii Lipsky.</i>	236
Qalampir yalpiz-Мята перечная- <i>Mentha piperita</i> L.	237
Qalpoqchali ko 'kamaron-Шлемник колпачковый- <i>Scutellaria galericulata</i> L.	237
Qatortishli devortagi o 'ti-Шандра очереднозубая- <i>Marrubium alternidens</i> Rech.	238
Mayda gulli tog' rayhoni-Душица мелкоцветная- <i>Origanum tytthanthum</i> Yontseh.	238
Mushuk zufo-Котовник кошачий- <i>Nepeta cataria</i> L.	239
Oddiy ustixudus-Черноголовка обыкновенная- <i>Prunella vulgaris</i> L.	240
Oq lamium (oq par, oq yasnotka)-Яснотка белая- <i>Lamium album</i> L.	240
Osiyo suv yalpizi (cho 'l yalpiz)-Мята азиатская- <i>Mentha asiatica</i> Boriss. (<i>M. longifolia</i>).	241
Paulsena bozulbangi-Зайцегуб Паульсена- <i>Lagochilus paulsenii</i> Brig.	241
Pashsha qo 'nmas marmarak (tikanli marmarak)-Шалфей колючий- <i>Salvia spinosa</i> <i>L.</i>	242
Poyani o 'rab oluvchi yasnotka-Яснотка стеблеобъемлющая- <i>Lamim amplexicaule</i> <i>L.</i>	242
Roya mallachoyi-Лаллемантция ройла- <i>Lallemantia Royleana</i> (Wall.) Benth.	243
Sigirquyuqsimon qo 'ziquloq-Зопник коровяковидный- <i>Phlomis thapsoides</i> <i>Bunge.</i>	244

Tez to'kluvchi teukrium-Дубровник скордевидный- <i>Teucrium skorodonia</i> Schreb.	244
Tog' qudusi-Чистец буквицецветный- <i>Stachys betoniciflora</i> Rupr. (<i>Betonica officinalis</i> L.)	245
Turkiston arslonquyutug'i-Пустырник туркестанский- <i>Leonurus turkestanicus</i> V.Krecz. et Kuprian.	245
O'tmon quddusi-Чистец лесной- <i>Stachys sylvatica</i> L.	246
Xarifgulli tog'quddusi-Чистец буквицецветный- <i>Stachys betoniciflora</i> Rupr.	247
Xushbo'y marmarak-Шалфей мускатный- <i>Salvia ssilarea</i> L.	247
Hisor ko'kamaroni-Шлемник гиссарский- <i>Scutellaria hissarica</i> B.Fedtsch.	248
Cho'l marmaragi-Шалфей пустынный- <i>Salvia deserta</i> Schang.	248
Efiopiya marmaragi-Шалфей эфиопский- <i>Salvia aethiopis</i> L.	249
Zich qo'ng'iroqgul-Колокольчик скученный- <i>Campanula glomerata</i> L.	249
Avstriya shuvog'i-Полынь австрийская- <i>Artemisia austriaca</i> Jacq.	250
Ashurboyev shuvog'i-Полынь Ашурбайева- <i>Artemisia Aschurbajevii</i> C. Winkl.	250
Baland bo'yli andiz (Qora andiz)-Девясил высокий- <i>Inula helenium</i> L.	251
Bibershteyn bo'ymadaroni-Тысячелистник биберштейна- <i>Achillea biebersteinii</i> . Afan.	252
Bir yillik shuvoq (Burgan,sassiq kapa)-Полынь однолетняя- <i>Artemisia annua</i> L.	253
Biritaniya andizi (chachalabosh)-Девясил британский- <i>Inula britannica</i> L.	253
Boshog'riq o'ti (bo'ymadaron)-Тысячелистник сантолинный- <i>Achillea santolina</i> L. (<i>Achillea kermanica</i> Gand.)	254
G'o'zasimon momiq (oqmomiq)-Шерстистолистникхлопковидный- <i>Lachnophyllum gossypinum</i> Bunge.	255
Gnaploidis gulband-Блошица сушеницевидная- <i>Pulicaria gnaphalodes</i> . (Vent.) Boiss.	255
Dala qirquyonjun-Жабник полевой- <i>Filago arvensis</i> L.	256
Dorivor qoqi (momaqaymoq, gulqoqi, qoqio't)-Одуванчик обыкновенный- <i>Taraxacum officinale</i> Wigg.	256
Dorivor moychechak (gazako't, qirqabarg moychechak)-Ромашка обрезанная- <i>Matricaria recutita</i> L. (<i>Chamomilla recutita</i> L.)	257
Dorivor tirnoqgul-Ноготки лекарственный- <i>Calendula officinalis</i> L.	257

Yovvoyi suttikan-Латук дикий- <i>Lactuca serriola</i> L.	258
Jussan shuvog'i (ermon)-Полын горькая- <i>Artemisia absinthium</i> L.	258
Iberiy bo'ztikani (bo'tako'zi)-Василек иберийский- <i>Centaurea iberica</i> Trev. ex Spreng.	258
Ittikanak, qoraqiz (uch bo'lak bargli qoraqiz)-Череда трехраздельная- <i>Bidens tripartita</i> L.	259
Kanada maydatojbargi (qulonquyruq)-Мелколепетник канадский- <i>Erigeron canadensis</i> L.	259
Keng tangachali karrak-Кузиния широкочешуйная- <i>Cousinia platylepis</i> Schrenk.	260
Ko'k bo'tako'z-Василек обыкновенный- <i>Centaurea cyanus</i> L.	261
Kultiasov takasoqoli-Козлобородник культиасова- <i>Tragopogon Kultiasovii M.Bp.t. (ruber S.G. Gmel.)</i>	261
Ko'p yillik dastargul-Маргаритка многолетняя- <i>Bellis perennis</i> L.	262
Ko'xiston solidogosi (Colidago)-Золотарник кухистанский- <i>Solidago kuhistanica M. Pop. ex Jux.</i>	262
Yopishqoq qariqiz-Репей войлочный (лопух)- <i>Arctium tomentosum</i> Mill.	263
Qizil burgan (qizil shuvog)-Полынь метельчатая- <i>Artemisia scoparia Waldst. et Kit.</i>	263
Qoratog' oqqunduzi-Мордовник каратавский- <i>Echinops karatavicus Regel. et Schmalh.</i>	264
Qumloq bo'znochi (o'lmaso't)-Бессмертник песчаный- <i>Helichrysum arenarium (L.) Moench.</i>	265
Yaxshilik tilovchi qushqo'nmas (Sariqgul)-Волчец благословенный- <i>Cnicus benedictus L.</i>	265
Mavtrak bargli gulband-Блошица шалфеелистная- <i>Pulicaria salviifolia</i> Bunge.	266
Maydatojbarg erigeron-Мелколепетник острый- <i>Erigeron acer</i> L.	266
Mingbargsimon tog' dastarboshi-Пижма тысячелистниковая- <i>Tanacetum pseudachillea C. Winkl.</i>	267
Nashtarsimon paxtatikon (latta tikon)-Бодяк ланцетный- <i>Cirsium lanceolatum</i> L. Skop.	267
Oddiy bo'yimadaron-Тысячелистник обыкновенный- <i>Achillea millefolium</i> L.	268
Oddiy g'o'zatikan-Дурнишник обыкновенный- <i>Xanthium strumarium</i> L.	269
Oddiy yopishqoqo't-Крестовник обыкновенный- <i>Senecio vulgaris</i> L.	269

Oddiy oqkarrak-Татарник обыкновенный- <i>Onopordon acanthium</i> L.	270
Oddiy oqqaldirmoq- Мать-мачеха обыкновенная- <i>Tussilago farfara</i> L.	270
Oddiy sachratqi (Sachratqi)-Цикорий обыкновенный- <i>Cichorium Intybus</i> L.	271
Oddiy silibum (dog'li targ'il silibum, olao't)-Остропестро обыкновенное (расторопша)- <i>Silybum marianum</i> (L.) Yaernt.	272
Oddiy shuvoq-Полынь обыкновенная (чернобыльник)- <i>Artemisia vulgaris</i> L.	272
Oq burgan-Полынь беловатая- <i>Artemisia leucodes</i> Schrenk.	273
Oqish burgan-Полынь ситниковидная- <i>Artemisia juncea</i> Kaz. et Kir.	273
Chachala bargli piretrum (Xrizantema)-Поповник патениелистный (Рамашник)- <i>Chrysanthemum parthenium</i> . Bernh.	274
Pushti peretrum-Поповник розовый- <i>Pyrethrum coccineum</i> (Willd) Worosch.	275
Samarcand bo'znochi (o'lmaso't)-Бессмертник самаркандинский- <i>Helichrysum maracandicum</i> M. Pop. ex Kirp.	275
Sariq ulkan andiz-Девясил крупный- <i>Inula grandis</i> Schrenk. (<i>Macrophylla</i> Kar et Kir.)	276
Sariq yopishqoqo't-Крестовник желтуха- <i>Senecio jacobaea</i> L.	276
Sivers ermoni (shuvogi)-Полынь сиверса- <i>Artemisia sieversiana</i> Willd.	277
Soyabonli soxtaxandeliya-Псевдоханделия зонтичная- <i>Pseudohandelia umbellifera</i> (Boiss.) Tzvel.	278
Tekis bargli sodak-Большеголовник цельнолистный (левзея)- <i>Rhaponticum integrifolium</i> C. Winkl.	278
Tovalgi bargisimon bo'ymadaron (Dastarbosh)-Тысячелистник таволголистный- <i>Achillea filipendulina</i> Lam.	279
To'q qizil exinatsia-Эхинация пурпуровая- <i>Echinacea purpurea</i> (L.) Moench	279
Turkiston zarqulog'i-Лепидолопсис туркестанский- <i>Lepidolopsis turkestanica</i> Regel. et Schmalh (<i>Crossostephium turkestanicum</i> Regel. et Schmalh).	280
Uzun ko'pparli quruqgul-Сухоцветник длиннохолковый- <i>Xeranthemum longipapposum</i> F. et M.	281
O'rmalovchi kakra-Горчак ползучий- <i>Acroptilon repens</i> (L.) DS.	281
Xondirilla qumsaqichi-Хондрилла ситниковая- <i>Chondrilla juncea</i> L.	282
Chalabutasimon yurineya-Наголоватка полукустарниковая- <i>Jurinea suffruticosa</i> Regel.	282
Chiziqli qarg'atirnoq-Кельпиния линейная- <i>Koelpinia linearis</i> Pall.	283

Ezilgan bo'tako'z-Василек придавленный- <i>Centaurea depressa</i> Bieb.	284
Ekma maxsar-Сафлор красильный- <i>Carthamus tinctorius</i> L.	284
Ekma sutcho'p (salat)-Латук посевной- <i>Lactuca sativa</i> L.	285
Eron (Fors) shuvog'i-Полынь персидская- <i>Artemisia persica</i> Boiss.	285
Yuksak bo'ymadaron-Тысячелистник благородный- <i>Achillea nobilis</i> L.	286
Yaproqchali moychechak-Мелкоголовник пластинчатый- <i>Matricaria lamellata</i> Bunge.	286
Kesselring savrinjoni-Безвременник кессельринга- <i>Colchicum kesselringii</i> Regel.	287
Sariq savrinjon-Безвременник желтый- <i>Colchicum luteum</i> Boker.	287
Germaniya gulisafsari (qurtqasoch)-Ирис германский- <i>Iris germanica</i> L.	288
Jung'or gulsafsar (qurtqasoch)-Ирис джунгарский- <i>Iris songarica</i> Schrenk.	289
Ifloslantiruvchi ilongul (<i>Gladiolus</i>)-Шпажник засоряющий- <i>Gladiolus segetum</i> Ker. Jawe.	289
Olatog' za'faroni- Шафран алатавский - <i>Crocus alataicus</i> Regel. et Semen.	290
Greig lolasi-Тюльпан грейга- <i>Tulipa greigii</i> Regel.	290
Korolkov lolasi-Тюльпан королькова- <i>Tulipa korolkovii</i> Regel.	291
Olga jumaguli (xolmon, qo'zilola)-Рябчик Ольги- <i>Fritillaria Olgae</i> Vved.	291
Poyali boychechak (Mazanak)-Гусиный лук стебельчатый- <i>Gagea stipitata</i> Merckl.	292
Turkiston lolasi-Тюльпан туркестанский- <i>Tulipa turkestanica</i> Regel.	292
Olg'i shirachi-Шириш ольги- <i>Eremurus Olgae</i> Regel.	293
Regel shirachi-Шириш Регеля- <i>Eremurus Regelii</i> . Vved.	293
Ulkan shirach-Шириш мощный- <i>Eremurus robustus</i> Regel.	294
Qoratog' piyozi-Лук каратавиский- <i>Allium karataviense</i> Regel.	294
Osh piyoz-Лук репчатый- <i>Allium cepa</i> L.	295
Sarimsoq (sasiq piyoz)-Лук чеснок- <i>Allium sativum</i> L.	297
Seversov piyozi (olg'i)-Корольковия северцова- <i>Korolkovia Severtzovii</i> Regel.	297
Suvarov piyozi-Лук суворова- <i>Allium suworowii</i> Regel.	298
Uzumsimon piyoz-Лук виноградный- <i>Allium ampeloprasum</i> L.	298
Viktor omonqorasi (qoraqobig'i)-Унгерния Виктора- <i>Ungernia Victoris</i> Vved. Ex Artjushenko.	299

Konstantinopal nargisi-Нарцисс константинопольский- <i>Narcissus tazetta</i> L.....	299
Seversov omonqorasi (qoraqobog'i)-Унгерния Северцова- <i>Ungernia Sewertzowii</i> (Regel) B.Fedtsch.....	300
Tatar chuchmomasi-Иксиолирион татарский- <i>Ixiolirion tataricum</i> (Pall.) Herb.....	300
Seversov polugonatumi (zig'ir)-Купена Северцова- <i>Polygonatum sewertzowii</i> Regel.....	301
Dorivor sarsabil-Спаржа аптечная- <i>Asparagus officinalis</i> L.....	301
Kalta bargli sarsabil-Спаржа каротколистная- <i>Asparagus brachyphyllus</i> Turcz.	302
Keng bargli epipaktis-Дремлик широколистный- <i>Epipactis latifolia</i> (L.) All. (<i>E.helleborine</i> (L.) Gratz.)	302
Soyasevar solab-Ятрышник тенистый- <i>Orchis umbrosa</i> Kar. et Kir.	303
Tuxumsimon listera-Тайник яйцевидный- <i>Listera ovata</i> (L.) R.Br.	303
Nevski yakani-Ситник невского- <i>Juncus Nevskii</i> Lam.	303
G'uj hilol (salomalaykum, yakan)-Сыть скученная- <i>Cyperus glomeratus</i> L.	304
Oddiy qilich o't (shamshir o't)-Меч трава обыкновенная- <i>Cladium mariscus</i> (L.) Roved.	304
Yumaloq xilol (slom alaykum, yakan)-Сыть круглая- <i>Cyperus rotundus</i> L.	305
Qon to'xtatuvchi buzoq tili-Бородоч кровоостанавливающий- <i>Andropogon ischaemum</i> L. (<i>Bothriochloa ischaemum</i> L. Keng)	306
Jonson g'umay-Сорго аллепское (джухары) (Джонсона трава)- <i>Sorghum halepense</i> (L.) Rers.	306
Qizil qayoq (Botoo'o't)-Императа цилиндрическая- <i>Imperata cylindrica</i> (L.) Beauv.	307
Quyon аgra-Ячмень заячий- <i>Hordeum Leporinum</i> Zink. (<i>H.murinum</i> L.)	307
Makkajo'xori-Кукуруза миас- <i>Zea mays</i> L.	307
O'rmalovchi bug'doyiq-Элитригия ползучая (пырей)- <i>Elytrigia repens</i> (L.) Webski.	309
Ekma suli-Овес посевной- <i>Avena sativa</i> L.	309
Ekma sholi-Рис посевной- <i>Oryza sativa</i> L.	310
Ekma yumshoq bug'doy-Пшеница мягкая- <i>Triticum aestivum</i> L.	310
Soyabonli suvpiyoz-Сырак зонтичный- <i>Butomus umbellatus</i> L.	311
Zubturimsimon bulduruqo't-Частуха подорожниковая- <i>Alisma plantago aquatica</i> L.	311

Uchbargli nayzabarg-Стрелолист трилистный- <i>Sagittaria trifolia</i> L.	312
Suzuvchi g'ijjak-Рдест плавающий- <i>Potamogeton natans</i> L.	312
Kichik gulso‘ta-Взморник маленький- <i>Zostera minor</i> (Cavol) Nolte ex Roth.	313
Albert itkuchalasi (qoraquloq)-Эминиум альберта- <i>Eminium alberti</i> (Regel) Engl.	313
Korolkov kuchalasi-Аронник королькова- <i>Arum korolkovii</i> Regel.	313
Lemani itkuchalasi (kuchala, qoraquloq)-Эминиум лемана- <i>Eminium Lehmannii</i> (Bunge) O.Kuntze.	313
Oddiy igir-Аир балотный (Акорус)- <i>Acorus calamus</i> L.	314
Keng bargli qo‘g‘a-Рогоз широколистный- <i>Typha latifolia</i> L.	315
Kichik qug‘a-Рогоз малый- <i>Typha minima</i> Funek.	315
MUQADDIMA	316
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	318

DO YOU OR YOUR
FAMILY MEMBERS HAVE

RHEUMATOID ARTHRITIS?

WE CAN HELP YOU FIND A TREATMENT

THAT WORKS FOR YOU.

Call 1-800-221-4641 or write to:

PBS Health

1000 K Street, N.W.
Washington, D.C. 20004

or visit our website at:

M.T.Isag‘aliyev, S.Meliboyev, Z.J.Isomiddinov, M.V.Obidov

DORIVOR O‘SIMLIKLAR BIOLOGIYASI VA EKOLOGIYASI

Muharrir: R.M.Umurzokov

Texnik muharrir: R.Axmedov

Sahifalovchi: N.Shaxobidinova

Bosishga ruxsat etildi: 18.10.2021-yil. Nashriyot bosma tabog‘i – 21,75.


Shartli bosma tabog‘i – 10,815. Bichimi 84x108 1/16.

Adadi 200.

«Poligraf Super Servis» MChJ

Manzil: 150100, Farg`ona viloyati, Farg`ona shahri,

Aviasozlar ko`chasi, 2-uy.



«ClassiC»
nashriyoti

ISBN: 978-9943-7755-1-0

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-7755-1-0.

9 789943 775510